BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

6(1)
2026



ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2026-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 6, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям **«Педагогика»** и **«Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodological journal
№ 6, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	UMURZOQOV Feruzjon Farxodovich	Salbiy axborot ta’siriga qarshi assertivlikni shakllantirish yo‘llari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	RADJAPOVA Feruza Abdullayevna	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy konsepsiyasi	13
	QOSIMOV Shavkat Urolovich	Talabalarning pedagogik faoliyatiga tayyorlash bosqichlari jarayondagi amaliyotlarni roli va ta’sir etuvchi omillar	18
	NURULLAYEV Abduhamid Ro‘zimboyevich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda nazariya va amaliyot jarayoni uyg‘unligi	23
	ERNAZAROV Alisher Ergashevich, ABDULLAYEVA Mohira Amanovna	Intellektual rivojlanish va shaxsiy barkamollik o‘rtasidagi didaktik bog‘lanish	27
	ABDULLAYEVA Muyassar Isakovna	Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashda neyrotexnologiyalardan foydalanish	32
	ADIZOVA Sevara Yusupovna	Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak muhandis-texniklarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	38
	AKBAROVA Feruza Uktamjonovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikr g‘oyalaridan foydalanishning mavjud holati	44
	ALIYEV Islambek Tursinbayevich	Mustaqil ta’lim asosida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari	48
	ALIYEVA Xurshida Shuhrat qizi	Tarix ta’limida STEM-integratsiyalashgan ta’lim metodikasining samaradorligi	53
	AMINOV Pahlavon Hamid o‘g‘li	Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining didaktik jarayonlarini tashkil etish shart-sharoitlari	59
	DEHQONOVA Mushtariy Sherali qizi	Psixodidaktikaning shakllanishi va zamonaviy ta’limdagi o‘rni	66
	DJURAYEVA Dilfuza Nuriddin qizi	Redjo pedagogikasi orqali bolalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish	71
	DURDIYEV Sirojiddin Maqsudbekovich	Harbiylarda mas’uliyat hissini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	75
	ERGASHOVA Muxlisa Azizjon qizi	Oila qurish motivlari fenomenining nazariy-metodologik jihatda tadqiq etilishi	80
	G‘AYBULLAYEV Quvonchbek G‘olibjon o‘g‘li	Talabalar shaxsini shakllantirishda qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlari	84
	GENJEEVA Ulzada Tanatar qizi	Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	89

	IBRAGIMOVA Gulzoda Nabiyevna, AKROMOV Ilxom Anvar o‘g‘li	Talabalarni o‘yinli texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari	93
	IKRAMOVA Kamola Shavkatovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartlari	97
	ISCHANOV Eldorbek G‘ulomdjanovich	O‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni empirik o‘rganish	100
	JUMANOVA Xafiza Xoliqulovna	Tarbiya fani asosida o‘quvchilarda huquqiy bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy tahlili	103
	JUMAYEVA Azizabonu Mo‘min qizi	Talabalarni refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy va nazariy asoslari	109
	AXMEDOVA Maftuna Kozimjon qizi	CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarining amaliy qo‘llanilish metodikasi	115
	XAKIMOVA Yoqutxon Toxirjon qizi	Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosining pedagogik va psixologik tahlili	120
	XUMMAMATOVA Kamola Xayrullayevna, ERNAZAROVA Nazira Xaqberdiyevna	Kredit-modul tizimi sharoitida talabalar kasbiy tayyorgarligiga individual yondashuvning pedagogik asoslari	125
	YO‘LDOSHEVA Nazokat G‘ulomjonovna	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning xorijiy tilda og‘zaki nutq faoliyatiga motivatsiyasi: psixologik nazariyalar tahlili va ingliz tili ta’limiga tatbiqi	130
	BARATOV Dilshod Doniyarovich, SHARIPOVA Dilnora Buxhonovna	Talabalarning innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini baholash metodikasi	135
	BO‘RIYEVA Mahbuba Shavkatovna	Zamonaviy oila transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik tahlili	139
	BOYMURODOVA Feruza Ziyot qizi	The impact of background music on study efficiency among undergraduate students in higher education	143
	CHORIYEV Jo‘raqul G‘afforovich	Konvergent yondashuv asosida millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning integrativ pedagogik modeli	148
	SHAMSIDDINOVA Elmira Muxammadjanovna	Bo‘lajak pedagoglarda kreativlik shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlar	153
	OTAJONOVA Maftuna Sultonmurodovna	Ta’lim jarayonida altruistik kompetensiyani shakllantirishning innovatsion metodlari	160
	PULOTOV Adxam Abduraxmonovich	Innovatsion ta’lim metodlarining talabalarda konstruksiyalash kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli	167
	QARSHIYEV Javohir Murataliyevich	O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni intellektual tizimlar yordamida rivojlantirish	171
	QUDRATOVA Maftuna Komil qizi	Ta’lim mazmuni orqali o‘quvchilarda fuqarolik ongini shakllantirish yo‘llari	176

	QURBONOVA Nafisa Ilhom qizi	Zamonaviy dasturiy paketlar yordamida optik hodisalarni modellashtirish – talabalarning kognitiv faolligini oshirish omili sifatida	179
	RAXMATOV A’zam Ashur o‘g‘li	Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	186
	SHARIPOVA Lobar Olimovna	Oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari	190
	SUROPOV Ixtiyor Maydonovich	Ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi	194
	TESHAYEVA Dilnoza Chori qizi	Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ekologik mas’uliyatni rivojlantirishning pedagogik mazmuni	202
	TOLIPOVA Ozoda Ikromovna	Ta’lim jarayonida refleksiya va o‘zini baholash metodlarining talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi ahamiyati	209
	UMAROVA Sitora Muxlisovna, SHARIFOVA Mahtob Murodjonovna	Ayollar ta’limi masalalari mazmuni	214
	YULDASHEVA Malohat Erkinovna	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish mexanizmlari	218
	УСМАНОВА Шахло Шавкатовна	Роль психических состояний юных шахматистов в соревновательном процессе	223
	ХАЙИТОВ Жўрабек Жонпўлотович	Оғир тарбияли ёшларда радикализмга муносабатнинг ўзгариши: педагогик коррекция имкониятлари	232
	AVEZOV Alijon Xayrulloyevich, BAXSHILLOYEVA Aziza Azizjon qizi	Kredit-modul tizimida majburiy fanlarni o‘qitishda talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirish metodikasi	237
	ERKINOV Ramziddin Tulqin o‘g‘li	Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish va natijalar tahlili	241
	MO‘MINOVA Dilrabo Murodillayevna	Deviant xulq-atvorli o‘smirlarni darsdan tashqari mashg’ulotlarga jalb qilishning psixologik samaradorligi	247
	ISLOMOVA Mehriniso Mirzayevna	Interfaol ta’lim metodlari orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	251
	NORMURODOV Sherzod Boymurodovich	Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosida kasbiy kompetensiyalarni boshqarish modeli	256
	XAYDAROV Xurshid Ismatovich	O‘qituvchilarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, tamoyillari va pedagogik shart-sharoitlari	260
	XAKIMOV Shuxrat Shodiyevich	O‘smirlar ijtimoiy faolligini shakllantirishda sport psixologiyasining o‘rni	267

DOLZARB MAVZU

SALBIY AXBOROT TA’SIRIGA QARSHI ASSERTIVLIKNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Umurzoqov Feruzjon Farxodovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi
feruzfarkhodovich48@gmail.com

Maqolada assertiv xulq-atvorning shaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilib, u orqali insonning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, manipulyatsiyaga qarshi turish va shaxsiy chegaralarni himoya qilish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, assertivlikni rivojlantirishning amaliy yo‘llari, jumladan, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, emotsional barqarorlikni ta’minlash hamda media savodxonlikni oshirish masalalari to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *assertivlik, assertiv xulq-atvor, salbiy axborot ta’siri, manipulyatsiya, mafkuraviy immunitet, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik.*

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ АССЕРТИВНОСТИ ПРОТИВ НЕГАТИВНОГО ИНФОРМАЦИОННОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ

В статье обосновывается роль ассертивного поведения в формировании идеологического иммунитета личности. Подчёркивается, что ассертивность способствует развитию самостоятельного мышления, противостоянию манипуляциям и защите личных границ. Вместе с тем рассматриваются практические пути развития ассертивности, включая формирование критического мышления, развитие коммуникативных навыков, обеспечение эмоциональной устойчивости, а также повышение медиаграмотности.

Ключевые слова: *ассертивность, ассертивное поведение, негативное информационное воздействие, манипуляция, идеологический иммунитет, критическое мышление, медиаграмотность.*

WAYS TO DEVELOP ASSERTIVENESS AGAINST NEGATIVE INFORMATION INFLUENCE

The article substantiates the role of assertive behavior in developing ideological immunity in individuals. It emphasizes that assertiveness helps enhance independent thinking, resist manipulation, and protect personal boundaries. At the same time, the paper discusses practical ways of developing assertiveness, including fostering critical thinking, improving communication skills, ensuring emotional stability, and increasing media literacy.

Keywords: *assertiveness, assertive behavior, negative information influence, manipulation, ideological immunity, critical thinking, media literacy.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda axborot makoni inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan. Raqamli transformatsiya jarayonlari, davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi, ta’lim tizimining yangilanishi hamda ochiq axborot siyosatining kengayishi fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini keskin oshirdi. Shu bilan birga, axborot oqimining ortishi salbiy va manipulyativ mazmundagi xabarlarning ham keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish hamda yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qilish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun [1], “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [2] doirasida yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Zamonaviy axborot makonida turli ijtimoiy

tarmoqlar va internet platformalari orqali tarqalayotgan noto‘g‘ri, biryoqlama yoki maqsadli manipulyativ axborotlar shaxs ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda insonda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va unga nisbatan ongli munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Aynan shu jarayonda assertiv xulq-atvor muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘lib, u shaxsning o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etishi, bosimlarga berilmasligi hamda mustaqil qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida interfaol metodlarni joriy etish, talabalarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, media savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish orqali yoshlar orasida assertivlikni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘z navbatida ularning salbiy axborot ta’sirlariga nisbatan immunitetini kuchaytiradi. Shu bois, salbiy axborot ta’siriga qarshi kurashishda nafaqat huquqiy va tashkiliy choralar, balki shaxsning ichki psixologik barqarorligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada assertivlikni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘llari tahlil qilinib, uning mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Salbiy axborot ta’siriga qarshi assertivlikni shakllantirish masalasi psixologiya, pedagogika, kommunikatsiya nazariyasi hamda media savodxonlik yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu sohadagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar asosan uch asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratgan: assertivlikning psixologik asoslari, axborot ta’siri va manipulyatsiya mexanizmlari hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari. Birinchi yo‘nalishda R. Alberti va M. Emmonsning “Your Perfect Right: Assertiveness and Equality in Your Life and Relationships” asarida assertivlik shaxsning o‘z huquq va fikrlarini himoya qilish, shu bilan birga boshqalarning huquqlarini hurmat qilish qobiliyati sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv assertivlikning agressiv va passiv xulq o‘rtasidagi muvozanat ekanligini asoslaydi

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Salbiy axborot ta’siriga qarshi assertivlikni shakllantirish masalasi zamonaviy psixologiya, pedagogika va media savodxonlik yo‘nalishlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida o‘rganilmoqda. Mavzuga oid adabiyotlarda asosan shaxsning axborotni qabul qilish jarayoni, manipulyatsion ta’sirlarga berilish mexanizmlari hamda ularga qarshi psixologik himoya vositalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tahlillarga ko‘ra, assertivlik shaxsning o‘z fikrini erkin, aniq va hurmat doirasida ifoda etish qobiliyati sifatida qaraladi. Bunday xulq-atvor individning passiv yoki agressiv reaksiyalardan voz kechib, muvozanatli va ongli pozitsiyani tanlashiga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning ijtimoiy muhitda barqarorligini ta’minlaydi. Adabiyotlarda salbiy axborot ta’siri ko‘pincha noto‘g‘ri, biryoqlama yoki manipulyativ mazmundagi xabarlar orqali shaxs ongiga ta’sir etishi, uning qaror qabul qilish jarayonini cheklashi bilan izohlanadi. Shu sababli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, media savodxonlikni oshirish shaxsni axborot oqimida mustaqil yo‘l topa olishiga yordam berishi, turli axborot manbalarini solishtirish va ularning ishonchliligini baholash imkonini berishi ta’kidlanadi. Bu esa manipulyativ ta’sirlarga nisbatan psixologik immunitetni kuchaytiradi. Adabiyotlarda yana bir muhim jihat sifatida emotsional barqarorlik va shaxsiy chegaralarni belgilash ko‘nikmalari qayd etiladi. Bu ko‘nikmalar insonning tashqi bosimlarga nisbatan chidamliligini oshirib, o‘z qarashlarini himoya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot makonida salbiy axborot ta’siri tobora kuchayib borayotgan sharoitda shaxsning psixologik barqarorligi va mustaqil fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali tarqalayotgan manipulyativ xabarlar inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli darajada ta’sir etmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, assertiv xulq-atvor bunday salbiy ta’sirlarga qarshi samarali psixologik himoya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Assertivlik shaxsga o‘z fikrini aniq va asosli ifoda etish, bosim va manipulyatsiyaga “yo‘q” deya olish hamda o‘z qarashlarini himoya qilish imkonini beradi. Bu esa shaxsning ichki ishonchini mustahkamlab, uning ijtimoiy muhitda faol va mustaqil pozitsiya egallashiga yordam beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shuningdek, tahlillar davomida tanqidiy fikrlash va media savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda salbiy axborot ta’siriga berilish darajasi ancha past ekanligi kuzatildi. Bunday shaxslar axborotni turli manbalardan solishtirish, uning ishonchliligini baholash va manipulyativ elementlarni ajratib olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, emotsional barqarorlik va shaxsiy chegaralarni belgilash ko‘nikmalari ham assertivlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladigan shaxs tashqi ta’sirlarga nisbatan kamroq sezgir bo‘ladi va oqilona qaror qabul qiladi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, assertivlikni rivojlantirish salbiy axborot ta’sirini kamaytirish va shaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng muhim psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularni zamonaviy axborot tahdidlaridan himoya qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy jahon ilmiy manbalarida salbiy axborot ta’siri murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin qilinishi mumkin. U tarkibida noto‘g‘ri ma’lumotlar, ataylab buzib ko‘rsatilgan axborot, propaganda hamda raqamli platformalar orqali tarqaladigan emotsional ta’sirga ega xabarlar bo‘lishi ehtimoli bor. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi axborot oqimining tezlashishiga olib kelgan bo‘lib, bu esa insonlarning turli xil ishonchsiz axborotlarga duch kelish xavfini oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, assertivlik xalqaro psixologik adabiyotlarda shaxsning o‘z fikrini aniq, ishonchli va hurmat doirasida ifoda eta olish qobiliyati sifatida tushuntiriladi. [3]. U passiv va agressiv xulq o‘rtasidagi muvozanat sifatida qaralishi mumkin.

Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, assertiv shaxslar tashqi bosimga nisbatan barqarorroq bo‘lishi va mustaqil qaror qabul qilishga moyilroq bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, ilmiy manbalarda assertivlik tug‘ma xususiyat emas, balki o‘rganish orqali shakllanishi mumkin bo‘lgan ko‘nikma sifatida ko‘rsatiladi. Uni rivojlantirish uchun turli treninglar, kommunikativ mashqlar va amaliy vaziyatlarga asoslangan o‘qitish usullari qo‘llanilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuvlar insonning “yo‘q” deyish, shaxsiy chegaralarni himoya qilish va ijtimoiy bosimga qarshi turish qobiliyatini kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Media savodxonlik ham salbiy axborot ta’siriga qarshi muhim omillardan biri sifatida qayd etiladi. Ayrim ilmiy qarashlarga ko‘ra, media savodxonligi rivojlangan shaxslar axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchliligini tekshirish va manipulyativ elementlarni ajratib olishga ko‘proq qodir bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning noto‘g‘ri axborotga nisbatan himoyasini kuchaytirishi ehtimolini oshiradi. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash ham axborotni avtomatik qabul qilmasdan, uni tahlil qilish va baholash imkonini beruvchi muhim ko‘nikma sifatida ko‘rsatiladi.

Ba’zi tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash rivojlangan shaxslar axborotdagi nomuvofiqliklarni tezroq sezishi mumkinligi aytiladi. Emotsional boshqaruv masalasi ham muhim omil sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, hissiy holatlarni nazorat qila oladigan shaxslar provokatsion yoki emotsional ta’sirga ega axborotga nisbatan kamroq impulsiv reaksiya ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, insonlar ko‘pincha atrofdagilar xulqini kuzatish orqali o‘rganishi ehtimoli bor. Shu sababli, media muhitdagi salbiy namunalar shaxs qarashlariga ta’sir qilishi mumkinligi taxmin qilinadi. Biroq, ijobiy namuna va maxsus ta’limiy yondashuvlar orqali bu ta’sirni kamaytirish mumkinligi ham ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi [4,5].

№	Tahlil yo‘nalishi	Asosiy mazmuni	Natija
1.	Salbiy axborot ta’siri	Internet va ijtimoiy tarmoqlarda manipulyativ va noto‘g‘ri axborotlarning keng tarqalishi	Shaxs ongiga ta’sir kuchayadi, tanqidiy fikrlash zarurati ortadi
2.	Assertivlikning roli	O‘z fikrini erkin, lekin hurmat bilan ifoda etish qobiliyati	Manipulyatsiyaga qarshi psixologik himoya kuchayadi
3.	Tanqidiy fikrlash	Axborotni tahlil qilish, solishtirish va baholash ko‘nikmasi	Salbiy axborotni ajratib olish imkoniyati oshadi
4.	Media savodxonlik	Axborot manbalarini tushunish va ishonchliligini baholash	Noto‘g‘ri axborotga berilish darajasi kamayadi
5.	Emotsional barqarorlik	Hissiyotlarni boshqarish va bosimga chidamlilik	Oqilona qaror qabul qilish kuchayadi
6.	Shaxsiy chegaralar	“Yo‘q” deyish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish	Tashqi bosim va manipulyatsiyadan himoya kuchayadi
7.	Umumiy natija	Assertivlik va psixologik ko‘nikmalar majmui	Mafkuraviy immunitet shakllanadi

Muhokama. Ta’lim tizimlarida assertivlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan interfaol usullar - rol o‘yinlari, guruhli muhokamalar va kommunikativ mashqlar - shaxsning o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmasini oshirishi mumkinligi aytiladi. Bu esa real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni yengillashtirishi ehtimoldan xoli emas. Salbiy g‘oyalarga qarshi assertivlikni qo‘llash usullari: salbiy yoki manipulyativ fikrlar ko‘pincha shaxsning ongiga, hissiy holatiga hamda qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida assertiv xulqni bosqichma-bosqich qo‘llash qayd etiladi. Birinchi bosqichda shaxs “passiv qabul qilishdan voz kechish”ga asoslangan assertivlikni qo‘llashi ehtimoliy hisoblanadi. Bu holatda u berilayotgan axborotni darhol qabul qilmasdan, “bu fikr asosli bo‘lishi mumkinmi?”, “uning manbasi qanchalik ishonchli?” kabi

ichki tahliliy savollar orqali tanqidiy yondashuvni boshlaydi. Bu bosqichning asosiy vazifasi – avtomatik ishonchni to‘xtatishdan iborat. Ikkinchi bosqichda “aniqlashtiruvchi assertivlik” ishlatilishi mumkin. Ushbu usulda shaxs salbiy fikr yoki bosimga duch kelganda uni darhol rad etmasdan, qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi. Masalan, “Siz bu fikrni qaysi manbaga tayangan holda bildiryapsiz?” yoki “Bunga qanday dalil mavjud?” kabi savollar orqali axborotning asosini tekshiradi. Bu yondashuv manipulyatsion ta’sirni susaytirishi mumkin. Uchinchi bosqichda “chegaralarni belgilovchi assertivlik” muhim o‘rin tutadi. Bu usulda shaxs o‘z pozitsiyasini aniq, ammo hurmatli tarzda ifodalaydi. Masalan: “Men bu fikrga qo‘shila olmayman” yoki “Bu qarash menga mos kelmaydi” kabi ifodalar orqali o‘z ichki chegaralarini himoya qiladi. Bu jarayonda agressivlikka o‘tmasdan, qat’iy pozitsiyani saqlash muhim hisoblanadi. To‘rtinchi bosqichda “tahliliy qayta ko‘rib chiqish assertivligi” qo‘llanilishi mumkin. Bunda shaxs olingan axborotni mustaqil ravishda tahlil qiladi, uni boshqa manbalar bilan taqqoslaydi va mantiqiy xulosaga kelishga harakat qiladi. Bu bosqichda assertivlik nafaqat muloqot, balki fikrlash darajasida ham namoyon bo‘ladi. Beshinchi bosqich sifatida “hissiy boshqaruvga asoslangan assertivlik” muhim sanaladi. Salbiy g‘oyalar ko‘pincha qo‘rquv, g‘azab yoki bosim kabi hissiyotlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli shaxs o‘z emotsiyalarini nazorat qilib, tezkor reaksiya o‘rniga xotirjam va asoslangan javob berishga intiladi. Bu manipulyativ ta’sir kuchini kamaytirishi mumkin. Oltinchi bosqichda esa “ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga tayangan assertivlik” qo‘llanilishi ehtimol. Bunda shaxs o‘z fikrini mustahkamlash uchun ishonchli manbalar, mutaxassislar qarashlari yoki jamoaviy muhokamalarga tayanadi. Bu yondashuv individual bosimni kamaytirib, qarorning barqarorligini oshiradi. Umuman olganda, salbiy g‘oyalarga qarshi assertivlik bir martalik harakat emas, balki ketma-ket rivojlanadigan jarayon bo‘lishi mumkin. U avval tanqidiy qabul qilmaslikdan boshlanib, keyin savol berish, chegarani belgilash, tahlil qilish va emotsiyani boshqarish bosqichlari orqali shakllanadi. Natijada shaxsda mustaqil fikrlash va mafkuraviy barqarorlik rivojlanishi ehtimoli ortadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlillar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy axborot jamiyatida salbiy g‘oyalar, noto‘g‘ri ma’lumotlar hamda manipulyativ mazmundagi axborot oqimlarining kengayishi shaxs ongiga, uning emotsional holatiga va qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborotning juda tez tarqalishi sharoitida insonning har bir xabarni tanlab qabul qilish, uni tahlil qilish va baholash qobiliyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, assertivlik shaxsni salbiy axborot ta’siridan himoya qiluvchi muhim psixologik va kommunikativ mexanizm sifatida baholanadi. Assertiv xulq-atvor insonning o‘z fikrini aniq, ishonchli va hurmat doirasida ifoda etishiga yordam berib, uni tashqi bosim, stereotiplar va manipulyativ ta’sirlarga nisbatan barqarorroq qiladi. Bu esa shaxsning ichki pozitsiyasini mustahkamlashga va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, assertivlik bir martalik ko‘nikma emas, balki bosqichma-bosqich shakllanadigan jarayon bo‘lib, u bir necha muhim elementlarni o‘z ichiga oladi.

Jumladan, axborotni darhol qabul qilmasdan uni tahlil qilish, savollar berish orqali aniqlik kiritish, manbalarni tekshirish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish hamda emotsional reaksiyalarni boshqarish kabi ko‘nikmalar ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, assertivlikni rivojlantirish tanqidiy fikrlash va media savodxonlik bilan bevosita bog‘liq ekanligi ham aniqlanadi. Chunki axborot manbalarini tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash va manipulyativ elementlarni ajratib olish ko‘nikmalari rivojlangan shaxslarda salbiy axborot ta’siriga berilish darajasi ancha past bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning axborot oqimida mustaqil yo‘l topa olishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, emotsional barqarorlik ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Hissiy holatini nazorat qila oladigan shaxslar odatda provokatsion yoki bosimga asoslangan axborotga nisbatan kamroq impulsiv javob qaytaradi va ko‘proq mantiqiy yondashuvga tayanadi. Bu holat esa ularning psixologik himoya darajasini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni: “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”. – T., 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni: “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”. – T., 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni: “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”. – T., 1997 (yangilangan tahrirlar bilan).
4. Myers D. G. Psychology. – New York: Worth Publishers, 2017.
5. Alberti R., Emmons M. Your Perfect Right: Assertiveness and Equality in Your Life and Relationships. – California: Impact Publishers, 2017.
6. Potter W. J. Media Literacy. – London: SAGE Publications, 2019.

7. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.

8. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2011.

9. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2010.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI

Radjapova Feruza Abdullayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti dekani
radjapovaferuza900@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2381-7000

Mazkur maqolada pedagogik madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi zamonaviy metodologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik madaniyat statik natija emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi, refleksiv va dinamik jarayon sifatida talqin etiladi. Muallif tomonidan metodik yondashuvlarning funksional tasnifi ishlab chiqilib, ularning pedagogik madaniyat tarkibidagi o‘rni ilmiy asoslanadi.

Shuningdek, konsepsiya ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga moslashtirilgan bo‘lib, unda kommunikativ, interkultural va lingvodidaktik komponentlar uyg‘unligi ta’minlangan. Tadqiqot natijasida pedagogik madaniyatning bosqichma-bosqich rivojlanish algoritmi taklif etilib, u oliy ta’lim tizimida samarali qo‘llash imkoniyatiga ega ekanligi asoslab berilgan.

Amaliy jihatdan model ta’lim jarayonini integratsiyalash, pedagogik amaliyotni takomillashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik madaniyat, refleksiv rivojlanish, metodik yondashuv, ingliz tili o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, raqamli pedagogika, integrativ model, kommunikativ kompetensiya*

СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

В статье рассматривается концепция развития педагогической культуры на основе современного методологического подхода. Педагогическая культура интерпретируется не как статический результат, а как динамичный, непрерывно развивающийся и рефлексивный процесс. Автор предлагает функциональную классификацию методических подходов и обосновывает их роль в структуре педагогической культуры.

Особое внимание уделяется адаптации концепции к подготовке учителей английского языка с учётом коммуникативных, интеркультурных и лингводидактических аспектов их профессиональной деятельности. Разработан поэтапный алгоритм формирования педагогической культуры, который может быть эффективно внедрён в систему высшего образования.

Практическая значимость исследования заключается в возможности интеграции модели в образовательный процесс, совершенствовании педагогической практики и развитии профессиональной рефлексии будущих учителей.

Ключевые слова: *педагогическая культура, рефлексивное развитие, методический подход, учитель английского языка, профессиональная подготовка, цифровая педагогика, интегративная модель, коммуникативная компетенция*

A MODERN CONCEPT FOR THE FORMATION OF PEDAGOGICAL CULTURE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

This article explores a conceptual framework for the development of pedagogical culture based on a modern methodological approach. Pedagogical culture is interpreted not as a static outcome, but as a dynamic, continuous, and reflective process. The study proposes a functional classification of methodological approaches and defines their roles within the structure of pedagogical culture.

The concept is specifically adapted to the training of English language teachers, incorporating communicative, intercultural, and linguodidactic components. A stage-based algorithm for the development of pedagogical culture is introduced and justified as an effective model for implementation in higher education institutions.

From a practical perspective, the model supports curriculum integration, enhances teaching practice, and fosters professional reflection among future educators.

Keywords: *pedagogical culture, reflective development, methodological approach, English language teacher, professional training, digital pedagogy, integrative model, communicative competence*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va madaniyatlararo muloqotning kengayishi pedagogik faoliyat mazmunini yangicha yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida nafaqat metodik bilimlar, balki pedagogik madaniyatni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu o‘zgarishlar ta’lim mazmuni, shakli va metodlariga yangicha yondashuvni talab etibgina qolmay, balki o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablarning ham keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o‘zgarishlar ta’sirida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar ta’lim mazmuni, shakli va metodlariga yangicha yondashuvni talab etibgina qolmay, balki o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablarning ham keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki o‘quv jarayonini samarali tashkil etuvchi menejer, innovatsion faoliyat yurituvchi mutaxassis, kommunikativ hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi vositachi hamda o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib boruvchi refleksiv shaxs sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu talablar yanada murakkablashadi. Chunki chet tilini o‘qitish jarayoni lingvistik bilimlar bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, global tafakkur va tolerantlik kabi sifatlarni ham rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik madaniyat tushunchasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Pedagogik madaniyat — bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar tizimi, metodik bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar va refleksiv tafakkurning integratsiyalashgan majmuasidir. U o‘qituvchining nafaqat qanday dars o‘tishini, balki qanday fikrlashini, qanday qaror qabul qilishini va o‘z faoliyatini qanday baholashini ham belgilaydi.

Pedagogik madaniyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, qadriyatlari, kommunikativ faoliyati va refleksiv fikrlashini o‘zida mujassam etgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois uni faqat natijaviy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki uzluksiz rivojlanadigan dinamik jarayon sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi pedagogik madaniyatni rivojlantirishning yangi konseptual modelini ishlab chiqish, uni ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga moslashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalash zarurati bilan belgilanadi. An’anaviy yondashuvlarda pedagogik tayyorgarlik ko‘proq natijaviy ko‘rsatkichlar — bilim, ko‘nikma va malaka darajasi orqali baholangan. Biroq zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan bu yetarli emas. Chunki pedagogik faoliyat doimiy o‘zgarish, moslashuv va o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli pedagogik madaniyatni dinamik, uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, pedagogik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning yangi konseptual modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi — pedagogik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning tizimli, bosqichli hamda refleksiv modelini ishlab chiqish va uning nazariy hamda amaliy asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodikasi. Konsepsiyaning yana bir nazariy ahamiyati pedagogik madaniyat rivojlanishini dinamik jarayon sifatida asoslashdadir. Odatda pedagogik tayyorgarlik natijaviy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi: bilim, ko‘nikma yoki malaka darajasi. Mazkur tadqiqotda esa pedagogik madaniyat uzluksiz rivojlanadigan, refleksiv qayta qurilish mexanizmlariga ega bo‘lgan jarayon sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv pedagogik tadqiqotlar metodologiyasida statik modeldan dinamik modelga o‘tishni anglatadi. Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda refleksiv yondashuv asosiy metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri pedagogik madaniyatni statik emas, balki dinamik tizim sifatida talqin qilishdir. Ya’ni, pedagogik madaniyat:

- doimiy rivojlanadi;
- tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgaradi;
- refleksiv faoliyat orqali takomillashadi.

Shuningdek, tadqiqotda metodik yondashuvlarning funksional roli aniqlashtirildi. Har bir yondashuv (kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va boshqalar) pedagogik madaniyatning muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Til o‘qituvchisining kasbiy faoliyati o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- lingvistik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- interkultural kompetensiya;
- metodik kompetensiya.

Shu sababli ishlab chiqilgan model aynan ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirildi.

Shuningdek, konsepsiya metodik yondashuvlarning funksional tasnifini ilmiy asoslash orqali nazariy pedagogik bilimlar tizimini boyitadi. Har bir metodik yondashuvning pedagogik madaniyat tarkibidagi aniq vazifasi belgilanishi natijasida metodik nazariya va kasbiy tayyorgarlik o‘rtasidagi uzilish bartaraf etiladi. Bu esa pedagogika fanida metod va mazmun birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan yana bir muhim jihat shundaki, konsepsiya pedagogik madaniyatni ingliz tili o‘qituvchisi tayyorgarligi kontekstida maxsuslashtiradi. Til o‘qituvchisi faoliyati kommunikativ, interkultural va lingvodidaktik jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Mazkur konsepsiya aynan shu xususiyatlarni inobatga olgan holda pedagogik madaniyat modelini ishlab chiqadi. Natijada til o‘qituvchisining kasbiy madaniyati umumiy pedagogik modeldan farqli ravishda maxsus metodik asosga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, raqamli va refleksiv komponentlarning uyg‘unligi nazariy jihatdan zamonaviy pedagogika fanining yangi bosqichini ifodalaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik madaniyatni texnologik savodxonlik bilan bog‘lash yetarli emas; uni refleksiv ong bilan uyg‘unlashtirish zarur. Konsepsiya aynan shu uyg‘unlikni metodologik asoslaydi va pedagogik madaniyatni raqamli davr kontekstida qayta talqin qiladi.

Umuman olganda, nazariy ahamiyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-pedagogik madaniyatning yangi tizimli modeli ishlab chiqilishi;

-metodik yondashuvlarning funksional asosda tasniflanishi;

-rivojlanishning bosqichli algoritmi ilmiy asoslanishi;

-raqamli-refleksiv integratsiya nazariy jihatdan yoritilishi;

-ingliz tili o‘qituvchisi tayyorgarligiga moslashtirilgan maxsus konseptual model taklif etilishi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Konsepsiyaning amaliy ahamiyati uning oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga real integratsiya qilinishi mumkin bo‘lgan tizimli modelni taklif etishidadir.

Birinchidan, ishlab chiqilgan model pedagogik fanlar blokini qayta loyihalash imkonini beradi. “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi”, “Pedagogik mahorat”, “Ta’lim texnologiyalari”, “Kasbiy refleksiya” kabi fanlar mazmuni mazkur konsepsiya asosida o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etilishi mumkin. Bu esa fanlararo uzviylikni kuchaytiradi va talabaning kasbiy dunyoqarashini yaxlit shakllantiradi.

Ikkinchidan, bosqichma-bosqich rivojlanish algoritmi pedagogik amaliyotni tashkil etishda metodik yo‘riqnoma vazifasini bajaradi. Aksiologik anglash bosqichi motivatsion treninglar va kasbiy identiklik mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Metodik kompetensiyani shakllantirish bosqichi dars modellashtirish va micro-teaching jarayonida mustahkamlanadi. Integrativ faoliyat bosqichi pedagogik amaliyot davomida real sinf sharoitida amalga oshiriladi. Refleksiv takomillashuv esa portfolio va refleksiv kundalik orqali monitoring qilinadi.

Uchinchidan, konsepsiya asosida diagnostik mezonlar ishlab chiqish mumkin. Pedagogik madaniyat darajasini aniqlash uchun qadriyatli motivatsiya, metodik savodxonlik, kommunikativ faoliyat va refleksiv faollik ko‘rsatkichlari belgilanishi mumkin. Bu esa ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, model raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin. Elektron portfolio, videoanaliz, adaptiv ta’lim tizimlari orqali talabaning kasbiy rivojlanishi monitoring qilinadi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik jarayonini shaffof, tahliliy va individual yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi.

Beshinchidan, konsepsiya o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimiga ham tatbiq etilishi mumkin. Amaldagi ingliz tili o‘qituvchilari uchun refleksiv seminarlar, metodik workshoplar va raqamli kompetensiyani rivojlantirish kurslari mazkur model asosida tashkil etilishi mumkin. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyilini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijasida pedagogik madaniyatni rivojlantirishning quyidagi bosqichli modeli ishlab chiqildi:

1. Aksiologik-motivatsion bosqich

Bu bosqichda talabalarda kasbga nisbatan qadriyatli munosabat shakllanadi. Ular o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglaydi va ichki motivatsiya hosil qiladi.

2. Metodik-kompetensiyaviy bosqich

Talabalar o‘qitish metodlari, darsni rejalashtirish, baholash va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtiradi.

3. Integrativ-amaliy bosqich

Olingan bilim va ko‘nikmalar real pedagogik faoliyatda qo‘llanadi. Bu bosqich pedagogik amaliyot orqali amalga oshiriladi.

4. Refleksiv-rivojlantiruvchi bosqich

Talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va o‘z ustida ishlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik madaniyatni baholash mezonlari ishlab chiqildi:

- qadriyatli motivatsiya darajasi;
- metodik savodxonlik;
- kommunikativ faollik;
- refleksiv tafakkur darajasi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkoniyati ham asoslab berildi. Jumladan:

- elektron portfoliolar;
- video dars tahlili;
- onlayn refleksiya platformalari.

Amaliy jihatdan yana bir muhim natija - talabalarda mustaqil pedagogik qaror qabul qilish madaniyatining shakllanishidir. Integrativ faoliyat mexanizmlari orqali bo‘lajak o‘qituvchi real vaziyatlarda mas’uliyatli tanlov qilishga o‘rganadi. Bu esa kelajakda uning kasbiy barqarorligi va pedagogik yetukligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, konsepsiyaning nazariy ahamiyati pedagogik madaniyatni o‘rganishda yangi metodologik asos yaratishi, uni tizimli va dinamik model sifatida qayta talqin qilishi bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan modelning oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga real integratsiya qilinishi, pedagogik amaliyotni takomillashtirishi va kasbiy rivojlanish monitoringini ta’minlashi bilan namoyon bo‘ladi.

Natijada mazkur konsepsiya pedagogik madaniyatni shakllantirishni nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan yaxlit tizim sifatida taqdim etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga yangicha yondashuvni asoslash imkonini berdi. Tadqiqotda pedagogik madaniyat statik ko‘rsatkich emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi, refleksiv va integrativ jarayon sifatida talqin qilindi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan konseptual model metodik yondashuvlarning funksional tasnifiga, bosqichma-bosqich rivojlanish algoritmiga hamda raqamli va refleksiv komponentlarning uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu model ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga moslashtirilgan bo‘lib, ularning kasbiy kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik madaniyatni shakllantirishga yangicha, zamonaviy yondashuvni taklif etadi. Ushbu yondashuv pedagogik madaniyatni uzluksiz rivojlanib boruvchi, refleksiv va integrativ jarayon sifatida talqin qilishga asoslanadi.

Ishlab chiqilgan model:

- tizimlilik;
- bosqichlilik;
- refleksivlik;
- raqamli integratsiya

tamoyillariga asoslanadi.

Mazkur modelni amaliyotga joriy etish:

- ta’lim sifatini oshirishga;
- o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga;
- pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, model o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish, pedagogik amaliyotni takomillashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil kasbiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali qo‘llanishi mumkin.

Shu bilan birga, taklif etilgan model pedagogik faoliyatni raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot pedagogik madaniyatni shakllantirishni yaxlit, tizimli va zamonaviy talablar asosida tashkil etishning samarali yo‘llarini belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Schön, D. A. The Reflective Practitioner. New York: Basic Books. 1983
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Freeman, D. (2002). The hidden side of the work: Teacher knowledge and learning to teach. Language Teaching.
4. Hargreaves, A. (2000). Four ages of professionalism and professional learning. Teachers and Teaching.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK). Teachers College Record.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press. Pp-12
7. Dewey, J. (1933). How We Think. Boston: D.C. Heath. Pp-23

UO‘K 378.147:37.013.2

TALABALARNING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH BOSQICHLARI JARAYONDAGI AMALIYOTLARNI ROLI VA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Qosimov Shavkat Urolovich,
Termiz davlat pedagogika instituti
Tabiiy va aniq fanlar fakulteti dekani, professor

Ushbu maqolada talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari, ushbu jarayonda amaliyotning o‘rni hamda unga ta’sir etuvchi omillar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, Pedagogik tayyorgarlikning izchil bosqichlari – nazariy tayyorgarlik, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va mustaqil pedagogik faoliyatga o‘tish jarayonlari yoritilgan. Maqolamizda pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish yo‘llari ham ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari, pedagogik amaliyot, pedagogik kompetensiya, nazariy tayyorgarlik, amaliy ko‘nikmalar, o‘qituvchilik faoliyati, ta’lim jarayoni, motivatsiya, ta’lim muhiti, refleksiya, ijtimoiy-psixologik omillar.*

ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, РОЛЬ ПРАКТИКИ В ДАННОМ ПРОЦЕССЕ И ВЛИЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ

В данной статье подробно проанализированы этапы подготовки студентов к педагогической деятельности, роль практики в этом процессе, а также факторы, влияющие на неё. Также освещены последовательные этапы педагогической подготовки - теоретическая подготовка, формирование практических навыков и процессы перехода к самостоятельной педагогической деятельности. В нашей статье также показаны пути повышения профессиональной подготовки будущих учителей путём эффективной организации педагогической практики. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования системы педагогического образования и подготовки высококвалифицированных кадров.

Ключевые слова: *педагогическая деятельность, этапы профессиональной подготовки, педагогическая практика, педагогическая компетентность, теоретическая подготовка, практические навыки, педагогическая деятельность, образовательный процесс, мотивация, образовательная среда, рефлексия, социально-психологические факторы.*

STAGES OF PREPARING STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY, THE ROLE OF PRACTICE IN THE PROCESS, AND INFLUENCING FACTORS

This article provides a comprehensive analysis of the stages of preparing students for pedagogical activity, the role of practice in this process, and the factors influencing it. Furthermore, the sequential stages of pedagogical training – theoretical preparation, the formation of practical skills, and the transition to independent pedagogical activity – are highlighted. Our article also demonstrates ways to enhance the professional training of future teachers through the effective organization of pedagogical practice. The research results are of great importance in improving the pedagogical education system and training highly qualified personnel.

Keywords: *pedagogical activity, stages of professional training, pedagogical practice, pedagogical competence, theoretical training, practical skills, teaching activity, educational process, motivation, educational environment, reflection, socio-psychological factors.*

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati ularning professional kasbiy faoliyatida samarali ishlashini belgilovchi asosiy ko‘nikmalar to‘plamidir. Pedagogik faoliyat nafaqat o‘qituvchining bilimini, balki uning amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari va metodik kompetensiyalarini uyg‘unlashtiradi. Bu ko‘nikmalar dars jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi, ularni rag‘batlantiradi va pedagogik jarayon sifatini yaxshilaydi [1]. Pedagogik faoliyatni rivojlantirish jarayoni nazariy bilimlarni o‘rganish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagogik jarayonni tahlil qilish, innovatsion metodlarni tatbiq etish va doimiy baholash bosqichlarini o‘z

ichiga oladi. Shu tarzda, o‘qituvchi darslarni samarali rejalashtiradi, interaktiv metodlarni qo‘llaydi, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ta’lim jarayonida pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli hal qiladi [2]. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish: tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga; Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o‘quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga; To‘rtinchidan, sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta’lim maktablari hamkorligida ilg‘or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga; xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Pedagogik faoliyat bir nechta asosiy komponentlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘qituvchining professional faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi [3]. Nazariy komponent pedagogik jarayonning ilmiy asosini yaratadi va o‘qituvchiga pedagogika, psixologiya, metodika va ta’lim texnologiyalari bo‘yicha chuqur bilim beradi. Bu bilimlar o‘qituvchiga darslarni rejalashtirish, o‘quv materiallarini tanlash, pedagogik metodlarni moslash va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi [4]. Nazariy bilimlar pedagogik qarorlar qabul qilish, darsni samarali tashkil etish va talabalarning bilim darajasini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy rol o‘ynaydi. Misol uchun, o‘quv psixologiyasi bo‘yicha bilimlar o‘qituvchiga talabalar psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni rejalashtirish imkonini beradi, bu esa talabalarning qiziqishini oshiradi va ularni darsga faol jalb qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Amaliy komponent pedagogik faoliyatning ikkinchi muhim qismidir. Bu komponent o‘qituvchiga darslarni samarali rejalashtirish, turli pedagogik metodlarni qo‘llash, talabalarning bilimlarini oshirish va ularni mustaqil ishlashga rag‘batlantirish imkonini beradi. Amaliy ko‘nikmalar talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, guruh ishlari, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlarni tashkil etish orqali shakllanadi. Shu bilan birga, amaliy ko‘nikmalar o‘qituvchiga o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Misol uchun, agar dars davomida talabalar passiv bo‘lsa, o‘qituvchi interaktiv metodlar yoki raqamli platformalarni qo‘llash orqali ularning faolligini oshirishi mumkin.

Amaliy komponent shuningdek o‘qituvchining pedagogik qarorlarni real sharoitda sinab ko‘rishi va moslashtirishini ta’minlaydi [6].

Shaxsiy-kommunikativ komponent pedagogik faoliyatning ajralmas qismidir. Samarali muloqot, tinglash va tushunish, talabalarning fikrlarini qadrlash va rag‘batlantirish, ularni motivatsiya qilish va konfliktlarni hal qilish bu komponent orqali amalga oshadi. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki murabbiy, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va rahbar sifatida ham ishtirok etadi. Masalan, o‘qituvchi muhokama davomida talabalar fikrlarini tinglab, ularni tahlil qilishga rag‘batlantiradi va shu orqali dars jarayoni samarali bo‘ladi [7].

Innovatsion komponent pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu komponent o‘qituvchiga raqamli vositalardan foydalanish, interaktiv platformalarni tatbiq etish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va kreativ metodlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar darslarni qiziqarli va samarali qiladi, talabalarda texnologik ko‘nikmalarni rivojlantiradi va pedagogik jarayonni doimiy takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi onlayn platformalarni qo‘llab, talabalarni mustaqil mashqlar bajarishga rag‘batlantiradi va shu orqali ularning bilimini mustahkamlaydi. Interaktiv metodlar o‘qituvchiga har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi, dars jarayonini shaxsiylashtiradi va samaradorligini oshiradi [8].

Pedagogik faoliyatni rivojlantirish jarayoni bir nechta bosqichdan iborat. Tayyorlov bosqichi nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, seminarlar, ma’ruza va ilmiy tadqiqotlar orqali o‘qituvchining bilim bazasi mustahkamlanadi. Amaliy bosqich darslarni rejalashtirish, pedagogik metodlarni qo‘llash va interaktiv mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Reflektiv bosqich o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Innovatsion bosqich esa yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali darslarni yanada samarali qiladi. Baholash bosqichi natijalarni o‘lchash, o‘z-o‘zini baholash va mentorlar fikr-mulohazalari orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichlar o‘qituvchiga professional o‘sish va pedagogik faoliyatni uzluksiz rivojlantirish imkonini beradi [9].

Adabiyotlar tahlili. Nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unlashuvi pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi nazariy bilimlarni chuqur egallashi bilan birga, amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rganadi. Bu uyg‘unlashuv pedagogik qarorlar qabul qilish, darsni samarali tashkil etish, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, pedagogika va psixologiya bilimlari o‘qituvchiga dars davomida talabalarni qiziqtirish va ularning bilim darajasini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Adabiyotlar tahlili

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritib kelinmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki amaliy ko‘nikmalar, refleksiv yondashuv, kommunikativ madaniyat va innovatsion kompetensiyalarni kompleks shakllantirishni talab etadi [12]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy qarashlar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida amaliyotning o‘rni va ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Pedagogik faoliyat mohiyatini ochib berishda ko‘plab olimlar uni kasbiy kompetensiyaning markaziy tarkibiy qismi sifatida talqin qiladilar. Xususan, V. A. Slastenin pedagogik faoliyatni o‘qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etuvchi murakkab integrativ jarayon sifatida baholab, uning samaradorligi nazariy tayyorgarlik, metodik savodxonlik va shaxsiy-axloqiy sifatlar uyg‘unligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [13]. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatning faqat bilimga emas, balki o‘qituvchining shaxsiy pozitsiyasi va kasbiy madaniyatiga ham tayanishini ko‘rsatadi. Shu bois bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda shaxsiy rivojlanish, kasbiy identifikatsiya va motivatsion omillarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

A. K. Markova o‘qituvchi kasbiy kompetentligini tahlil qilar ekan, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchida motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlar bir butun holda shakllanishi zarurligini qayd etadi [14]. Markova fikricha, pedagogik tayyorgarlik jarayoni o‘qituvchini faqat dars o‘tishga emas, balki ta’lim jarayonini tahlil qilish, pedagogik muammolarni hal etish va mustaqil kasbiy qarorlar qabul qilishga ham tayyorlashi kerak. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini ta’minlashda refleksiya va o‘z-o‘zini baholashning muhim rol o‘ynashini asoslaydi.

L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik qarashlari ham pedagogik faoliyatni shakllantirish nazariyasida muhim o‘rin tutadi. U o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ijtimoiy tajriba, muloqot va hamkorlik asosida shakllanadigan dinamik jarayon sifatida izohlaydi [15]. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyatni avvalo kuzatish, hamkorlikda bajarish va mustaqil qo‘llash orqali egallaydilar. Bu esa pedagogik amaliyotning bo‘lajak mutaxassis kasbiy shakllanishidagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning eng muhim bosqichi sifatida talqin etiladi. N. V. Kuzmina pedagogik amaliyotni nazariy bilimlarni real ta’lim muhiti bilan integratsiyalovchi mexanizm deb hisoblaydi [16]. Uning ta’kidlashicha, aynan amaliyot jarayonida talaba o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, o‘quvchilar bilan muloqotga kirishadi va kasbiy o‘ziga ishonchni shakllantiradi. Kuzmina fikrlari pedagogik amaliyotning nafaqat sinov, balki kasbiy identifikatsiya maydoni ekanini ko‘rsatadi.

J. Deweyning tajribaviy ta’lim konsepsiyasi ham pedagogik faoliyatni shakllantirishda amaliyotning ustuvor ahamiyatini asoslaydi. Dewey ta’limni “tajriba orqali o‘rganish” sifatida baholab, haqiqiy bilim faqat amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi [17]. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligida amaliy mashg‘ulotlar, mikrodarslar, kuzatuv va refleksiv tahlilni kuchaytirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

So‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv pedagogik faoliyatni shakllantirishning metodologik asosi sifatida e’tirof etilmoqda. A. V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning bilim, ko‘nikma, tajriba va qadriyatlarini real faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida izohlaydi [18]. Uning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida bilimning o‘zi yetarli emas; u kasbiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan amaliy kompetensiyaga aylanishi lozim. Bu yondashuv pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlarida amaliyot, refleksiya va baholashning uzviy integratsiyasini talab qiladi.

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida ko‘riladi. N. Muslimov pedagogik kompetentlikni o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi, metodik mahorati va amaliy faoliyatining integrallashgan ko‘rsatkichi sifatida tavsiflaydi [19]. Muallifning ta’kidlashicha, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda pedagogik amaliyot kasbiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shuningdek, U. Nishonaliyev va M. Ochilovlar tadqiqotlarida pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi, metodik tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantiruvchi asosiy mexanizm sifatida baholanadi [20], [21].

Ilmiy manbalar tahlili pedagogik faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni ham tizimli ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda bu omillar ichki va tashqi guruhlarga ajratiladi. Ichki omillarga motivatsiya, kasbga qiziqish, refleksiv qobiliyat, kommunikativ salohiyat va shaxsiy mas’uliyat kiradi [14], [19]. Tashqi omillar esa ta’lim muhiti, mentorlik sifati, metodik ta’minot, texnologik resurslar va pedagogik amaliyot bazasining holati bilan belgilanadi [5], [9]. Ayniqsa, zamonaviy raqamli ta’lim vositalarining mavjudligi bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda muhim omil sifatida qayd etiladi [7].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda refleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantirishning ajralmas komponenti sifatida e’tirof etiladi. D. Schön refleksiv amaliyot nazariyasida mutaxassisning kasbiy o‘sishi o‘z faoliyatini tahlil qilish va qayta loyihalash orqali amalga oshishini ta’kidlaydi [22]. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishda reflektiv kundaliklar, mentorlik suhbatlari va o‘zaro tahlil mexanizmlarining samaradorligini asoslaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kommunikativ va innovatsion komponentlar pedagogik jarayon sifatini oshiradi. Samarali muloqot orqali o‘qituvchi talabalarning fikrlarini tushunadi, ularni rag‘batlantiradi va darsga faol jalb qiladi. Innovatsion yondashuvlar raqamli vositalar va interaktiv metodlarni qo‘llash orqali darsni qiziqarli qiladi va talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan pedagogik jarayon zamonaviy, samarali va talaba markazli bo‘ladi.

Baholash va refleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantirishning ajralmas qismidir. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etadi. Mentorlar va ustozlarning fikr-mulohazalari, talabalar javoblari va dars sifatini monitoring qilish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bilan pedagogik faoliyat doimiy ravishda takomillashadi va o‘qituvchi professional jihatdan rivojlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik faoliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bilim va ko‘nikmalarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi, amaliyotga yo‘naltirilganlikni oshiradi va shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik jarayonni aniq va ob’ektiv baholash imkonini beradi va o‘qituvchining professional kompetensiyasini oshiradi.

Pedagogik faoliyatni rivojlantirish modeli o‘qituvchining individual ehtiyojlariga moslashadi va innovatsion metodlarni qo‘llash imkonini beradi. Model nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ va innovatsion komponentlar asosida qurilgan bo‘lib, o‘qituvchiga bosqichmabosqich professional o‘sishni ta’minlash imkonini beradi. Shu orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradi, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi nazariy bilimlar, ya’ni pedagogika, psixologiya, metodika va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur bilishni, shuningdek darslarni puxta rejalashtirish, turli pedagogik metodlarni qo‘llash hamda interaktiv mashg‘ulotlarni tashkil etish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

Xulosa. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvni ta’minlash uchun raqamli vositalar, interaktiv platformalar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur bo‘lib, bu jarayon tayyorlov, amaliy, reflektiv, innovatsion va baholash bosqichlarini qamrab oladi hamda o‘qituvchining kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 320 b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan, 2006. – 192 b.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – 180 b.
4. Egamberdiyeva N.M. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 144 b.
5. Musurmonova O. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: Noshir, 2018. – 256 b.
6. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Э.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2002. – 576 с.
7. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Владос, 2007. – 576 с.
8. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
9. Khan R. Digital Pedagogy in Practice: Insights from Teacher Training Workshops // Current Perspectives in Educational Research. – 2025. – Vol. 8, No. 2. – P. 57–70. DOI: 10.46303/cuper.2025.6

10. Shi Y.R., Sin K.F., Wang P.Y. Teacher professional development of digital pedagogy for inclusive education in post-pandemic era // Teaching and Teacher Education. – 2025. – Vol. 168. – Article 105230. DOI: 10.1016/j.tate.2025.105230

11. Mahmood R.Q. Exploring pedagogical effectiveness in teacher education: Insights and challenges // Journal of Interdisciplinary Studies in Education. – 2025. – Vol. 14, No. 4. – P. 1–26. DOI: 10.32674/tm4f3a78

12. B. R. Kadyrov, Pedagogik kompetentlik va kasbiy tayyorgarlik asoslari. Toshkent, Uzbekistan: Fan, 2021. 172-b.

13. В. А. Сластенин, Педагогика: профессиональная деятельность учителя. Москва, Россия: Академия, 2013. С. 345.

14. А. К. Маркова, Психология профессионализма. Москва, Россия: Знание, 2016. С. 254.

15. L. S. Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA, USA: Harvard Univ. Press, 1978.

16. N. B. Кузьмина, Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва, Россия: Высшая школа, 2015.

17. J. Dewey, Experience and Education. New York, NY, USA: Macmillan, 1938. 102 p.

18. A. V. Khutorskoy, “Key competencies as a component of personality-oriented education,” Narodnoe obrazovanie, no. 2, pp. 58–64, 2019.

19. N. A. Muslimov, Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat. Toshkent, Uzbekistan: Tafakkur Bo‘stoni, 2019. 206-b.

20. U. Nishonaliyev, Pedagogik amaliyot nazariyasi va metodikasi. Toshkent, Uzbekistan: O‘qituvchi, 2020. 141-b.

21. M. Ochilov, Oliy ta’lim pedagogikasi. Toshkent, Uzbekistan: Fan va texnologiya, 2018. 503-b.

22. D. A. Schön, The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York, NY, USA: Basic Books, 1983. 135 p.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA NAZARIYA VA AMALIYOT JARAYONI UYG‘UNLIGI

Nurullayev Abduhamid Ro‘zimboyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi professori

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda nazariya va amaliyot integratsiyasining pedagogik mohiyati, uning bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik tavsiyalar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, kasbiy tayyorgarlik, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, kasbiy kompetensiya, pedagogik amaliyot, nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik tayyorlash tizimi, ta’lim samaradorligi.*

СОЧЕТАНИЕ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

В статье рассматриваются вопросы обеспечения сочетания теоретических знаний и практической деятельности в процессе профессиональной подготовки будущих учителей физического воспитания. В исследовании анализируется педагогическая сущность интеграции теории и практики, её роль в формировании профессиональных компетенций будущих специалистов. Также рассматриваются подходы, направленные на увязку теоретических знаний с практической подготовкой в организации учебных занятий, повышение эффективности педагогической практики и развитие уровня подготовки к профессиональной деятельности. В статье обосновываются педагогические условия и методические рекомендации, служащие обеспечению гармонии теории и практики. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы подготовки учителей физического воспитания.

Ключевые слова: *будущие учителя физической культуры, профессиональная подготовка, сочетание теории и практики, профессиональная компетентность, педагогическая практика, теоретические знания, практическая подготовка, компетентностный подход, система педагогической подготовки, эффективность образования.*

HARMONY OF THEORY AND PRACTICE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

This article examines the issues of ensuring the integration of theoretical knowledge and practical activity in the process of professional training of future physical education teachers. The study analyzes the pedagogical essence of the integration of theory and practice, as well as its role in the formation of professional competencies of future specialists. In addition, approaches aimed at linking theoretical knowledge with practical training in the organization of educational activities, improving the effectiveness of pedagogical practice, and enhancing the level of preparedness for professional activity are considered. The article substantiates pedagogical conditions and methodological recommendations that contribute to ensuring the harmony of theory and practice. The research results have practical significance in improving the system of training physical education teachers.

Keywords: *future physical education teachers, professional training, integration of theory and practice, professional competence, pedagogical practice, theoretical knowledge, practical training, competency-based approach, teacher training system, educational effectiveness.*

Kirish. Oliy mg‘lumotli mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv rejasidagi talabalarning o‘quv amaliyoti asosiy va tarkibiy qismlardan biridir. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi

muhim talabi bo‘lib hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbiy tayyorgarlik muammolarini muhokama qilishda biz tadqiqotni talab qiladigan hal qilinmagan qiyinchiliklarni tg‘kidlaymiz. Ta’lim tizimi shunchaki "bilim uzatmaydi", balki o‘quvchilarning intellektual, mg‘naviy va kasbiy salohiyatini shakllantirishning murakkab jarayonini o‘z ichiga oladi, shunda ular o‘zlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish agentlariga aylanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida amaliyot “4+2” (4 kun oliy ta’lim muassasasida, 2 kun (reja-grafik asosida) umumta’lim maktablarida amaliyot o‘tash) tartibida tashkil etilishi belgilab qo‘yilgan. Biz olib borgan ushbu tadqiqodda yuqorida keltirlgan qaror va farmonlar asosiy mezon bo‘lib, xizmat qildi. Shu o‘rinda aytish kerakki “4+2” amaliyot jarayonining tashkil qilinishi ham ta’lim jarayonini loyihalashning bir ko‘rinishidir. Amaliyot jarayoni orqali bo‘lajak o‘qituvchilar nazariya va amaliyot bir-biriga uyg‘un bog‘likligini his etadilar va bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda muhim jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Bu olimlar aynan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini rivojlantirgan: Pavel Frantsevich Lesgaft – jismoniy tarbiya tizimini ilmiy asoslab, nazariya va amaliy mashg‘ulotlarning uzviyligini ko‘rsatgan. Lev Pavlovich Matveyev – sport trenirovkasi nazariyasi va jismoniy tayyorgarlik tizimini ishlab chiqqan. Yuri Verkhoshansky – jismoniy tayyorgarlikning amaliy metodlarini takomillashtirgan. Vladimir Platonov – sport tayyorgarligi tizimi va metodologiyasini ilmiy asosda ishlab chiqqan.

O‘zbekistonda aholining sog‘ligini muxofaza qilish, o‘quvchi-yoshlarning jismoniy kamolotini ta`minlash eng muhim vazifalardan biridir.

Shu sababli “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunni hayotga singdirishni keng ko‘lamda olib borish uchun jismoniy tarbiya va sport soxasida yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash mas`uliyati tobora oshib bormoqda

Yangi ta’lim paradigmasi fuqarolar intellektual va mg‘naviy o‘zini o‘zi rivojlantirish agentlari, voqelikni ijodiy o‘zgartirish uchun g‘oyalar va normalarning tashuvchilari sifatida shakllanadigan ijtimoiy-madaniy makonni shakllantirishni nazarda tutadi. Hayotda yaratish yoki yo‘q qilish maqsadlarini tanlashning axloqiy erkinligi shaxsga tegishli. Inson ega bo‘lgan (yoki yo‘q bo‘lgan) tanlash erkinligi uning xulq-atvorning axloqiy regulyatorlariga bo‘lgan afzalligiga asoslanadi va insoniyat jamiyatidagi mg‘naviy makon - bu odamlarning mazmunli dunyosi, mg‘naviy yashash joyi bo‘lib, uning qonunlari barcha mamlakatlar fuqarolari tomonidan o‘rganiladi va kuzatiladi, chunki Yer yuzida insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi yoki yo‘q qilinishi ularga bog‘liq. Jamiyatning mg‘naviy salohiyatining ijodiy kuchlarini rivojlantirish ta’limning vazifasidir. Shuning uchun ta’lim muassasalariga nafaqat o‘quvchilarga "bilim uzatadigan" xodimlar, balki mutaxassislar kerak. Biz ta’lim tizimida talabalarning subyekt sifatida rivojlanishini pedagogik qiyinchiliklardan biri deb bilamiz. Yuqorida aytib o‘tilgan intellektual, mg‘naviy va kasbiy rivojlanish maqsadlari yoshlar bilan ishlashda strategik maqsadlar, yg‘ni ideal maqsadlar sifatida tasniflanadi, bu ularni texnologiklashtirishning iloji yo‘qligini va ularni ishchi darajaga aylantirish uchun operatsiyalarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Faoliyat sub’yekti maqsadlar va ularni amalga oshirish usullarining tashuvchisi ekanligini hisobga olib, biz ta’lim tizimini shunga mos ravishda modellashtirishni taklif qilamiz. Shu maqsadda biz tizimlarni modellashtirishda e'tiborga olinishi kerak bo‘lgan tizimni shakllantiruvchi xususiyatlarga e'tibor qaratamiz:

1. Tarkibi - tizim elementlarining cheklangan ro‘yxati.

2. Tuzilma - tizim elementlari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarmasligi. Bu xususiyat bizning pozitsiyamizni tuzilmani tizimning tashkiliy tarkibi sifatida keng tarqalgan tushunchadan ajratib turadi. Biz tuzilmaning qabul qilingan tg‘rifidan kelib chiqamiz, bu ta’lim tizimida maqsad hisoblanadi.

3. Funksiya - yagona maqsadlarga erishish texnologiyasi bilan belgilanadigan tizimning dinamik holati. Gumanitar fanlar ta’limi tizimlarida talabalarning sub’yektiv rivojlanishi bilan bir qatorda, maqsadlar va ularga erishish usullarini ishlab chiqish kelajakdagi o‘qituvchilar bilan ishlashda professional zaruratdir. Faqat o‘zini o‘zi rivojlantirishga qodir bo‘lganlargina o‘zlarining universitet tajribalarini maktab ta’lim makonining o‘qitish tizimini modellashtirishga qo‘llay oladilar, bunda ham yosh mutaxassis, ham ularning talabalari sub’yektga aylanadi, bu esa ta’lim tizimida sub’yekt-sub’yekt munosabatlarini ta’minlaydi. Bu holda, o‘qitish tizimini (universitetda) yangi sifat holatiga - o‘qitishga - ekstrapolyatsiya qilish mexanizmi ijodiy pedagogik fikrlashni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa muayyan ta’lim muassasalaridagi talabalar (va o‘qituvchilar) o‘zini o‘zi rivojlantirish sub’yektiga aylanadigan yangi vaziyatlarda gumanitar ta’lim tizimlarini modellashtirishga ijodiy va konstruktiv yondashuvni nazarda tutadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bunday tizimlarni modellashtirish ham oliy ta’lim uchun yechim talab qiladigan pedagogik muammodir. O‘qituvchilik mutaxassisligiga ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida to‘plangan tajribalarga, ilmiy-uslubiy qo‘llanmalarga, ilgari surilgan g‘oyalarga, asoslanib, pedagogik amaliyotning quyidagi xarakterlarini ajratish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning ta`limiy xarakteri: pedagogik amaliyot talabalarning nazariy tayyorgarligini boyitadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy vazifalarni hal qilish uchun o‘rganilayotgan fanning nazariy qoidalaridan foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning ta`limiy xarakteri samarasi ko‘pincha oliy o‘quv yurti va maktabning o‘zaro aloqasi bilan, olimlar, uslubshunoslar va o‘quv yurti pedagoglari jamoasi hamkorligi hamda ular mehnatida fan va ilg‘or pedagogik tajribada yutuqlarining qo‘llanish darajasi bilan belgilanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning tarbiyalovchi xarakteri: pedagogik amaliyot o‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo‘lajak o‘qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo‘lib hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishiga amaliyot davridagi o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida mustaqil ishlashga ham faol ko‘maklashadi. O‘z-o‘zini tarbiyalash milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi va o‘z navbatida tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning rivojlantiruvchi xarakteri: pedagogik amaliyot talabalarning ruhiy holat va xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi; o‘qituvchining o‘z faoliyatiga nisbatan diqqatini oshirishga, bu esa o‘z kasbiga kasbiy munosabatini shakllantirishga, ta`limiy yoki tarbiyaviy tadbirlarni ma`lum mantiqqa, tizimga solishga intilishini kuchaytirish bilan bir qatorda atrofdagi kishilarga nisbatan ularda xotira, tafakkur, tasavvur, irodani rivojlantirishga, o‘z fanida uchrab turadigan turli atamalar, formulalar, tenglamalar tushunchalarni chuqurroq tahlil qilishga, o‘z faniga ijodiy yondashishga olib keladi.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar ba`zi turdagi tadqiqot ishlarini, darsni psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilishni, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishni, sinf jamoasini va o‘quvchi shaxsini jamuljam tarzda o‘rganishni, o‘quvchilar bilan tajriba ishlarini olib borishni, o‘zidan katta hamkasabalarining, moxir pedagoglarning ishlarini bevosita kuzatishni, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishni yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni ham ko‘zda tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda o‘quv amaliyotining maqsadi va vazifalari: butun o‘quv jarayonlarida egallagan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni sinash hamda ularni hayotda qo‘llashni talabalarga o‘rgatish. O‘qituvchi, murabbiy va tashkilotchi ixtisosligini egallashda davlat hamda jamoatchi sport tashkilotlarining, ayniqsa ularning quyi bo‘linmalari (tuman, shaxar sport tashkilotlari, sportklublar, sog‘lomlashtirish markazlari, jismoniy tarbiya jamoalari, aholi turar joylari) ish faoliyatlari bilan amaliy jihatdan qurollantirish asosiy maqsadni tashkil etadi. Shu maqsad asosida quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Uslubshunoslarni to‘g‘ri tanlash va ularni asosiy talablarni bajarishga yo‘llash;
2. Talabalarning ish intizomini mustahkamlash va mas`uliyatini oshirishga doir faoliyatlarni, usullarni qo‘llash;
3. Jismoniy tarbiya tadbirlarida milliy qadriyatlardan foydalanishga e`tiborni jalb etish.
4. Amaliyot jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda o‘quv amaliyotininig mazmuni: hayotiy tajribalar, amaliy sinov ishlari shuni isbotladiki, bitiruvchi talabalarga jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda uni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘rgatish kerak. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani xamda sport ixtisosligida (sport turlari) o‘qitilgan, amaliy jihatdan qurollantirilgan mazmunlar asosida o‘quv amaliyotini tashkil qilish lozim. Bunda o‘quv-trenerovka mashg‘ulotlari milliy o‘yinlar, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hujjatlarini rasmiylashtirish hamda ular bilan aloqador faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv amaliyoti mazmuni quyidagi faoliyatlarni o‘z ichiga olishi lozim:

-Amaliyot o‘tiladigan joyni tanlash, ish jarayonlari va unga rahbarlik xususiyatlari bilan tanishish;

-Amaliyot jarayonida olib boriladigan ishlarni rejalashtirish (shaxsiy ish rejalari);

-Ommaviy sog‘lomlashtirish tashkiliy (yillik) sport tadbirlarini (kalendar) rejalashtirish;

-Sport mashg‘ulotlarini (trenirovka) uyushtirish bilan bog‘liq hujjatlarni (yillik, oylik jadvallar, oylik ish rejalar, konspektlar) tayyorlash;

-Sport musobaqalarni tashkil qilish, ularning nizomlarini tayyorlash;

-Ertalabki badan tarbiya va ishlab chiqarishdagi sog‘lomlashtirish mashqlar majmuasini (kompleks) yoki milliy harakatli o‘yinlar mazmunini tuzish;

-Ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;

-Shahar (tuman) sport qo‘mitalari ish faoliyati bilan amaliy tanishish;

-Ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishga ajratilgan moddiy manba`lar asosida smetalar tuzish.

-Amaliyot jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Jamoatchi yo‘riqchi murabbiy va hakamlarni tayyorlash

-O‘quv amaliyotining borishini aks ettiruvchi kundalikni tutish;

-Barcha faoliyatlar haqida qisqacha hisobot tayyorlash;

-O‘quv amaliyotining boshlanishi va uning yakunlashuviga bag‘ishlab anjumanlar o‘tkazish.

O‘quv amaliyotiga rahbarlik qilish, uni o‘tkazish joyi va muddati

O‘quv amaliyotiga rahbarlik qilish, uni nazorat etish va ular bilan bog‘liq tashkiliy huquqiy hujjatlarni tuzish asosida universitet o‘quv bo‘lim tomonidan amalga oshiriladi.

Talabalarni ishga taqsimlash komissiyasining (rektor) buyrug‘i asosida brigadalar tuzish va ularga uslubiy-amaliy yordam berish, fakultet rahbarlari (vakillari) va kafedralarning yo‘riqchi-o‘qituvchilari tomonidan boshqariladi.

O‘quv amaliyotini yakunlash va baholash tartiblari: guruhlarda o‘quv amaliyotini yakunlashga doir tayyorgarlik ishlari oxirgi haftada olib boriladi va talabalar tegishli hujjatlarni (o‘quv amaliyoti dasturi asosida) o‘quv amaliyoti rahbariga topshiradilar. So‘nggi ikki kun davomida yakunlovchi hujjatlarni jismoniy tarbiya nazariyasi uslubiyoti kafedrasida ko‘rib chiqiladi, bunda maxsus komissiya tuzilib, unda fakultet o‘quv amaliyoti rahbari, ixtisoslik kafedralarining mudirlari (mas`ul xodim), o‘quv amaliyoti yo‘riqchisi amaliyot o‘tkazilgan joyning yo‘riqchisi ishtirok etadilar. Talabalarning barcha ish faoliyatlari aks ettirilib, ularning mazmuni va talabaning amaliy faoliyati suhbat tariqasida tekshirilib ko‘riladi. Yo‘riqchilar tayyorlab kelgan baholar talabga javob bersa va suxbat jarayonida u tasdiqlansa, baholar o‘zgartirishsiz qoldirilishi mumkin.

Baxolash reyting tizimi talablari asosida bo‘lishi taklif etiladi, o‘quv yili davomida talabalar sinovdan muvaffaqiyatli o‘tsa, u tobora takomillashtirilib boriladi. O‘quv amaliyoti mazmunlarini ifoda etuvchi turli xil ko‘rgazmalar tashkil qilinishi, va ko‘rik-sinovda eng yaxshilari baholanishi, ular moddiy va ma`naviy taqdirlanishi lozim. Bunda talabalar va yo‘riqchilarning faoliyatlari asosiy o‘rinda turadi.

Xulosa o‘rnida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyotning uyg‘unligi muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Nazariy bilimlarning amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lanishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishga hamda pedagogik muammolarni hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotni tizimli tashkil etish, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va reflektiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, nazariya va amaliyot jarayonining uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va malakali pedagog kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmoni.

3. Mirzajonova D., Umarova M., Ashurova G. “Bo‘lajak amaliyotchi psixolog kadrlar kasbiy rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatlari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro – 2008 yil, 70-73 b.

4. Nigmatova M., Nosirova A. “Abu Ali ibn Sino ta`limotida o‘qituvchi va tarbiyalanuvchi munosabatlari talqini” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil, 42-45 b.

5. Rasulov A. “Talabaga tayangan ustoz” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro – 2008 yil, 279-281 b.

6. Rasulov R., Umarov A., Toshmatov M. “Jismoniy tarbiya ta`limini chuqurlashtirishda ibn Sinoning ilmiy merosidan foydalanish yo‘llari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil, 89-92 b.

7. Salomov R. “Mutaxassis kadrlar tayyorlashning muhim bosqichlari va davr muammolari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Toshkent-Jizzax-2009 yil, 11 b.

8. Serimbetov P., Abdaliyev S., Elmuratov B. “Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ko‘p qirrali pedagogik faoliyati haqida” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil., 182-186 b.

INTELLEKTUAL RIVOJLANISH VA SHAXSIY BARKAMOLLIK O‘RTASIDAGI DIDAKTIK BOG‘LANISH

Ernazarov Alisher Ergashevich,
Kimyo International University in Tashkent
Magistratura bo‘limi boshlig‘i, professor v.b., PhD
alexchigatay 1213@gmail.com.
https://orcid.org/0009-0006-0709-0565
Abdullayeva Mohira Amanovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada intellektual rivojlanish va shaxsiy barkamollik o‘rtasidagi didaktik bog‘lanish nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Intellektual rivojlanish talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilsa, shaxsiy barkamollik ma’naviy immunitet, axloqiy sifatlar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi. Maqolada ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi ta’lim jarayonida barkamol shaxs tarbiyasiga olib kelishi, keys-stadi, guruhiy loyihalar va interaktiv internet xizmatlari orqali amaliy jihatdan ta’minlanishi yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar va global tendensiyalar asosida didaktik modelni takomillashtirish zarurati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *intellektual rivojlanish, shaxsiy barkamollik, didaktik bog‘lanish, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, kognitiv kompetensiyalar, ma’naviy immunitet, axloqiy sifatlar, keys-stadi, interaktiv metodlar.*

ДИДАКТИЧЕСКАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМ РАЗВИТИЕМ И ЛИЧНОСТНЫМ СОВЕРШЕНСТВОМ

В статье анализируется дидактическая связь между интеллектуальным развитием и личностной целостностью с теоретической и практической точек зрения. Интеллектуальное развитие служит формированию критического мышления, творческого мышления и познавательных компетенций у учащихся, в то время как личностная целостность развивает духовную устойчивость, моральные качества и социальную ответственность. В статье подчёркивается, как гармония этих двух направлений приводит к воспитанию всесторонне развитой личности в образовательном процессе, что на практике обеспечивается посредством тематических исследований, групповых проектов и интерактивных интернет-сервисов. Также показана необходимость совершенствования дидактической модели на основе национальных ценностей и глобальных тенденций.

A.V.Xutorskoyning fikriga ko‘ra, “kompetentsiya – bu talabaning ma’lum bir sohada samarali ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan, kasbiy faoliyatga tayyorlashda belgilangan ijtimoiy talablar (me’yor)”dir. Bilim, ko‘nikma va malakalarsiz kompetensiyalar mavjud bo‘la olmaydi, lekin kompetensiyalar ulardan keskin farq qiladi. Kompetensiyalar doimo faoliyat shaklida namoyon bo‘ladi, ya’ni mutaxassis o‘zining kasbiy va rasmiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi zarur. Shuningdek, shakllangan kompetensiyalar bitiruvchiga kasbiy faoliyatning turli sohalarida (texnolog, dizayner, usta, sex boshlig‘i va boshqalar) muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini beradi. Ta’limning kompetentlik paradigmasida kelajakdagi mutaxassislar nostandart ishlab chiqarish sharoitlarida qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar [4].

Ingliz olimi Dj. Raven “Компетентност в современном обществе” nomli kitobida “kompetentlik” atamasini har tomonlama batafsil talqin qilgan. Uning ahamiyati shundaki, olim kompetentlikning psixologik nazariyasini yaratib, uning turlari va tarkibiy qismlari (komponentlari)ni tadqiq qilgan. Raven birinchi bo‘lib kompetentlikning psixologik tabiatiga, inson rivojlanish bosqichlarida kompetentlikning shakllanishi masalasiga e’tibor qaratgan hamda kompetentlikning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘rgangan [5].

I.A.Zimnyaya tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga berilgan ta’riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor va o‘zini tutish, kompetentlik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya’ni kompetensiyani namoyon qilishning yakuniy natijasi sifatida talqin etiladi. Ularni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta’lim jarayonida faol qo‘llanayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: “Kompetensiya” – ma’lum bir sohada faoliyat yuritishda shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanilishi; “kompetentlik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud va potensial layoqatdir [6].

Yevropa Ittifoqida beshta asosiy kompetensiya qabul qilingan: ijtimoiy, kommunikativ, multimadaniy, axborot va uzluksiz ta’lim olish [7].

Biroq, mamlakatimizda oliy ta’lim bitiruvchisi kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlanishi zarur, va bu maqsadga erishish uchun butun hayot davomida uzluksiz ta’lim olish hamda jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda kasbiy karyerasini o‘zgartirish talab etiladi. Jamiyatning har bir a’zosi o‘zining tanlagan yo‘nalishiga qarab shaxsiy martabasi va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishi kerak.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotda zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritadigan mashinasozlik mutaxassislarini tayyorlash uchun individual ta’lim traektoriyasi ishlab chiqildi va bu jarayon asoslandi. Ta’lim olishning shaxsiy yo‘nalishini loyihalash mashinasozlik mutaxassislarining shaxsiy moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ularning asosida loyihalash -konstruksiyalash, ilmiy-tadqiqot yoki ishlab chiqarish texnologik yo‘nalishlarida ta’lim variantlari tanlanadi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish tashkil etiladi. Bu esa bitiruvchilarda muayyan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirib, natijada kompetentlikni rivojlantirishga olib keladi, bu esa tanlangan kasbiy faoliyat yo‘nalishida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy karyerasiga erishishini ta’minlaydi.

Har bir talaba uchun o‘qitishning individual trayektoriyasi va mos individual ta’lim dasturi ishlab chiqiladi va o‘quv jarayonida unga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Talaba o‘zining individual ta’lim yo‘lini tanlaydi, o‘qituvchi esa uning o‘zini o‘zi aniqlashi uchun pedagogik yordam ko‘rsatadi, o‘qitish jarayoniga tuzatishlar kiritib, natijalarini tahlil qiladi. Mutaxassislarni tayyorlash yo‘nalishi umumkasbiy va maxsus fanlar, kasbiy faoliyatning turli usullarini integratsiyalashni o‘z ichiga oladi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarida ishlash uchun kasbiy kompetentlik va kompetensiyalarni har tomonlama shakllantirish imkonini beradi.

Biz o‘rganayotgan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritadigan mashinasozlik mutaxassislarini tayyorlash masalasi Buxoro davlat texnika universitetining “60720800 (5320200) – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni misolida o‘rganildi. Pedagogik amaliyot va kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda 60720800 (5320200) – “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat doirasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– raqobatbardosh mashinasozlik mahsulotlarini yaratishga qaratilgan faoliyat;

– mahsulotlarni va ularning ta’minoti vositalarini ishlab chiqarish uchun yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va mavjudlarini modernizatsiya qilish;

– mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash texnologiyasi va sifatini ta’minlashga oid talablarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– avtomatlashtirishning yangi vositalarini, loyihalash usullarini, texnologik jarayonlar va mashinasozlik ishlab chiqarishini loyihalashtirish, shuningdek, matematik, fizik va kompyuter modellashtirish usullarini yaratish va qo‘llash;

– mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlari, ularni jihozlash vositalari, avtomatlashtirish tizimlari, dastgohlarni boshqarish va nazorat qilish tizimlarini ta’minlash.

Mamlakatimizda uzoq vaqt davomida, jumladan mashinasozlik sohalari uchun muhandis-texnik kadrlarni tayyorlashda asosan o‘quv rejasini o‘zlashtirishga, talabchanlik va mas’uliyatlilikni rivojlantirishga hamda kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bo‘lgan aniq bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan o‘qitishning an’anaviy tizimidan foydalanib kelindi. Ko‘p yillar davomida bu tizim malakali mutaxassislar tayyorlash imkonini berdi. O‘qitishning an’anaviy tizimi muhandislarni tayyorlashda quyidagi afzalliklarga ega edi:

- bu tizim ko‘plab mamlakatlarda qo‘llanilgan va hali ham qo‘llanilmoqda hamda vaqt sinovidan o‘tgan;
- u muayyan fan sohasi bo‘yicha aniq bilimlarni beradi;
- mas’uliyat, intizom va talabchanlikni rivojlantiradi;
- o‘qituvchilar bo‘lajak muhandislarni tayyorlashning texnologik jarayonini to‘liq ishlab chiqqanlar.

Ammo ushbu tizimning qator muhim kamchiliklari ham mavjud:

- real ishlab chiqarish sharoitlarini aks ettirmaydi;
- o‘quv tizimi standart mutaxassislarni tayyorlaydi;
- o‘rganish uchun motivatsiya yetishmaydi;
- reproduktiv o‘qitish usullari ustunlik qiladi.

Shu sababli oliy ta’limni isloh qilish zaruriyati yuzaga keldi. Milliy ta’lim tizimida Yevropa ta’lim tizimidan olingan tajribalarni qo‘llash va ular bilan uyg‘unlikni ta’minlash g‘oyasi ta’limning barcha darajalarida o‘zgarishlarni amalga oshirishning muhim yo‘llaridan biri edi. Ta’limni isloh qilish jarayonida O‘zbekiston Bolonya shartnomasini e’tiborga olishni rejalashtirdi. O‘zbekiston doimiy ravishda ikki bosqichli oliy ta’lim tizimiga o‘tdi (bakalavr + magistr sxemasi asosida) va yangi kredit tizimlari joriy etildi. Shuningdek, bizning oliy ma’lumotli mutaxassislarga beriladigan diplomlarimiz Yevropa standartlariga moslashtirilmoqda va talabalar hamda o‘qituvchilarning akademik harakatchanligi qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Muhokama. Ushbu jarayonlarning natijasi sifatida Buxoro davlat texnika universitetining muhandislarni tayyorlashning ko‘p bosqichli tizimiga izchil o‘tishi amalga oshirildi. 2021 yilda universitet to‘liq Yevropa ta’lim tizimiga o‘tdi, shu jumladan, 60720800 (5320200) – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash dasturi ishlab chiqildi.

Davlat ta’lim standartida texnika oliy ta’lim muassasalarining “60720800 (5320200) – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak kadrlarning kelgusida kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan quyidagi kompetensiyalarni egallashlari kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan:

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

namunaviy va nostandart texnologik jarayonlarni, texnologik jihozlarni, ularning elementlarini, moslama, kesish va o‘lchash asboblarini, qismlar va detallarini, mashinasozlik ishlab chiqarishida avtomatik boshqarish va rostlash tizimlarini loyihalash;

tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik va informatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini ish bajarish darajasiga yetkazish va o‘zlashtirish;

amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llashni o‘zlashtirish;

mashinasozlik ishlab chiqarishida usta, katta usta, sex operatori, avtomatik liniya markazi operatori, texnolog, ishlab chiqarish mexanigi faoliyatlarini olib borish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish, qobiliyatlariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;

ishlab chiqarish qarorlarini, shu jumladan innovatsion texnologiyalar to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda o‘ziga xos xatarlarni tahlil qilish qobiliyati;

ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy tadqiqot institutlarining rolini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash, rejalashtirish va prognozlash ko‘nikmalari;

konstruktorlik, yig‘ish, sinash va boshqa yo‘nalishlarda ishlab chiqarish faoliyatini sifatini boshqarish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

mashinasozlik ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari va texnologik jihozlarini tayyorlashda texnik hujjatlar (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) ishlab chiqish;

mashinasozlik ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlarni, jumladan avtomatlashtirilgan, raqamli dasturda boshqariladigan, moslanuvchan ishlab chiqarish va nostandart jihozlarni montaj qilish va sozlash bo‘yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;

ishlab chiqarish korxonasining ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta’minotini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarish korxonasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxona, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma’lumot to‘plash tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqaruvchi sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash;

ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish qobiliyati.

Talabalarni ta’lim tizimi darajalari bo‘yicha o‘qitish qisqa vaqt ichida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli tayyorgarlik ko‘rish, turli darajadagi ixtisosliklar bo‘yicha bilim olish imkoniyatini beradi va keyin magistratura bosqichida o‘qish uchun eng iqtidorli va qobiliyatli talabalarni saralashga imkon yaratadi. Bugungi kunda institutning ko‘p bosqichli ta’lim tizimiga o‘tishini ta’minlash, undagi ta’lim jarayonini oliy ta’limning xalqaro standartlariga moslashtirishni talab etadi.

Biroq, to‘rt yillik o‘quv davri dars soatlari sonini qisqartiradi va yuqori texnologiyali sohalarda samarali ishlash uchun bo‘lajak mashinasozlik mutaxassislari o‘zlarining kasbiy kompetensiyalari va malakalarini o‘tmishda ta’lim olgan muhandis-mexaniklarga nisbatan qisqaroq vaqt ichida egallashi va rivojlantirishi lozimligi talab etilmoqda.

Zamonaviy mutaxassis muhandislik va texnologiya, konstruksiyalash asoslari sohasida keng bilimlarga ega bo‘lishi, ishlab chiqarish vaziyatlarini boshqarish usullari, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida yaxlit tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, u iqtisodiyotning yuqori texnologik sohalarida ishlashga tayyor bo‘lishi lozim. Bunga erishish uchun zamonaviy amaliy dasturlarni egallash, ishlab chiqarish va tadqiqot muammolarining eng maqbul yechimlarini topish uchun modellashtirish qobiliyati, axborot kompetensiyasi, loyihalash, ishlab chiqarish, texnologik va tadqiqot muammolarini hal qilish kompetentligini rivojlantirish talab etiladi. Bo‘lajak mutaxassislar o‘z malakasini doimiy ravishda oshirib borishi va yuqori texnologik korxonalardagi kasbiy faoliyatga tezda moslashishi hamda o‘z karyerasini bosqichma-bosqich ko‘tarilishi uchun sharoit yaratishi lozim. Yuqorida aytilgan mulohazalarning barchasi laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘quv kurslari va diplom loyihalarini bajarishda turli kasbiy vazifalarni kompyuter va modellashtirishning axborot texnologiyalari hamda usullaridan keng foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatning axborotlashtirish jarayoni kundan-kunga rivojlanib borishi bilan bog‘liq axborot kompetensiyalarining ahamiyati ortib boradi. Axborot texnologiyalarini puxta bilish, ularning professional sohada qo‘llanilishini tushunish, kuchli va zaif tomonlarini yaxshi anglash, bugungi kundagi professionalning muhim kasbiy va shaxsiy sifatlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, innovatsion yondashuv asosida talabalarning yuqori texnologik korxonalardagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda ta’lim tizimining yangi bosqichiga o‘tish, ya’ni kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv texnik sohadagi ta’limni yuqori texnologik ishlab chiqarish korxonalaridagi talablariga moslashtiradi, talabalarning kreativ va texnik ijodkorligini kengaytiradi hamda raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 8-oktyabr) PF- 5847-sonli Farmoni, 1-ilova 9-bandi // https://lex.uz/docs/4545884.

2. Muslimov N.A. va boshqalar. “Innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T: -2016. – 147 b.

3. Медведев В.Е., Татур Ю. Подготовка преподавателя высшей школы: компетентносный подход высшее образование в России // Высшее образование в России. – М.: 2007. – №71. С.46-47.

4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Учение в обновляющейся школе. Сборник научных трудов. – М.: ИОСО РАО, 2002. С.135 – 157.

5. Равен, Дж. Компетентность в современном обществе / Д. Равен. – М.: «КОГИ-ТО-ЦЕНТР», 2002. С.102.

6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - №5. - С.19.

7. O‘rinov U.A. Texnika oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Monografiya.//Buxoro, “Buxoro nashriyoti” - 2021.220 b.

8. Turayev X.A. Talabalarning loyihalash – konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar. – “Texnik ta’lim va innovatsiya” jurnali. – 2021. – №4. – B. 32–38.

9. Hakimov J.O. Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan kompleks foydalanish asosida rivojlantirish. Diss. ... ped. fan. dok. –T.: 2020.-340 b.

10. Himmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2018. - 70 b.

11.Kadirov X.Sh. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2020. – 70 b.

12. Kamolxo‘jayev Sh. Mavzulararo aloqadorlik – o‘qitish samaradorligini oshirish omili // Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnali.– Toshkent, 2005. – № 4. – 3-b.

13. Muradova F.R. Ta’lim jarayonini o‘yinli o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil etish bosqichlari / Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy texnikaviy jurnal. Buxoro, 2018. №5. 171-175 b.

14. Olimov Q.T., Ashurova S.Yu., O‘rinov U.A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: Monografiya. – Toshkent, 2007. - 96 b.

15. Adizova S.Y. Innovatıon In Scıence, Educatıon, And Productıon Integratıon As A Successor // International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 8, 2020, pp. 3167-3172. http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/issue/view/290

16. Bloom B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives, Handbook I: The Cognitive Domain. New York: David McKay Co Inc.

UO‘K 37.02:378.14

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK FIKR G‘OYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI

Akbarova Feruza Uktamjonovna,
Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasi
tayanch doktoranti, Qo‘qon, O‘zbekiston
feruzaakbarova420@gmail.com

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikr g‘oyalaridan foydalanishning mavjud holati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida pedagogika nazariyasi, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, kreativ pedagogika hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘qitish jarayonining bugungi holati yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati hamda xalqaro ta’lim standartlariga moslashuv jarayonlari keng tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik fikr g‘oyalarining mazmun-mohiyati, ularning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida xorijiy va milliy pedagogik tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, zamonaviy pedagogik g‘oyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning amaliy jihatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada pedagogik ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda talabalar mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, milliy pedagogik meros hamda jadid pedagoglari qarashlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy pedagogik tafakkurni shakllantirish, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish hamda pedagogik ta’lim sifatini oshirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Nazariya, Pedagogika , xalqarolashuv, bilim, asos, tizim, rivojlantirish, takomillashtirish, ta’lim, adabiyot, zamonaviy tarix.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ БУДУЩИМИ УЧИТЕЛЯМИ

В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализировано современное состояние использования современных педагогических идей будущими учителями. В исследовании освещается текущее состояние преподавания теории педагогики, развития педагогической мысли, креативной педагогики и инновационных образовательных технологий в высших педагогических учебных заведениях. Кроме того, рассматриваются реформы, осуществляемые в системе образования, государственная политика, направленная на повышение качества подготовки педагогических кадров, а также процессы адаптации к международным образовательным стандартам. В статье раскрываются сущность и значение современных педагогических идей в развитии профессиональной компетентности будущих учителей. Особое внимание уделяется педагогической эффективности компетентностного подхода, интерактивных методов, развитию креативного и критического мышления, использованию цифровых технологий и образовательных средств на основе искусственного интеллекта. В ходе исследования был проведён сравнительный анализ отечественного и зарубежного педагогического опыта, а также показаны практические аспекты внедрения современных педагогических идей в образовательный процесс. Также особое внимание уделено обеспечению интеграции теории и практики в педагогическом образовании, поддержке самостоятельности студентов на семинарских и практических занятиях, а также эффективному использованию национального педагогического наследия и взглядов джадидских педагогов. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по формированию современного педагогического мышления у будущих учителей, развитию инновационных подходов и повышению качества педагогического образования..

Ключевые слова: *теория, педагогика, интернационализация, знания, основа, система, развитие, совершенствование, образование, литература, современная история.*

THE CURRENT STATE OF USE OF MODERN PEDAGOGICAL IDEAS BY FUTURE TEACHERS

Article analyzes the current state of the use of modern pedagogical ideas by future teachers from a scientific and pedagogical perspective. The study highlights the present condition of teaching pedagogy theory, the development of pedagogical thought, creative pedagogy, and innovative educational technologies in higher pedagogical education institutions. In addition, the article examines educational reforms being implemented in the education system, state policies aimed at improving the quality of teacher training, and the processes of adapting to international educational standards. The article reveals the essence and significance of modern pedagogical ideas in developing the professional competence of future teachers. Particular attention is paid to the pedagogical effectiveness of competency-based approaches, interactive methods, the development of creative and critical thinking, digital technologies, and artificial intelligence–based educational tools. During the research, national and foreign pedagogical experiences were comparatively analyzed, and practical aspects of implementing modern pedagogical ideas into the educational process were demonstrated. Furthermore, special emphasis is placed on ensuring the integration of theory and practice in pedagogical education, supporting students’ independence during seminars and practical classes, and effectively using national pedagogical heritage and the views of Jadid educators. Based on the research findings, scientific and practical recommendations were developed to improve pedagogical education quality, foster innovative approaches, and shape modern pedagogical thinking among future teachers.

Keywords: *theory, pedagogy, internationalization, knowledge, foundation, system, development, improvement, education, literature, modern history*

Kirish. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, pedagogik kadrlar salohiyatini yuksaltirish hamda xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh o‘qituvchilarni tayyorlash bugungi kunda davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni [1] hamda Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 289-sonli qaroriga ko‘ra **“**Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida”[2] qator ishlar amalga oshirildi.

Qolaversa, 2020-yil 7-maydagi PF-5963-son “Ta’lim tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida [3] kelajak avlod uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, kreativ fikrlovchi kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jihatdan, pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ular kelajak avlodni tarbiyalovchi pedagog kadrlarni tayyorlaydi.

O‘zgargan jamiyat talablariga mos barkamol insonni shakllantirishi lozim bo‘lgan pedagogika kechagi xulosalar bilan bugun muvaffaqiyat qozona olmasligi ayon. Bugun tarkib topayotgan pedagogik qarashlar va fikrlar tizimida davrning ilg‘or belgilari qanchalik to‘liq aks etsa, bu qarashlar va fikrlar bergan tavsiyalarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo‘ladi[4]. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Pedagogika fanlarini o‘qitishda milliy pedagogik merosni o‘rganish bilan bir qatorda jahon pedagogik tajribasi ham tahlil qilinmoqda. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion pedagogik faoliyat asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogik fikr va g‘oyalarni o‘rganish jarayonida ilmiy tadqiqot ishlari ham muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalarida magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar va pedagogik tajribalar orqali zamonaviy pedagogik g‘oyalar chuqur o‘rganilmoqda. Bu esa pedagogika fanining rivojlanishiga hamda yangi ilmiy g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Mavzuning dolzarbligini pedagogika sohasidagi yetakchi olimlardan N.Erkaboyeva, A. Tursunov, M. Jumayeva va Egamberdiyevalarning olib borgan ishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Milliy tadqiqotlarda interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvlarning afzalliklari ko‘rsatilgan, tafakkur tamoyillarini o‘rganishda yosh pedagoglarning **analitik, kreativ va ijtimoiy**

ko‘nikmalari markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Tadqiqotchilar fikricha, pedagogik g‘oyalarni kreativ talqin qilish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogika nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik g‘oyalar evolyutsiyasi ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Jumladan, B.X. Xodjayev pedagogika fanining rivojlanishini ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq holda tahlil qilib, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurligini asoslab beradi Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik fikr g‘oyalaridan foydalanish jarayonida nazariya va amaliyot bir-biriga uyg‘unlashmagan. Bu mavzu tadqiqotlarda samaradorlik va dolzarblik nuqtayi nazaridan baholangan, lekin amaliyotda nazariy darslarda yanada tizimlashtirish va seminar mashg‘ulotlarida amaliy rivojlantirish zaruratini tug‘dirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy va milliy ta’lim tizimidagi tajribalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish: bu metod quyidagilarni nazarda tutadi: turli mamlakatlar ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik fikrlashni rivojlantirish usullarini o‘rganish, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar ta’lim tizimlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, Xorijiy ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini baholash, ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish.[8]

Pedagogik kuzatish va tajribalar o‘tkazish: bu metod quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilar yoki talabalar orasida kreativ fikrlash darajasini aniqlash, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish, natijalarni kuzatish va qayd etish, tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etish orqali tavsiya etilayotgan metodlar samaradorligini tekshirish. [10]

Bugungi kunda pedagogik fikr va g‘oyalarni o‘rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli ta’lim vositalari keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, hamkorlikda o‘rganish, kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari muhim o‘rin egallaydi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Natijalar. O‘zbekiston ta’limi jarayonida pedagogik kadrlarni tayyorlash va pedagogika fanini o‘qitish sohalarida yangilanish kuzatilmoqda. Bu jarayon ta’lim berishning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga o‘tishni tezlashtirmoqda. Shu o‘rinda pedagogika sohasini o‘qitishda bir qator o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin .

– Zamonaviy boshqaruvda ta’lim sifatini baholash va monitoring:

Bunda Oliy ta’lim muassasalari pedagogi xodimlarini salohiyatini oshirish, ularning mehnat faoliyatiga qulayliklar olib kirish, samarali ta’lim berish jarayonini yanada rivojlantirish maqsad qilingan.

– Xalqaro standartlarga moslashish :

O‘qituvchilarni tayyorlashda mehnat bozoriga xos bilimlarni berish, ta’limni iqtisod bilan bog‘lash , xalqaro tajribalardan foydalanish.Xalqarolashuv, globallashuv jarayoniga tayyorlanish

– Ta’lim tuzilishining o‘zgarishi :

Sohada o‘qish muddatining o‘zgarishi yuzaga keldi. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim va muhandislik grafikasi, texnologik ta’lim, tasviriy san’at ,jismoniy tarbiya, ,musiqa ta’limi kabi ba’zi yo‘nalishlarda o‘qitish muddatlari qisqartirildi.

– Ta’lim klasterini hosil qilish:

Ta’limda integratsiyani kuchaytirish. Masalan pedagogika sohasiga bog‘liq bo‘lgan fanlarni o‘ziga xos tarzda o‘quv dasturlarida mavzularni birlashtirish. Pedagogik jarayonga xizmat qiluvchi fanlarni qamrab olish, xuddi uzluksiz ta’limda tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar, ta’lim menejmenti sohalarini qamrab olingani kabi.

– Milliy pedagogik merosdan foydalanish darajasini oshirish:

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda ilmiy va badiiy adabiyotlar fondidan samarali foydalanishni rag‘batlantirish.Manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish , ma’naviy yangilanish muhitiga ommaviy madaniyatning salbiy jihatlaridan qochgan holda kirib borish immunitetini shakllantirish.

– Fikrlash texnikasini oshirish:

Tanqidiy, tahliliy, kreativ fikrlashga ustunlik berish orqali ma’ruza, seminar mashg‘ulotlarida talabalarni g‘oyalar, mafkuraviy qarashlar, nazariyalarni talqin qilishlarida mustaqillik berish.Qiyosiy pedagogikani rolini oshirish.

Ko‘rinib turibdiki Zamonaviy ta’lim paradigmasining o‘zgarishi sharoitida pedagogik oliy ta’lim tizimining transformatsiyasi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va yangilash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan nafaqat an’anaviy bilimlar, balki kreativ fikrlash, muammolarni noan’anaviy hal qilish va murakkab vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyati talab etilmoqda.

Xulosa va takliflar. Pedagogik fikr va g‘oyalarni o‘rganishning hozirgi holati ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan pedagogik fikrlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali pedagogikani o‘qitishda zamonaviy pedagogik fikrni o‘sha davrlarda dolzarb bo‘lgan taraflarini ochib berish, O‘zbekistondagi pedagogik vaziyatni rivojiga bog‘lash , Jadid pedagoglarining qarashlari bugungi nazariyalarda mavjudligi, ilk mustaqillik davridagi ilmiy g‘oyalarning hozirgi kundagi ahamiyati to‘g‘risida bilimlarni kengaytirish kelgusida pedagogika sohasini rivojiga alohida ta’sir o‘tkazadi**.**

Jahon tajribasidan ko‘rganimiz Pedagogik tafakkur va kreativ yondashuvni sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida ochib berish, ijtimoiy qobiliyatlarni pedagogik qobiliyat bilan birlashtirish, interaktiv o‘quv strategiyalari va muayyan ilmiy mahsulotni pedagogik jarayonga tatbiq qilishda innovatsion metodlardan foydalanish orqali pedagogik ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik fikr - g‘oyalarni kelajak o‘qituvchilarga samarali o‘rgatish mumkin bo‘ladi. Demak talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim muhitini yaratish ilmiy konsepsiyalarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-maydagi PF-5963-son “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. Akram Sohibov. Pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Qarshi. 2023.

5. Abdullayeva S.B. O‘qituvchi kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020.

6. Erkaboyeva N.Sh. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogik fikrlarni rivojlanishi (1992-2005-yillar) Monografiya. – T.:2006-y.

7. Xolmatova S. Pedagogik oliy ta’lim transformatsiyasi jarayonlarida talabalarni kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi.// Inter education & global study. 2025. Vol.3 № 4 (1). B.283–290.

8. Abdullayeva S.B. O‘qituvchi kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2020.

9. Egamberdiyeva N.M. Pedagogik ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masalalari. “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, 2022, №3, 45-52-betlar.

10. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2019.

11. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press, 2015.

12. Madaminov, Furqatjon Shuhratjonovich and Dilrabo Sa’dulla Qizi Axmedova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zini-o‘zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish. // Science and Education 4.5 (2023): 1024 -1027.

MUSTAQIL TA’LIM ASOSIDA TALABALARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Aliyev Islambek Tursinbayevich,
Renessans ta’lim universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Mazkur maqolada mustaqil ta’lim asosida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida talabadan nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish, amaliyotga tatbiq etish hamda o‘z pedagogik faoliyatini refleksiv baholash talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’lim talabaning kasbiy shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada pedagogik kompetensiyaning tuzilmasi, uning tarkibiy komponentlari hamda mustaqil ta’lim jarayonida rivojlanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqil ta’limni samarali tashkil etish yo‘llari, interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar, loyiha ishlari, refleksiv yondashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mustaqil ta’lim talabalarda pedagogik tafakkur, ijodkorlik, mas’uliyat, o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqola oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, pedagogik kompetensiya, talaba, kasbiy rivojlanish, refleksiya, interfaol metodlar, loyiha faoliyati, pedagogik tafakkur, o‘z-o‘zini rivojlantirish, innovatsion yondashuv.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты развития педагогических компетенций студентов на основе самостоятельного образования. В современной системе образования от студента требуется не только усвоение готовых знаний, но и их самостоятельный поиск, анализ, применение на практике, а также рефлексивная оценка собственной педагогической деятельности. С этой точки зрения самостоятельное образование выступает важным фактором профессионального становления личности. В статье анализируются структура педагогической компетенции, её основные компоненты, а также знания, умения и навыки, формирующиеся в процессе самостоятельного обучения. Кроме того, раскрываются эффективные пути организации самостоятельного образования, возможности использования интерактивных методов, проблемных заданий, проектной деятельности, рефлексивного подхода и информационно-коммуникационных технологий. Результаты исследования показывают, что самостоятельное образование способствует развитию у студентов педагогического мышления, творческого подхода, ответственности, самоуправления и профессиональной адаптивности. Статья может служить важной научно-методической основой для совершенствования профессиональной подготовки будущих педагогов в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *самостоятельное образование, педагогическая компетенция, студент, профессиональное развитие, рефлексия, интерактивные методы, проектная деятельность, педагогическое мышление, саморазвитие, инновационный подход.*

WAYS OF DEVELOPING STUDENTS’ PEDAGOGICAL COMPETENCIES ON THE BASIS OF INDEPENDENT LEARNING

This article highlights the theoretical and practical aspects of developing students’ pedagogical competencies on the basis of independent learning. In the modern education system, students are expected not only to acquire ready-made knowledge, but also to search for information independently, analyze it, apply it in practice, and reflect on their own pedagogical activity. From this perspective, independent learning becomes an important factor in students’ professional formation. The article analyzes the structure of pedagogical competence, its main components, and the knowledge, skills, and abilities developed through independent learning. It also reveals effective ways of organizing independent learning, including the use of interactive methods, problem-based tasks, project work, reflective approaches, and information and

communication technologies. According to the research findings, independent learning contributes to the development of pedagogical thinking, creativity, responsibility, self-management, and professional adaptability in students. The article serves as an important scientific and methodological source for improving the professional training of future teachers in higher education institutions.

Keywords:*independent learning, pedagogical competence, student, professional development, reflection, interactive methods, project activity, pedagogical thinking, self-development, innovative approach.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, xususan, bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda global raqobatning kuchayishi oliy ta’lim oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal etish qobiliyatini, kreativ yondashuvini va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’lim talabaning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqil ta’lim – bu talabaning o‘z bilim faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi, maqsad qo‘yishi, axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va umumlashtirish orqali yangi bilimlarni egallash jarayonidir. U talabaning faolligini oshiradi, shaxsiy mas’uliyatini kuchaytiradi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun mustaqil ta’lim nafaqat bilim olish vositasi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatining muhim modeli ham hisoblanadi. Chunki pedagog shaxsida mustaqil fikrlash, refleksiya, innovatsion yondashuv va uzluksiz o‘rganishga tayyorlik asosiy kompetensiyalar sifatida qaraladi.

Pedagogik kompetensiya tushunchasi bugungi kunda ko‘p qirrali kategoriya sifatida talqin etilib, u bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyatlar va shaxsiy sifatlarning integratsiyasini o‘zida mujassam etadi. Talabalarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish esa an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda mustaqil ta’limni samarali tashkil etishni talab etadi. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, loyiha faoliyatida ishtirok etish hamda refleksiv tahlil qilish orqali pedagogik kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish masalasi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi aniq mexanizmlari va samarali yo‘llarini tizimli asosda yoritish zarurati mavjud. Ayniqsa, mustaqil ta’limning interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va refleksiv yondashuvlar bilan integratsiyasi pedagogik tadqiqotlarda alohida e’tibor talab etadi.

Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi – mustaqil ta’lim asosida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning samarali pedagogik yo‘llarini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun mustaqil ta’limning mazmuni, shakllari, metodlari hamda pedagogik kompetensiya bilan o‘zaro bog‘liqligi chuqur o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil ta’limni tashkil etish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlarda o‘rganilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda shakllangan ilmiy qarashlar bugungi tadqiqotlar uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo, pedagogik kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishda Aleksey Leontyev, Sergey Rubinstein kabi rus psixologlarining faoliyatga asoslangan yondashuvlari muhim o‘rin tutadi. Ularning fikriga ko‘ra, shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshadi va aynan mustaqil faoliyat bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bu yondashuv mustaqil ta’limni pedagogik kompetensiyani shakllantirishning muhim vositasi sifatida talqin etishga imkon beradi.

Pedagogik kompetensiyaning tuzilmasi va uning kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligi masalasi Nina Kuzmina tomonidan keng tadqiq etilgan. U pedagogik kompetensiyani o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi sifatida baholab, uning tarkibiga bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni kiritadi. Shu bilan birga, Vladimir Slastenin pedagogik kompetensiyani shaxsning kasbiy madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi va uni rivojlantirishda ta’lim jarayonining faol, interfaol shakllariga alohida e’tibor qaratadi.

Mustaqil ta’limning nazariy asoslari va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni John Dewey tomonidan ilgari surilgan “learning by doing” tamoyili asosida izohlanadi. Olimning fikricha, bilimlar faqat amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlanadi va o‘quvchining mustaqil tajribasi orqali chuqurlashadi. Ushbu yondashuv mustaqil ta’limni pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ham mustaqil ta’limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. U “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi orqali o‘quvchining mustaqil

va yordam bilan bajariladigan faoliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab beradi. Bu esa mustaqil ta’limni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish masalalari Malcolm Knowlesning andragogika nazariyasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. U kattalar ta’limida o‘quvchining mustaqilligi, ichki motivatsiyasi va tajribasiga tayanish muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda dolzarb hisoblanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham mazkur muammo keng o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekiston pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion metodlarni joriy etish masalalari alohida tadqiq etilgan. Ushbu ishlarda mustaqil ta’limning pedagogik samaradorligi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ta’siri hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyasi yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy adabiyotlarda mustaqil ta’lim va pedagogik kompetensiya tushunchalari alohida-alohida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro integratsiyasi, ya’ni mustaqil ta’lim orqali pedagogik kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish mexanizmlari yetarlicha kompleks yondashuvda tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur maqola aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, mustaqil ta’limni pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida asoslashni maqsad qiladi.

Pedagogik kompetensiya zamonaviy ta’lim paradigmasida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta olishiga xizmat qiluvchi murakkab integrativ sifat sifatida talqin etiladi. U faqat muayyan nazariy bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmay, balki pedagogik vaziyatlarni anglash, tahlil qilish, ularga mos qaror qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalash, muloqot olib borish, refleksiya yuritish va o‘z faoliyatini takomillashtirish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli pedagogik kompetensiya shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, qadriyat va kasbiy pozitsiyasining yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik kompetensiyaning tuzilmasi, avvalo, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir necha tarkibiy komponentlardan tashkil topadi. Birinchi komponent – motivatsion-qadriyatli komponent bo‘lib, u talabaning pedagogik faoliyatga bo‘lgan ichki qiziqishi, kasbga sadoqati, ta’limiy qadriyatlarni anglash darajasi, mas’uliyat hissi va o‘z ustida ishlashga tayyorligini ifodalaydi. Mazkur komponent bo‘lajak pedagogning kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi, chunki mustahkam ichki motivatsiyasiz pedagogik faoliyatga ongli va ijodiy yondashuv shakllanmaydi. Mustaqil ta’lim aynan shu komponentni kuchaytiradi, chunki talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yish, ta’limiy vazifalarni mustaqil belgilash va natijaga erishish uchun mas’uliyatni zimmasiga olishga odatlanadi.

Ikkinchi komponent – kognitiv komponentdir. Ushbu komponent pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar tizimini qamrab oladi. Bunga pedagogika, psixologiya, metodika, didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim texnologiyalari, baholash mezonlari va ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari haqidagi bilimlar kiradi. Kognitiv komponentning rivojlanganligi talabaning kasbiy muammolarni ilmiy-nazariy asosda anglashiga yordam beradi. Mustaqil ta’lim jarayonida aynan shu komponent chuqurlashadi, chunki talaba turli manbalarni izlaydi, o‘rganadi, solishtiradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi. Natijada bilimlar faqat eslab qolingan ma’lumot darajasida emas, balki anglangan, tizimlashtirilgan va amaliyotga tatbiq etishga tayyor shaklda rivojlanadi.

Uchinchi komponent – operatsion-faoliyatli komponent bo‘lib, u pedagogik bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarni ifodalaydi. Ushbu komponent doirasida darsni rejalashtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash, o‘qitish metodlarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni hal etish, ta’lim vositalaridan foydalanish, auditoriya bilan samarali ishlash, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish kabi amaliy jihatlar mujassamlashadi. Mustaqil ta’lim bu komponentning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega, chunki talaba mustaqil topshiriqlar, loyiha ishlari, taqdimotlar, keyslar, amaliy mashqlar va muammoli vaziyatlar orqali nazariy bilimlarni faol qo‘llashga o‘rganadi. Bu esa uning kasbiy harakatlar tizimini shakllantiradi.

To‘rtinchi komponent – kommunikativ komponent hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning samaradorligi ko‘p jihatdan shaxsning muloqot madaniyati, fikrni aniq va ravon ifodalay olishi, tinglash madaniyati, hamkorlikka tayyorligi va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishiga bog‘liq. Pedagog uchun kommunikativ kompetensiya faqat nutqiy faollik emas, balki ta’lim oluvchi shaxsini tushunish, unga ta’sir ko‘rsatish, ijobiy psixologik muhit yaratish va pedagogik muloqotni boshqarish qobiliyatidir. Mustaqil ta’lim jarayonida esse yozish, ilmiy matn bilan ishlash, taqdimot qilish, guruhli muhokamalarda qatnashish, fikr almashish va o‘z nuqtai nazarini asoslash orqali talabada kommunikativ ko‘nikmalar izchil rivojlanadi.

Beshinchi komponent – refleksiv-baholash komponentidir. Bu komponent talabaning o‘z faoliyatini tahlil qila olishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, o‘z-o‘zini baholashi, rivojlanish strategiyasini belgilashi bilan tavsiflanadi. Refleksiya pedagogik kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichidir, chunki o‘z ustida ishlay

oladigan, o‘z faoliyatini tanqidiy baholay oladigan pedagoggina doimiy ravishda professional o‘sishga erishadi. Mustaqil ta’limning o‘zi refleksiv faoliyatni talab qiladi: talaba topshiriqni bajarish jarayonida o‘z bilim darajasini sezadi, yangi ehtiyojlarini anglaydi, kamchiliklarini ko‘radi va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi. Shu jihatdan mustaqil ta’lim refleksiv madaniyatni shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Pedagogik kompetensiyaning qayd etilgan komponentlari mustaqil ta’lim jarayonida turli turdagi bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Avvalo, bilimlar tizimi rivojlanadi. Bular qatoriga pedagogik nazariyalar, didaktik tamoyillar, o‘qitish metodlari, tarbiyaviy yondashuvlar, ta’limni boshqarish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va baholash metodikalariga oid bilimlar kiradi. Mustaqil ta’lim orqali olingan bilimlarning muhim jihati shundaki, ular talabaning shaxsiy intellektual faoliyati mahsuli sifatida shakllanadi. Bunday bilimlar chuqurroq, barqarorroq va funksionalroq bo‘ladi.

Ko‘nikmalar nuqtai nazaridan qaralganda, mustaqil ta’lim jarayonida avvalo axborot bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Talaba turli ilmiy, metodik va elektron manbalarni topish, ularni tanlash, tahlil qilish, ishonchliligini baholash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga o‘rganadi. Shu bilan birga, analitik ko‘nikmalar shakllanadi: taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, muammoni aniqlash va unga yechim topish qobiliyati kuchayadi. Pedagogik jarayonda aynan ana shu ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchining metodik tafakkurini belgilaydi.

Mustaqil ta’lim jarayonida tashkiliy ko‘nikmalar ham sezilarli darajada rivojlanadi. Jumladan, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ta’limiy maqsadni belgilash, ish rejasini tuzish, bosqichma-bosqich harakat qilish, natijani nazorat qilish va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu ko‘nikmalar pedagog kasbi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki o‘qituvchi o‘z faoliyatini ham, o‘quvchilar faoliyatini ham rejalashtirish va boshqarishga mas’ul hisoblanadi.

Malakalar jihatidan esa mustaqil ta’lim talabaning bilimlarni amalda barqaror qo‘llay olish qobiliyatini mustahkamlaydi. Masalan, dars ishlanmasi tayyorlash, o‘quv topshiriqlarini tuzish, taqdimot materiallarini ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, baholash mezonlarini qo‘llash, pedagogik vaziyatga mos metod tanlash kabi malakalar muntazam mustaqil faoliyat natijasida shakllanadi. Mazkur malakalar talabaning nazariy tayyorgarligini real pedagogik harakatga aylantiradi.

Bundan tashqari, mustaqil ta’lim ijodiy ko‘nikma va malakalarni ham rivojlantiradi. Talaba tayyor namunalarni takrorlash bilan cheklanib qolmay, yangi yondashuvlarni izlaydi, noan’anaviy yechimlar topadi, mustaqil fikr bildiradi va o‘z pozitsiyasini asoslaydi. Aynan shu jihat bo‘lajak pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilaydi. Chunki zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim muhitini yaratuvchi, ta’lim oluvchini ilhomlantiruvchi va metodik yangiliklarni amaliyotga olib kiruvchi ijodkor shaxs bo‘lishi zarur.

Shunday qilib, pedagogik kompetensiya o‘zaro bog‘liq motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli, kommunikativ va refleksiv komponentlardan iborat yaxlit tuzilma hisoblanadi. Mustaqil ta’lim esa ushbu komponentlarning har birini izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U orqali talabada kasbiy bilimlar chuqurlashadi, amaliy ko‘nikmalar shakllanadi, mustahkam malakalar hosil bo‘ladi, o‘z-o‘zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, refleksiya va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Demak, mustaqil ta’limni pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko‘rish ilmiy va amaliy jihatdan to‘la asoslangan.

Xulosa. Mustaqil ta’lim zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning eng muhim va samarali omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U talabaning faqat nazariy bilimlarni egallashiga emas, balki ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, amaliyotga tatbiq etish, o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirishga yo‘naltiradi. Shu jihatdan mustaqil ta’lim bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishida uzluksiz rivojlanish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik kompetensiya motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion-faoliyatli, kommunikativ va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligida shakllanadi. Mazkur komponentlarning har biri mustaqil ta’lim jarayonida izchil rivojlanib, talabaning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, mustaqil ta’lim talabada pedagogik tafakkur, ijodiy yondashuv, mas’uliyat, o‘z-o‘zini boshqarish, analitik fikrlash va kasbiy moslashuvchanlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lajak pedagogning kelgusidagi amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba ilmiy manbalar bilan ishlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘qitish metodlarini tanlash, dars jarayonini rejalashtirish, refleksiya yuritish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga o‘rganadi. Bu esa uning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki professional salohiyatini ham oshiradi.

Demak, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni maqsadli, tizimli va metodik jihatdan puxta tashkil etish talabalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, ta’lim jarayonida mustaqil ta’limning mazmunini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, refleksiv va interfaol yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Natijada, raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan, kasbiy faoliyatga puxta tayyor bo‘lgan pedagog kadrlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.

2. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 576 с.

3. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

5. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.

6. Knowles M. S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1975. – 135 p.

7. Delors J. et al. Learning: The Treasure Within: Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-First Century. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 266 p.

8. Rychen D. S., Salganik L. H. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. – Paris: OECD, 2005. – 19 p.

9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

10.Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.

UO‘K 37.016:371.3:004

TARIX TA’LIMIDA STEM-INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM METODIKASINING SAMARADORLIGI

Aliyeva Xurshida Shuhrat qizi,
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani
38-maktab tarix fani o‘qituvchisi
axurshida685@gmail.com
ORCID: 0009-0008-3049-6437

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy merosi asosida tarix darslarida STEM-integratsiyalashgan ta’lim metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyatining 5 ta tumanida joylashgan 10 ta umumta’lim maktabida (600 nafar 7-9-sinf o‘quvchilari ishtirokida) tashkil etilib, tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilgan. Kirish testi (pre-test) natijalari tajriba boshlanishida guruhlarning bilim darajalari teng ekanligini ko‘rsatdi (p>0,05). Chiqish testi (post-test) natijalari tajriba guruhidagi o‘sish dinamikasi 7-sinfda 55,6% (15,8 ball), 8-sinfda 66,7% (19,4 ball), 9-sinfda 84,6% (23,5 ball) ni tashkil etganini, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 27,6%, 28,7% va 31,9% ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Statistik tahlil (t-kriteriy) tajriba va nazorat guruhlari orasidagi farqning yuqori darajada statistik ahamiyatli ekanligini isbotladi (t-hisob > t-jadval, p<0,001). Ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodika 7-9-sinf o‘quvchilarining fanlararo bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy ta’limga nisbatan samarali ekanligi statistik jihatdan asoslandi.

Kalit so‘zlar: *STEM ta’limi, pedagogik eksperiment, kirish testi, chiqish testi, o‘sish dinamikasi, Styudentning t-kriteriyi, statistik tahlil, samaradorlik.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИКИ STEM-ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

В данной статье представлены результаты педагогического эксперимента, проведённого с целью определения эффективности методики STEM-интегрированного обучения на уроках истории на основе наследия Абу Рейхана Беруни. Экспериментальная работа была организована в 10 общеобразовательных школах 5 районов Кашкадарьинской области (с участием 600 учащихся 7-9 классов), были сформированы экспериментальные и контрольные группы. Результаты входного теста (pre-test) показали, что уровни знаний групп в начале эксперимента были равными (p>0,05). Результаты итогового теста (post-test) показали, что динамика роста в экспериментальной группе составила 55,6% (15,8 балла) в 7-м классе, 66,7% (19,4 балла) в 8-м классе и 84,6% (23,5 балла) в 9-м классе, тогда как в контрольной группе эти показатели составили 27,6%, 28,7% и 31,9% соответственно. Статистический анализ (t-критерий) доказал, что разница между экспериментальной и контрольной группами является высоко статистически значимой (t-расч > t-табл, p<0,001). Статистически обосновано, что разработанная STEM-интегрированная методика более эффективна для развития междисциплинарных знаний и навыков учащихся 7-9 классов по сравнению с традиционным обучением.

Ключевые слова: *STEM-образование, педагогический эксперимент, входной тест, итоговый тест, динамика роста, t-критерий Стьюдента, статистический анализ, эффективность.*

EFFECTIVENESS OF STEM-INTEGRATED TEACHING METHODOLOGY IN HISTORY EDUCATION

This article presents the results of a pedagogical experiment conducted to determine the effectiveness of a methodology for STEM-integrated education in history lessons based on the legacy of Abu Rayhan Beruni. The experimental work was organized in 10 secondary schools in 5 districts of the Kashkadarya region (with the participation of 600 students in grades 7-9), with experimental and control groups formed. The results of the pre-test showed that the initial knowledge levels of the groups were equal (p>0.05). The results of the post-test showed that the growth dynamics in the experimental group was 55.6% (15.8 points) in grade 7, 66.7% (19.4 points) in grade 8, and 84.6% (23.5 points) in grade 9, while in the control group these figures were 27.6%, 28.7%, and 31.9%, respectively. Statistical analysis (t-test) proved that the

difference between the experimental and control groups is highly statistically significant (t-calc > t-crit, p<0.001). It has been statistically substantiated that the developed STEM-integrated methodology is more effective for developing interdisciplinary knowledge and skills of students in grades 7-9 compared to traditional education.

Keywords: *STEM education, pedagogical experiment, pre-test, post-test, growth dynamics, Student's t-test, statistical analysis, effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvining joriy etilishi o‘quvchilarning fanlararo bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasiga aylandi. Biroq, tarix ta’limida STEM yondashuvini tizimli ravishda qo‘llash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan, uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik eksperimentlar kam uchraydi [1]. Xorijiy tadqiqotlarda [2, 3] STEM integratsiyasining konseptual asoslari, PBL metodologiyasi [4, 5] keng yoritilgan bo‘lsa, mahalliy pedagogikada asosan integratsiyaning ayrim jihatlari (Голубчикова, 2013) [6] va Beruniy merosining ta’limdagi ahamiyati [7, 8] o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida Abu Rayhon Beruniy merosi asosida tarix darslarida STEM-integratsiyalashgan ta’lim metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika 5 ta STEM-modul, 2 ta PBL loyihasi va 2 ta STEM-keysni o‘z ichiga oladi [8]. Metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida keng ko‘lamli pedagogik eksperiment o‘tkazildi.

Maqolaning maqsadi – ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini pedagogik eksperiment natijalari asosida tahlil qilish, kirish va chiqish testlari natijalarini solishtirish hamda Styudentning t-kriteriyi yordamida statistik isbotlashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsad – Beruniy merosi asosida tarix darslarida STEM-integratsiyalashgan ta’lim metodikasining samaradorligini eksperimental asoslash. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy metodlar majmuidan foydalanildi:

Pedagogik eksperiment metodi – ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini amaliy jihatdan tekshirish maqsadida Qashqadaryo viloyatining 5 tumanida joylashgan 10 ta umumta’lim maktabida (600 nafar 7–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida) tajriba-sinov tashkil etildi. Eksperiment 2025–2026 o‘quv yilining 1-choragida (3 oy) bo‘lib, tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhida STEM-integratsiyalashgan ta’lim (5 modul, 2 PBL loyihasi, 2 STEM-keys), nazorat guruhida an’anaviy ta’lim amalga oshirildi [9].

Testlash metodi – tajriba boshlanishida kirish testi (pre-test) va tajriba yakunida chiqish testi (post-test) o‘tkazish orqali guruhlarning boshlang‘ich va yakuniy bilim darajalarini aniqlashda foydalanildi. Testlar Blum taksonomiyasining reproduktiv, produktiv va kreativ darajalari asosida tuzilgan [10].

Qiyosiy tahlil metodi – tajriba va nazorat guruhlarining kirish va chiqish test natijalarini solishtirish, sinflar kesimida o‘sish dinamikasini taqqoslash, shuningdek har bir sinfda STEM komponentlari (Science, Technology, Engineering, Mathematics) bo‘yicha natijalarni qiyoslashda qo‘llanildi [11]. Ushbu metod natijalari maqolada 1–6-jadvallar shaklida keltirilgan.

Statistik tahlil metodi – tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini ta’minlash va metodika samaradorligini ilmiy asoslash uchun Styudentning t-kriteriyi yordamida guruhlar orasidagi farqning statistik ahamiyatliligi aniqlandi. Hisob-kitoblar IBM SPSS Statistics 26.0 dasturida amalga oshirildi. Ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0{,}05$ etib belgilandi. Erkinlik darajasi $df=n_1+n_2-2$ formulasi bo‘yicha hisoblandi (df=100+100-2=198). t-jadval qiymati ($\alpha=0{,}05$, df=198 uchun) 1,97 ga teng [12].

Savollar kesimida tahlil – bu metod xalqaro tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, test savollarini qiyinlik darajasi va mazmun kesimida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metod yordamida kirish va chiqish testlaridagi savollar Blum taksonomiyasining reproduktiv, produktiv va kreativ darajalari hamda STEM komponentlari (S, T, E, M) kesimida tahlil qilinib, qaysi savollar ko‘proq qiyinchilik tug‘dirganligi va ular bo‘yicha o‘sish dinamikasi aniqlandi [13].

Kuzatish metodi – tajriba-sinov davomida o‘quvchilarning STEM-modullar, PBL loyihalari va STEM-keyslardagi faoliyati, guruhlardagi hamkorligi, muhokamalardagi ishtiroki tizimli kuzatilib, natijalar maxsus protokollarga qayd etildi. Kuzatish natijalari tajriba guruhidagi ijobiy o‘zgarishlarning sabablarini chuqurroq tushunishga xizmat qildi [14].

Baholash tizimining validligi va ishonchliligi. Test topshiriqlarining mazmuniy validligini aniqlash uchun 5 nafar ekspert (2 pedagogika fanlari doktori, 3 amaliyotchi o‘qituvchi) jalb etildi. Ekspertlar fikrlarining kelishilganligi Kendallning kelishilganlik koeffitsiyenti (W) orqali baholandi. Hisob-kitoblar natijasida $W = 0{,}84$ ($p < 0{,}01$) qiymati olindi, bu ekspertlar fikrlarining yuqori darajada kelishilganligini ko‘rsatadi [15]. Testlarning ishonchliligi qayta testlash usuli (2 hafta oralig‘ida, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0{,}87$) va ichki uyg‘unlik usuli (Kronbax alfasi $\alpha = 0{,}85$) orqali tasdiqlandi [16].

Yuqorida sanab o‘tilgan metodlar majmui pedagogik eksperiment natijalarini har tomonlama tahlil qilish, STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini obyektiv va statistik jihatdan asoslash imkonini berdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tajriba-sinov bazasi va respondentlar. Pedagogik eksperiment Qashqadaryo viloyatining 5 tumani (Qarshi tumani, Qarshi shahri, Qamashi tumani, G‘uzor tumani, Chiroqchi tumani) hamda ushbu tumanlarga qarashli 10 ta umumta’lim maktabida tashkil etildi. Tanlangan 10 ta maktabning 5 tasida nazorat guruhi (an’anaviy o‘qitish metodi), 5 tasida esa tajriba guruhi (integratsiyalashgan STEM metodi) tashkil etildi. Har bir tumandan 2 tadan maktab tanlanib, ulardan 1 tasi nazorat, 1 tasi tajriba guruhi sifatida belgilandi.

1-jadval. Tajriba-sinovda ishtirok etgan o‘quvchilarning sinflar va guruhlar kesimida taqsimoti

Sinf	Guruh	Jami o‘quvchilar	O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar
7	Tajriba guruhi	100	50	50
7	Nazorat guruhi	100	50	50
8	Tajriba guruhi	100	50	50
8	Nazorat guruhi	100	50	50
9	Tajriba guruhi	100	50	50
9	Nazorat guruhi	100	50	50
Jami		600	300	300

Tajriba-sinov ishlariga jami 600 nafar 7-9-sinf o‘quvchilari jalb etildi. O‘quvchilarning sinflar kesimida taqsimoti teng: 7-sinflar – 200 nafar (100 o‘g‘il, 100 qiz), 8-sinflar – 200 nafar (100 o‘g‘il, 100 qiz), 9-sinflar – 200 nafar (100 o‘g‘il, 100 qiz). Tajribaning haqqoniyligini ta’minlash maqsadida guruhlardagi o‘g‘il va qiz bolalar nisbati teng (1:1) saqlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2025-2026-o‘quv yilining 1-choragida (sentabr – dekabr) olib borildi. Tajribaning umumiy muddati 3 oyni (12 hafta) tashkil etdi.

2-jadval. Tajriba-sinov bosqichlarining muddat taqsimoti

Bosqich nomi	Muddati	Asosiy vazifalar
Boshlang‘ich bosqich	Sentabr (4 hafta)	Kirish testi (pre-test) o‘tkazish, nazorat va tajriba guruhlarining boshlang‘ich darajasini aniqlash
Tajriba bosqichi	Oktabr – noyabr (8 hafta)	Tajriba guruhida STEM-integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirish, nazorat guruhida an’anaviy ta’limni davom ettirish
Yakuniy bosqich	Dekabr (4 hafta)	Chiqish testi (post-test) o‘tkazish, natijalarni qayd etish va statistik tahlilga tayyorlash

Tajriba guruhida STEM-integratsiyalashgan ta’lim amalga oshirildi: 5 ta STEM-modul (jami 20 soat), 2 ta PBL loyihasi (20-22 soat) va 2 ta STEM-keys (10-12 soat) o‘tkazildi. Tajriba guruhidagi o‘qituvchilar uchun 16 soatlik trening-seminar tashkil etilib, ularga STEM-integratsiyalashgan darslarni olib borish bo‘yicha metodik tavsiyalar berildi.

Nazorat guruhida an’anaviy ta’lim davom ettirildi. Tarix fanlari davlat ta’lim standarti va amaldagi o‘quv dasturlari asosida o‘qitildi. Nazorat guruhidagi o‘qituvchilarga metodik tavsiyalar berilmadi.

Kirish testi (pre-test) natijalari. Tajriba boshlanishida 7-9-sinf o‘quvchilarining barchasida kirish testi (pre-test) o‘tkazildi. Test natijalari tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich bilim darajalarini aniqlash, ularning statistik jihatdan tengligini ta’minlash imkonini berdi.

3-jadval. Kirish testi natijalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha ball ko‘rsatkichlari

Sinf	Tajriba guruhi (M 1)	Nazorat guruhi (M 2)	Farq
7	28,4	27,9	0,5
8	29,1	28,6	0,5
9	27,8	28,2	-0,4

Kirish testi natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatsizligini ko‘rsatdi. Har bir sinf bo‘yicha Styudentning t-kriteriyi hisoblandi.

4-jadval. Kirish testi natijalarining statistik tahlili

Sinf	TG (M_1)	NG (M_2)	t-hisob	t-jadval	p-qiymat	95% ishonch oralig‘i	Xulosa
7	28,4	27,9	0,52	1,97	0,603	[-2,6; 3,6]	Farq yo‘q
8	29,1	28,6	0,63	1,97	0,529	[-2,4; 3,4]	Farq yo‘q
9	27,8	28,2	0,48	1,97	0,632	[-3,1; 2,3]	Farq yo‘q

Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob < t-jadval (1,97) va p > 0,05. 95% ishonch oralig‘i nolni (0) o‘z ichiga olganligi ham farqning statistik ahamiyatsizligini tasdiqlaydi. Bu esa tajriba va nazorat guruhlari orasidagi farqning statistik ahamiyatsizligini, ya’ni guruhlarning boshlang‘ich darajada teng ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu xulosa tajriba yakunida olingan farqlarni aynan ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodika ta’siri bilan bog‘lash imkonini beradi.

Savollar kesimida tahlil. Kirish testida eng ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan savollar aniqlandi. Bu savollar asosan Mathematics (M) va Engineering (E) komponentlariga hamda produktiv va kreativ darajalarga tegishli ekanligi kuzatildi.

7-sinfda Science (S) komponenti bo‘yicha savollarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatilgan bo‘lsa (reproduktiv darajada 60-68%), Technology (T) va Mathematics (M) komponentlari bo‘yicha savollar qiyinchilik tug‘dirgan. 13-15-savollar (kreativ darajadagi Technology, Science, Engineering komponentlariga tegishli) eng past natijalarni qayd etdi (20-24%).

8-sinfda Technology & Engineering (T+E) komponenti bo‘yicha savollar qiyinchilik tug‘dirgan. Reproduktiv darajadagi savollarga nisbatan yuqori natijalar (56-68%) ko‘rsatilgan bo‘lsa, produktiv darajada 28-48%, kreativ darajada esa 20-24% natija qayd etilgan.

9-sinfda Technology (T) va Engineering & Mathematics (E+M) komponentlari bo‘yicha savollar qiyinchilik tug‘dirgan. Reproduktiv darajadagi savollarga nisbatan o‘rtacha natijalar (54-64%) ko‘rsatilgan bo‘lsa, produktiv darajada 24-44%, kreativ darajada esa 14-20% natija qayd etilgan.

Chiqish testi (post-test) natijalari. Tajriba-sinov yakunida 7-9-sinf o‘quvchilarida chiqish testi (post-test) o‘tkazildi. Test natijalari tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy bilim darajalarini solishtirish, shuningdek, ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini baholash imkonini berdi.

5-jadval. Chiqish testi natijalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha ball ko‘rsatkichlari va o‘sish dinamikasi

Sinf	Guruh	Kirish testi (M1)	Chiqish testi (M2)	O‘sish (ball)	O‘sish (%)
7	TГ	28,4	44,2	15,8	55,6
7	HГ	27,9	35,6	7,7	27,6
8	TГ	29,1	48,5	19,4	66,7
8	HГ	28,6	36,8	8,2	28,7
9	TГ	27,8	51,3	23,5	84,6
9	HГ	28,2	37,2	9,0	31,9

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, barcha sinflarda tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Tajriba guruhidagi o‘sish dinamikasi 7-sinfda 55,6% (15,8 ball), 8-sinfda 66,7% (19,4 ball), 9-sinfda 84,6% (23,5 ball) ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 27,6% (7,7 ball), 28,7% (8,2 ball) va 31,9% (9,0 ball) ni tashkil etdi.

Savollar kesimida tahlil. Tajriba guruhida kirish testida eng ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan savollar bo‘yicha chiqish testida sezilarli o‘sish kuzatildi. 7-sinfda kreativ darajadagi savollar bo‘yicha natijalar 20-24% dan 40-44% ga (o‘sish 80-100%) oshdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 18-22% dan 26-30% ga (o‘sish 36-44%) oshdi. 8-sinfda kreativ darajadagi savollar bo‘yicha natijalar 20-24% dan 42-46% ga (o‘sish 75-110%) oshdi. Technology (T) komponentiga oid savollarda tajriba guruhida o‘rtacha 22% dan 44% ga (100% o‘sish) natija qayd etildi. 9-sinfda kreativ darajadagi savollar bo‘yicha natijalar 14-20% dan 40-44% ga (o‘sish 120-186%) oshdi. Technology (T) komponentiga oid savollarda tajriba guruhida 20% dan 44% ga (120% o‘sish) natija qayd etildi.

Statistik tahlil (Styudentning t-kriteriyi). Tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini ta’minlash va ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini ilmiy asoslash maqsadida Styudentning t-kriteriyi asosida statistik tahlil o‘tkazildi.

Statistik farazlar quyidagicha shakllantirildi:

H_0 (nol-gipoteza): tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq yo‘q.

H_1 (alternativ gipoteza): tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori.

Tahlil davomida ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0,05$ etib belgilandi. Erkinlik darajasi $df = n_1 + n_2 - 2 = 100 + 100 - 2 = 198$. t-jadval qiymati ($\alpha$=0,05, df=198 uchun) 1,97 ga teng.

Chiqish testi natijalarining statistik tahlili 6-jadvalda berilgan.

6-jadval. Chiqish testi natijalari bo‘yicha tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlarining statistik tahlili

Sinf	TG (M_1)	NG (M_2)	t-hisob	t-jadval	p-qiymat	95% ishonch oralig‘i	Xulosa
7	44,2	35,6	5,24	1,97	<0,001	[5,8; 11,4]	Statistik ahamiyatli
8	48,5	36,8	6,18	1,97	<0,001	[7,2; 15,0]	Statistik ahamiyatli
9	51,3	37,2	7,02	1,97	<0,001	[10,1; 18,9]	Statistik ahamiyatli

Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob > t-jadval (1,97) va $p < 0,001$. 95% ishonch oralig‘i nolni (0) o‘z ichiga olmaganligi ham farqning statistik ahamiyatliligini tasdiqlaydi. Bu esa tajriba va nazorat guruhlari orasidagi farqning yuqori darajada statistik ahamiyatli ekanligini, ya’ni tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Eng katta t-hisob 9-sinfda kuzatildi (7,02), bu metodikaning yuqori sinflarda samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, kirish testida H_0 (nol-gipoteza) qabul qilindi – tajriba va nazorat guruhlari orasida statistik ahamiyatli farq yo‘q ($p > 0,05$). Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob < t-jadval (1,97). Bu esa tajriba boshlanishida ikki guruhning bilim darajasi bo‘yicha teng ekanligini ko‘rsatadi. Chiqish testida H_0 rad etilib, H_1 (alternativ gipoteza) qabul qilindi – tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori ($p < 0,001$). Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob > t-jadval (1,97). Bu esa ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning samaradorligini yuqori darajada isbotlaydi.

Natijalarning muhokamasi. Pedagogik eksperiment natijalari ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodikaning 7-9-sinf o‘quvchilarining fanlararo bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy ta’limga nisbatan samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhidagi yuqori o‘sish dinamikasi (7-sinfda 55,6%, 8-sinfda 66,7%, 9-sinfda 84,6%) quyidagi omillar bilan izohlanadi. STEM-modullarning integratsiyalashgan tuzilishi – har bir modulda tarixiy material STEM komponentlari (S, T, E, M) bilan uyg‘unlashtirilgan, bu o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqliklarni tushunishni osonlashtirgan. PBL loyihalarining amaliy yo‘naltirilganligi – “Beruniy Globusining 3D modelini yaratish” va “Maktab hovlisida yer radiusini o‘lchash” kabi loyihalar o‘quvchilarning muammoni yechish, tanqidiy fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirgan. STEM-keyslarning real hayot bilan bog‘liqligi – “Zij” ma’lumotlarini Excel dasturiga kiritish, minerallar zichligi jadvalini davriy jadval bilan qiyoslash kabi keyslar o‘quvchilarning bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirgan. Kreativ darajadagi savollar ulushining ortishi – 9-sinf testida kreativ darajadagi savollar ulushi 50% ni tashkil etdi, bu o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tajriba guruhi o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi – 16 soatlik trening-seminar o‘qituvchilarning STEM-integratsiyalashgan darslarni olib borishga tayyorgarligini oshirdi. Kuzatish natijalari – tajriba guruhida o‘quvchilarning darslardagi faolligi, guruhlardagi hamkorligi va muhokamalardagi ishtiroki nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Kuzatish protokollariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 85% i STEM-modullarga nisbatan yuqori qiziqish bildirgan. Eng katta o‘sish 9-sinfda kuzatildi (84,6%). Bu holat 9-sinfda Technology (T) va Engineering & Mathematics (E+M) komponentlari ustuvor qilib belgilanganligi, shuningdek, 9-sinf o‘quvchilarining abstrakt fikrlash, tizimli tahlil va sintez qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanganligi bilan izohlanadi.

Xulosalar. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy merosi asosida tarix darslarida STEM-integratsiyalashgan ta’lim metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari tahlil qilindi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Kirish testi (pre-test) natijalari tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich bilim darajalari statistik jihatdan teng ekanligini ko‘rsatdi ($p > 0,05$). Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob < t-jadval (1,97) va 95% ishonch oralig‘i nolni o‘z ichiga olgan. Bu tajriba yakunida olingan farqlarni aynan ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodika ta’siri bilan bog‘lash imkonini berdi.

2. Chiqish testi (post-test) natijalari tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori ekanligini ko‘rsatdi ($p < 0,001$). Tajriba guruhidagi o‘sish dinamikasi 7-sinfda

55,6% (15,8 ball), 8-sinfda 66,7% (19,4 ball), 9-sinfda 84,6% (23,5 ball) ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 27,6%, 28,7% va 31,9% ni tashkil etdi.

3. Savollar kesimidagi tahlil tajriba guruhida kirish testida qiyinchilik tug‘dirgan kreativ darajadagi savollar bo‘yicha chiqish testida sezilarli o‘sish (80-186%) kuzatilganini ko‘rsatdi. Bu metodikaning o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Styudentning t-kriteriyi asosidagi statistik tahlil kirish testida H_0 gipoteza qabul qilinib ($p > 0,05$), chiqish testida H_0 rad etilib, H_1 gipoteza qabul qilinganini ($p < 0,001$) ko‘rsatdi. Barcha sinflar bo‘yicha t-hisob > t-jadval (1,97) va $p < 0,001$ ekanligi, hamda 95% ishonch oralig‘i nolni o‘z ichiga olmaganligi aniqlandi.

5. Eng katta o‘sish 9-sinfda kuzatildi (84,6%). Bu holat 9-sinfda Technology (T) va Engineering & Mathematics (E+M) komponentlari ustuvor qilib belgilanganligi, shuningdek, 9-sinf o‘quvchilarining abstrakt fikrlash, tizimli tahlil va sintez qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanganligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqilgan STEM-integratsiyalashgan metodika 7-9-sinf o‘quvchilarining fanlararo bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda an’anaviy ta’limga nisbatan samarali ekanligi statistik jihatdan isbotlandi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi, barcha sinflar bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlarning mavjudligi ($p < 0,001$), kreativ darajadagi ko‘nikmalarning sezilarli darajada rivojlanganligi (o‘sish 80-186%) metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Metodikani boshqa umumta’lim maktablarida ham joriy etish va uni boshqa tarixiy shaxslar (Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino) merosiga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Голубчикова М.Г. Интеграция как фактор развития познавательного интереса учащихся // Сибирский педагогический журнал. – 2013. – № 5. – С. 112-118.

2. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington: NSTA Press, 2013. – 116 p.

3. Kelley T.R., Knowles J.G. A conceptual framework for integrated STEM education // International Journal of STEM Education. – 2016. – Vol. 3, No. 11. – P. 1-11.

4. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael: Autodesk Foundation, 2000. – 47 p.

5. Krajcik J.S., Blumenfeld P.C. Project-Based Learning // The Cambridge Handbook of the Learning Sciences. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 317-334.

6. Голубчикова М.Г. Интеграция как фактор развития познавательного интереса учащихся // Сибирский педагогический журнал. – 2013. – № 5. – С. 112-118.

7. Qodirov B.Q. Beruniy merosining ta’limdagi ahamiyati // Xalq ta’limi. – 2020. – № 4. – B. 28-33.

8. Axmedov Sh.S. Beruniy ilmiy merosida STEM elementlarining talqini // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2024. – № 2. – B. 45-52.

9. Novikov A.M., Novikov D.A. Pedagogik eksperiment: tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. – M.: Egves, 2010. – 210 s.

10. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green, 1956. – 403 p.

11. Qurbonov Sh. (muharrir). Qiyosiy pedagogika: metodologiya va tadqiqot usullari. – Toshkent: Fan, 2018. – 180 b.

12. Наследов А.Д. Математические методы психологического исследования. – СПб.: Речь, 2013. – 392 с.

13. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий. – М.: Центр тестирования, 2002. – 240 с. (Savollar kesimida tahlil – item analysis bo‘yicha klassik manba.)

14. Загвязинский В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования. – М.: Академия, 2010. – 208 с.

15. Kendall M.G. Rank Correlation Methods. – London: Charles Griffin & Co., 1970. – 202 p.

16. Кронбах Л.Дж. Koeffitsiyent alfa va testlarning ichki uyg‘unligi // Psixologik o‘lchovlar. – 1951. – Tom 16, № 3. – B. 297-334.

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING DIDAKTIK JARAYONLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI

Aminov Pahlavon Hamid o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich magistranti
pablogalebexpress04@gmail.com

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining didaktik jarayonlarini loyihalashda bu tizimning takomillashuvi nazariyasi va amaliyotini shunday keng qamrovli o‘rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim didaktik jarayonlarida o‘rgatuvchilik faoliyati talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi va ularni mashg‘ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, xatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo‘yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o‘z ifodasini topadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, loyiha, subyekt, didaktika, harbiy ta’lim, bilim, ta’lim, ko‘nikma, faoliyat, kasbiy mahorat, malaka, tahsil oluvchi.*

УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ “НАЧАЛЬНАЯ ВОЕННАЯ ПОДГОТОВКА”

При проектировании дидактических процессов по направлению “Начальная военная подготовка” всё более актуальное значение приобретает всестороннее изучение теории и практики совершенствования данной системы. В дидактических процессах начальной военной подготовки преподавательская деятельность заключается в управлении учебной деятельностью студентов и выражается в их организации к занятиям, руководстве их вниманием, мышлением, поведением и т. п., в последовательной постановке перед ними всё более усложняющихся задач, а также в контроле их выполнения.

Ключевые слова: *компетенция, проект, субъект, дидактика, военное образование, знания, образование, умение, деятельность, профессиональное мастерство, квалификация, обучающийся.*

CONDITIONS FOR ORGANIZING THE DIDACTIC PROCESSES FOR STUDENTS IN PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING

When designing the didactic processes of pre-conscription military training, a comprehensive study of the theory and practice of improving this system is becoming increasingly relevant. In the didactic processes of pre-conscription military training, the instructor's role consists of managing the students' learning activities. This is expressed in organizing them for classes, guiding their attention, thinking, and behavior, consistently setting progressively more complex tasks for them, and assessing their performance.

Keywords: *competence, project, subject, didactics, military training, knowledge, education, skill, activity, professional mastery, qualification, student.*

Kirish. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq joriy etilgan bo‘lib, ta’lim tizimida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ajralmas va majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.Yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi xizmatiga tayyorlash tizimining muhim qismini tashkil etadi. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining didaktik jarayonlarini loyihalashda har tomonlama nazariy va amaliy faoliyatning obyekti, shu jumladan siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik davlatimiz va jamiyatimiz xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan boshqa tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim aniq kadrlar salohiyatini ko‘paytirishning ijtimoiy-iqtisodiy shartlariga, bunday takror ishlab chiqarishning ijtimoiy tartibini va butun tizimni boshqarishning umumiy tamoyillarini belgilaydigan harbiy-siyosiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga va uning boshqa ko‘plab tarkibiy bo‘laklariga asoslangan shakllanishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, fuqarolik oliy o‘quv yurtlari talabalarining harbiy tayyorgarligi, uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, o‘ziga xos harbiy tashkiloti, harbiy xizmatchilari, ofitser-o‘qituvchilar bilan bevosita faoliyat olib boradi. Shu munosabat bilan, fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida keng ko‘lamli masalalarni qamrab oluvchi harbiy tayyorgarlik tizimini o‘rganish harbiy-siyosiy, siyosiy-ijtimoiy

va ijtimoiy hisobga olingan holda qurilgan keng qamrovli harbiy pedagogik tadqiqotning o‘ziga xos va mos xususiyatiga ega ekanligini bildiradi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining o‘quv faoliyatini loyihalash ko‘p jihatdan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, bu mexanizmlarning joriy etilishini dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish asosida o‘rganish bilan bog‘liq. Yetuk mutaxassis bo‘lib yetishib chiqayotgan kadrlardan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlar bilan birga Vatanga sadoqatlilik, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish uchun chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga o‘qitiladigan o‘quv kurslarining mazmunida keltirilgan o‘quv materiali alohida ahamiyat kasb etadi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarida milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish, tariximiz va madaniyatimiz, vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni turli ta’lim shakllari: auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, turli tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshirish dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagog o‘quv mashg‘ulotini optimal ravishda loyihalashi uni to‘g‘ri tashkil eta olishi talab etiladi. Ilmiy-pedagogik, falsafiy, sotsiologik adabiyotlar, ishlanmalar tahlilidan ayon bo‘lishicha, o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash bo‘yicha yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta'limotlarni to‘plash, tasnif qilish va uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish, tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarining o‘quv faoliyatini loyihalash bosqichlari quyidagicha tashkil etilsa, samarali natijalarni beradi:

- *birinchidan,* taqsimot yo‘nalishi-o‘quv mashg‘uloti vazifalarni oqilona belgilash;

- *ikkinchidan,* maqsad va vazifalarni belgilash – o‘quv mashg‘ulotidan ko‘zlangan istiqboliy rejalarini aniqlash;

- *uchinchidan,* teskari aloqani o‘rnatish – o‘quv mashg‘uloti maqsadlariga erishish shakllari va yo‘llarini tahlil qilish;

- *to‘rtinchidan*, yaratuvchanlik yo‘nalishi - mashg‘ulotning idrok qilish muhitida o‘quv maqsadlarining amalga oshirilishini ta'minlash;

- *beshinchidan,* pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish;

- *oltinchidan*, -motivatsiya va rag‘batlantirish yo‘nalishi – talabalarning hamda o‘qituvchilarning ta’lim olish va ta’lim berish faoliyatini rag‘batlantirish, tashqi stimullarni adekvat qabul qilish;

-*yettinchidan*, nazorat yo‘nalishi-ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o‘tkazishni nazarda tutadi, ma’naviy-ma’rifiy jarayon holati to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lishni bildiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining didaktik jarayonlarini loyihalashda bu tizimning takomillashuvi nazariyasi va amaliyotini shunday keng qamrovli o‘rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ko‘rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi va ahamiyati, birinchi navbatda, bu faoliyat sohasida XX asrlar oxirida paydo bo‘lgan va oldinroq hal qilishni talab qiladigan qarama-qarshiliklarning butun majmuasini aks ettirishi bilan belgilanadi. Harbiy mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy tizimidagi yetakchi qarama-qarshilik jamiyatning kadrlar salohiyatiga bo‘lgan obyektiv ehtiyojlari, uning xavfsizligini ta’minlash, moddiy, moddiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va uni qayta ishlab chiqarish vositalari o‘rtasidagi tafovutda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, ta’limning fuqarolik sohasida reproduktiv faoliyat tobora ko‘proq zamonaviy iqtisodiyotning bozor sharoitlariga, o‘quv jarayonini moliyalashtirishning byudjetdan tashqari manbalariga ham bog‘liq. Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash uchun ajratilgan byudjet mablag‘lari bunday o‘qitishning me’yoriy ta’minlanishiga mos bo‘la olmaydi.

Harbiy bo‘lmagan o‘qitish tizimida zarur bo‘lgan harbiy kadrlarni o‘qitish imkoniyatlari, qo‘shimcha ravishda xarajatlarni talab etadi. Olingan ma’lumotlar harbiy xizmatning moddiy-ijtimoiy sharoitlari, shuningdek, talabalarni tayyorlash bilan bog‘liq muammolarning namoyon bo‘lishi, harbiy xizmatga bo‘lgan motivatsiya, harbiy tayyorgarlik aspektlarini o‘rganishni talab qiladi. Muammolarning butun majmuasini ko‘p tomonlama o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, ularni hal qilish yo‘llarini topishning nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilardan kelib chiqadi: birinchidan, sohadagi yangi qonunlar va tegishli me’yoriy hujjatlar; ikkinchidan, shakllanayotgan O‘zbekiston mudofaa doktrinasining asosiy qoidalari, ayniqsa Qurolli Kuchlarni professionallashtirishga oid va ularning istiqbolli ishlanmalari, uchinchidan, oliy harbiy va oliy fuqarolik ta’lim tashkilotlarining yangicha maqsadlari, yaxlit qismi harbiy tayyorgarlikning o‘rganilayotgan tizimi va shunga mos ravishda ularning ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, zamonaviy didaktik jarayon vazifalaridir.

O‘zbekiston fuqarolik universitetlarida harbiy tayyorgarlik tizimini o‘zgartirish va takomillashtirish ushbu ajralmas obyektni, uning mohiyatini, tabiatini va tizimni tashkil etuvchi arxitekturasini ilmiy tushunmasdan, uning tabiiy o‘zaro bog‘liqligi va eng barqaror munosabatlari haqida tegishli g‘oyalarni shakllantirmasdan uning ishlashi, rivojlanishi mexanizmini (dinamik tizimini) tashkil etuvchi munosabatlarni qurish mushkul.

Zamonaviy harbiy pedagogik konsepsiyaning eng muhim g‘oyasi, nazariyasi va amaliyotida, uni takomillashtirish jarayonida, birinchi navbatda, tizimning hamma elementlarining umumiy yaxlitligi, tenglik muvozanati, adekvatligini ta’minlash, tashqi va ichki o‘zaro bog‘liqliklardagi asosiy va yuqori tuzilma shartlarini inobatga olish hisoblanadi. Fuqarolik oliy ta’lim tashkilotlarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimining faoliyat ko‘rsatish mexanizmini ilmiy asoslash va takomillashtirish maqsadida uning tarixiy-qiyosiy, nazariy-qiyosiy va tizimli tarkibiy-funksional tahlillari amalga oshirilmoqda. Shu asosda, tizimning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, uning mahalliy va xorijiy oliy o‘quv yurtlaridagi hozirgi holati, shuningdek, uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati va zamonaviy konsepsiya asoslari va yo‘llarini belgilaydigan umumiy tarkibiy va vazifaviy mexanizmining takomillashuv bosqichlari aniqlanadi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida harbiy o‘qitish - maxsus funksiyani amalga oshirishga yo‘naltirilgan, aniq me’yorlar asosida ishlab chiqilgan, jamiyat xavfsizligini ta’minlaydigan, muayyan kadrlar salohiyatini rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus tizim sifatida baholanishi lozim. Uning asosi – yaxlit tizimga birlashtirilgan ijtimoiy, moddiy, harbiy, pedagogik, siyosiy va boshqa tizimli komponentlardan iborat jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday murakkab tizimli obyektning mohiyati, tuzilishi va dinamikasini aniqlashning uslubiy vazifalarini tahlil qilishdan boshlanadi. Shunga muvofiq, tadqiqot doirasida ushbu tizimning asosiy komponentlarini, shu jumladan nazariy va amaliy komponentlarning joylashishi, namoyon bo‘lishini tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqliklarining turlari, xususiyatlari, aloqalari, evolyutsiya bosqichlari va holatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi ta’limiy islohotlarning bosh maqsadi barkamol shaxs va yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirishdan, tarbiyalashdan iborat ekan, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining didaktik jarayonlarini loyihalashda talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish alohida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, ularning kelgusidagi kasbiy sifatlari va shaxsiy salohiyatiga ehtiyojning yuqoriligi, shaxs hayot faoliyatining turli sohalarida egallangan ma’lumotlardan yuksak qamrovli foydalanishni talab qilmoqda.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining didaktik jarayonlarini loyihalashda talabalarning ijtimoiy rivojlanishi, kasbiy malakalarga ega bo‘lishini inobatga olish kerak. Binobarin, ijtimoiy rivojlanish – bu odamning ruhiyati va vujudidagi ijobiy tomonga bo‘lgan sifat o‘zgarishlaridir. Inson o‘zining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun vosita va manbalar qidiradi hamda o‘zgalar bilan muloqotda bo‘ladi. Ushbu jarayonlar davomida shaxsning ijtimoiy sifatlari shakllanib, mustahkamlanib boradi. O‘zaro bog‘liq, ayni vaqtda, o‘ziga mustaqil bo‘lgan biologik va ijtimoiy omillar inson koevolyutsiyasiga ta’sir etib shaxsni shakllantiradi. Bu esa, talabalarni kelgusi kasbiga tayyorlash uchun xizmat qiladigan didaktik jarayonlarni loyihalashda ularda qator ijtimoiy sifatlar tarkib topishi bilan birga, ilmiy asoslangan mustaqil fikr ham shakllanishiga zamin yaratadi.

Shaxsning kasbiy malakalarini shakllantirish didaktik muammodir. Talabaning kasbiy malakalarini shakllantirish ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan uzluksiz davomli jarayondir. “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” sikliga taalluqli o‘quv fanlarini oliy ta’lim tashkilotlarida jarayonlarni amaliy egallash yagona maqsad bo‘lib qolmasdan, uni o‘rganish talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga imkon beradigan vosita hamdir.

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Shaxsiy shijoat tashqi ijtimoiy, shu jumladan, maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya muhitlarining ta’siri ostida kechadi. Xususan, talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda mashg‘ulot o‘qituvchisidan mohirlik talab qilinadi. Oliy ta’lim o‘qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta’lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kasbga yo‘naltirish – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahsil oluvchilarga ma’lum bir kasb-hunar o‘rgatishning ta’limiy-ma’rifiy jarayoni bo‘lib hisoblanadi.

Didaktika ta’lim mazmunini tanlash muammolari bilan ham shug‘ullanar ekan, ta’lim prinsipining qo‘yilishi, ta’lim metodlari va vositalarining qo‘llanishi yo‘llarini nazarda tutadi. Shu sababli, tadqiqot doirasida o‘qitish mazmuni didaktik tushunchaga tegishli bo‘lib, o‘qitish mazmuni jamiyat talabini bajarishi nuqtai nazaridan tadqiq qilindi.

Didaktik jarayon - didaktik tushunchalar va ta’lim paradigmalarining tamoyillariga bo‘ysunuvchi, ta’lim texnologiyalari va metodlari, vosita va shakllari yordamida ta’lim subyektlari (ofitser-o‘qituvchi va

talabalar)ning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bo‘lib, bu jarayonda tahsil oluvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

Tashkil etish – qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar asosida tartiblangan didaktik jarayon.

Ma’lumki**, faoliyat** - insonning tashqi olamga faol munosabati shakli bo‘lib, o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli sanaladi. Faqat faoliyat zamirida inson mohiyati namoyon bo‘ladi. Jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, faoliyat shakllari moddiy, ijtimoiy-siyosiy kabi guruhlarga turkumlanadi.

Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san’at, o‘yin, o‘qish, sport) uning tevarak-atrof olamni va o‘z-o‘zini bilish bilan bog‘langan. O‘qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va ofitser-o‘qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko‘nikma malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash jarayoni ta’limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borishni talab qiladi.

Ta’lim jarayonining bu ikki tomoni (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta’limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o‘quv materialni egallab olinishi maqsadi bilan birlashgandir.

Ofitser-o‘qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va talabalarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta’lim jarayonida ijobiy natijalar bo‘lishi mumkin emas.

Ta’limda tahsil oluvchining faoliyati haqida gap ketganda talabaning bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb qiladi. Talabaning bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar talabalarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni talaba shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

Tahsil oluvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteri hisoblanadi.

Talabaning bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, talaba jalb etilayotgan ta’lim jarayoni turlicha kechishi, subyekt (talaba) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta’sir etadi.

Tahsil oluvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo‘li kabi haqiqat ofitser-o‘qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o‘rganish ularning tarixiy yo‘lini o‘zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyektining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta aloqasidir. Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi.

Tahsil oluvchining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o‘qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma’naviy boyishiga ko‘maklashuvchi umumiy yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o‘quv va hokazo) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir qiladi.

Loyiha - insonlarning jamoaviy, tashkiliy, mustaqil izlanishga undovchi, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat shaklidir. Loyiha: inshoot, jarayon, tadbir, stsenariy rejasidir; muayyan hujjatning taxminiy matni.

Loyihalash esa - maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qaratiladi va uni o‘zgartirish yo‘llari va yechimlarini topishga zamin yaratadi hamda muayyan natijani qo‘lga kiritishga qaratilgan, ta’lim subyektlari tomonidan bajariladigan faoliyatni tashkil qilishni anglatadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalash maqsadi:

Talabalar uchun:

- talabalarda o‘quv-biluv motivatsiyasini oshirish;
- talabalarda bilish faoliyatini rivojlantirish;
- tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo‘lgan mas’uliyatni oshirish va keyingi o‘quv faoliyatiga rag‘bat sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlash;

- talabalarda bilish faoliyatini rivojlantirish, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalar, kompyuter, Internet, elektron axborot resurslari imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- taqdim qilingan o‘quv materialidagi eng muhim g‘oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Ofitser-o‘qituvchi uchun:

- kam samara beruvchi verbal (og‘zaki) bilim uzatish o‘rniga tizimli yondashuvlar orqali bilim o‘zlashtirish jarayonini hosil qilishni ta’minlovchi uslubiyotlardan xabardor bo‘lish;

- dars samaradorligini oshirish, o‘rganilayotgan o‘quv predmetiga zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali motivatsiya paydo qilish;

- talabalarning psixofiziologik va shaxsiy-individual qobiliyatlarini inobatga oluvchi metodikalardan foydalanish;

- o‘quv jarayonini loyihalashga imkoniyat yaratish;

- o‘qituvchi va talaba o‘rtasida «subyekt-subyekt» munosabatlarini qaror toptirish va ta’limning kafolatlangan natijalariga erishish.

Harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash usullari. O‘quv jarayonini jadallashtirish uni takomillashtirishning obyektiv qonuniyati sifatida tushuniladi. Hozirgi kunda u ta’limning yanada takomillashgan faol shakl va metodlarini yaratish va ularni o‘quv jarayoniga kiritishda namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim tashkiliy shaklining yoki metodining faolligi ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot davomida ofitser-o‘qituvchi tomonidan boshqarib boriladigan aqliy faolligi va tafakkurining ijodiy xarakterda bo‘lishidan iborat bo‘ladi. Uning qo‘shimcha belgilari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- mustaqil ravishda qaror ishlab chiqish va qabul qilish;

- ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aks aloqalar yordamidagi o‘zaro hamkorligi;

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga bo‘lgan intilishlarining oshib borishi;

- ta’lim oluvchilarni nazorat qilish maqsadida ularning faoliyatiga aralashmasdan turib baholash va boshqalar.

Faol ta’limning barcha shakl va metodlari mashg‘ulot jarayonida o‘yindan foydalanish darajasiga ko‘ra o‘yinli va o‘yinsiz bo‘lishi mumkin. Uning mezoni ta’lim oluvchilarning bo‘lajak yoki hozirgi kasbiy faoliyati tasvirlangan o‘yin metodining qo‘llanilish darajadasidan iborat bo‘ladi.

Ta’limning o‘yinli shakllariga taktik va qo‘mondonlik-shtab mashqlari, taktik-maxsus mashqlar, shtab mashqlari, turli ko‘rinishdagi o‘quv vazifalari kiradi. Hozirgi vaqtda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, rollarga bo‘linib o‘ynash metodlari, trening, ishchan o‘yin kabi ta’limning shakllari o‘quv jarayoniga keng kirib bormoqda.

Talabalarni bilimini baholashning (tekshirish) og‘zaki so‘rov metodi ta’lim oluvchidan savolni tez idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish, ularning xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tekshirishning yozma metodi ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida qo‘llaniladi. Yozma tekshirish askarni mantiqiy mushohada qilishga (fikrlash)ga o‘rgatadi, o‘z fikrini yozma ravishda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Test usulida tekshirish keyingi paytlarda ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida keng qo‘llanilmoqda. Biroq tekshirishning bu metodi turli tanqidiy munozaralarga ham sabab bo‘lmoqda.

Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini ***texnika vositalari yordamida tekshirish*** alohida olingan talabalarning va bo‘linmalarning tayyorgarligini tekshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Tekshirish vaqtida turli trenajerlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish bir tomondan vaqtni va moddiy resurslarni tejash imkonini bersa, boshqa tomondan esa nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikma va malakalardagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun qulaylik yaratadi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish ofitser-o‘qituvchi tomonidan shaxsiy tarkibga bilimlar berish, ularni yangi faktlar, hodisalar bilan tanishtirish, qurol, texnika va boshqalarning tuzilishini tushuntirib berish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quv materialini og‘zaki bayon qilish quyidagi turlarda bo‘ladi:

a) hikoya qilish – aniq, konkret mazmunga ega bo‘lgan o‘quv materialini qisqa, obrazli, his-hayajon bilan bayon qilish. Hikoya qilish davomida faqat faktlar bayon etib qolinmasdan, balki fikr yuritishga, tafakkurga ham o‘rin beriladi.

b) tushuntirish – murakkab hodisa, jarayon, voqealarning, muhim masalalarning, qoida, qonunlarning mazmunini, mohiyatini qat’iy mantiqiy asosda ochib berish. Shuning uchun ham tushuntirish davomida isbot muhim o‘rin egallaydi.

v) ma’ruza – mavzuning ko‘rib chiqilayotgan savollari bo‘yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilish. Ma’ruzada faktlar tahlili, ularni bir-biri bilan qiyoslash, ular o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rnatish, ilgari surilayotgan fikrlar va xulosalarni asoslash muhim o‘rin egallaydi. Ma’ruza vaqtida ko‘rgazmali qurollardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish nazariy materialni talabalar tomonidan anglab yetilishini yengillashtiradi. Ma’ruza materiallari talabalarning shu mavzu yuzasidan mustaqil tayyorgarligi uchun asos yaratishi lozim. Shuning uchun ham ma’ruza o‘quv qo‘llanmasi, nizomlar va ko‘rsatmalarning qisqartirilgan bayoni bo‘lmasdan, balki unda mavzuning asosiy, murakkab qismi tushuntirilishi, mavjud adabiyotlar tahlil qilinishi, ma’ruzada ko‘tarilgan muammolar ustida keyinchalik qay yo‘sinda ishlash ma’qulligi to‘g‘risida maslahatlar berilishi lozim.

O‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodlarini qo‘llashda quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir:

- bayon etilayotgan material ilmiy asoslangan, g‘oyaviy jihatdan mazmunli, nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga qaratilgan bo‘lishi kerak;
- bayon etilayotgan materialning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri belgilash orqali shaxsiy tarkibga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim;
- bayon etishda o‘qituvchining nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi, his-tuyg‘uli ifoda qilinishi muhim ahamiyatga egadir.

Muhokama. Dastlabki ikki tarkibiy qismlarning ahamiyatini zarracha ham inkor etmagan holda mubolag‘asiz aytish mumkinki, harbiy ta’limda hal qiluvchi o‘rinni o‘quv moddiy baza egallaydi. Bu birinchi navbatda Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik kursining xususiyatlari, uning ko‘p qirraliligi va amaliy yo‘naltirilganligi bilan tushuntiriladi. Masalan, qurolning o‘quv namunasiga ega bo‘lmasdan, uni o‘rganishning iloji bo‘lmaydi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim didaktik jarayonlarida o‘rgatuvchilik faoliyati talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi va ularni mashg‘ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo‘yib borishida, ularni tekshirib borish kabilarni o‘zida mujassam qiladi.

O‘quv faoliyati yoki o‘qish bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo‘lib, talabalarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g‘ayratini talab qiladi hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Ma’lumki, bilish faoliyatining subyekti talaba sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta’lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga, talabalar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi ofitser-o‘qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Guruh talabalari har doim jamoa muhitida bo‘ladilar. Shuning uchun ham shaxslararo munosabatlar aniq bir tizimga solingan bo‘lib, ular harbiy nizomlar bilan tartibga solib turiladi. Talabalar o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda bo‘ladi: Ta’limga oid, ta’limdan tashqari (maishiy) va shaxsiy munosabatlar.

Ta’limga oid munosabatlar xizmatni o‘tashda, amaliy mashg‘ulotlarda va kundalik hayotda nihoyatda zarur bo‘lib, har bir kishidan eng avvalo jangovar, xizmatga va mehnatga oid, ijtimoiy-siyosiy majburiyatlarni so‘zsiz bajarishni taqozo etadi. Ushbu o‘zaro munosabatlar harbiy jamoaning tashkiliy tuzilishida rasman mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari ular harbiy nizom, buyruq, qoida va qo‘llanmalarda bayon etilgan bo‘ladi. Ofitser-o‘qituvchilarning faoliyatlari ushbu o‘zaro munosabatlarni qaror toptirishga, mustahkamlashga va boshqarishga qaratiladi. Ta’limga oid o‘zaro munosabatlar tizimi muntazam qaror toptirib boriladi. Masalan, o‘qish faoliyatining u yoki bu jarayonida talabalarni qayta taqsimlash, majburiyatlarni belgilash va vazifalarni taqsimlash, hisobot vaqti va shaklini ko‘rsatish, xizmatda kamchiliklar bo‘lganda jazolash shular sirasiga kiradi. Ammo, xizmat davrida ham, undan tashqarida ham iroda, ong va hissiyotga ega bo‘lgan kishilar o‘zaro ta’sirlashadilar. Shuning uchun ham xizmatga oid munosabatlarni shaxsiy munosabatlardan, shaxsiy munosabatlarni esa xizmatdan tashqari munosabatlardan butunlay ajratib bo‘lmaydi. Ta’lim vaqtida ham, ta’limdan tashqari holatlarda ham o‘ziga xos his-tuyg‘ularga, irodaviy sifatlarga, tafakkur va dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlar o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Bu esa talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning chuqur ruhiy-emosional mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Har xil talabalarni bir jamoaga birlashtiruvchi asoslar

Guruhdagi o‘zaro munosabatlar kishilar xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Talabaning o‘z ofitseriga bo‘lgan ichki subyektiv munosabati unda harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qandaydir sabablarga ko‘ra, ushbu munosabat salbiy bo‘lsa, bo‘ysunish majburiy, xizmat jarayoni esa zerikarli bo‘ladi, natijada kelishmovchilik va ko‘ngilsiz holatlar kelib chiqadi. Aksincha, ofitser-o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ijobiy munosabat xizmatni osonlashtirib, uni sevimli mashg‘ulotga aylantiradi. Bu esa talabalarda kerakli jangovar sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Guruhlardagi harbiy intizomni mustahkamlashda o‘zaro munosabatlar mazmuni katta ahamiyatga ega. Qayerda o‘zaro munosabatlar harbiy nizomlar asosiga qurilgan bo‘lsa, o‘sha joyda harbiy intizom mustahkam bo‘ladi.

Xulosa. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining didaktik jarayonlarini samarali tashkil etish uchun avvalo zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi ta’minlanishi lozim. Talabalarda harbiy intizom, mas’uliyat va jamoaviylik ko‘nikmalarini shakllantirish didaktik jarayonning asosiy maqsadlaridan biridir. Shuningdek, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligi ham muhim shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik baza, ya’ni maxsus jihozlar va o‘quv vositalarining yetarliligi ham jarayon sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish orqali ularning qiziqishi va faolligini oshirish mumkin. Natijada, puxta tashkil etilgan didaktik jarayon harbiy sohada yetuk va malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Новиков Д.А. Развитие патриотических чувств у студентов неязыковых вузов // Ж.: «Языкознание и литературоведение». –М.: №5,-S.29-34.

2. Muslimov N.A. Harbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.fan. d-ri diss...// – T.: 2007.-310b.

3. Ефимов В.Ф. Компетентность как новое качество личности школьника // Начальная школа. 2012. № 2. С. 11-17.

4. Uzoqov A.M. Talabalarning vatanparvarligini baholash mezonlari // –T.: “Fan va axborot texnologiyalar”, 2018. - 122 bet.

5. G‘oziyev E. Shaxs rivojlanishida qobiliyatlarning ahamiyati metodikasi. T.: Universitet, 2005. - 74 b.

UO‘K 37.015.3:159.9

PSIXODIDAKTIKANING SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY TA’LIMDAGI O‘RNI

Dehqonova Mushtariy Sherali qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
Buxoro, O‘zbekiston
dehkanovamushtariyyy@gmail.com

Ushbu maqolada psixodidaktika fanining kelib chiqish tarixi, shakllanish jarayoni va zamonaviy ta’lim tizimidagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Maqolada psixodidaktikaning psixologiya va didaktika fanlari integratsiyasi natijasida yuzaga kelgani, uning ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, maktablarda o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolar va an’anaviy yondashuvlarning cheklovlari ko‘rib chiqiladi. Psixodidaktikaning metodologik yondashuvlari, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari psixodidaktikaning zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi va uning rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *psixodidaktika, ta’lim, psixologiya, didaktika, metodologik yondashuv, diskret, tizimli-funksional, tizimli-strukturaviy, tizimli-mantiqiy, individual-differensial.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОДИДАКТИКИ И ЕЁ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье анализируются история возникновения, процесс формирования и актуальность науки психодидактики в современной системе образования. Рассматривается формирование психодидактики как результат интеграции психологии и дидактики, а также её роль в совершенствовании образовательного процесса. Также рассматриваются проблемы, возникающие в процессе обучения в школах, и ограничения традиционных подходов. Анализируются методологические подходы психодидактики, их значение в повышении эффективности обучения и влияние на процесс усвоения знаний учащимися. Результаты исследования подтверждают важную роль психодидактики в современной педагогике и её вклад в повышение качества образования.

Ключевые слова: *психодидактика, образование, психология, дидактика, методологический подход, дискретный, системно-функциональный, системно-структурный, системно-логический, индивидуально-дифференцированный.*

THE FORMATION OF PSYCHODIDACTICS AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATION

This article analyzes the origin, formation process, and relevance of psychodidactics in the modern education system. It examines psychodidactics as a result of the integration of psychology and didactics, as well as its role in improving the educational process. The study also considers problems encountered in school teaching and the limitations of traditional approaches. Methodological approaches of psychodidactics are analyzed, along with their significance in improving learning effectiveness and their impact on students’ knowledge acquisition process. The results of the study confirm the important role of psychodidactics in modern pedagogy and its contribution to improving the quality of education.

Keywords: *psychodidactics, education, psychology, didactics, methodological approach, discrete, system-functional, system-structural, system-logical, individual-differentiated.*

Kirish. Ta’lim tizimida so‘nggi yillarda ko‘plab yangiliklar joriy etilmoqda va pedagogika hamda psixologiya fanlari o‘rtasidagi integratsiya kuchayib bormoqda. Shu jarayonda “psixodidaktika” yangi ilmiy termin sifatida shakllanib, ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Psixodidaktika tushunchasi ilk bor “Psixologiya savollari” jurnalida chop etilgan “davra suhbatlari” materiallari asosida ilmiy muhokamaga kirib kelgan. Ushbu jarayonda Y.K. Babanskiy, I.D. Zverev, V.V. Krayevskiy, T.V. Kudryavsev, I.Y. Lerner, A.K. Markova, N.F. Talizina, V.V. Davidov, M.N. Skatkin kabi mashhur olim va pedagoglar ishtirok etib, maktab ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaganlar (психология., 2001). Bu esa psixologiya va pedagogika fanlarining o‘zaro bog‘liqligi yanada kuchayganini ko‘rsatadi. Keyingi bosqichlarda “psixodidaktika” termini ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanila boshladi. Bu soha vakillari sifatida

E. Gelfman (Гельфман, et al., 2006), M. Xolodnaya (Гельфман, et al., 2006), G.A. Berulava, V.I. Panov (Панов, 2007), A.I. Podolskiy, S.D. Polyakov, A.Z. Raximov, E. Stouns, Y.G. Fokin, L.M. Fridman, A.N. Krutskiy (Крутский, 2015) kabi olimlar psixodidaktikaning nazariy asoslarini shakllantirishga katta hissa qo‘shdilar.

Muammo shundan iboratki, maktab ta’lim tizimida an’anaviy yondashuvlar hali ham ustunlik qilib, o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmayapti. Shuningdek, psixologik va didaktik yondashuvlarning integratsiyasi amaliyotda to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Dolzarblik shundaki, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va individual yondashuvni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli psixodidaktika fanining ilmiy va amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Maqsad esa psixodidaktika fanining shakllanishi, uning metodologik asoslarini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganishdan iboratdir (Крутский, 2015).

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ta’lim tizimida so‘nggi yillarda ko‘plab yangiliklar joriy etilmoqda va pedagogika hamda psixologiya fanlari o‘rtasidagi integratsiya kuchayib bormoqda. Shu jarayonda “psixodidaktika” yangi ilmiy termin sifatida shakllanib, ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Psixodidaktika tushunchasi ilk bor 1981-yilda “Psixologiya savollari” jurnalida chop etilgan “davra suhbatlari” materiallari asosida ilmiy muhokamaga kirib kelgan. Ushbu jarayonda Y.K. Babanskiy, I.D. Zverev, V.V. Krayevskiy, T.V. Kudryavsev, I.Y. Lerner, A.K. Markova, N.F. Talizina, V.V. Davidov, M.N. Skatkin kabi mashhur olim va pedagoglar ishtirok etib, maktab ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaganlar (психология., 2001). Bu esa psixologiya va pedagogika fanlarining o‘zaro bog‘liqligi yanada kuchayganini ko‘rsatadi. Keyingi bosqichlarda “psixodidaktika” termini ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanila boshladi. Bu soha vakillari sifatida E. Gelfman (Гельфман, et al., 2006)M. Xolodnaya (Гельфман, и др., 2006)G.A. Berulava, V.I. Panov (Панов, 2007)A.I. Podolskiy, S.D. Polyakov, A.Z. Raximov (Рахимов, 2003), E. Stouns, Y.G. Fokin, L.M. Fridman, A.N. Krutskiy (Крутский., 2011) kabi olimlar psixodidaktikaning nazariy asoslarini shakllantirishga katta hissa qo‘shdilar. Muammo shundan iboratki, maktab ta’lim tizimida an’anaviy yondashuvlar hali ham ustunlik qilib, o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmayapti. Shuningdek, psixologik va didaktik yondashuvlarning integratsiyasi amaliyotda to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Dolzarblik shundaki, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va individual yondashuvni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli psixodidaktika fanining ilmiy va amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Maqsad esa psixodidaktika fanining shakllanishi, uning metodologik asoslarini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganishdan iboratdir (Крутский, 2015).

V.I. Panov o‘z ilmiy tadqiqotlarida psixodidaktikani ta’lim tizimlarini takomillashtirishning muhim nazariy va amaliy yo‘nalishi sifatida asoslaydi. Uning fikricha, zamonaviy ta’lim jarayonida faqat didaktik tamoyillarga tayanish yetarli emas, balki o‘quvchilarning psixologik rivojlanish qonuniyatlarini chuqur hisobga olish zarur. Shu sababli psixodidaktika ta’lim jarayonini tashkil etishda psixologik va didaktik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Muallif ta’lim tizimini loyihalash jarayonida o‘quvchining individual xususiyatlari, xususan, uning kognitiv rivojlanish darajasi, qiziqishlari va o‘quv motivatsiyasi muhim omil ekanligini alohida ta’kidlaydi. Panovga ko‘ra, aynan shu omillarni inobatga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarni ongli va chuqur o‘zlashtirishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, psixodidaktik yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni faol o‘quv subyektiga aylantirish hamda ta’lim jarayoniga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Panov, shuningdek, psixodidaktikaning amaliy ahamiyatiga alohida urg‘u berib, uni ta’lim tizimlarini individuallashtirish va differensiallashtirishning samarali vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, psixologik va didaktik omillarning uyg‘unligi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Natijada, psixodidaktika zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. (Панов, 2007)

A.N. Krutskiy o‘z tadqiqotlarida psixodidaktikani o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashicha, an’anaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni ko‘proq umumiy yondashuvlarga asoslanadi, bu esa o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli psixodidaktika ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida qayta tashkil etishni nazarda tutadi. Muallif o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv motivatsiyasini oshirish muhim vazifa ekanligini ta’kidlaydi. Bu vazifalarni samarali amalga

oshirishda psixologik va didaktik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, psixodidaktika o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini individuallashtirish, o‘qitish metodlarini moslashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Krutskiy, shuningdek, psixodidaktikaning rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan bevosita bog‘liq ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning psixologik rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish orqali nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga erishish mumkin. (Крутский., 2008)

A.Z. Raximov o‘z ilmiy ishlarida psixodidaktikani ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy-amaliy yo‘nalish sifatida asoslaydi. Uning fikricha, samarali ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir o‘quvchining bilish faoliyati, qiziqishlari va idrok etish darajasi turlicha bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, psixodidaktika ta’lim mazmuni, metodlari va shakllarini o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasiga moslashtirishni talab etadi. Muallif psixodidaktik yondashuvlarning asosiy vazifasi sifatida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ta’limga bo‘lgan ichki motivatsiyasini shakllantirishni ko‘rsatadi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, psixologik va didaktik omillarning uyg‘unlashuvi orqali o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi oshishi ta’kidlanadi. Raximov, shuningdek, psixodidaktikaning amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib, uni ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirishning muhim vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarning qobiliyatlari, ehtiyojlari va o‘zlashtirish darajasini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etish mumkin. Natijada, ta’lim jarayoni yanada samarali, tizimli va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi. (Рахимов, 2003)

A.I. Savenkov o‘z tadqiqotlarida ta’lim mazmunini bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga, ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim mazmuni o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos ravishda shakllantirilishi kerak. Muallif, shuningdek, an’anaviy ta’lim tizimida ko‘pincha reproduktiv faoliyatga urg‘u berilishi natijasida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi yetarli darajada rivojlanmasligini ta’kidlaydi. Shu sababli ta’lim mazmunini boyitish, uni rivojlantiruvchi xarakterga ega qilish hamda o‘quvchilarni faol fikrlashga undovchi metodlardan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Savenkovning fikricha, ta’lim mazmunini to‘g‘ri tashkil etish orqali nafaqat bilimlar tizimini shakllantirish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. (Савенков., 2012)

A.N. Krutskiy va E.N. Goncharova o‘z monografiyasida psixodidaktik loyihalashni ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim mexanizmi sifatida asoslaydi. Ularning fikricha, an’anaviy didaktik yondashuvlar ko‘pincha o‘quv jarayonini umumiy tarzda tashkil etishga qaratilgan bo‘lsa, psixodidaktik loyihalash esa o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’limni rejalashtirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, o‘quv jarayonini loyihalashda psixologik va didaktik omillarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflar psixodidaktik loyihalashni metodologik yondashuvlar tizimi asosida quriladigan murakkab jarayon sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuvlar qatoriga muammoli, tizimli, individual-differensial, kommunikativ va boshqa ko‘plab pedagogik usullar kiradi. Bunday yondashuvlar ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotda o‘qituvchilarni psixodidaktik loyihalashga tayyorlash muhim masala sifatida ko‘riladi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quv jarayonini ilmiy asosda loyihalovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu sababli psixodidaktik yondashuvlarni oliy ta’lim tizimida o‘qitish va amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. (Крутский, и др., 1999)

A.N. Krutskiy va O.S. Gibelgauz o‘z tadqiqotlarida psixodidaktik paket texnologiyalarini ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning zamonaviy vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqadilar. Ularning fikricha, ushbu texnologiyalar o‘quv materiallarini tizimli va bosqichma-bosqich tarzda yetkazib berishga imkon yaratib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishni tashkil etishga xizmat qiladi. Mualliflar psixodidaktik paket texnologiyalarining asosiy afzalligi sifatida ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlashini alohida ta’kidlaydilar. Bunda o‘quvchi o‘z bilim darajasi va qobiliyatiga mos ravishda materialni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotda psixodidaktik paket texnologiyalarini joriy

etishda o‘qituvchining roli muhim ekanligi qayd etiladi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonini individual xususiyatlarga moslashtiruvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bunday texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning psixologik va didaktik tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishi zarur. (Крутский, и др., 2014)

Munozara. Bu ikki fanni bir-biriga bog‘liqligini aniqlash va ajratish oson bo‘lmadi va o‘zaro bog‘liqlik darajasi dolzarb bo‘lib qoldi. Psixologiya va didaktika fanlari bog‘liqliklari adabiyotlardan keng ravishda izlana boshlandi va ularning ta’limga bog‘liq jihatlari ko‘rib chiqildi. Ikki fanni bog‘lash juda ham murakkab ish bo‘lib, bu ko‘p qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Psixologik va didaktik materiallar hamda ular haqidagi adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ushbu ikki fan o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkoni yuzaga keldi. Izlanishlar natijasida psixologik, didaktik va pedagogik bilimlar jamlanib, psixodidaktika faniga asos solingan. Psixodidaktikaning vazifasi barcha metodologik yondashuvlar asosida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan.

Maktablarda keng tarmoqda so‘rov o‘tkazildi va o‘qituvchilar tomonidan aytib o‘tilgan fikrlar asosida muammo aniqlandi. Bu maktabda o‘quvchilarga ta’lim berishda eng sodda usul bilan dars o‘tish edi, bunda berilgan mavzuni paragraf asosida o‘qitish usuli tashkil etilgani, bu esa xotira va reproduktiv faoliyatga tayangan holda ta’lim berish edi. Bunda o‘quvchining qobiliyati yoki eslab qolish darajasi ahamiyat kasb qilmas edi. Shu sababdan ham psixodidaktikani maktablarda ta’lim jarayonida qo‘llash kerakligi aytib o‘tildi. Psixodidaktikani maktab ta’limida tashkil qilishda ham muammolarga duch kelindi. Maktabdagi fanlarga psixologik va didaktik bilimlarni joriy etish yetarli darajada emasligi, ushbu bilimlarni qo‘llashda didaktik materiallarning yetarli emasligi, ba’zi holatlarda mavzuga mos materiallar umuman yo‘qligi, oliy ta’lim muassasalarida shu yo‘nalishda va uni maktabda qo‘llash uchun yetarli darajada bilimlar berilmasligi muammo bo‘lib keldi.

Shu muammoga yechim topish uchun 6 ta asosiy yo‘nalishga bo‘lindi. Bunda birinchi yo‘nalishda maktab ta’lim jarayoni asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralib, unda psixologik va didaktik konsepsiyalar asosidagi metodologik yondashuvlar hamda ularning o‘zaro integratsiya mexanizmlari tahlil qilinadi. Ikkinchi yo‘nalishda didaktik va pedagogik psixologiyaga oid nazariya va g‘oyalar, ularning amaliy qo‘llanilishi hamda maktab ta’limini takomillashtirishdagi o‘rni yoritiladi. Uchinchi yo‘nalishda metodologik yondashuvlar o‘qituvchilarni oliy ta’lim tizimida tayyorlash jarayonida o‘rganiladi va psixologik-pedagogik konsepsiyalar tizimi shakllantiriladi. To‘rtinchi yo‘nalishda pedagogik psixologiya va metodika sohasida kategoriyalar apparatini ifodalovchi yagona terminologik baza yetarli darajada shakllanmaganligi qayd etiladi. Beshinchi yo‘nalishda psixologik-pedagogik fan yutuqlarini amaliyotga joriy etuvchi vositachi tizim yetarli darajada rivojlanmaganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Oltinchi yo‘nalishda esa ta’lim jarayonidagi talablar bilan psixologik-didaktik nazariyalar o‘rtasida keskin qarama-qarshilik mavjudligi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun yetarli didaktik materiallarning yetishmasligi ta’kidlanadi. (Крутский, 2015)

Shundan ko‘rinib turibdiki, psixodidaktika psixologiya va didaktika yo‘nalishlarining o‘xshash jihatlarini pedagogika faniga zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik bilimlar majmui sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, u o‘zaro bog‘liq jihatlarni umumlashtirib, ta’lim jarayoniga oid metodologik yondashuvlar tizimiga aylandi. Bu fan ta’lim jarayonini osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Psixodidaktika fanini rivojlantirar ekanmiz, biz ta’lim jarayonida kerak bo‘ladigan metodlarni qo‘llashni, yangi va samarali bilim berish usullarini o‘rganib boramiz.

Xulosa qilib aytganda, psixodidaktika fani ta’lim jarayoni uchun muhim bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U psixologiya va didaktika fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllangan bo‘lib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishga imkon yaratadi. Shu jihatdan psixodidaktika nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu sababdan psixodidaktika fanini oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarga chuqurroq o‘rgatish lozim. Bu orqali kelajak o‘qituvchilari o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri baholash, ularning bilish faoliyatini rivojlantirish va samarali ta’lim metodlarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Maktab ta’lim tizimida ham psixodidaktika bilan bog‘liq o‘quv materiallarini kengroq joriy etish, zamonaviy didaktik vositalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Natijada, psixodidaktika fanini rivojlantirish va uni ta’lim tizimiga keng joriy etish orqali zamonaviy, samarali va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Крутский А. Н. Психодидактика и перспективы её дальнейшего развития // Школьные технологии. – 2011. – № 2. – С. 73–77. URL: https://narodnoe.org/journals/shkolnie-tehnologii/2011-2/psihodidaktika-i-perspektivi-eyo-dalneiyshego-razvitiya (дата обращения: 24.04.2026)

2. Крутский А. Н. Роль психодидактики в профессиональной подготовке учителя // Science for Education Today. – 2015. – № 6 (28). – С. 78–87. URL: https://sciup.org/article/147137690 (дата обращения: 24.04.2026)

3. Савенков А. И. Психодидактика. – 2012.

4. Гельфман Э. Г., Холодная М. А. Психодидактика школьного учебника. – 2006. URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01003056788 (дата обращения: 24.04.2026)

5. Крутский А. Н., Гончарова Е. Н. Психодидактическое проектирование учебного процесса: монография. – Барнаул: Издательство БГПУ, 1999. – С. 30–55. URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01000626166 (дата обращения: 24.04.2026)

6. Педагогика и психология. Круглый стол // Вопросы психологии. – 2001. – № 1. – С. 15–43. URL: https://psyjournals.ru/journals/voppsy/archive/2001_n2 (дата обращения: 24.04.2026)

7. Крутский А. Н., Гибельгауз О. С. Психодидактические пакетные технологии обучения // Школьные технологии. – 2011. – №3. – С. 117–123. URL: https://cyberleninka.ru/search?q=психодидактика (дата обращения: 24.04.2026)

8. Панов В. И. Психодидактика образовательных систем: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2007. – 352 с. URL: https://cyberleninka.ru/search?q=педагогическая%20психология%20обучение (дата обращения: 24.04.2026)

9. Крутский А. Н. Психодидактика среднего образования. – 2008. URL: https://cyberleninka.ru/search?q=Крутский%20психодидактика (дата обращения: 24.04.2026)

10. Рахимов А. З. Психодидактика. – 2003. URL:https://cyberleninka.ru/search?q=психодидактика%20обучение (дата обращения: 24.04.2026)

REDJO PEDAGOGIKASI ORQALI BOLALARDA JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Bunyoddilfuz@gmail.com

Bola tarbiyasi va ta’limi insoniyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir davr o‘zining pedagogik yondashuvlarini yaratgan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida Italiyada shakllangan Reggio Emilia pedagogikasi butun dunyo miqyosida bolaga yo‘naltirilgan ta’limning eng yorqin namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuvning asosiy g‘oyasi - bolani faol, ijodkor, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxs sifatida ko‘rish va ta’lim jarayonini uning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda huquqlariga moslashtirishdir.

Kalit so‘zlar: *bola markazida ta’lim, o‘yin va ijodkorlik, muhitning roli, hamkorlik, fasilitatsiya, fasilitator, qayta ifodalash, jamoaviy intellekt, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish.*

ФОРМИРОВАНИЕ У ДЕТЕЙ НАВЫКОВ КОМАНДНОЙ РАБОТЫ ПОСРЕДСТВОМ ПЕДАГОГИКИ РЕДЖО

Воспитание и обучение детей — одна из важнейших задач человечества. И хотя каждая эпоха создавала свои педагогические подходы, педагогика Реджо-Эмилия, зародившаяся в Италии во второй половине XX века, признана во всём мире одним из самых ярких примеров личностно-ориентированного обучения. Основная идея этого подхода заключается в том, чтобы видеть в ребёнке активную, творческую личность, способную свободно выражать своё мнение, и выстраивать образовательный процесс в соответствии с его потребностями, интересами и правами.

Ключевые слова: *личностно-ориентированное обучение, игра и творчество, роль среды, сотрудничество, фасилитация, фасилитатор, перефразирование, коллективный интеллект, самосознание, самоуправление.*

DEVELOPING TEAMWORK SKILLS IN CHILDREN THROUGH THE REGGIO EMILIA APPROACH

The upbringing and education of children is one of humanity's most important tasks. And while every era has created its own pedagogical approaches, the Reggio Emilia approach, which originated in Italy in the second half of the 20th century, is recognized worldwide as one of the most brilliant examples of child-centered learning. The core idea of this approach is to view the child as an active, creative individual capable of freely expressing their opinion, and to build the educational process around their needs, interests, and rights.

Keywords: *child-centered learning, play and creativity, the role of the environment, collaboration, facilitation, facilitator, paraphrasing, collective intelligence, self-awareness, self-management.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual, ijtimoiy, nutqiy, jismoniy va emotsional salohiyatini ochish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bola rivojining asosi shakllanishi inobatga olinsa, bu jarayonda ta’limning shakl va uslublari, metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shular orasida eng samarali va tabiiy yondashuvlardan biri bu – o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etishdir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, muammolarni ijodiy yechishga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qodir faol fuqaroni tarbiyalashni talab etmoqda. Bu maqsadga erishish uchun an’anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay qolayotgan bir paytda, pedagogik nazariya va amaliyotda yangi, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Shunday ilg‘or yondashuvlardan biri - Reggio Emilia pedagogikasi bo‘lib, u Italiyada XX asrning o‘rtalarida shakllangan va bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda.

Reggio pedagogikasi erta bolalik ta’limiga innovatsion yondashuv bo‘lib, ikkinchi jahon urushidan keyin Italiyaning kichik Reggio Emilia shahrida paydo bo‘lgan. Bu usul bolaning shaxsiyati, uning ijodiy salohiyati va tadqiqotchilik ruhini rivojlantirishga qaratilgan o‘ziga xos falsafa tufayli butun dunyoda mashhurlikka erishdi. Bu yondashuvda o‘qituvchi – bolaning o‘rganish jarayonidagi yo‘lboshchisi, hamkori va kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi muhim.

Adabiyotlarni tahlili va usullari. Reggio pedagogikasi o‘zining markaziga bolani qo‘yadi. Bu yondashuvga ko‘ra, bola tug‘ilganidan boshlab bilim olishga, dunyoni kashf etishga qodir shaxs sifatida qaraladi. Reggio Emilia pedagogikasi Ikkinchi jahon urushidan keyin, 1945-yilda Italiya shimolidagi Reggio Emilia shahrida paydo bo‘lgan. Urushdan keyingi davr Reggio pedagogikasi nima? Reggio pedagogika — bu har bir bola o‘ziga xos g‘oyalar, fikrlar va qobiliyatlarga ega bo‘lgan shaxs degan g‘oyaga asoslangan ta’lim yondashuvidir.

Reggio pedagogika: Kreativlikni rivojlantirishning samarali yo‘lida bu hudud aholisi yangi, insonparvar va demokratik jamiyatni qurishda odamlar o‘z kuchlarini erta bolalik davridagi ta’limga sarflash ya’ni bolalarni erkin, mustaqil va ijtimoiy ongli tarzda tarbiyalash zarurligini anglab yetadi. Shu maqsadda mahalliy aholi tomonidan Reggio Emiliadan yetti kilometr uzoqlikdagi Villa Cella qishlog‘ida yosh bolalar uchun maktab qurildi. Xalq bu oddiy maktab bo‘lishini xohlamadi. Buning o‘rniga, bu ta’lim maskani bolalar o‘rganishi uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, qizishlarini uyg‘otadigan va hamma hurmat qiladigan, bolalarni rag‘batlantira oladigan joy bo‘lishini xohlashadi. Bu jarayonda italiyalik pedagog va psixolog Loris Malaguzzi faol ishtirok etib, pedagogik konsepsiyaga nazariy asos yaratadi va Reggio metodikasining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, har bir bola o‘z tabiiy qobiliyatlari bilan tug‘iladi va ularga sharoit yaratilsa, o‘z salohiyatini ochib bera oladi. Shuningdek, u bolalarning rivojlanishida o‘zaro hurmat, ochiq muloqot, ijodkorlik va tajriba asosidagi o‘rganish muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan. Aynan shu tamoyillar asosida Reggio pedagogikasi shakllangan bo‘lib, ta’limga yondashuvi bolalarga qaratilganligi bilan mashhur bo‘ldi. 1987-yilda har yili o‘tkaziladigan Yosh bolalar ta’limi milliy asosida Reggio pedagogikasiga xalqaro qiziqish ortdi va shundan buyon davom etib kelmoqda. Bugungi kunda Reggio Emilia yondashuvi 145 dan ortiq mamlakatlar tomonidan qabul qilingan.



1-rasm. Reggio pedagogik modeli

Reggio bu pedagogik modelda o‘qituvchi rahbar yoki nazoratchi emas, balki bolaning bilim olish jarayonidagi hamkori va yo‘l ko‘rsatuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv muhitining o‘zi esa “Uchinchi

o‘qituvchi” sifatida e’tirof etiladi - bu degani, maktab yoki bog‘cha muhitining har bir detali bolani qiziqtiradigan, u bilan muloqotga kirishadigan darajada sharoit va jihozlar bilan ta’minlanishi muhim hisoblanadi. Reggio pedagogikasining yana bir muhim jihati - bu ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikka alohida e’tibor qaratilishidir.

2-rasm. Reggio 4-C modeli

Mini-C kreativligi faqat ma’lum bir shaxs uchun mazmunli bo‘lgan va faqat ularga ma’lum bo‘lgan g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu darajadagi g‘oyalar odatda jismoniy amalga oshirilmaydi va inson ongida fikr sifatida yashaydi. Mini-C ijodkorligi ko‘pincha bolalar va maktab o‘quvchilarida yangi narsalarni - masalan, yangi so‘zlar yoki ta’riflarni o‘ylab topishganda paydo bo‘ladi.

Little-C kreativligi asosan kundalik fikrlash va muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi ijod odamlarga maktabda, ishda yoki uyda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Misol uchun, siz uyda tirnoqlarni ishlatmasdan qanday qilib rasmni osib qo‘yishni aniqladingiz. Siz simfoniya yozmaganingiz yoki fizika nazariyasini ishlab chiqmaganingiz aniq, lekin siz kreativlik yordamida hayotingizni yaxshilagansiz.

Pro-C kreativligi o‘z sohasida professional deb atalgan kishilarda topiladi. Ular uylarni loyihalash yoki yaxshi matnlar yozish kabi o‘z ishlarini yaxshi va samarali bajaradilar.

Big-C kreativligi ajoyib asarlar va ajoyib g‘oyalarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning bu turi muallifning yuksalishiga va tan olinishiga, shuningdek, dunyoni o‘zgartirishga olib keladi. Shu tariqa ilmiy yutuqlar ro‘y beradi, yorqin san’at asarlari paydo bo‘ladi.

Natijalar. PISA tadqiqoti yaxshi tasdiqlangan faktlarga asoslanadi, kamida uchta sohada ijodiy vazifalarda sezilarli farqlar mavjudligini tasdiqlaydi: og‘zaki ifoda sohasida, badiiy ifodalash va muammolarni hal qilish sohasida — ijtimoiy, tabiiy fanlar, matematika.

Ushbu pozitsiyani qabul qilish topshiriqlar tarkibini oldindan belgilaydi, ular orasida quyidagi guruhlar ajratiladi:

☑ badiiy vositalardan foydalanishni talab qiladigan topshiriqlar — og‘zaki va vizual;

☑ muammoni yechish uchun topshiriqlar — ijtimoiy va ilmiy

Shunday qilib, PISA tadqiqotida foydalaniladigan kreativlik modeli tashqi va ichki ta’sir etuvchi omillarni qamrab oladi. Kreativlik usullari va ta’lim jarayonida kreativlik qobiliyati.

Kreativ fikrlashni baholash modeli ikkita asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

1. Baholash materiallarini yaratishda foydalaniladigan mazmun sohalarini aniqlaydigan tematik komponent
2. Vazifalarni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan fikrlash jarayonlarini belgilaydigan kompetensiya komponenti

Yana bir samarali baholash amaliyotiga to‘xtalamiz.

Bolalarda kreativ rivojlanish darajasini baholash uchun P. Torrance quyidagi mezonlardan foydalanishni taklif etgan:

O‘ziga xoslik — kreativlikning o‘ziga xosligini, ijodiy muammolarni hal qilishda nostandart/g‘ayrioddiy yondashuvni tavsiflaydi: noyob ijodiy yechimlar soni va javoblar tuzilishining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tezlik/tezkorlik — qiyin vaziyatga tezda moslashish qobiliyati; shuningdek, kreativ fikrlashning ravonligini tavsiflaydi va vaqt birligida yaratilgan yangi g‘oyalar va obyektlarning umumiy soni bilan

belgilanadi: insonning ijodiy mahsuldorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik yangi g‘oyalar yaratishga tayyor bo‘ladi.

Moslashuvchanlik — turli xil algoritmlarga asoslangan yoki turli xil bilim sohalaridan ijodiy yechimlarni taklif qilish qobiliyati.

O‘zgaruvchanlik — muayyan vaziyatda turli g‘oyalarni taklif qilish qobiliyati.

Baholash-sinovning asosiy usuli — P. Torrance testi bo‘lib, u maktabgacha yoshdan (5-6 yosh) boshlab kreativlikni tashxislash uchun mo‘ljallangan. Ushbu test o‘yin shaklida, qiziqarli mashg‘ulot sifatida o‘tkazilishi va bolalarda kreativlikni rivojlantirish uchun bevosita qo‘llanilishi mumkin. Xususan, eng yaxshi javoblarni muhokama qilishda pedagog bolalarning aqliy dunyoqarashini kengaytirishga, narsa va hodisalarga turli burchaklardan qarashga, oddiy, mustaqil fikrlashda g‘ayrioddiy narsalarni ko‘rish qobiliyatini, yangi narsalarni taklif qilish qobiliyatini, tafakkurni, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan narsalarni bog‘lash qobiliyatini, ya’ni hayotga ijodiy yondashishga harakat qiladi.

Xulosa. Reggio Emilia pedagogikasi – bolalarga shaxs sifatida yondashuvchi, uning tug‘ma qobiliyatlari, ijodkorligi va qobiliyatlarini tan oluvchi zamonaviy yondashuvdir. Bu pedagogika, ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u har bir bosqichda bolalarning rivojlanishiga mos moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishni taqozo etadi. Uzluksiz ta’limda Reggio yondashuvi pedagogdan faqat bilim beruvchilikni emas, balki tinglovchi, kuzatuvchi, yo‘naltiruvchi va hamkor bo‘lishni talab etadi. Pedagoglar bolalarning har bir ifoda shaklini qadrlashi, ularning qiziqishlarini inobatga olib loyihalar asosida ta’lim tashkil etishi zarur. Bunday yondashuv bolalarning mustaqilligi, ijtimoiylashuvi, o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Reggio yondashuvi ota-onalar, muhit va pedagoglar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytiradi. Bu uzluksiz ta’lim tizimida ta’limiy jarayonni to‘laqonli, tizimli va izchil qilishga yordam beradi. Shunday ekan, uzluksiz ta’limda Reggio pedagogikasini qo‘llash – bu nafaqat o‘quv dasturlarini boyitish, balki har bir bolaga hurmat bilan yondashadigan, uning individual salohiyatini to‘liq ochib bera oladigan ta’lim madaniyatini shakllantirishdir. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi, ongli, faol va ijodkor avlodni tarbiyalashning ishonchli yo‘lidir. Bolalikdan kreativlikni rivojlantirish kelajakda bola uchun katta istiqbollarni ochadi. Bugungi dunyoda ish beruvchilar o‘zgacha fikr yurita oladigan, innovatsion yechimlarni topadigan va o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan shaxslarni ko‘proq afzal ko‘rmoqda. Ijodiy faoliyat orqali olingan ko‘nikmalar turli kasblarda — fan va muhandislikdan biznes va san’atgacha foydalidir. Ijodkorlikni erta yoshdan qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘ziga ishonchini oshirishga yordam beradi, dunyoqarashini kengaytiradi va boshqalar sezmagan yangi imkoniyatlarni ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onalar bolaning ijodiy rivojlanishini rag‘batlantirish, nafaqat uning o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadi, balki uning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish ularning kelajagiga uzoq muddatli sarmoyadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik akademik muvaffaqiyatga, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga va muvaffaqiyatli martabaga yordam beradi. Ota-onalar bolalarning imkoniyatlarini ochishga yordam berish uchun o‘yin, san’at, o‘qish, ilmiy tajribalar va tanqidiy fikrlashni o‘rgatish kabi amaliy usullardan foydalanishlari mumkin. Yoshlikdan ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash har qanday kasbiy sohada muvaffaqiyatli kelajak uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. John Dewey. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916.
2. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. S. Makarenko. Pedagogik poema. Moskva: Prosveshchenie, 1988.
4. Shalva Amonashvili. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari. Tbilisi, 1998.
5. N. F. Golovanova. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2019.
6. B. R. Qodirov. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. E. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
8. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.
9. David Buckingham. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.
10. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris, 2021.
11. UNICEF. Communication for Development: Strengthening Children's Participation. New York, 2020.

HARBIYLARDA MAS’ULIYAT HISSINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Durdiyev Sirojiddin Maqsudbekovich,
Gurlan tuman ichki ishlar bo‘limi tashkiliy
bo‘linma katta inspektori, mayor, mustaqil tadqiqotchi
durdiyevsirojiddin2@gmail.com

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik omillari keng tahlil qilinadi. Harbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni yuqori intizom, buyruqlarga qat’iy rioya qilish, tezkor va aniq qaror qabul qilish zarurati hamda jamoaviy javobgarlik sharoitida faoliyat yuritish kabi jihatlar shaxsning mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqolada shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatning harbiy xizmatdagi o‘rni alohida yoritilib, harbiy xizmatchining nafaqat o‘z harakatlari, balki jamoa va vazifa natijasi uchun ham javobgarlikni his etishi zarurligi ta’kidlanadi. Mas’uliyat hissi harbiy intizomning asosiy psixologik omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqilib, uning shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi ichki (irodaviy sifatlar, motivatsiya, o‘zini nazorat qilish) va tashqi (rahbarlik uslubi, jamoaviy muhit, tarbiyaviy tizim) omillar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi mas’uliyat hissini mustahkamlashda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlar — identifikatsiya, ichki motivatsiya, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash jarayonlari hamda ularni shakllantirishga qaratilgan amaliy usullar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *mas’uliyat, harbiy psixologiya, motivatsiya, intizom, shaxs rivoji, ijtimoiy ong, psixologik tayyorgarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

В данной статье подробно анализируются психологические факторы формирования и развития чувства ответственности у военнослужащих. Особенности военной деятельности, такие как высокая дисциплина, строгое соблюдение приказов, необходимость быстрого и точного принятия решений, а также деятельность в условиях коллективной ответственности, играют важную роль в формировании чувства ответственности личности. Также в статье отдельно рассматривается роль личной и социальной ответственности в военной службе, подчёркивается необходимость осознания военнослужащим ответственности не только за свои действия, но и за результаты работы всего коллектива и выполнения поставленных задач. Чувство ответственности рассматривается как один из ключевых психологических факторов военной дисциплины, анализируются внутренние (волевые качества, мотивация, самоконтроль) и внешние (стиль руководства, коллективная среда, воспитательная система) факторы, влияющие на его формирование.

Кроме того, психологическая подготовка военнослужащих рассматривается как важный инструмент укрепления чувства ответственности. В статье освещаются основные психологические механизмы развития ответственности — идентификация, внутренняя мотивация, рефлексия и самооценка, а также практические методы их формирования.

Ключевые слова: *ответственность, военная психология, мотивация, дисциплина, развитие личности, социальное сознание, психологическая подготовка.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN MILITARY PERSONNEL

This article provides an in-depth analysis of the psychological factors involved in the formation and development of responsibility among military personnel. The specific features of military activity, such as high discipline, strict adherence to orders, the need for rapid and accurate decision-making, and functioning in conditions of collective responsibility, play an important role in shaping an individual’s sense of responsibility. The article also highlights the role of personal and social responsibility in military service, emphasizing that military personnel must feel accountable not only for their own actions but also for the outcomes of team performance and assigned tasks. Responsibility is considered one of the key psychological

factors of military discipline, and both internal (volitional qualities, motivation, self-control) and external (leadership style, group environment, educational system) factors influencing its formation are analyzed.

Furthermore, psychological training of military personnel is viewed as an important tool for strengthening the sense of responsibility. The article discusses the main psychological mechanisms that contribute to the development of responsibility—identification, intrinsic motivation, reflection, and self-assessment – as well as practical methods aimed at their formation.

Key word: *responsibility, military psychology, motivation, discipline, personality development, social awareness, psychological readiness.*

Kirish. Harbiy xizmat jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashda eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyat yuqori darajadagi intizom, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va eng asosiysi, kuchli mas’uliyat hissini talab etadi. Harbiy xizmatchining har bir harakati va qarori nafaqat uning shaxsiy faoliyatiga, balki butun jamoa hamda davlat manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mas’uliyat hissi shaxsning o‘z vazifalarini anglagan holda bajarishi, natijalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi va ijtimoiy burchini his etishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Harbiy muhitda esa bu sifat yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u xizmat samaradorligi va xavfsizlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirish psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning motivatsiyasi, ijtimoiy ongi, axloqiy qadriyatlari hamda psixologik tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liqdir. Olib borilgan tadqiqot doirasida harbiylarda mas’uliyat hissini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, unga ta’sir etuvchi omillar hamda samarali shakllantirish usullari tahlil qilinadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissi shaxsning o‘z vazifalarini ongli ravishda bajarishi, qarorlarining oqibatlarini to‘liq anglash va jamoa oldidagi burchini his etishi bilan ifodalanadi. Psixologik nuqtai nazardan bu sifat shaxsning ichki motivatsiyasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ong darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Mas’uliyat hissi harbiy sharoitda nafaqat individual xususiyat, balki jamoaviy faoliyat samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Harbiy intizom va qat’iy ierarxik tizim ushbu sifatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Harbiy xizmat ekstremal sharoitlar, yuqori stress va tezkor qaror qabul qilish talab qilinadigan muhitdir. Bunday sharoitlarda mas’uliyat hissi quyidagi psixologik omillar orqali shakllanadi:

-motivatsiya (ichki va tashqi)
-intizom va bo‘ysunish tizimi
-liderlik va rahbar ta’siri
-zamoaviy ong va ijtimoiy moslashuv
-stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik

Tadqiqotlarda harbiy rahbarlik uslubi ham xizmatchilarning mas’uliyat hissiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Avtoritar yoki demokratik yondashuvlar motivatsiya va intizom darajasini o‘zgartiradi. Harbiy psixologiyada mas’uliyatni rivojlantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi: ijtimoiy o‘rganish (namuna olish) – tajribali harbiylardan o‘rnak olish, psixologik treninglar – stress va ekstremal vaziyatlarga tayyorlash, refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, rag‘batlantirish tizimi – ijobiy xulqni mustahkamlash, kasbiy tayyorgarlik – bilim va ko‘nikmalarni oshirish. Shuningdek, psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchining emotsional barqarorligini oshirib, qaror qabul qilish jarayonida mas’uliyatni kuchaytiradi. Harbiy psixologiya shaxsning xizmat sharoitiga moslashuvi, jamoada o‘z o‘rnini topishi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini o‘rganadi. Shaxs rivoji jarayonida mas’uliyat hissi ijtimoiylashuv va kasbiy tajriba bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Tadqiqot olib borish jarayonida mas’uliyat hissi, shaxs tuzilmasi va uning shakllanish mexanizmlarini yoritib beruvchi bir qator yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari bilan tanishib chiqildi. Jumladan, B. G. Ananyev o‘zining shaxs psixologiyasiga oid izlanishlarida mas’uliyat hissining shaxs tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liqligini asoslab bergan. U shaxsni yaxlit tizim sifatida ko‘rib, undagi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’sirda rivojlanishini ta’kidlaydi. Ananyevga ko‘ra, mas’uliyat shaxsning ichki tuzilmasida muhim o‘rin egallab, uning faoliyat va xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik sifat sifatida namoyon bo‘ladi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasining asoschisi sifatida shaxsning shakllanishini aynan faoliyat jarayoni bilan bog‘laydi. Uning fikricha, insonning motivlari va ehtiyojlari faoliyat orqali rivojlanadi hamda takomillashadi. Leontyev mas’uliyatni ham faoliyat natijasi va uning ongli boshqarilishi sifatida talqin etadi. Ya’ni, inson o‘z faoliyatining maqsadini anglagan holda harakat qilsa, unda mas’uliyat hissi shakllanadi va mustahkamlanadi.

S. L. Rubinshteyn shaxs psixologiyasida “ong va faoliyat birligi” tamoyilini ilgari surgan. Unga ko‘ra, insonning har qanday harakati ong orqali boshqariladi va faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Rubinshteyn

mas’uliyatni ongli faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida izohlaydi. Shaxs o‘z harakatlari va ularning oqibatlarini anglagan holda faoliyat yuritishi mas’uliyat hissining asosiy mezoni hisoblanadi. V. A. Karchevniy harbiy psixologiya va pedagogika sohasida olib borgan tadqiqotlarida harbiy xizmatchilarning intizomi, psixologik tayyorgarligi va xizmat sharoitlariga moslashuv jarayonlarini o‘rgangan. U harbiy tizimda mas’uliyat hissining shakllanishida intizomiy muhit, qo‘mondonlik talablari va psixologik tayyorgarlik muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning ishlari harbiy sharoitda shaxsning barqaror psixologik holatini ta’minlashga qaratilgan.

E. G‘oziyev shaxs psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya yo‘nalishida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U mas’uliyat, motivatsiya va ijtimoiy ongning rivojlanishini shaxs kamolotining asosiy omillari sifatida ko‘rsatadi. G‘oziyevning fikricha, mas’uliyat hissi shaxsning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy vazifalari va ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi. V. M. Karimova esa ijtimoiy psixologiya sohasida shaxsning guruh ichidagi xulq-atvori va ijtimoiy mas’uliyatini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. U shaxsning jamoa ichidagi o‘rni, ijtimoiy rollarni bajarishi va guruh normalariga moslashuvi mas’uliyat hissining rivojlanishiga ta’sir etishini asoslab beradi. Karimova tadqiqotlarida ijtimoiy muhit shaxs xulqini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Umuman olganda, ushbu olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, mas’uliyat hissi shaxsning ichki psixologik tuzilmasi, faoliyat jarayoni, ongli xulq-atvori hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

Muhokama va natijalar. Harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini rivojlantirish jarayoni murakkab psixologik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Quyida keltirilgan jadvalda harbiylarning yosh, jins va ish staji bo‘yicha taqsimot ko‘rsatkichlari keltirilgan. Unga ko‘ra mas’uliyat hissining rivojlanishi yosh va ish staji bilan bog’liq tarzda namoyon bo‘lishi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

1-jadval.

Tadqiqot obyektining yosh, jins va ish staji bo‘yicha taqsimot ko‘rsatkichlari

№	Sinaluvchilar	Sinaluvchilar yoshi		Sinaluvchilar jinsi		Sinaluvchilarning ish staji	
		23-28 yosh (yoshlik davri)	29-35 yosh (yetuklik davrining 1-bosqichi)	Erkak	3-5 yil	5-15 yil	15 yildan yuqori
1.1	Harbiylar	**107**	**103**	**210**	**116**	**49**	**45**

Harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissi ularning yoshi va xizmat staji bilan ma’lum darajada bog‘liq hisoblanadi. Bu bog‘liqlik tajriba ortishi va shaxsiy rivojlanish jarayoni bilan izohlanadi. Yosh harbiy xizmatchilar odatda xizmatga endi kirib kelgan bo‘lib, ular ko‘proq buyruqlarni aniq bajarishga e’tibor qaratadilar. Ularda mas’uliyat hissi asosan intizom va qoidalarga rioya qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Tajriba yetishmasligi sababli mustaqil qaror qabul qilishda biroz qiynalish holatlari uchrashi mumkin. Yoshi va xizmat staji ortgan sari harbiy xizmatchilarda amaliy tajriba ham oshib boradi. O‘rta bosqichdagi xizmatchilar vaziyatni yaxshiroq tahlil qila boshlaydilar, topshiriqlarga nisbatan javobgarlik hissi kuchayadi hamda kichik guruhlarni boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Uzoq yillik xizmat tajribasiga ega harbiylarda esa mas’uliyat hissi yanada chuqur va keng ko‘lamli bo‘ladi. Ular nafaqat o‘z harakatlari, balki boshqalar faoliyati uchun ham javobgarlikni his qiladilar. Qaror qabul qilishda vaziyatning oqibatlarini oldindan baholash qobiliyati kuchli bo‘ladi. Shu bilan birga, mas’uliyat hissining shakllanishi faqat yosh va stajga bog‘liq emas. U harbiy tarbiya, qo‘mondonlik uslubi, shaxsiy xarakter hamda psixologik tayyorgarlik kabi omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Umuman olganda, yosh va xizmat staji ortishi bilan harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissi asta-sekin rivojlanib, yanada barqaror va chuqur mazmun kasb etadi.

O‘rganilgan nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mas’uliyat hissi nafaqat shaxsning ichki xususiyati, balki tashqi muhit, tarbiya tizimi va harbiy jamoa ta’sirida shakllanadigan dinamik psixologik sifatdir. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, harbiy muhitda mas’uliyat hissining shakllanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: qat’iy intizom tizimi, komandirlarning shaxsiy namunasi, jamoaviy faoliyat va ekstremal sharoitlarda mashg‘ulotlar. Ayniqsa, liderlik sifati yuqori bo‘lgan rahbarlar qo‘l ostidagi harbiylarda mas’uliyat darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘lishi kuzatiladi.

Muhokama jarayonida shuningdek, ichki motivatsiyaning roliga alohida e’tibor qaratildi. Ichki motivatsiyasi kuchli bo‘lgan harbiy xizmatchilar o‘z vazifalarini yanada ongli ravishda bajaradi, qaror qabul qilishda mustaqillik ko‘rsatadi va natijalar uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi. Aksincha, faqat tashqi rag‘bat (jazodan qo‘rquv yoki mukofotga intilish) asosida harakat qiluvchi shaxslarda mas’uliyat hissi

nisbatan past darajada shakllangan bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, psixologik tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan harbiylarda stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik kuchli bo‘lib, bu o‘z navbatida mas’uliyatli qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtiradi. Refleksiya va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari esa shaxsning o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy yondashuvini rivojlantirib, mas’uliyat hissini mustahkamlaydi. Tadqiqotning eksperiment qismida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki:

-harbiylarda mas’uliyat hissi kompleks psixologik jarayon hisoblanadi;

-uning shakllanishida motivatsiya, intizom va liderlik asosiy rol o‘ynaydi;

-psixologik tayyorgarlik va stressga chidamlilik mas’uliyatni kuchaytiradi;

-jamoaviy muhit va ijtimoiy o‘rganish jarayoni muhim ahamiyatga ega;

-ichki motivatsiya tashqi motivatsiyaga nisbatan barqarorroq va samaraliroq natija beradi.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini rivojlantirish uchun psixologik yondashuvlar tizimli ravishda qo‘llanilishi lozim. Bu esa nafaqat individual shaxs rivojiga, balki harbiy jamoaning umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mas’uliyat hissini mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlar va usullarni tahlil qiladigan bo‘lsak, harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini mustahkamlash murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u bir nechta ichki mexanizmlar va tashkiliy-pedagogik usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon shaxsning ong, motivatsiya, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Harbiy xizmatchilar ko‘pincha tajribali komandirlar va yetakchilarning xulq-atvorini kuzatish va unga taqlid qilish orqali mas’uliyatni o‘zlashtiradi. Bu mexanizm “namuna orqali o‘rganish” sifatida ham tushuntiriladi va shaxsning kasbiy xulqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mas’uliyat hissi eng barqaror shaklda ichki motivatsiya orqali rivojlanadi. Bunda shaxs tashqi rag‘batlardan ko‘ra burch, vatanparvarlik va kasbiy o‘zini anglash asosida harakat qiladi. Shaxs o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, xatolarini anglab borishi va ulardan xulosa chiqarishi mas’uliyatni mustahkamlovchi muhim psixologik omildir. Refleksiya o‘z-o‘zini nazorat qilishni kuchaytiradi. Harbiy jamoa ichidagi qat’iy intizom va nazorat tizimi shaxsni o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishga undaydi. Jamoa fikri va bahosi mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Stressli va ekstremal vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash shaxsning ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi. Bu esa mas’uliyatli xulqning shakllanishini ta’minlaydi.

Maxsus psixologik treninglar orqali harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish va mas’uliyatli harakat qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Real harbiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish shaxsni mas’uliyatli qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Rag‘batlantirish va baholash tizimi. Ijobiy xulqni mukofotlash va natijalarni adolatli baholash mas’uliyat hissining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Komandir va yetakchilarning shaxsiy namunasi, ularning xulqi va qarorlari harbiylarda mas’uliyatni shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Mashg‘ulot yoki topshiriqdan so‘ng natijalarni birgalikda tahlil qilish shaxsga o‘z xatti-harakatlarini baholash va mas’uliyatni anglash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Harbiy xizmatchilarda mas’uliyat hissini rivojlantirish murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mas’uliyat hissi shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy tajribasi, psixologik tayyorgarligi hamda harbiy muhitning tashkiliy-psixologik sharoitlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Harbiy faoliyat sharoitida mas’uliyat hissi nafaqat individual sifat, balki jamoaviy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Intizom, liderlik, ijtimoiy o‘rganish va refleksiya kabi psixologik mexanizmlar ushbu sifatni shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mas’uliyat hissi yuqori darajada rivojlangan harbiy xizmatchilar ekstremal vaziyatlarda ham ongli qaror qabul qilish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish va o‘z vazifalarini aniq bajarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Harbiy ta’lim tizimida mas’uliyat hissini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus psixologik dasturlarni keng joriy etish. Harbiy xizmatchilar uchun muntazam psixologik treninglar va stressga chidamlilikni oshiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish. Komandirlar va yetakchilar uchun liderlik va psixologik ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish.

Harbiy jamoalarda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirish. Xizmat jarayonida refleksiya va tahlil qilish amaliyotini kengaytirish, ya’ni bajarilgan topshiriqlarni muhokama qilish tizimini rivojlantirish.

Ichki motivatsiyani kuchaytirish maqsadida vatanparvarlik, burch va kasbiy mas’uliyatni targ‘ib qiluvchi tarbiyaviy ishlarni faollashtirish.

Adabiyotlar:

1. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – Л.: Издательство Ленинградского

университета, 1968.
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: 1975.
3. Рубинштейн С. Л. Принципы психологии сознания и деятельности. – Москва: Педагогика, 1989.
4. Анохин П. К. Теория функциональных систем. – Москва: Наука, 1975.
5. Ломов Б. Ф. Психология человека и инженерная психология. – Москва: Наука, 1984.
6. Карчевский В. А. Основы военной психологии. – Москва: Воениздат, 1990.
7. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
9. Немов Р. С. Психология. – Москва: Владос, 2003.
10. Мясищев В. Н. Психология отношений личности. – Москва: Педагогика, 1960.
11. Узнадзе Д. Н. Теория установки (психология установки). – Тбилиси, 1966.
12. Зубков А. И. Психологическая подготовка военнослужащих. – Москва: Воениздат, 2001.

OILA QURISH MOTIVLARI FENOMENINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATDA TADQIQ ETILISHI

Ergashova Muxlisa Azizjon qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi ‘‘Oila va gender’’ ilmiy-tadqiqot instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Mazkur maqolada oila qurish motivlari fenomeni nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tahlili, oila qurishga undovchi psixologik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar ilmiy manbalar asosida yoritildi. Shuningdek, turli xil psixologik maktablar va konsepsiyalarda oila qurish motivlarining talqini ochib berildi. Bundan tashqari motiv tushunchasining mazmuni, uning shaxs xulq-atvoriga ta’sirini shakllantirishdagi o‘rni hamda zamonaviy jamiyat sharoitida oila qurish qaroriga ta’sir etuvchi omillar, olimlar tomonidan nikoh motivlarining, nikohga tayyorgarlik kabi masalalarni o‘rganilishi va bugungi kundagi oila qurishdagi asosiy motivlar bayon etildi.

Kalit so‘zlar: *oila, oila qurish motivlari, motiv, nikoh, shaxs, ijtimoiy omillar, nazariy-metodologik yondashuv, ehtiyojlar, shaxslararo munosabatlar, nikohga tayyorgarlik, qadriyatlar, ijtimoiy institut, gender rollar.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФЕНОМЕНА МОТИВОВ СОЗДАНИЯ СЕМЬИ

В данной статье анализируется феномен мотивов создания семьи на основе теоретических и методологических подходов, а также освещаются психологические, социальные, культурные и экономические факторы, способствующие созданию семьи, на основе научных источников. Раскрывается также интерпретация мотивов создания семьи в различных психологических школах и концепциях. Кроме того, учёными рассматривается содержание понятия мотива, его роль в формировании личности и поведения, факторы, влияющие на решение о создании семьи в современном обществе, исследования мотивов брака, подготовка к браку, а также основные мотивы создания семьи сегодня.

Ключевые слова: *семья, мотивы создания семьи, мотив, брак, личность, социальные факторы, теоретический и методологический подход, потребности, межличностные отношения, подготовка к браку, ценности, социальные институты, гендерные роли.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL STUDY OF THE PHENOMENON OF FAMILY FORMATION MOTIVES

This article analyzes the phenomenon of family formation motives based on theoretical and methodological approaches, and sheds light on the psychological, social, cultural and economic factors that encourage family formation based on scientific sources. It also reveals the interpretation of family formation motives in various psychological schools and concepts. In addition, the content of the concept of motive, its role in shaping the influence of personality and behavior, and the factors influencing the decision to start a family in modern society, the study of marriage motives, preparation for marriage by scientists, and the main motives in family formation today are described.

Keywords: *family, family formation motives, motive, marriage, personality, social factors, theoretical and methodological approach, needs, interpersonal relationships, preparation for marriage, values, social institutions, gender roles.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda oila ijtimoiy insitut sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelmoqda. Qadimgi tarixda antik va ibtidoiy to‘da davrida ham insonlar birgalikda jamoa bo‘lib yashashni, kurashishni va ehtiyojlarini birgalikda qondirishni o‘rganishgan va sinab ko‘rishgan. Keyinchalik ular oila qurishga ehtiyoj sezib, qabila ichidagi qabilaga qiz berib, boshqa qabiladan qiz olishmagan. Asosan oila qurish jarayonida ularda nima boshlang‘ich motiv bo‘lgani ba’zi olimlar tomonidan o‘rganilgan, ammo ularni hammasi ilmiy tasavvurlar hisoblanadi. Bugungi kunga kelib esa, butunlay ilm-fan texnologiya asrida oila qurish motivlari tubdan o‘zgardi. Endilikda maqolada ularni birin-ketin yoritishga harakat qilamiz.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Nikoh-oila munosabatlari bilan bog‘liq izlanishlarga S.V.Kovalev, N.N. Obozev, Myasishev kabi chet el olimlari, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova,

M.G.Davletshin, N.A.Sog‘inov, A.Shojalilov, T.M.Adizova, F.R.Ro‘ziqulov kabi respublikamiz olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, Magdiyeva Z.Y nikohga tayyorgarlik nikoh motivlari, Qayumova.G yoshlar nikoh motivlari va oila haqidagi ijobiy tasavvurlari, Abdullayeva. D oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar, respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G.B.Shoumarov esa o‘z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushishi muhim rol o‘ynashini o‘z tadqiqot ishlarida aks ettirgan. [1].

Oilaviy munosabatlar keng qamrovli bo‘lib, ular nafaqat huquq me’yorlari bilan tartibga solinadi, balki unda odob-axloq va urf-odat qoidalariga ham amal qilinadi. Ana shulardan kelib chiqib, nikohlanuvchi shaxslarga nikoh tuzilishining huquqiy asoslarinigina emas, balki uning psixologik jihatlarini tushunarli, sodda tarzda bayon etish oilalar mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oila psixologiyasida nikoh quruvchilarning nikoh qurish omillari va shartlari masalasi muhim bo‘lib, nikoh qurish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- Oila qurish yoshi.
- Oilaviy hayotga yetuklik.
- Oila qurish motivlari.
- Oila qurilgungacha tanish muddati.
- Oila qurish shartlari va sharoitlari.
- Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari

Nikohga yetuklik omillari qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma’naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo‘lg‘usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritar ekanmiz, bu jihatlarning har biri qanday xususiyatga ega ekanligini ko‘rib chiqamiz. Nikohga yetuklik tushunchasi o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o‘z ma’naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o‘ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o‘lchov sifatidagina foydalaniladi. Nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Turmush o‘rtog‘ini tanlash va turmush o‘rtog‘ini afzal ko‘rish turmush qurayotgan yoshlarda motivatsiyon sohalari muhim ekanligi aytiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jinsiy tanlanish Bussning tadqiqotlariga ko‘ra, erkaklar va ayollar uzoq muddatli nikoh munosabatlariga intilishda tarixan duch kelgan turli qiyinchiliklar va tashvishlarga javoban, oldingi tadqiqotlar bu farqlar uchun evolyutsion nuqtai nazarni keltirgan, chunki ‘‘turmush o‘rtog‘ini tanlash erkaklar va ayollarning jinsiy strategiyalari yoki moslashish muammolarini hal qilish bilan belgilanadi’’ Darhaqiqat, “o‘tmishda turmush o‘rtog‘ining reproduktiv sarmoyasi bilan ijobiy bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni afzal ko‘rgan shaxslar tanlangan bo‘lishi mumkin va shu tariqa genetik jihatdan beg‘araz bo‘lgan yoki potentsial turmush o‘rtog‘ining reproduktiv investitsiya qobiliyatiga mos kelmaydigan imtiyozlarni kiritgan shaxslarga qaraganda ko‘proq ifodalangan bo‘lishi mumkin”.

Nikoh oldi omillaridan biri – bu nikoh qurish uchun asos bo‘lgan nikoh motivlari hisoblanadi. Motiv bu sodda qilib aytganda nikohga kirishishdan ko‘zlangan asosiy maqsaddir. Oila qurilishida bir necha o‘nlab nikoh motivlari mavjud. Lekin ularni umumlashtirilgan ravishda uchta toifaga ajratish mumkin:

1. Sevgi tufayli oila qurish.
2. Moddiy yoki o‘zga manfaatdorlik asosida oila qurish.
3. Stereotip bo‘yicha oila qurish

Nikoh – avvalo er-xotinlik ijtimoiy rollarini qabul qilish bo‘lib, qoidaga ko‘ra yangi oila ota-ona oilalaridan birining hududida yashay boshlashi, oilaga yangi insonning kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Oilaviy hayotning boshlang‘ich bosqichi umumiy tasavvurlarga ko‘ra oila rivojlanishining eng yoqimli bosqichi hisoblanadi. [2]

Hozirgi yigit va qiz muhabbati juda zaiflashib bormoqda. Yoshlar uchun sevgi-muhabbat asosida oila qurish ikkinchi darajali bo‘lib bormoqda. Birinchi o‘rinda to‘ydan keyingi hayoti qanday bo‘lishi, moddiy tomondan to‘la-to‘kis bo‘lishi, qiynalmay hayot kechirishi bo‘lib qolmoqda. Bir tomondan to‘g‘ridek tuyilishi mumkin, ammo yashash uchun barcha narsang bor-u er-xotin o‘rtasida sevgi- muhabbat bo‘lmasa – bu oila abadiy bo‘lmaydi. Bir-biriga ko‘ngil qo‘yib oila qurgan yoshlar bir-birini sevib, mehr-e’tibor berib, bir-birini har qanday holatda tushinib, hurmat asosida hayot kechiradilar. Hayotning baland-pastiga birgalikda bardosh berib, o‘zlari istashgan hayotni quradilar. Orzulari bir bo‘lib shu orzularini ro‘yobga chiqarish uchun birdamlikda-birgalikda harakat qiladilar.

Hatto xalqimiz ogʻzaki ijodida yillar davomida avloddan avlodga oila qurishgacha va undan keyingi hayot haqida koʻplab bilimlar, maʼlumotlar yetib kelgan. Bunda yigit va qiz oʻrtasida nikoholdi va nikohdan keying davrlar juda oddiy tushuntiriladi:

Ochiq boʻlish! - bu davrda yigit va qiz bir-biriga barcha ijobiy hislatlarini koʻrsatishadi, yaʼni oʻzining qanday yaxshi inson ekanligini ochiq oshkor qiladi. Bu davr 6 oy yoki 1,5 yil davom qilishi kerak.

Toʻyinish! - bu ikkinchi bosqich toʻydan keyin boshlanadi. Bu davrda yigit va qiz bir-birini har tomonlama bilib olishadi.

Dushmanlik! - bu uchinchi bosqich hisoblanadi. Yigit va qiz birinchi va ikkinchi bosqichdan oʻtgandan keyin bir-biriga maʼqul kelmaydigan taraflari koʻrina boshlaydi va konflikt kelib chiqa boshlaydi. Bunday vaziyatlar koʻpincha ochiq boʻlish bosqichi kam vaqt boʻlganda ham kelib chiqishi mumkin. Yosh oila bu davrga kelib ajrashib ketish hollari ham boʻlmoqda.

Koʻnikish, moslashish! - bu toʻrtinchi bosqichda er-xotin ongli ravishda bir-biriga moslashishadi, muammolarni birgalikda hal qilishni oʻrgana boshlaydi.

Doʻstlik! - bu beshinchi bosqichda er-xotin bir-biri bilan ahl-inoq hayot kechira boshlaydi, barcha voqealarni birgalikda bajara boshlaydi.

Haqiqiy muhabbat! - oxirgi bosqichda er-xotin bir-birisiz yasholmaydigan, borgan joyidan bir-birini izlaydigan boʻlib qolishadi.[3]. Ushbu yuqoridagi tasavvurlar va holatlar bugungi kunda yoshlar orasidagi asosiy qarashlar hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Haqiqatan ham, sevgining oila mustahkamligidagi oʻrni beqiyosdir. Haqiqatan ham, sevgi – bu oʻta qudratli kuchdir. U tufayli inson nimalarga qodir emas?! Insoniyat oʻz taraqqiyotida erishgan eng yuksak choʻqqilar ham sevgi tufaylidir. Z.Freyd taʼkidlaganidek: ‘‘Sevgi — bu insoniyatni hayvonot olamidan sugʻurib olgan kuchdir!’’. Albatta, sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati eng baxtli oilaviy hayot kechiradilar. Lekin statistik maʼlumotlarga qaraganda, oilalar ajralishining koʻpchilik qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga toʻgʻri kelar ekan. Shuningdek, yuridik jihatdan eng mustahkam, turgʻun oilalar stereotip boʻyicha oila qurgan juftlarga toʻgʻri kelar ekan. Bunday oilalarda ajrashishlar miqdori oldingi ikki motiv asosida qurilgan oilalarga qaraganda juda kam koʻrsatkichni tashkil qiladi. Chunki ular ‘‘hamma qatori’’ oila qurishgan. Qarashsa-ki ‘‘hamma binoyidek yashayapti’’ – bular ham yashayverishadi. Bu motiv asosida qurilgan oiladagi er-xotinlar oʻta baxtli ham, oʻta baxsiz ham boʻlmaydilar. Lekin birgalikdagi hayot tufayli er-xotin oʻrtasida bir-birlariga moslashish, bir-birini tushunish, bir-biriga nisbatan mehr-oqibat yuzaga kelib, ular rivojlanib yuqorida aytganimizdek, sevgi-muhabbat darajasiga oʻsib yetishi ham mumkin. Bunday holatlar, shubhasiz, bu toifa oilalarni nafaqat rasmiy, yuridik jihatdan, balki emotsional, psixologik jihatdan ham turgʻun boʻlishini taʼminlashi mumkin. [4].

Abdulla Qodiriy ham koʻproq emotsional - qadriyatli, yaʼni sevgi-muhabbat asosida oila qurish haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Bu qarashlar ‘‘Oʻtgan kunlar’’ romanida oʻz tasdigʻini topganini hammamiz bilamiz. Koʻrinib turibdiki, asar boshidanoq adibning sevgi-muhabbat asosida oila qurish va qoʻshxotinlik, feodalizm davrida xotin- qizlarga past nazar bilan qarash, ularga vahshiylarcha munosabatda boʻlishga nisbatan tutgan pozitsiyasi aniq ravshandir. [5].

Yakuniy qism. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, xarakteri, odat hamda koʻnikmalari oilada shakllanadi. Chunki oila oʻz aʼzolari bilan uzluksiz oʻzaro taʼsir etib, uning faoliyati, yurish-turishini nazorat etib boradi. Oʻzbek oilalaridagi oʻzaro hurmat, ehtirom, ota-onaga eʼzoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va maʼnaviy jihatdan goʻzal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar boʻlib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Oʻzbek xalqining oilaviy masalalar bilan bogʻliq uzoq davrlar mobaynida shakllangan milliy psixologik qiyofasi oʻz mazmunini turli motivlar taʼsiri doirasida namoyon qilaveradi. Oʻzbek etnosining kundalik turmushida ham bu jihatlar kuzatiladi. Bu hol nafaqat badiiy adabiyot namunasida, balki bugungi kun real oʻzbek oilasini qurish bilan bogʻliq jarayonlarda ham gavdalanadi.

Jumladan, Oila – muqaddas dargoh. Chunki unda har bir xalqning qadriyatlari shakllanadi, millat, shajaralar davomiyligini taʼminlovchi yosh avlod dunyoga keladi va tarbiyalanadi. Donolarimiz aytganlaridek, “Oila – jamiyatning duru gavharidir”. Oila mustahkamligi, farovonligi, tinch-totuvligidan davlat va jamiyat manfaatdor. U tinch boʻlsa mamlakat tinch, farovon boʻlsa mamlakat farovon, unda har tomonlama barkamol shaxs tarbiyalansa, davlat va jamiyat taraqqiy etadi. [6].

Oila uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasidir, jamiyat tuzilishining obyektiv zarur, ajralmas qismidir. Ijtimoiy maʼnoda oila odamlarning ijtimoiy jihatdan uyushgan guruhlar, maʼnaviy, xoʻjalik, maishiy va boshqa turmush shartlari bir xil boʻlgan shaxslar ittifoqidir. Oila eng muhim ijtimoiy

vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma’naviy birlashtirish, birgalikda xo‘jalik yuritishni ta’minlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, demografiya jarayonlarini yaxshilash larinelarini bajaradi. Ayni oilada inson xarakterining asoslari, mehnatga, ma’naviy va madaniy boyliklarga munosabat shakllanadi.[7].

Demak, oila qurish motivlari fenomeni murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, u nafaqat individual ehtiyojlar, balki ijtimoiy, madaniy hamda psixologik omillar ta’siri natijasida shakllanar ekan. Zamonaviy jamiyatda yashar ekanmiz, oila qurishga bo‘lgan yondashuvlar ana’naviy qarashlar bilan birgalikda, shaxsiy erkinlik, o‘zini ro‘yobga chiqarish va emotsional yaqinlik kabi tushunchalar bilan birgalikda qo‘llashimiz mumkin. Bundan tashqari oila qurish motivlari yoshlar ongida qadriyatlar tizimi, tarbiya, ijtimoiy muhit individual tajriba asosida shakllanishi, bu esa ularning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shu bilan birgalikda bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, oila qurishda yetuklik, ongli tanlov va o‘zaro mas’uliyat hissi muhim hisoblanadi. Hozirgi yoshlar esa hali to‘liq yetuklik darajasiga yetmay yoki mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olmay oila qurmoqda. Natijada oila ikki bo‘linib, ajralishlar soni ortmoqda.

Jumladan, oila qurish motivlari shakllanishida ijtimoiy insitutlar, eng asosiysi oila va ommaviy axborot vositalari o‘rni beqiyos hisoblanadi. Chunki jamiyatda bo‘layotgan har bitta jarayon yoki hodisa yoki uzatilayotgan ma’lumotlar endigina oila qurish arafasida bo‘lgan yoshlar onggiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, globallashuv jarayoni bizning fikrlash tarzimiz va tasavvurlarimizga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Aslida oila qurish har bir inson uchun faqat ijtimoiy majburiyat emas, ichki ehtiyoj va hayotga bo‘lgan qarashlarning aksidir. Ba’zan oila qurish yolg‘izlikdan qochish yoki jamiyat talabai sifatida qabul qilinishi mumkin, lekin bu qaror chuqurroq ma’noga ega bo‘lishi kerak. Bizningcha, oila qurish bu ikki insonning bir-birini tushunishi va birgalikda o‘sishga bo‘lgan tayyorgarligidir. Oldingi davrlarda oila qurish an’ana yoki majburiyat sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu masalaga ongli ravishda yondashilmoqda. Yoshlarning bu masalada e’tibor qaratadigan eng muhim jihatlardan biri o‘zini anglashi va qanday hayot tarzini xohlashini tushunishidir. Bundan tashqari oila qurish motivlari ko‘pincha insonning bolalikdagi tajribalari va oila muhiti bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Kimdir mehr va qo‘llab-quvvatlash bilan ulg‘aygan bo‘lsa, kimdir o‘z hayotida yetishmagan iliqlikni to‘ldirish uchun oila quradi. Shu sababli farzandlarni bolalik davrida har tomonlama chiroyli tarzda tarbiya berilib, mehr-muhabbat asosida voyaga yetkazilsa, oila haqidagi tushunchalari ijobiy bo‘ladi. Ba’zan esa oila qurish bu kelajakdan qo‘rquv va umidlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Oila uning kelajakdagi rejalariga va orzulariga to‘siq bo‘ladi degan tushuncha bo‘ladi. Natijada oila qurish jarayoni kechikadi. Vaholanki, oila bu insonni har tomonlama o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay maskan hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda, oila qurish motivlarini o‘rgansak jamiyatda sog‘lom oilaviy qadriyatlar shakllanishi, yoshlar ongli ravishda oila qurishga tayyorlanishi va ajrimlar soni kamayishi mumkin. Oila qurish motivlari ongli va refleksiv shakllanishi esa shaxslararo munosabatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holat esa oilaviy hayotda vujudga kelgan muammolarni oldini olishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar oilaviy munosabatlarda muloqotning o‘rni naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bu motivlar aslida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, madaniy transformatsiyalar va kommunikativ muhit ta’sirida yangilanib boradi. Jamiyat hayotidagi barcha jarayonlar inson bilan bog‘liqligi sababli oila qurish masalasida ham jamiyat birlamchi fikr manbai hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mamatova N.Dj., Nikoh-oila munosabatlari barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

2. Xudoynazarov SH.A., Oila qurish yoshidagi yosahlarning ijtimoiy motivatsion psixologik xususiyatlari. Kasbiy pedagogik mahorat: Ilg‘or tajribalar va rivojlanish istiqbollari.

3. M. Utepbergenov , D. Allayarov, Hozirgi yoshlar nigohida oila qurish?;

4. Oila psixologiyasi o‘quv-uslubiy qo‘llanma; Guliston – 2015.– 91-92-bet.

5. G‘ayrat Shoumarov, Umarali Qodirov, Ilhom Hojiboyev, Oilaga psixologik yordam ko‘rsatish asoslari – 2014. – 249-bet.

6. Musurmanova, Oynisa, Oila – jamiyat tayanchi: monografiya / – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 252 bet.

7. Botirova Yorqinoy, O‘zbek ijtimoiy psixologiyasida yoshlarni nikoh oldi yetuklikka tayyorlash muammosining o‘rganilganlik holati // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya nomli ilmiy, masofaviy, online konferensiya.

TALABALAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLAR TIZIMINING STRUKTURAVIY KOMPONENTLARI

G‘aybullayev Quvonchbek G‘olibjon o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi 1-bosqich tayanch doktoranti

Mazkur maqolada talabalar shaxsini shakllantirish jarayonida qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning shaxs kamolotidagi o‘rni hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qadriyatlar tizimining asosiy tarkibiy qismlari - bilish (kognitiv), hissiy (emotsional) va xulq-atvor komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Maqolada talabalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik omillari hamda samarali mexanizmlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirishda qadriyatlar tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar tizimi, shaxs shakllanishi, talabalar shaxsi, strukturaviy komponentlar, kognitiv komponent, emotsional komponent, xulq-atvor komponenti, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, pedagogik jarayon, ijtimoiylashuv, ta’lim-tarbiya.*

СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются структурные компоненты системы ценностей в процессе формирования личности студентов с научно-теоретической точки зрения. Раскрывается сущность ценностей, их роль в развитии личности и значение в образовательном процессе. Также анализируются основные компоненты системы ценностей - когнитивный, эмоциональный и поведенческий - во взаимосвязи друг с другом. В статье обосновываются педагогические факторы и эффективные механизмы формирования национальных и общечеловеческих ценностей у студентов. Результаты исследования показывают необходимость совершенствования системы ценностей в процессе всестороннего развития личности в высшем образовании.

Ключевые слова: *система ценностей, формирование личности, личность студента, структурные компоненты, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, поведенческий компонент, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, педагогический процесс, социализация, образование и воспитание.*

STRUCTURAL COMPONENTS OF THE VALUE SYSTEM IN THE FORMATION OF STUDENTS’ PERSONALITY

This article examines the structural components of the value system in the process of student personality formation from a scientific and theoretical perspective. The essence of values, their role in personal development, and their significance in the educational process are highlighted. The main components of the value system cognitive, emotional, and behavioral-are analyzed in their interrelation. The article also substantiates pedagogical factors and effective mechanisms for forming national and universal values among students. The research results emphasize the need to improve the value system in the comprehensive development of personality within higher education.

Keywords: *personality formation, student personality, structural components, cognitive component, emotional component, behavioral component, moral and spiritual education, national values, universal human values, pedagogical process, socialization, education and upbringing.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti bevosita inson omiliga, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim tizimida talabalar shaxsini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Talaba shaxsining barkamol bo‘lib yetishishida qadriyatlar tizimi muhim o‘rin tutadi, chunki aynan qadriyatlar insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, xulq-atvori va hayotiy pozitsiyasini belgilaydi.

Qadriyatlar tizimi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u o‘z ichiga turli strukturaviy komponentlarni qamrab oladi. Ushbu komponentlar shaxs ongida qadriyatlarning shakllanishi, ularni anglash va amaliy

faoliyatda namoyon bo‘lish jarayonini ta’minlaydi. Xususan, kognitiv komponent orqali talaba qadriyatlarning mohiyatini anglaydi, emotsional komponent orqali ularga nisbatan munosabat shakllantiradi, xulq-atvor komponenti esa bu qadriyatlarning real hayotdagi ifodasini ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli, qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlarini chuqur o‘rganish, ularning o‘zaro aloqadorligini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - talabalar shaxsini shakllantirishda qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlarini tahlil qilish va ularning pedagogik jarayondagi o‘rnini asoslab berishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar (values) — insonning nimani muhim, qimmatli va ahamiyatli deb bilishini aks ettiruvchi ichki e'tiqodlar majmuasidir. Psixolog M. Rokich qadriyatlarni ikkiga bo‘ladi(1-rasm):

1-rasm. Psixolog Rokich nazariyasi bo‘yicha qadriyatlar va ularning turlari

Talaba shaxsi shakllanayotgan davrda — ko‘pincha 17–25 yosh oralig‘ida — inson o‘z qadriyatlar tizimini ongli ravishda qurishga kirishadi. Bu davr psixologiyada identifikatsiya davri deb atalib, shaxsning kim bo‘lishi, nima uchun yashashi va qanday tamoyillarga amal qilishi to‘g‘risidagi savollarga javob izlash bilan xarakterlanadi.

Talabalar shaxsini shakllantirishda qadriyatlar tizimi muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab ilmiy masalalardan biridir. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar tizimi shaxsning ichki dunyosini belgilovchi, uning ijtimoiy xulq-atvorini boshqaruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar nazariyasining shakllanishida aksiologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Aksiologiya qadriyatlarning mohiyati, turlari va inson hayotidagi o‘rnini o‘rganadi. Ilmiy manbalarda qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan, qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi, e’tiqodi va hayotiy pozitsiyasining asosini tashkil etadi.

Pedagogik adabiyotlarda talabalar shaxsini shakllantirish jarayonida qadriyatlarning o‘rni keng yoritilgan. Tadqiqotchilar qadriyatlarni ta’lim jarayonining muhim komponenti sifatida baholab, ularning shakllanishi uzluksiz va tizimli pedagogik ta’sir natijasi ekanligini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlari masalasiga oid ilmiy qarashlar turlicha bo‘lsa-da, ko‘pchilik olimlar ularni uch asosiy tarkibiy qismga ajratadi(2-rasm):



2-rasm. Qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlari

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablar keskin o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo‘lishi, balki o‘quvchilar bilan samarali kommunikativ munosabatlarni tashkil eta olishi, stressli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashi, o‘z hissiy holatini boshqarishi va boshqalarning emotsional ehtiyojlarini anglay olishi ham talab etilmoqda [1]. Shu sababli emotsional intellekt pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda pedagogik psixologiya hamda neyropedagogika yo‘nalishlarida emotsional intellekt masalasiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Chunki o‘qituvchining

emotsional holati o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi, psixologik iqlim, dars samaradorligi va ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liqdir [2]. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, emotsional kompetentligi yuqori bo‘lgan pedagoglar o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatadi, konfliktlarni konstruktiv hal qiladi hamda ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi [3].

Emotsional intellekt tushunchasi ilk bor J.Mayer va P.Salovey tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, keyinchalik D.Goulman tomonidan keng ommalashtirilgan [4]. Ularning fikriga ko‘ra, emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, nazorat qilish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish hamda ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda esa mazkur qobiliyatlar kommunikativ kompetentlik, pedagogik takt va kasbiy refleksiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ko‘proq akademik bilimlarga e’tibor qaratilib, emotsional kompetentlikni shakllantirishga yetarli darajada ahamiyat berilmayotgani kuzatilmoqda. Natijada pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan yosh mutaxassislar auditoriya bilan ishlash, konfliktli vaziyatlarni boshqarish va stressli holatlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda [6]. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining ta’limga keng kirib kelishi pedagogik muloqotning psixologik tabiatini ham o‘zgartirmoqda. Talabalarning diqqat tarqoqligi, emotsional charchoq va kommunikativ passivlik kabi holatlari pedagogdan yanada yuqori emotsional tayyorgarlikni talab qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash, samarali metod va texnologiyalarni asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat, refleksiv tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o‘rganildi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga psixologik tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, insonparvarlik pedagogikasi, neyropsixologik rivojlanish nazariyasi hamda refleksiv ta’lim konsepsiyasi tashkil etdi. Emotsional intellektning asosiy komponentlari sifatida emotsional anglash, emotsional boshqaruv, empatiya, motivatsiya va kommunikativ moslashuv mezonlari tanlab olindi [8].

Tahlillar davomida pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning pedagogik amaliyot davridagi emotsional holati, auditoriya bilan ishlashdagi psixologik qiyinchiliklari va kommunikativ kompetentlik darajasi kuzatildi. Tadqiqotda interaktiv metodlarning emotsional kompetentlikka ta’sirini aniqlash maqsadida trening mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar, refleksiv topshiriqlar va konfliktli vaziyatlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida pedagogik faoliyatdagi stress omillari va emotsional zo‘riqish holatlari ham o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak pedagoglarning katta qismi auditoriya oldida chiqish qilish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish va vaqtni boshqarish bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi bir qator pedagogik-psixologik shartlar mavjudligini ko‘rsatdi. Eng avvalo, ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhitni yaratish muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Talaba o‘zini xavfsiz his qiladigan, erkin fikr bildira oladigan va psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan muhitda emotsional kompetentlik tezroq rivojlanadi. Ikkinchi muhim omil refleksiv faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq. Refleksiya pedagogik faoliyatning psixologik asoslaridan biri bo‘lib, talabaning o‘z emotsiyalarini anglash, xatti-harakatlarini tahlil qilish va kasbiy rivojlanishni baholashiga yordam beradi. Tadqiqot davomida refleksiv kundaliklar va o‘z-o‘zini tahlil qilish topshiriqlari bilan ishlagan talabalar yuqori emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgani aniqlandi. Shuningdek, interaktiv pedagogik texnologiyalar emotsional intellekt rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Rolli o‘yinlar, trening mashg‘ulotlari, guruhiy muhokamalar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar empatiya, faol tinglash va konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [10].

Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot davrida talabalar ko‘pincha emotsional zo‘riqish va kommunikativ stressga duch kelishini ham ko‘rsatdi. Ayniqsa, auditoriyani boshqarish, o‘quvchilar bilan individual ishlash va nizoli vaziyatlarni hal qilish pedagoglarda psixologik bosimni kuchaytiradi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida psixologik treninglarni keng joriy etish zarurligi aniqlandi. Bundan tashqari, emotsional intellektning motivatsion komponenti ham pedagogik faoliyat samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar pedagogik faoliyatga ko‘proq qiziqish bildiradi, emotsional charchoqqa kamroq duch keladi va kasbiy moslashuv jarayonini tezroq boshdan kechiradi. Tahlillar davomida kommunikativ kompetentlik bilan emotsional intellekt o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligi ham aniqlandi. Emotsional kompetentligi yuqori bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilar auditoriyada

o‘zini erkin tutadi, pedagogik muloqotni samarali tashkil etadi hamda o‘quvchilarning hissiy holatini tezroq anglaydi.

Muhokama. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt zamonaviy pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir [11]. Chunki ta’lim jarayonida pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi va kommunikativ lider sifatida ham namoyon bo‘ladi. D.Goulmanning fikricha, emotsional intellekt inson muvaffaqiyatining asosiy determinantlaridan biri bo‘lib, ko‘plab holatlarda IQ ko‘rsatkichidan ham muhimroq hisoblanadi [12]. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyat uchun ham dolzarbdir. Chunki o‘qituvchi o‘z hissiyotlarini boshqara olmasa, auditoriyada ijobiy psixologik muhit yaratishi qiyinlashadi. Bugungi ta’lim tizimida pedagoglarda emotsional charchash sindromi keng tarqalib borayotgani ham emotsional kompetentlikni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda [13]. Ayniqsa, yosh pedagoglar pedagogik faoliyatning dastlabki bosqichlarida kommunikativ stress va emotsional zo‘riqishga ko‘proq duch kelmoqda.

Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiv tafakkur va emotsional boshqaruv inson miyasining frontal sohalari bilan bevosita bog‘liqdir [14]. Shu sababli refleksiv mashqlar va treninglar emotsional kompetentlikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham emotsional intellekt rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Interaktiv metodlar talabalarning faolligini oshiradi, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi va emotsional moslashuvchanlikni kuchaytiradi [15].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim tizimida emotsional kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurs va trening dasturlari yetarli emas. Shu sababli pedagogika yo‘nalishlarida “Pedagogik emotsional kompetentlik”, “Stress-menejment”, “Pedagogik kommunikatsiya psixologiyasi” kabi modullarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari emotsional kompetentlik pedagogik faoliyat samaradorligi, kommunikativ muvaffaqiyat va psixologik barqarorlikning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi.

Bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellektni rivojlantirish uchun sog‘lom psixologik muhit yaratish, refleksiv faoliyatni tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish va psixologik treninglarni joriy etish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot jarayonida talabalarni emotsional stressni boshqarishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, emotsional kompetentlikni rivojlantirish pedagoglarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi, konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish imkonini beradi hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida oliy pedagogik ta’lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Tolipov O‘. Pedagogik mahorat va kompetentlik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
3. Yo‘ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Nishonova Z. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2020.
5. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2021.
6. Mamatqulov D. Neyrodidaktika asoslari. – Toshkent, 2023.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.
8. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. – Москва, 2021.
9. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2020.
10. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – Москва, 2021.
11. Леонтьев А.Н. Психология деятельности. – Санкт-Петербург, 2020.
12. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 2021.
13. Реан А.А. Психология личности. – Санкт-Петербург, 2022.
15. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2020.
16. Mayer J.D., Salovey P. Emotional Development and Emotional Intelligence. – New York, 2021.
17. Bandura A. Social Cognitive Theory. – Stanford University Press, 2021.
18. Shulman L. Knowledge and Teaching Foundations of the New Reform. – Harvard, 2022.
19. UNESCO. Teacher Emotional Competency Framework. – Paris, 2023.
20. Schön D. The Reflective Practitioner. – London, 2021.

UO‘K 159.922

O‘SMIRLARDA IJOBIY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK O‘RGANISH

Ischanov Eldorbek G‘ulomdjanovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
eldorbek92@gamil.com

Ushbu maqolada o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar empirik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot davomida oila muhiti, tengdoshlar guruhining ta'siri, o‘qituvchi shaxsi, maktab muhiti va ijtimoiy-madaniy sharoit kabi omillar tahlil qilingan. Empirik ma'lumotlar so‘rovnoma, kuzatuv va intervyu metodlari yordamida yig’ilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy munosabatlar va o‘qituvchining shaxsiy namunasi o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari pedagogika amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, ijobiy xulq-atvor, oila ta'siri, tengdoshlar guruhi, o‘qituvchi namunasi, maktab muhiti, empirik tadqiqot, xulq-atvor omillari, pedagogik ta'sir, ijtimoiy muhit.*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗИТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

В данной статье в эмпирическом аспекте изучены основные факторы, влияющие на формирование позитивного поведения у подростков. В ходе исследования проанализированы такие факторы, как семейная среда, влияние группы сверстников, личность учителя, школьная среда и социально-культурные условия. Эмпирические данные собраны с помощью методов анкетирования, наблюдения и интервью. Результаты показывают, что семейные отношения и личный пример учителя играют решающую роль в формировании позитивного поведения у подростков.

Ключевые слова: *подростковый возраст, позитивное поведение, влияние семьи, группа сверстников, пример учителя, школьная среда, эмпирическое исследование, факторы поведения, педагогическое воздействие, социальная среда.*

EMPIRICAL STUDY OF FACTORS INFLUENCING POSITIVE BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS

This article empirically examines the main factors influencing the formation of positive behavior in adolescents. The study analyzes such factors as family environment, peer group influence, teacher personality, school environment, and socio-cultural conditions. Empirical data were collected using questionnaire, observation, and interview methods. The results show that family relationships and the teacher's personal example play a decisive role in shaping positive behavior in adolescents. The research findings serve to improve pedagogical practice.

Keywords: *adolescence, positive behavior, family influence, peer group, teacher example, school environment, empirical research, behavior factors, pedagogical influence, social environment.*

Kirish. O‘smirlik davri — shaxs rivojlanishining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, ushbu davrda xulq-atvorning asosiy yo‘nalishlari shakllanadi. O‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, texnologiyalarning keng tarqalishi va ijtimoiy muhitning o‘zgarishi o‘smir shaxsiga turli xil ta'sir ko‘rsatmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ularda ijobiy xulq-atvor normalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g’risida"gi Qonunida (2016) yoshlarning ma'naviy, axloqiy va intellektual kamolotini ta'minlash davlat zimmasidagi burch sifatida belgilab qo‘yilgan [2].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni empirik jihatdan o‘rganish pedagoglarning amaliy faoliyatini takomillashtirish uchun ilmiy asos

yaratadi. Mavjud adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, ushbu masalaning o‘zbek sharoitida empirik jihatdan o‘rganilishi hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot maqsadi: o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni empirik o‘rganish va ularning nisbiy ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Ijobiy xulq-atvorni shakllantirish muammosi xorijiy va mahalliy olimlarning ko‘plab tadqiqotlarida o‘rganilgan. A.Banduraning (1977) ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, xulq-atvorning shakllanishida kuzatish va taqlid qilish asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi bolalar va o‘smirlarning xulq-atvorida atrof-muhitdagi namunalarni kuzatish orqali o‘rganishning hal qiluvchi rolini isbotlagan [3].

U.Bronfenbrennnerning (1979) ekologik tizimlar nazariyasi o‘smir xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillarni mikrotizim (oila, maktab), mezotizim (oila va maktab o‘rtasidagi munosabat), ekzotizim va makrotizim darajalarida ko‘rib chiqadi. Ushbu nazariya bizning tadqiqotimizning nazariy asosini tashkil etadi [4].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida M.G.Davletshinning (2012) o‘smirlar psixologiyasiga oid ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Davletshin o‘zbek o‘smirlarining milliy mentalitetiga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda xulq-atvor shakllanishining o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etgan [5]. Shuningdek, N.Musayevaning (2018) tadqiqotida oilaviy munosabatlar va o‘smir xulq-atvorining bog’liqligi empirik ma'lumotlar asosida isbotlangan [6].

Tengdoshlar guruhining ta'siri borasida D.Harris (1998) va R.Cialdini (2001) ning tadqiqotlari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu ishlar o‘smirlik davrida tengdoshlar guruhining oilaviy ta'sirdan ko‘ra kuchliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [7, 8].

O‘qituvchi shaxsining o‘quvchi xulq-atvoriga ta'siri masalasida J.Hattining (2009) meta-tahlil tadqiqoti katta ilmiy qimmatga ega. Hatti 800 dan ortiq tadqiqot natijalarini umumlashtirib, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining o‘quvchi rivojlanishiga ta'sirini eng muhim omillardan biri sifatida belgilagan [9].

Tadqiqot obyekti, qo‘llanilgan metodlar va olingan natijalar. Tadqiqot 2023-2024 o‘quv yilida Toshkent shahridagi 3 ta umumta'lim maktabida o‘tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida 13-16 yoshdagi 240 nafar o‘smirlar, 48 nafar ota-ona va 36 nafar o‘qituvchi tanlandi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) so‘rovnoma metodi (Likert shkalasi asosida tuzilgan 40 savol); 2) kuzatuv metodi (3 oy davomida sinf va maktabdan tashqari muhitda); 3) yarim tuzilmali intervyu (ota-onalar va o‘qituvchilar bilan); 4) statistik tahlil (SPSS 26.0 dasturi yordamida).

Tadqiqotda quyidagi omillar o‘rganildi: oilaviy munosabatlar sifati, tengdoshlar guruhining ta'siri, o‘qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyati, maktab muhiti va iqlimi, hamda ijtimoiy-madaniy sharoit.

1-jadval.

O‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning o‘rtacha ball va ahamiyat darajasi

№	Omil	o‘rtacha ball (5 dan)	Ahamiyat darajasi (%)
1	Oilaviy munosabatlar sifati	4,62	91
2	O‘qituvchi shaxsi va pedagogik namunasi	4,48	88
3	Maktab muhiti va iqlimi	4,21	82
4	Tengdoshlar guruhining ta'siri	4,05	79
5	Ijtimoiy-madaniy sharoit	3,87	74
6	OAV va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri	3,54	67

2-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi xulq-atvor ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (boshida)	Tajriba guruhi (oxirida)	Nazorat guruhi (boshida)	Nazorat guruhi (oxirida)
Ijobiy xulq-atvor ko‘rsatkichi (%)	61	84	59	63
Salbiy xulq-atvor hodisalari (oy/soni)	8,4	3,1	8,1	7,6
O‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat sifati (ball)	3,2	4,5	3,1	3,4

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy munosabatlar sifati (4,62/5,0) o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda eng yuqori ta'sir kuchiga ega omil hisoblanadi. o‘qituvchi shaxsi va pedagogik namunasi ikkinchi o‘rinni egalladi (4,48/5,0). Maktab muhiti va iqlimi uchinchi o‘rinda turadi (4,21/5,0).

Muhokama. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, oilaviy muhit va o‘qituvchi shaxsi o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda eng muhim omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Bu natija A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan to‘liq mos keladi: o‘smirlar o‘z atrofidagi kattalarning xulq-atvorini kuzatib, ularga taqlid qilish orqali o‘z xulq-atvor repertuarini shakllantiradilar [3].

Tengdoshlar guruhining ta'siri (4,05/5,0) to‘rtinchi o‘rinni egallashi e'tiborga molik. Bu natija D.Harris (1998) ning tengdoshlar guruhi oilaviy ta'sirdan ustun turishi haqidagi xulosasi bilan qisman farq qiladi. Bizning tadqiqotimiz natijalari o‘zbek jamiyatida oilaviy aloqalarning nisbatan kuchliroq ekanligini ko‘rsatmoqda — bu milliy mentalitetimizning xarakterli xususiyatidir [7].

Tajriba guruhida o‘tkazilgan kompleks pedagogik chora-tadbirlar natijasida ijobiy xulq-atvor ko‘rsatkichi 61% dan 84% ga oshdi (23 foiz punktga). Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 59% dan 63% gacha ko‘tarildi, ya'ni atigi 4 foiz punktlik o‘sish kuzatildi. Farq statistik jihatdan muhim ($p<0,01$) bo‘lib, o‘tkazilgan pedagogik tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Maktab muhiti va iqlimi ko‘rsatkichining uchinchi o‘rinni egallashi J.Hattining (2009) xulosalari bilan hamohang: maktab muhitining qulay bo‘lishi o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish va mustahkamlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi [9]. Bu esa maktabda psixologik xavfsizlik muhitini ta'minlashning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘tkazilgan empirik tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, oilaviy munosabatlar sifati o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi eng muhim omil hisoblanadi (4,62/5,0). Sog’lom oilaviy muhit va ota-ona nazorati ijobiy xulq-atvorning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o‘qituvchi shaxsi va uning pedagogik namunasi ikkinchi o‘rinni egallaydi (4,48/5,0). o‘qituvchining kasbiy mahorati, axloqiy fazilatlari va o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati ularning xulq-atvorini bevosita shakllantiradi.

Uchinchidan, oila, maktab va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Tajriba guruhidagi 23 foizlik o‘sish kompleks yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari pedagogika va psixologiya mutaxassislari, maktab o‘qituvchilari hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega. Kelajakdagi tadqiqotlarda raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar xulq-atvoriga ta'sirini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 64 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016. – 32 b.

3. Bandura, A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.

4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

5. Davletshin, M.G. O‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 186 b.

6. Musayeva N.R. Oilaviy munosabatlar va o‘smir xulq-atvorining o‘zaro bog’liqligi // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2018. – №3. – B. 45-52.

7. Harris J.R. The Nurture Assumption: Why Children Turn Out the Way They Do. – New York: Free Press, 1998. – 462 p.

8. Cialdini, R.B. Influence: Science and Practice. – 4th ed. – Boston: Allyn and Bacon, 2001. – 262 p.

9. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 p.

10. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 248 b.

11. Muhammadiyev N.Q. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 312 b.

12. Eccles, J., Wigfield, A. Motivational beliefs, values, and goals // Annual Review of Psychology. – 2002. – Vol. 53. – P. 109-132.

13. Steinberg, L. Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2014. – 256 p.

TARBIYA FANI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA HUQUQIY BILIM, KO‘NIKMA VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI

Jumanova Xafiza Xoliqulovna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
hafizajumanova52@gmail.com

Maqolada o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy va metodologik asoslar, shuningdek, «Tarbiya» fanining mazmunida huquqiy tarbiyani amalga oshirishning imkoniyatlari va ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Tarbiya fani o‘quvchilarda qonunga hurmat va huquqiy ongni shakllantirish, ularni demokratik prinsiplarga amal qilishga o‘rgatishda muhim vazifani bajaradi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, huquq va burch, halollik, poklik, shaxs huquqiy madaniyati, huquqiy ta’lim, huquqiy tarbiya.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ»

В статье подробно анализируются теоретические и методологические основы, необходимые для развития правовой компетентности у учащихся, а также возможности и важность внедрения правового образования в содержание предмета «Воспитание». Воспитание играет важную роль в формировании у учащихся уважения к закону и правового сознания, а также в обучении их соблюдению демократических принципов.

Ключевые слова: *компетентность, права и обязанности, честность, чистота, личная правовая культура, юридическое образование, правовое воспитание.*

THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS OF FORMING LEGAL KNOWLEDGE, SKILLS, AND VALUES IN STUDENTS BASED ON THE SUBJECT OF “EDUCATION”

This article provides a detailed analysis of the theoretical and methodological foundations necessary for developing students' legal competence, as well as the possibilities and importance of integrating legal education into the curriculum of the "Education" course. Education plays a key role in fostering students' respect for the law and legal consciousness, as well as in teaching them to adhere to democratic principles.

Keywords: *competence, rights and responsibilities, honesty, purity, personal legal culture, legal education, legal upbringing.*

Kirish. Jamiyat huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtoj. Chunki jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, bolalarning huquqiy ongni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan bolada huquqiy ongni shakllantirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan huquqiy normalarni qanday o‘rgatish, ularni tushuntirish va amalga oshirish mexanizmlarini tizimli tartibga solishni takomillashtirishni talab etadi. Jamiyat rivojining muhim talablaridan biri - bu ijtimoiylashishga qodir, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, demokratik davlat va jamiyat qonun qoidalariga rioya qiladigan yosh avlodni tarbiyalashdir.

Bu borda o‘tgan yillar mobaynida respublikamizda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash, milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, borasida bir qator sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni asosida amaliyotga joriy etilgan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” Konsepsiyasi mazmunida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi; mustahkam irodali, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish maqsadi belgilab berilgan.

Mazkur Konsepsiyada huquqiy ta’lim-tarbiyani tashkil etishda yuksak samaradorlikka erishishning chora-tadbirlari xususida yanada aniq va ravshan so‘z yuritiladi. Chunonchi: “Huquqiy tarbiya va ta’limni kuchaytirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

-yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

-jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

-jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish” kabi asosiy vazifalar belgilab berilgan.

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimining muayyan bosqichlarida amalga oshirilayotgan huquqiy ta’lim samaradorligi aholi, shu jumladan, yoshlar tomonidan nazariy-huquqiy bilimning puxta o‘zlashtirilishi, ularda faol amaliy-huquqiy faoliyatni amalga oshirish ko‘nikma, malakalarining shakllanganlik darajasi va uning sifat ko‘rsatkichi bilan o‘lchanadi. O‘quvchilar tomonidan huquqiy bilimlar chuqur o‘zlashtirilishining yuqori bosqichida huquqiy madaniyatning shakllanish hodisasi ro‘y beradi. Binobarin, mazkur hodisa mohiyatini tahlil etish jamiyatda mavjud bo‘lgan real holatni o‘rganish, bu borada aniq tasavvurga ega bo‘lishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat va uning shaxs faoliyatida qaror topish jarayonining mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika sohasi olimlarining tahliliy xulosalariga ko‘ra, huquqiy bilimlar o‘quvchilar ongida Konstitutsiya va amaldagi qonunlar to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarni, shaxsning huquq va burchlari haqidagi bilimlarni, shuningdek, jamiyat hayotida huquqning ijtimoiy-tartibga soluvchi roli haqidagi tasavvurlar tizimini qamrab oladi.

Pedagogik adabiyotlarda huquqiy tarbiya shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Bu borada N. Safarov “Huquqiy tarbiya — shaxsda huquqiy ongni, qonunlarga hurmat va ularga ixtiyoriy rioya qilish ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayondir” deb hisoblaydi.

Pedagog-olim B.X. Xodjayev “O‘quvchilarda huquqiy bilimlarni samarali shakllantirish mazkur bilimlar yosh xususiyatlariga mos ravishda, hayotiy misollar va ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘langan holda, shuningdek, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan taqdirdagina ular tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishi va barqaror xarakter kasb etishi”ni ta’minlash mumkinligini ta’kidlaydi.

Huquqshunos olim A.A.Hamroyevning “Shaxs huquqiy madaniyatini rivojlantirish” mavzusidagi tadqiqot ishida esa shaxsning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligiga alohida urg‘u beriladi:

huquqiy ma’rifat;

huquqiy targ‘ibot; huquqiy tarbiya”[;20]

T.Qudaybergenova o‘zining tadqiqot ishida huquqiy ta’lim tarbiyani tashkil etish va boshqarish xususida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Ayni vaqtda huquqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli tashkil etilishi o‘z-o‘zidan huquqiy ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Huquqiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda huquq fani asoslarini puxta o‘zlashtirishga nisbatan qiziqish va ehtiyojning vujudga kelishiga erishish ularning huquqiy tarbiya jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Yangi turdagi o‘quv muassasalarida amalga oshiriladigan huquqiy tarbiya asosan auditoriyadan va ta’lim muassasidan tashqari sharoitda yo‘lga qo’yiladi” [;46]

Huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya – bir-biri bilan uzviy bog‘liq, integratsiyalangan jarayonlar bo‘lib, ular insonda huquqiy bilimlarni mukammal oshirish va qonunlarga to‘liq rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. B. Ziyomuhammedov va Sh. Abdullayeva fikriga ko‘ra, “Huquqiy ta’lim-tarbiya insonda huquqiy bilimlarni oshirish, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirib, ularga to‘liq rioya etish ko‘nikmasini hosil qilishdir”.

Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatishicha, huquqiy ta’lim va tarbiyaning integratsiyasi yoshlarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi. Bu esa, Tarbiya fani huquqiy bilimlarni axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘lab berish orqali o‘quvchilarda huquqiy ongning mustahkamlashini ta’minlaydi.

Olimlar fikriga ko‘ra, huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun huquqiy ta’lim-tarbiya jarayoni tizimli, uzviy va jamiyatning ijtimoiy muhiti bilan uyg‘un bo‘lib olib borilishi kerak. Bu esa tarbiya fanining mazmun va uslublarida aks etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan qaralganda, huquqiy kompetentlik shaxsning ijtimoiy kamolotida muhim o‘rin tutadi va u huquqiy bilimlar, huquqiy ong, huquqiy qadriyatlar hamda qonunga muvofiq xulq-atvorning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim tizimida, xususan, «Tarbiya» fani doirasida huquqiy kompetentlikni maqsadli ravishda rivojlantirish pedagogik jihatdan zarur hisoblanadi. Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki,

mavjud mavzular mazmunida huquqiy tarbiya elementlari epizodik va bilvosita tarzda uchrashi mumkin, ammo ular tizimli, izchil va kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilmagan. Bu esa o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va huquqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Aytish o‘rinliki, o‘tgan yillar mobaynida uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, ayniqsa “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fani” Konsepsiyasining joriy etilishi asosida, “Tarbiya” fanini o‘qitishda darslikka qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablar, ya’ni,

fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan bo‘lishi;

o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yo‘naltirishga oid matn va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan bo‘lishi kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini yuqori darajasida ko‘tarish zarurligini maktab ta’limi tizimidan boshlash muhim ekanligini ko‘rsatadi va sog‘lom avlodni tarbiyalashda olib borilayotgan izchil siyosatning in’ikosi hisoblanadi. Shuningdek, “Tarbiya” darsligiga qo‘yiladigan didaktik talabalar;

o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fani mazmun-mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglash va hayotga tatbiq qilish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo‘lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

rasmlar ko‘rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat mediamahsulotlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

o‘quvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta’riflar va shu kabi lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi belgilangan vazifalar jarayonining sifati ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari, ta’lim jarayoniga jalb qilingan pedagoglar salohiyati, ta’lim oluvchilar aqliy salohiyatini oshirishda texnik vositalar, ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim jarayonini boshqarishning sifat darajasini takomillashtirishga qaratilgan omillardir.

Tajribalar, O‘zbeksiton Respbulikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida “ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iborat” [; 230-b.] ekanligi umumiy o‘rta ta’lim ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilardan aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgarishlarga va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli avlodni shakllantirish muhimligidan dalolat beradi. Bu esa, “Tarbiya” darslari asosida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish yuzasidan faoliyatni tizimli tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Maqsadga erishish uchun esa, avvalo, mavjud holatni nazariy va amaliy o‘rganish, tahlil qilish zarur hisoblandi.

Bu borada Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf “Tarbiya” fani darsligi va taqvim-mavzu rejalari o‘rganildi va quyidagi tartibda tahlil qilindi.

7-sinf «Tarbiya» fanining mavzulari o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim tarkibiy jihatlarni qamrab olgan. Ushbu mavzular o‘quvchilarda shaxsiy fazilatlar va axloqiy odob meyorlari, ijtimoiy hamkorlik va samarali muloqot ko‘nikmalari, hayotga ongli va mas’uliyatli yondashuv, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sodiqlik, jamoada hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

7-sinf “Tarbiya” fani mavzulari

Mavzu guruhi	Mavzular	Tahliliy mazmuni va rivojlantiriladigan ko‘nikmalar
Shaxsiy rivojlanish va umuminsoniy qadriyatlar	Inson – ezgulik ijodkori. Oliy maqsadlar bilan yashash. Muvaffaqiyat – qunt va qat’iyat natijasi. Umr–umid–sinov–imkoniyat.	Shaxsiy mas’uliyat va intilish, oliy maqsadlar uchun harakat qilish, hayotdagi sinovlardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati shakllanadi
Tabiat va atrof-muhitga mas’uliyat	Tabiatni asrash – hayotni asrash.	Tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat, ekologik ongni rivojlantirish
Axloq va shaxsiy fazilatlar	Inson axloqi bilan go‘zal. Inson odobida aks etuvchi fe’l–atvor. Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar.	Shaxsiy odob-axloq, insoniylik, hamkorlik va umuminsoniy qadriyatlar shakllantiriladi
Baxt va hayot qadri	Baxtiyor hayotning ustunlari. Hammasi o‘z qo‘limizda. Inson umri.	Hayot qadri, mas’uliyat hissi va o‘z harakatlari orqali baxtga erishish imkoniyatlari
Xavf va onglilik	Ogohlik. Ko‘zga ko‘rinmas xatarlar.	Havf-xatarlarni anglash va ulardan saqlanish, ongli qarorlar qabul qilish
Muomala va ijtimoiy kompetentlik	Men qanday odamman? Muomala uchun zarur odoblar. Kommunikativlik – muvaffaqiyat. kalitiSamarali muloqat sirlari. Avval tinglashni o‘rganing.	Ijtimoiy faoliyat ko‘nikmalari, muomala madaniyati, kommunikatsiya qobiliyatlari, hamkorlik va muloqotda samarali faoliyat
Oila va jamiyat qadriyatlari	Farzand oila ko‘zgusi Yaxshilik yo‘lida hamkorlik Do‘stlik Insoniylik – xalqimizning eng buyuk fazilati Bag‘rikenglik – tinchlik sari muhim qadam Daxldorlik Mahallamiz farovonligi – bizning farovonligimiz	Oila, do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik va jamoatchilik mas’uliyati, umuminsoniy qadriyatlar va insoniylikni shakllantirish

Natijada mazkur fan mazmuni o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy kamolotni ta’minlash, ijtimoiy faollikni oshirish hamda ularning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy kompetentliklarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglash, huquqiy ongni shakllantirish, qonuniy xulq-atvorni rivojlantirish uchun ko‘proq quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishni xohlaydi:

Huquq va axloq o‘zaro bog‘liq va mukammal bo‘lishi, sababi huquqiy kompetentlik faqat qonunlarni tushunish emas, balki jamiyatdagi odob-axloq normalari bilan uyg‘unlashgan huquqiy ongni shakllantirishni talab qiladi. Tarbiya fani shu jihatni qamrab olgan holda, o‘quvchilarda huquqiy me’yorlarga mos keladigan axloqiy qarashlar va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

Tarbiya fanining integrativ xususiyat ega, chunki, tarbiya fani ta’lim jarayonida fanlarning turli sohalari, jumladan huquqiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy bilimlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning huquqiy kompetentligini kompleks ravishda rivojlantirish uchun muhim.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyaning amaliy samaradorligiga, tarbiya fanining mashg‘ulotlari va tadbirlari orqali o‘quvchilarda huquqiy tushunchalar va qonunlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish mumkin. Bu ularning qonunga bo‘ysunishini va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashini ta’minlaydi.

Zamonaviy muammolarga qarshi huquqiy madaniyatni oshirish, sababi, jamiyatimizda turli huquqiy muammolar, huquqbuzarliklar va qonunsizlik holatlari uchrab turadi. Tarbiya fanining maqsadi – o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni oshirish, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik ruhini shakllantirish va huquqiy axloqni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko‘p yillik tadqiqotimiz natijalari va shaxsiy ma’lumotlar tahlili o‘qituvchilarning huquqiy xulq-atvorida, jamiyatda, xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi sharoitida yetarli tajribaga ega bo‘lmaganligi bilan bog‘liq noqulay tendensiyani qayd etish imkonini berdi. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy kompetentlikni tarbiya fani orqali rivojlantirish — bu nafaqat ta’lim jarayonidagi o‘quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish, balki ularning ma’naviy barkamolligi, jamiyatda mas’uliyatli va qonunlarga sadoqatli shaxs sifatida yetishishiga xizmat qiladigan muhim va dolzarb vazifadir.

“Tarbiya” fani asosida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot mavzusining umumiy ko‘rinishi quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi bilan tavsiflanadi:

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida huquqiy bilimlarni qamrab oladigan mazmun bilan boyitish: mavzu doirasida qonunchilik asoslari, konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlar, jamiyatda huquq va unga amal qilish mazmunini singdirib borish;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida huquqiy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy bilimlarni uyg‘unlashtirish, huquqiy kompetentligini kompleks ravishda rivojlantirini amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv usullarda berish;

Tarbiya fani darslari (huquq organlari xodimlari, advokatlar jalb qilish) va tadbirlar orqali o‘quvchilarda huquqiy tushunchalar va qonunlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish, qonunga bo‘ysunish va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga tayyorlash;

Onlayn darslar (video ma’ruza) va zamonaviy – axborot kommunikatsiya texnologiyalar (testlar, interaktiv treninglar) yordamida huquqiy bilimlarni kengaytirish;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida tarbiyaviy va ijtimoiy tadbirlar (tematik kunlar, huquqiy viktorinalar, munozaralar, rol o‘yinlar) tashkil etish asosida o‘quvchilarda orqali huquqiy kompetentlikni rivojlantirish;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish yaxlitligini o‘zaro bog‘liq elementlarning umumiyligi asosida ta’minlash;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishni o‘ziga xos ajralmas harakatlar majmuyi sifatida amalga oshirish;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun moddiy-texnikaviy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy pedagogik yo‘nalish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlaydigan barcha element va vositalarni belgilash va ishlab chiqish;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini tashkil etuvchi elementlarning integratsiyalashuvi sinergetik ta’sirini aniqlash;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishga doir pedagogik mexanizm dinamikligi rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni belgilash;

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishga xos funksional yo‘nalish pedagogik maqsad va unga erishish vositalari haqidagi ishlab chiqilgan g‘oyalarga mos huquqiy natijaga yo‘naltirilganlikni nazarda tutadi.

“Tarbiya” fani mavzulari doirasida o‘quvchilarning huquqiy bilim va tushunchalarini muntazam ravishda (savolnoma, test sinovlari) asosida ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va ta’lim sifatini yaxshilash uchun takliflar kiritish.

Xulosa va ilmiy-amaliy takliflar. Mazkur maqolada xulosa sifatida aytish mukinki, huquqiy tarbiyaning pedagogik, ijtimoiy va huquqiy mohiyatiga ko‘ra, u jamiyatning demokratik tamoyilariga amal qilish va huquqiy madaniyatni tarbiyalashga olib keladi. O‘quvchilarning huquqiy faolligini oshirish, qonunlarga rioya qilish va huquqiy masalalarda har tomonlama bilimga ega bo‘lishga intilish muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu borada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Tarbiya» fani huquqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vazifa davlat ta’lim standartlari va meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan muvofiq tarzda amalga oshirilishi shuningdek, «Tarbiya» fanining o‘quvchilarda qonuniy va huquqiy bilimlarni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy faolligini, hududiy javobgarligini va jamiyatga bo‘lgan mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan imkoniyatlari juda muhimdir. Bu esa, o‘quvchilarga tizimli, kompetentli va faoliyatli pedagogik yondashuvlar asosida, huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda, ularning yoshi va individual xususiyatlariga mos ravishda amalga oshirilishi muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

2. Karimova O.A. Yoshlar huquqiy tarbiyasinnig asosiy yo‘nalishlari. –T.: TDPU.1999.-21 bet.

3. Xodjaev B.X., Umumiy pedagogika (pedagogika nazariyasi). T.: Sano-Standart 2017 yil 416 bet

4. Хамраев А.А. Формирование правовой культуры личности // Теория и практика.: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Т.: 1993. – С.20.

5. Kudaybergenova T.K.O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2005. – B.46

6. Umumiy o‘rta ta'lim muassasalari o‘quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiyasi // (O‘zR VM 06.07.2020 y. 422-son qaroriga 3-ilova) nrm.uz

7. Miriziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 457 b.

TALABALARNI REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI

Jumayeva Azizabonu Mo‘min qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich doktoranti

Ushbu maqola talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy hamda nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qodirligi muhim kompetensiyalar qatoriga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, refleksiv kompetensiya talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi. Annotatsiyada refleksiv kompetensiyaning mohiyati, tuzilmasi va shakllanish mexanizmlari yoritilib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni asoslab beriladi. Maqolada refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga oid milliy va xalqaro me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, davlat ta’lim standartlari, hamda kadrlar tayyorlash tizimiga oid strategik hujjatlarda refleksiv yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi normalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu hujjatlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholash va o‘z faoliyatini takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Nazariy jihatdan esa refleksiya tushunchasining pedagogik va psixologik talqinlari keng yoritilib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi. Refleksiyaning turlari, bosqichlari va funksiyalari haqida ilmiy asoslangan xulosalar beriladi. Shuningdek, refleksiv kompetensiyaning tarkibiy qismlari — kognitiv, emotsional va faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlar ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi.

***Kalit so`zlar:*** *zamonaviy ta`lim, jahon ta`lim tizimi, konsepsiya, kompetensiya, refleksiv kompetensiya, pragmatik yondashuv.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ: НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Данная статья посвящена системному анализу нормативно-правовых и теоретических основ совершенствования рефлексивной компетентности студентов. В современной системе образования способность личности к самостоятельному мышлению, анализу собственной деятельности и саморазвитию относится к числу важнейших компетенций. В этом контексте рефлексивная компетентность рассматривается как значимый фактор профессионального и личностного развития студентов. В аннотации раскрываются сущность, структура и механизмы формирования рефлексивной компетентности, а также обосновывается её роль в образовательном процессе.

В статье анализируются национальные и международные нормативно-правовые документы, направленные на развитие рефлексивной компетентности. В частности, рассматриваются нормы, закреплённые в законах об образовании, государственных образовательных стандартах и стратегических документах в сфере подготовки кадров, поддерживающие рефлексивный подход. Подчёркивается, что данные документы способствуют развитию у студентов навыков самостоятельного мышления, самооценки и совершенствования собственной деятельности.

С теоретической точки зрения подробно освещаются педагогические и психологические интерпретации понятия рефлексии, анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных учёных. Представлены научно обоснованные выводы о видах, этапах и функциях рефлексии. Кроме того, выделяются структурные компоненты рефлексивной компетентности — когнитивный, эмоциональный и деятельностный, а также раскрывается их взаимосвязь.

Ключевые слова: *современное образование, мировая система образования, концепция, компетенция, рефлексивная компетентность, прагматический подход.*

IMPROVING STUDENTS’ REFLECTIVE COMPETENCE: REGULATORY-LEGAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS

This article is devoted to a systematic analysis of the regulatory-legal and theoretical foundations for improving students’ reflective competence. In the modern education system, the ability of an individual to think independently, analyze their own activities, and engage in self-development is considered one of the key competencies. From this perspective, reflective competence is regarded as an important factor in

students’ professional and personal development. The annotation reveals the essence, structure, and formation mechanisms of reflective competence, and substantiates its role in the educational process.

The article analyzes national and international regulatory and legal documents aimed at developing reflective competence. In particular, it examines the provisions in education laws, state educational standards, and strategic documents related to personnel training that support a reflective approach. It is emphasized that these documents contribute to the development of students’ independent thinking, self-assessment, and self-improvement skills.

From a theoretical standpoint, the pedagogical and psychological interpretations of the concept of reflection are extensively discussed, and the scientific views of local and foreign scholars are analyzed. Scientifically grounded conclusions are presented regarding the types, stages, and functions of reflection. In addition, the structural components of reflective competence—cognitive, emotional, and activity-oriented—are identified, and their interrelationships are explained.

Keywords: *modern education, global education system, concept, competence, reflective competence, pragmatic approach.*

Kirish. Jahon ta’lim tizimida pragmatik yondashuv orqali talabalarning o‘quv faoliyatini ongli tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini kuchaytirish, ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini anglash va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan refleksiv kompetentlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO tomonidan xalqaro standartlarini shakllantirish maqsadida “Oliy ta’limga oid malakalarni tan olish to‘g‘risida”gi Global konvensiyaning qabul qilinishi oliy ta’lim transformatsiyasida juda katta qadam bo’lganligi bilan birga oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, professor-o‘qituvchilarining jahon mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi, raqobatbardosh kadr sifatida tanilishi, xalqaro darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratilishi zamonaviy ta`limda pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirish ahamiyatli ekanligini aks ettiradi.[1] Bundan tashqari Jahon ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash bo‘yicha tadqiqotlar Chexiyada Olomoucki universitetida Indigenous Teacher Education Project (ITEP) loyihasida asosida amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), Swiss Federal Institute of Technology (Shveytsariya), University of Bridgeport (AQSH) kabi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

Jahonda ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash,o’quv jarayonda o‘quvchilarda hayotiy vazifalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish, kreativ ko‘nikmalarni egallash, harakat usullarini qo‘llash haqidagi bilimlarini boyitish, mustaqil bilim olish va o‘z o‘zini takomillashtirishni pragmatik yondashuv negizida amalga oshirishi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta’limda pragmatik yondashuv orqali refleksiv kompetensiyalarni takomillashtirish, uni amaliyotda qo`llash borasidagi usullar va mexanizmlarni yaratish bo`yicha keng ko’lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so`nggi yillarda oliy ta`limda ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, zamonaviy ta`lim sharoitida talabalarni refleksiv kompetensiyalarini pragmatik yondashuv asosida takomillashtirishning me`yoriy asoslari yaratilmoqda. “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu esa pragmatik yondashuv asosida talabalarni refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishni mazmun va modelini takomillashtirish imkoniyatini kengaytiradi.[2]

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O’zbekiston ta’lim sohasida olib borilayotgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi, insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi kabi bandlarning ishlab chiqilishi ta`lim jrayonida talabalar kompetensiyalarini takomillashtirish jarayoni umumiy ijtimoiy normalar va qoidalarga asoslangan munosabat sifatida qanchalik ahamiyatli ekanligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil,8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

Farmonida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish; oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish; [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish” , kabi ustuvor vazifalarni belgilab qo`yilgani “Zamonaviy ta`limda pragmatik yondashuv orqali talabalarning refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishimizning dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot muammosiga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni muayyan darajada hal etish hamda tadqiqot ishimizning dolzarbligini asoslash uchun “kompetensiya” tushunchasi hamda uning mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ilk bora fanga amerikalik tadqiqotchi Noam Chomsky kiritgan bo‘lib, N. Chomskiy 1965-da Massachusets universitetida til nazariyasiga nisbatan “kompetensiya” atamasini taklif qildi. Bunda u “kompetensiya yoki tilni bilish va foydalana olish yoki tilni haqiqatda ishlata olish tushunchalari o‘rtasidagi farqni asosini anglash” nazariyasini ilgari suradi va kompetentlikka asoslangan yondashuv “Competence Based education” ta’limiga asos soladi. Kompetentlikka asoslangan faoliyat asoschilaridan biri Djon Flanegin ishga qabul qilishda nafaqat nazariy bilim, shu bilan birga aniq vaziyatlarda xodim qanday qaror qabul qilishi, xulq–atvor reaksiyalari muhimligini ta’kidlaydi.[4],[5]

Zamonaviy ta`limda pragmatik yondashuv asosida talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning dolzarbligini asoslash maqsadida “kompetensiya”, “refleksiya”, “refleksiv kompetensiya” tushunchasiga alohida e’tibor qaratish joiz.

O`zbekiston milliy ensiklopediyasida Kompetensiya (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar manbai deb hisoblanadi. [6]

O`zbek tilining izohli lug`atida esa (competere — layoqatli, munosib bo‘lmoq) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi. Sifatida belgilangan.

“Kompetensiya” termini fanda ilk bor XX asrning 50–60-yillarida qo‘llanilgan. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi. Mazmun esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni bildiradi. A. Demetrio, A. Ehklides, A. Jensen, N. Chomsky, J. Raven, F. Delamare va J. Winterton, H. Meyer, A. Klapper, M. Papadaki va boshqalar tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalariga berilgan ta’riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, ya’ni tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya’ni kompetensiyaning namoyon qilinishining pirovard natijasi deb talqin qilinadi. 1999-yilda Amerika Ta’lim Assotsiatsiyasi (AACTE) kompetensiyalarni 5 asosiy yo‘nalishga ajratgan:

resurslar bilan ishlash kompetensiyasi	shaxslararo muloqot kompetensiyasi	axborot (informatsion) kompetensiya	tizimlar bilan ishlash va ularni tashkil qilish kompetensiyasi	boshqarish (management) va texnologik kompetensiyalar

Bugunki kunda ham ushbu kompetensiya turlari asos vazifasini bajarib kelmoqda. Zamonaviy ta`lim sharoitida oliy ta`lim tizimida kompetensiya turlari va xususiyatini quyidagicha tasvirlash mumkin.

Umumiy (tayanch) kompetensiyalar	Hayotiy va ijtimoiy faoliyat uchun zarur bo'lgan, barcha mutaxassisliklar uchun umumiy bo'lgan qobiliyatlar (kommunikativlik, axborot bilan ishlash, muammolarni hal qilish)
Kasbiy (maxsus) kompetensiyalar	Muayyan kasbiy faoliyat turi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati.
Shaxsiy (ijtimoiy-shaxsiy) kompetensiyalar	O'zini boshqarish, motivatsiya, jamoada ishlash va yetakchilik qobiliyatlari.

Kompetensiya — bu insonning muayyan faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasi. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki o‘sha bilimni amalda qo`llay olishidir. “Kompetensiya - muayyan muammo va masala, hodisa

borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati” tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Refleksiya – bu shaxsning o‘z faoliyatini, qarorlarini, fikrlarini tahlil qilish, ularni ongli ravishda baholash va ulardan kelib chiqib yangi faoliyat strategiyasini shakllantira olish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon orqali talaba o‘z bilimlari va ko‘nikmalarining sifati, chuqurligi, to‘liqligini anglaydi va shu asosda o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshiradi. O‘z-o‘zini baholash esa ushbu reflektiv jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, talabaning o‘zini tanqidiy kuzatishi, bilimlarini real baholashi, kamchiliklarini aniqlashi va ularni bartaraf etish yo‘llarini topishiga xizmat qiladi. K.Markovaning fikricha “Refleksiv ko‘nikmalar - bu pedagogik vaziyatning yuzaga kelgan holatini fikran tasavvur etish va bu asosda o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurni aniqlash, pedagog ongining o‘z-o‘ziga qaratilganligi, o‘quvchi tomonidan o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyat shaklini qanday tushunishi tasavvurlarini inobatga olish qobiliyati” deb ta’kidlaydi. [7] G.M.Kodjaspirova refleksiv ko‘nikmalar o‘qituvchining o‘z-o‘ziga munosabatini kasbiy faoliyati sub’ekti sifatida ta’riflaydi. “Refleksiya – bu sub’ektning nafaqat kasbiy faoliyat va o‘z-o‘zini bilishi va tushunishi, balki boshqalar (bolalar, hamkasblar, ota-onalar) tomonidan “refleksiyani amalga oshiruvchi” ni shaxsiy xususiyatlari, hissiy ta’sirlanishlari va kognitiv tasavvurlarini qanchalik bilishlari va tushunishlari” deb aytish mumkin. [8] V.A.Slastenin refleksiv ko‘nikmalar pedagogning o‘ziga yo‘naltirilgan nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirishda mavjud bo‘ladi deb hisoblaydi. Uni odatda professional masalani yechishning yakuniy bosqichi, kasbiy faoliyat yakunlarini yasash bo‘yicha o‘ziga xos maxsus jarayon sifatida tushunish bilan bog‘laydi. [9]

Refleksiv kompetensiya esa insonning o‘z faoliyati, fikrlashi va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash va ularni takomillashtirish qobiliyatidir. refleksiv kompetensiya – bu shaxsning o‘z o‘quv faoliyatini, tajribasini va natijalarini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi va ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyati sifatida qaralmoqda. Ushbu kompetensiya Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro ta’lim standartlarida “asosiy hayotiy kompetensiyalar” tarkibiga kiritilgan bo‘lib, u shaxsning doimiy o‘zgaruvchan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur deb e’tirof etiladi.

A.Zimnyaya refleksiv kompetensiyani kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Uning fikricha, refleksiya shaxsning doimiy rivojlanishini ta’minlovchi mexanizm hisoblanadi. Dunyo olimlari hamda mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari solishtirilib, umumlashtiriladi. Pedagogik adabiyotlarda refleksiv kompetensiya tushunchasi bo`lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, metodik faoliyatini tahlil qilishi, ta’lim jarayonini rejalashtirish va baholashda yuqori darajada mustaqil fikr yuritishi bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etiladi. [10]



1-rasm. A. Zimnyayaning refleksiv kompetensiyani natijasini aniqlagani

L.S.Vigotskiy shaxsning ongli rivojlanishi, ichki nutq va metakognitiv jarayonlarning shakllanishini o‘rgangan holda, ta’lim jarayonida refleksiyaning ahamiyatini psixologik-pedagogik tomondan yoritib beradi.Uning fikricha, o‘qituvchi o‘quv faoliyatini boshqarishda refleksiv yondashuvni qo‘llasa, ta’lim jarayoni samaradorligi sezilarli oshadi. [11]

Y.Y. Bondarevskaya refleksiv kompetensiyani pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va o‘z faoliyatining maqsad-mohiyatini anglashda muhim deb hisoblaydi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda esa refleksivlik o‘qituvchining o‘z ta’lim faoliyatini diagnostika qilish, shaxsiy-mkasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash va o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatining bosh omili sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv refleksiv kompetensiyani nafaqat metodik mahorat elementi, balki kasbiy o‘sishning uzluksiz mexanizmi sifatida tushuntiradi. [12]

V.D.Shon pedagogning “amaliyot jarayonida refleksiya” va “amaliyotdan keyingi refleksiya” orqali o‘z faoliyatini takomillashtirishini ilmiy jihatdan asoslaydi. U o‘qituvchini “refleksiv praktika yurituvchi mutaxassis” sifatida tasvirlab,refleksiyani professional rivojlanishning asosiy omili deb hisoblaydi. [13]

J.Piaje refleksiyani intellektual rivojlanishning natijasi deb hisoblaydi. Piaje tadqiqotlarida shaxs yangi bilimlarni o‘zlashtirayotganda ularni assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali qayta ishlashini ta’kidlaydi.Bu qayta ishlash jarayonlari aslida refleksiv tafakkurning tarkibiy qismlari ekanini ko‘rsatadi.[14]

J.Mon refleksiv yozuvlar va refleksiv fikrlash metodologiyasini chuqur ishlab chiqqan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida refleksiya o‘quvchilarning bilish jarayonini chuqurlashtirish, o‘z tajribalarini tahlil qilish va shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishdagi asosiy vosita sifatida talqin etiladi. Moon zamonaviy ta’limda refleksiv yozuvlarni eng samarali metakognitiv texnika sifatida ko‘rsatadi. [15]

Ushbu tadqiqotlar hozirgi ta’lim tizimida refleksiyaning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Global ilmiy doiralarda refleksiv kompetensiya raqamli savodxonlik, kritik fikrlash, metakognitiv monitoring, shaxsiylashtirilgan ta’lim kabi konsepsiyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu esa refleksivlikni XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biriga aylantirmoqda. O‘zbekiston pedagogika fanida ham refleksiv kompetensiya masalasi so‘nggi yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda.

A.Abduqodirov ta’lim boshqaruvi va pedagogik monitoring bo‘yicha izlanishlarida refleksiv kompetensiyani pedagogning o‘z faoliyatini rejalashtirish, baholash va takomillashtirish jarayonini boshqaruvchi asosiy psixologik-pedagogik mexanizm sifatida asoslaydi. U refleksiyaning kasbiy o‘sishdagi rolini alohida ta’kidlab o`tadi. [16]

N.Sayidaxmedov o‘zining pedagogik texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlarida refleksivlikni zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida baholaydi.Uningning fikricha, o‘qituvchi refleksiyasi dars sifatini tahlil qilish, metodlarni tanlash va o‘quvchilar faoliyatini diagnostika qilishda asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Uning ilmiy yondashuvida refleksiv kompetensiya o‘qituvchining kasbiy madaniyatini shakllantiradi. [17]

R.Mavlonova shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik muloqot bo‘yicha izlanishlarida refleksivlikni o‘qituvchining kommunikativ madaniyatining asosiy elementi sifatida ko‘rsatadi.U dars jarayonida refleksiv tahlilning mavjudligi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlashini ta’kidlaydi.[18] R.Ishmuhamedov interfaol metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlarida refleksiv yondashuvni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, refleksiya – o‘quvchining o‘z bilim jarayonidagi bo‘shliqlarni ko‘ra olishi va o‘z rivojlanish strategiyasini belgilashi uchun zarur bo‘lgan metakognitiv ko‘nikma hisoblanadi. [19]

Olingan natijalar va ularning tahlili. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, metakognitiv nazariya va kompetensiyaviy yondashuv refleksiv kompetensiyani ta’lim jarayonining markazida turuvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Ularning umumiy jihati shundaki, o‘quvchi va pedagog faoliyatining ongli boshqarilishini ta’minlashdir. Refleksiv kompetensiyaning rivojlanishi o‘quvchilar va o‘qituvchilarda muhim ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqaradi, jumladan: mustaqil fikrlashning kuchayishi, qaror qabul qilishda aniqlik, o‘z-o‘zini baholash madaniyatining shakllanishi, emotsional barqarorlikning ortishi, ta’lim jarayoniga nisbatan ongli yondashuvning shakllanishi hisoblanadi. Buni quyida ko`rish mumkin.



Xulosa. Kompetensiya shaxsning ma’lum bir muammo, hodisa yoki vazifani hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmalarni egallaganligi hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llay olish salohiyatini ifodalaydi. Yuqoridagi manbalar tahlilida, refleksiya va refleksiv kompetensiya

tushunchalarining pedagogik mohiyati ochib berildi hamda refleksiv kompetensiya talabaning kasbiy tayyorgarligi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligi va kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligi asoslandi. Refleksiv kompetensiyaning kognitiv, analitik, baholovchi va prognozlovchi komponentlardan iborat yaxlit tizim ekanligi aniqlanib, ushbu komponentlarning izchil rivojlanishi ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi belgilandi.

Adabiyotlar:

1. Global Convention on Higher Education. Available at: https://www.unesco.org
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son — “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil,8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. "Aspects of the Theory of Syntax" (1965)
5. "Ranger's Apprentice" turkumining birinchi kitobi "Ruins of Gorlan" (Gorlan xarobalari) asari
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 1-jildi 2000-yil.
7. Маркова А.К. Психология труда учителя. – М.: Просвещение, 1993. – 80 с.[1]
8. Коджаспирова Г. М. Педагогический словарь: для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2005. – 176 с.
9. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: Изд-во Москва, 1985. – 114 с.
10. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. – 2003.
11. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. — М.: Педагогика, 1984
12. Бондаревская Е. В. Педагогическая культура и её формирование. — Ростов н/Д: РГУ, 1995. - 312 с.
13. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983
14. Piaget J. The Psychology of Intelligence. — London: Routledge, 1950
15. Moon J. Reflection in Learning and Professional Development. — London: RoutledgeFalmer, 1999.
16. Абдуқодиров А. А. Таълим бошқаруви ва педагогик мониторинг. — Тошкент: Tamaddun, 2014
17. Саидахмедов Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. — Тошкент: Ўқитувчи, 2003.
18. Педагогик мулоқот ва шахсга йўналтирилган таълим.—Тошкент: Фан, 2020.

UDC 37.016:811.111:378.147

CLIL YONDASHUVIDA 4C MODELI KOMPONENTLARINING AMALIY QO‘LLANILISH METODIKASI

Axmedova Maftuna Kozimjon qizi,
Oliy ta’limni rivojlantirish markazi tayanch doktoranti
Akhmedovam0707@gmail.com

Mazkur maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi doirasida 4C modeli komponentlari (Content, Communication, Cognition, Culture) ning amaliy qo‘llanilish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan ta’lim modelining samaradorligi tahlil qilindi. 4C modelining har bir komponentini dars jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlari asosida ularning ta’siri o‘rganildi. Natijalar CLIL yondashuvi talabalarning til, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *CLIL, 4C modeli, integratsiyalashgan ta’lim, metodika, kommunikativ kompetensiya, kognitiv rivojlanish, madaniyatlararo kompetensiya.*

МЕТОДИКА ПРАКТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ КОМПОНЕНТОВ МОДЕЛИ 4C В ПОДХОДЕ CLIL

В данной статье рассматривается методика практического применения компонентов модели 4C (Content, Communication, Cognition, Culture) в рамках подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning). В исследовании анализируется эффективность интегрированного обучения в процессе преподавания профессионально-ориентированного английского языка. Разработаны методические подходы к внедрению каждого компонента модели 4C в учебный процесс, и изучено их влияние на основе экспериментально-исследовательской работы. Результаты исследования показывают, что CLIL-подход значительно способствует развитию языковых, когнитивных и профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: *CLIL, модель 4C, интегрированное обучение, методика, коммуникативная компетенция, когнитивное развитие, межкультурная компетенция.*

METHODOLOGY FOR THE PRACTICAL APPLICATION OF THE 4C MODEL COMPONENTS IN THE CLIL APPROACH

This article examines the methodology for the practical implementation of the 4C framework components (Content, Communication, Cognition, Culture) within the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach. The study analyzes the effectiveness of integrated learning in teaching English for Specific Purposes (ESP), with a particular focus on professionally oriented language instruction. Methodological strategies for integrating each component of the 4C model into classroom practice are developed, and their impact is evaluated based on an experimental research design. The findings indicate that the CLIL approach significantly enhances students’ linguistic, cognitive, and professional competencies, while also fostering intercultural awareness and communicative proficiency.

Keywords: *CLIL, 4C framework, integrated learning, methodology, communicative competence, cognitive development, intercultural competence.*

Kirish. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida kasbiy fanlarni chet tili bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish zarurati ortib bormoqda. Global ta’lim makoniga integratsiyalashuv, akademik mobillikning kengayishi hamda mutaxassislarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish zarurati ta’lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni talab etmoqda. Shunday yondashuvlardan biri CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodologiyasidir. CLIL yondashuvi mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitishni nazarda tutadi. Ushbu modelning metodologik asosini 4C modeli tashkil etadi. Mazkur model Content (mazmun), Communication (muloqot), Cognition (kognitiv rivojlanish) va Culture (madaniyat) komponentlarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tadqiqotlarda CLIL metodologiyasining samaradorligi ko‘plab olimlar tomonidan tasdiqlangan [1; 2].

Shu bilan birga, 4C modelini amaliy qo‘llash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida ushbu modelni qo‘llash mexanizmlarini aniqlash muhim ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarini amaliy qo‘llash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. CLIL yondashuvi va 4C modeli komponentlarining pedagogik imkoniyatlari so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari, metodik tamoyillari hamda ta’lim jarayonidagi samaradorligi turli mualliflar tomonidan tahlil qilingan [1,3,4].

CLIL metodologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri — Do Coyle hisoblanadi. U 4C modelini CLIL yondashuvining markaziy komponenti sifatida ta’riflab, mazkur model til va mazmun integratsiyasini ta’minlovchi tizimli struktura ekanligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, “Content, Communication, Cognition va Culture komponentlari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilganda, ta’lim jarayonida chuqur o‘zlashtirish yuzaga keladi” [1, p. 41]. Bu yondashuv ta’lim jarayonida nafaqat til kompetensiyasini, balki predmet kompetensiyasini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, Do Coyle Philip Hood va David Marsh tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda CLIL yondashuvi integrativ ta’lim modeli sifatida tavsiflanadi. Mualliflar CLILni “ikki tomonlama maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi” sifatida izohlab, unda til o‘rganish va fan mazmunini o‘zlashtirish parallel ravishda amalga oshirilishini qayd etadi [2, p. 56]. Ularning ta’kidlashicha, 4C modeli talabalarning akademik til kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi.

CLIL metodologiyasining amaliy jihatlari Mehisto tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular CLIL darslarini tashkil etishda scaffolded learning, ya’ni bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, CLIL darslari o‘quvchilarni yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga jalb etadi va shu orqali chuqur o‘rganish jarayonini ta’minlaydi [3]. Bu esa Cognition komponentining ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Cognition komponentining ahamiyati Dalton-Puffer tomonidan ham alohida ta’kidlangan. U CLIL faoliyatlari orqali talabalar tahlil qilish, baholash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini qayd etadi. Muallifning ta’kidlashicha, CLIL yondashuvi yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhit yaratadi [4]. Bu esa 4C modelining kognitiv komponenti ta’lim sifatini oshirishda muhim ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish masalalari Maria Perez-Canodo tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Ularning fikricha, CLIL yondashuvi orqali talabalar turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni anglaydi hamda global kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi, CLIL o‘quvchilarda madaniyatlararo ongni shakllantirish orqali ularni xalqaro muhitga tayyorlaydi” deb ta’kidlaydi [5]. Bu esa 4C modelining Culture komponentining pedagogik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Yevropa ta’lim tizimida CLIL yondashuvi samaradorligi European Commission hisobotlarida ham tasdiqlangan. Hisobotda CLIL metodologiyasi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, fan bilimlarini chuqurlashtirish hamda motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, CLIL dasturlarida o‘qigan talabalar tilni real akademik kontekstda samaraliroq qo‘llay oladi [6,7].

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar CLIL yondashuvining integratsiyalashgan modeli ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatmoqda. 4C modelining barcha komponentlarini uyg‘un qo‘llash talabalarning kompleks kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda 4C modeli komponentlarini kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida amaliy qo‘llash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarining amaliy qo‘llanilish samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot dizayni aralash metod (mixed-methods) asosida tashkil etilib, unda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi. Bu yondashuv CLIL metodologiyasining ta’lim jarayoniga ta’sirini har tomonlama baholash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasida kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa CLIL yondashuvi asosida 4C modeli komponentlarini amaliy qo‘llash metodikasidan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda jami 86 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (40 nafar) va nazorat guruhi (46 nafar). Nazorat guruhida an’anaviy kommunikativ metod asosida darslar olib borildi, tajriba guruhida esa CLIL 4C modeli asosida integratsiyalashgan darslar tashkil etildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich
2. Tajriba bosqichi

3. Yakuniy tahlil bosqichi

Diagnostik bosqichda talabalar til kompetensiyasi, kasbiy terminologiya bilimlari hamda kommunikativ faollik darajasi aniqlashtirildi. Bu bosqichda test, so‘rovnoma va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Boshlang‘ich natijalar ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi.

Tajriba bosqichida CLIL 4C modeli asosida maxsus metodika ishlab chiqildi. Ushbu metodika quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oldi:

- Content — kasbiy yo‘naltirilgan materiallardan foydalanish
- Communication — interaktiv muloqot faoliyatlari
- Cognition — muammoli vaziyatlar va case-study
- Culture — madaniyatlararo taqqoslash faoliyatlari

Darslar integratsiyalashgan model asosida tashkil etildi. Har bir darsda 4C komponentlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Masalan, mavzuga oid autentik matn (Content), guruh muhokamasi (Communication), muammoli vaziyat (Cognition) hamda xalqaro tajribani tahlil qilish (Culture) elementlari birlashtirildi.

Mazkur metodologiya Do Coyle tomonidan taklif etilgan 4C modeli asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotchining fikricha, CLIL darslarida mazmun, til va kognitiv faoliyat birgalikda rivojlanishi lozim [1]. Shu sababli metodologiyada har bir komponent uchun alohida faoliyat turlari tanlandi.

Shuningdek, dars jarayonida scaffolded learning tamoyili qo‘llanildi. Bu tamoyil CLIL darslarining muhim elementi sifatida ta’kidlangan [8]. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun vizual materiallar, jadval, diagrammalar va kalit iboralar berildi.

Ma’lumotlarni yig‘ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatish
- test sinovlari
- og‘zaki nutqni baholash mezonlari
- so‘rovnoma
- intervyu

Nutq ko‘nikmalarini baholashda kommunikativ kompetensiya mezonlari qo‘llanildi. Baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga olindi:

- terminologiya qo‘llash
- fikrni mantiqiy ifodalash
- muloqot faolligi
- muammoli vaziyatni hal qilish

Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi. Statistik tahlil foiz ko‘rsatkichlari orqali amalga oshirildi. Natijalar CLIL 4C modeli asosida o‘qitish samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologiya CLIL yondashuvi asosida 4C modeli komponentlarini kompleks tarzda joriy etish imkonini berdi hamda uning pedagogik samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tajriba-sinov ishlari yakunida CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarini qo‘llash samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi. Tahlil jarayonida talabalarning til kompetensiyasi, kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish darajasi, kommunikativ faolligi hamda kognitiv ko‘nikmalari baholandi.

Content komponenti bo‘yicha natijalar. Content komponenti asosida tashkil etilgan darslarda talabalarga kasbiy yo‘naltirilgan autentik materiallar taqdim etildi. Tajriba guruhi talabalarida terminologiyani o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshdi. Darslarda fan mazmuni ingliz tilida o‘rganilgani sababli talabalar terminlarni kontekstda qo‘llashni o‘rgandi. Boshlang‘ich test natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida terminologiyani o‘zlashtirish darajasi 66 % ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 87 % ga yetdi. Nazorat guruhida esa mos ravishda 67 % dan 74 % gacha o‘sish kuzatildi. Bu natijalar CLIL yondashuvi mazmuniy o‘zlashtirishni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Ushbu holat CLIL darslarida mazmun va til integratsiyasi samaradorligini ta’kidlovchi tadqiqot natijalari bilan mos keladi.

Communication komponenti bo‘yicha natijalar. Communication komponentini amalga oshirish jarayonida guruh muhokamalari, rol o‘yinlari va taqdimotlar qo‘llanildi. Tajriba guruhi talabalarining nutq faolligi sezilarli darajada oshdi. Talabalar kasbiy vaziyatlarda ingliz tilida erkin muloqot qilishga harakat qildi. Baholash mezonlariga ko‘ra, tajriba guruhi talabalarining muloqot faolligi 63 % dan 88 % gacha oshdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 65 % dan 72 % gacha o‘sdi. Natijalar CLIL yondashuvi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu holat integratsiyalashgan ta’lim modeli o‘quvchilarning tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkonini berishini qayd etuvchi tadqiqotlar bilan hamohangdir.

Cognition komponenti bo‘yicha natijalar. Cognition komponenti asosida muammoli vaziyatlar, case-study hamda tahliliy topshiriqlar qo‘llanildi. Talabalar mustaqil fikr bildirish, taqqoslash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini namoyon etdi. Tajriba yakunida tajriba guruhida tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari 64 % dan 86 % gacha oshdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 66 % dan 73 % gacha o‘sdi. Ushbu natijalar CLIL yondashuvi yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu fikr kognitiv faoliyatni faollashtirish CLIL modelining asosiy afzalliklaridan biri ekanligini ta’kidlovchi tadqiqotlar bilan mos keladi [9].

Culture komponenti bo‘yicha natijalar. Culture komponenti orqali talabalar turli mamlakatlardagi kasbiy faoliyatni taqqoslashga jalb qilindi. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasi rivojlandi, ular global professional muhit haqida kengroq tasavvurga ega bo‘ldi. Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida madaniyatlararo kompetensiya darajasi 61 % dan 83 % gacha oshdi. Nazorat guruhida esa 60 % dan 70 % gacha o‘sish kuzatildi. Bu natijalar CLIL yondashuvi talabalarni xalqaro kommunikatsiyaga tayyorlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Umumiy natijalar tahlili. Tajriba natijalari barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatilganini ko‘rsatdi. 4C modeli komponentlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi:

- kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish darajasi oshdi
- ingliz tilida muloqot qilish faolligi kuchaydi
- tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi
- madaniyatlararo kompetensiya shakllandi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, CLIL 4C modeli asosida o‘qitish an’anaviy metodga nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etdi, bu esa ularning motivatsiyasini oshirdi. Shunday qilib, olingan natijalar CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarini amaliy qo‘llash kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Ushbu metodika talabalarining til, kasbiy va kognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari CLIL yondashuvi asosida 4C modeli komponentlarini amaliy qo‘llash kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida Content, Communication, Cognition va Culture komponentlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash talabalarning til, kasbiy hamda kognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, CLIL 4C modeli asosida tashkil etilgan darslar talabalarning terminologik bilimlarini chuqurlashtiradi, ingliz tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda tanqidiy fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Shu bilan birga, madaniyatlararo komponentning joriy etilishi talabalarni global professional muhitga tayyorlash imkonini beradi. Ushbu natijalar CLIL yondashuvining integrativ xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- CLIL yondashuvi fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish imkonini beradi;
- 4C modeli komponentlarini uyg‘un qo‘llash talabalarning kompleks kompetensiyalarini rivojlantiradi;
- kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish darajasi oshadi;
- kommunikativ kompetensiya sezilarli darajada rivojlanadi;
- tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi;
- madaniyatlararo kompetensiya rivojlanadi.

Mazkur xulosalarga asoslanib, quyidagi metodik takliflar ishlab chiqildi:

1. Kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tili darslarini tashkil etishda CLIL yondashuvi asosida 4C modelini tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq.
2. Har bir dars rejasida Content, Communication, Cognition va Culture komponentlari integratsiyalashgan holda aks ettirilishi lozim.
3. O‘qituvchilar uchun CLIL metodologiyasi bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.
4. Dars jarayonida autentik materiallar, case-study va muammoli vaziyatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.
5. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida xalqaro tajribalarni taqqoslashga asoslangan topshiriqlarni joriy etish lozim.
6. CLIL asosida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalar va metodik materiallarni yaratish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, CLIL yondashuvida 4C modeli komponentlarini amaliy qo‘llash kasbiy yo‘naltirilgan ta’limda samarali metodik yechim sifatida tavsiya etiladi. Ushbu metodika talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi hamda ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Coyle D. CLIL: A pedagogical approach from the European perspective // In: The Routledge Handbook of Language Learning and Teaching. London: Routledge, 2015. P. 97–108.

2. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

3. Mehisto P. Excellence in bilingual education: A guide for school principals // Cambridge International Journal of Education. 2012. Vol. 42(2). P. 153–170.

4. Dalton-Puffer C. Content-and-language integrated learning: From practice to principles? // Annual Review of Applied Linguistics. 2011. Vol. 31. P. 182–204.

5. Pérez-Cañado M. L. CLIL and educational level: A longitudinal study // Language Teaching Research. 2018. Vol. 22(1). P. 3–21.

6. Ball P., Kelly K., Clegg J. Putting CLIL into Practice. Oxford: Oxford University Press, 2015.

7. Nikula T. Hand in hand: Exploring the functional relationship between language and content in CLIL // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism. 2017. Vol. 20(1). P. 1–15.

8. Morton T. Cognitive discourse functions in CLIL classrooms // Language Learning Journal. 2018. Vol. 46(2). P. 162–175.

9. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A development trajectory // University of Jyväskylä Publications, 2012.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAHLILI

Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi,
Qo‘qon davlat universiteti Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston
Orcid id: 0009-0005-7173-1008
xakimovayoqutxon05@gmail.com

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi pedagogik va psixologik nuqtai nazardan keng qamrovli tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy kompetentlik tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili asosida kasbiy kompetentlikning ko‘p qirrali modellari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirish uchun o‘qitishning interfaol metodlari, refleksiv yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini birgalikda qo‘llash zarur.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, pedagogik tahlil, psixologik rivojlanish, talaba, ta’lim jarayoni, kompetentlik modeli, refleksiya, interfaol metodlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

В данной статье проблема развития профессиональной компетентности студентов всесторонне анализируется с педагогической и психологической точек зрения. Научно исследуются сущность понятия профессиональной компетентности в современной системе образования, её структурные компоненты и этапы развития. На основе анализа литературы рассмотрены многогранные модели профессиональной компетентности. Результаты исследования показывают, что для эффективного развития профессиональной компетентности студентов необходимо комплексное применение интерактивных методов обучения, рефлексивного подхода и системы психологической поддержки.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, педагогический анализ, психологическое развитие, студент, образовательный процесс, модель компетентности, рефлексия, интерактивные методы.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCE

This article provides a comprehensive pedagogical and psychological analysis of the problem of developing professional competence in students. The essence, components, and developmental stages of professional competence in modern educational systems are scientifically examined. Multidimensional models of professional competence are reviewed based on literature analysis. Research results indicate that interactive teaching methods, reflective approaches, and psychological support systems must be applied in combination to effectively develop students' professional competence.

Keywords: *professional competence, pedagogical analysis, psychological development, student, educational process, competence model, reflection, interactive methods.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning globallashuvi va iqtisodiyotning tezkor o‘zgarishi sharoitida mutaxassis kadrlar tayyorlash sifati va ularning kasbiy kompetentligi masalasi oliy ta’lim tizimining markaziy muammolaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar kontekstida talabalarni kasbga tayyorlashning sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Kasbiy kompetentlik (professional competence) tushunchasi so‘nggi o‘n yilliklarda jahon pedagogika fanida keng tadqiqot obyektiga aylangan bo‘lib, bu sohada turli ilmiy maktablar va yo‘nalishlar shakllangan. Biroq ushbu masalaning o‘zbek ta’lim tizimi sharoitidagi pedagogik va psixologik jihatlarini o‘rganish hali to‘liq tugallanmagan va yanada chuqurroq ilmiy tahlilni taqozo etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash nafaqat bilim va koʻnikmalar berishni, balki shaxsning professional oʻzligini shakllantirishni, motivatsion-qadriyat sohasini rivojlantirishni va kasbiy refleksiyani shakllantirish koʻnikmalarini talab etadi. Ushbu murakkab jarayon pedagogika va psixologiya fanlarining kesishmasi sifatida koʻrib chiqilishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilish va samarali rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) kasbiy kompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini oʻrganish; 2) kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini tahlil qilish; 3) talabalar kasbiy kompetentligini baholash metodlarini koʻrib chiqish; 4) samarali rivojlantirish yoʻllarini ishlab chiqish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Kasbiy kompetentlik konsepsiyasining rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, bu tushuncha dastlab 1970-yillarda AQShda D. McClelland (1973) tomonidan an’anaviy intellektual testlarga muqobil sifatida kiritilganini koʻramiz. McClelland oʻz tadqiqotlarida bilim va koʻnikmalardan koʻra kasbiy muvaffaqiyatni belgilovchi boshqa omillarning — xarakter xususiyatlari, motivatsiya, oʻz-oʻzini boshqarish – muhimroq ekanligi toʻg'risida asosli xulosalar chiqargan.

R. Boyatzis (1982) kompetentlikning birinchi toʻliq modelini ishlab chiqib, uni 'ish faoliyatida samarali yoki yuqori darajada samarali natijalarni koʻrsatishga imkon beruvchi shaxsiy xususiyat' sifatida ta'rifladi. Uning modeli 21 ta kompetentlikni oʻz ichiga olib, ularni klasterlarga – intellektual, ijtimoiy va oʻz-oʻzini boshqarish klasterlariga – birlashtirdi. Bu model hozirga qadar kasbiy kompetentlikni oʻrganishda metodologik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Yevropadagi kompetentlik yondashuvi asosan N.V. Kuzmina (1990), A.K. Markova (1996) va A.V. Xutorskoy (2003) kabi rus olimlari tomonidan rivojlantirildi. A.K. Markova kasbiy kompetentlikning toʻrt turini ajratib koʻrsatdi: maxsus kompetentlik (kasb doirasidagi bilimlar), ijtimoiy kompetentlik (hamkorlikdagi faoliyat), shaxsiy kompetentlik (oʻz-oʻzini boshqarish) va individual kompetentlik (oʻz-oʻzini anglash). Bu tasniflash oʻzbek ta’lim tizimida ham keng qoʻllanilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan kasbiy kompetentlikni oʻrganishda L.S. Vigotskiy (1978) ning 'yaqin rivojlanish zonasi' nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Vigotskiyning ta'kidlashicha, ta’lim faqat talaba mustaqil bajara oladigan vazifalar emas, balki uning imkoniyatlari chegarasida – murabbiy yordami bilan bajariladigan vazifalar doirasida qurilishi kerak. Bu nazariya kasbiy kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish modelining psixologik asosini tashkil etadi.

A. Bandura (1997) ning oʻz-samaradorlik (self-efficacy) nazariyasi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim psixologik mexanizmlaridan birini ochib berdi. Banduraning tadqiqotlari shuni koʻrsatdiki, talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda uning oʻz imkoniyatlariga boʻlgan ishonchi – oʻz-samaradorlik sezgisi – bilim va koʻnikmalardan kam muhim emas. Past oʻz-samaradorlik hatto yuqori darajadagi bilimlarni ham amaliyotga tatbiq etishni qiyinlashtiradi.

J. Raven (1984) kasbiy kompetentlikning 39 ta tarkibiy qismini aniqladi va ularning koʻpchiligining motivatsion-qadriyat sohasiga tegishli ekanligini isbotladi. U muvaffaqiyatli mutaxassisni faqat bilimlar emas, balki ularni yangi vaziyatlarda qoʻllashga boʻlgan tayyorlik va istak belgilashini ta'kidladi. Ravenning yondashuvi kasbiy kompetentlikni baholashning yumshoq (soft skills) va qattiq (hard skills) koʻnikmalarni birlashtirgan koʻp oʻlchovli tizimini yaratishga asos soldi.

Oʻzbekistonda kasbiy kompetentlik muammosi tadqiqotchilari orasida N. Musurmonova (2015) ning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Musurmonova oʻzbek pedagogik an'analari va zamonaviy kompetentlik yondashuvini sintezlashtirishga urinib, milliy madaniy kontekstda oʻqituvchi kasbiy kompetentligining oʻziga xos tarkibiy modelini ishlab chiqdi. Uning modeli shaxsiy-madaniy kompetentlikni – milliy qadriyatlar, an'analar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish qobiliyatini — alohida komponent sifatida ajratib koʻrsatadi.

Sh. Sharipov (2018) oliy ta’lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tizimli modelini taklif etdi. Uning modeli uchta oʻzaro bog'liq blokni oʻz ichiga oladi: motivatsion-maqsadli blok (kasb motivatsiyasi va kasbiy maqsad belgilash), mazmunli blok (kasbiy bilim va koʻnikmalar tizimi) va protsessual blok (kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodlari va shakllari). Bu model Oʻzbekistonning bir qator oliy ta’lim muassasalarida amaliyotda sinab koʻrilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot aralash metodologiya (mixed methods approach) asosida qurilgan boʻlib, miqdoriy va sifatli tadqiqot metodlarini birlashtiradi. Bunday yondashuv tadqiqot obyektini koʻp tomonlama oʻrganishga va olingan natijalarni oʻzaro tekshirish (triangulation) orqali ishonchliligini oshirishga imkon beradi. Tadqiqot 2022-2024-yillarda Toshkent shahridagi uchta oliy ta’lim muassasasida amalga oshirildi.

Tadqiqotda jami 347 nafar talaba (2-4-kurs), 42 nafar professor-o‘qituvchi va 18 nafar soha mutaxassisi ishtirok etdi. Tanlov maqsadga yo‘naltirilgan (purposive sampling) va tasodifiy (random sampling) metodlar kombinatsiyasi orqali amalga oshirildi. Talabalarning 58,2% qizlar, 41,8% o‘g'il bolalar; yoshlari 19 yoshdan 26 yoshgacha bo‘ldi.

Tadqiqotda quyidagi beshta metod qo‘llanildi:

1. **So‘rovnoma (Questionnaire):** Kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini o‘lchash uchun 48 banddan iborat moslashtirilgan so‘rovnoma ishlatildi. So‘rovnomaning Cronbach alpha koeffitsienti $\alpha = 0,87$ ni tashkil etdi, bu esa uni yuqori ichki izchillikka ega ekanligini ko‘rsatadi.
2. **Kuzatuv (Observation):** Talabalarning amaliy mashg'ulotlardagi va ishlab chiqarish amaliyotidagi faoliyatini tizimli kuzatish 120 soat davomida amalga oshirildi. Kuzatuv uchun maxsus ishlab chiqilgan 25 ko‘rsatkichli rubrika qo‘llanildi.
3. **Chuqur suhbat (In-depth Interview):** 36 nafar talaba va 18 nafar o‘qituvchi bilan yarim tuzilmali suhbatlar o‘tkazildi. Har bir suhbat o‘rtacha 45-60 daqiqa davom etib, audio yozib olindi va keyinchalik transkript qilindi.
4. **Portfolio tahlili (Portfolio Analysis):** Talabalarning o‘quv portfoliolari (n=120) tahlil qilindi. Portfolio tahlili orqali kasbiy kompetentlikning rivojlanish dinamikasi, o‘z-o‘zini refleksiya qilish darajasi va kasbiy o‘sish ko‘rsatkichlari baholandi.
5. **Eksperiment (Quasi-experiment):** Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion dasturining samaradorligini baholash uchun nazorat (n=84) va eksperimental (n=89) guruhlar bilan kvazieksperimental tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot 6 oy davom etdi.

Miqdoriy ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturida tahlil qilindi. Qo‘llanilgan statistik metodlar: tavsifiy statistika, Pearson korrelyatsiya tahlili, ko‘p o‘zgaruvchili dispersiya tahlili (MANOVA), klaster tahlili. Sifatli ma’lumotlar tematik tahlil (thematic analysis) usulida, Braun va Klark (2006) metodologiyasi asosida qayta ishlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari talabalarning kasbiy kompetentligi darajasini ko‘p o‘lchovli manzarasini aks ettirdi. So‘rovnoma natijalari bo‘yicha talabalarning 34,3% kasbiy kompetentlikning yuqori darajasini, 48,1% o‘rta darajasini va 17,6% past darajasini namoyon etdi. Shuni ta’kidlash joizki, nazariy bilimlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar (o‘rtacha ball M=3,82, SD=0,74) amaliy ko‘nikmalar ko‘rsatkichlaridan (M=3,11, SD=0,89) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi ($t(346)=9,47$, $p<0,001$).

Kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilishda kognitiv komponent (bilimlar) eng yuqori rivojlanish darajasini ko‘rsatdi (M=3,91), motivatsion komponent o‘rta darajada rivojlangan (M=3,54), refleksiv komponent esa eng past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi (M=2,89). Bu natijalar ko‘plab tadqiqotchilarning xulosalari bilan bir xil bo‘lib (Zimnyaya, 2004; Markova, 1996), an'anaviy ta’lim tizimida refleksiv kompetentlikka e'tibor yetarlicha berilmasligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy motivatsiya darajasi va umumiy kasbiy kompetentlik darajasi o‘rtasida kuchli musbat bog'liqlik mavjud ($r=0,68$, $p<0,001$). Bundan tashqari, o‘z-samaradorlik ko‘rsatkichi ham kasbiy kompetentlik bilan muhim darajada bog‘liq bo‘ldi ($r=0,61$, $p<0,001$), bu Bandura (1997) ning nazariy taxminlarini empirik tarzda tasdiqlaydi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan 6 oylik innovatsion dastur yakunida eksperimental va nazorat guruhlarini qiyosiy tahlil qilish muhim farqlarni ko‘rsatdi. Eksperimental guruh talabalarida kasbiy kompetentlikning umumiy darajasi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada oshdi ($F(1, 171)=24,83$, $p<0,001$, $\eta^2=0,13$ – katta ta'sir o‘lchami). Ayniqsa refleksiv kompetentlik sohasida eng katta o‘sish kuzatildi: eksperimental guruhda o‘rtacha 42,7% ga oshish qayd etildi.

Suhbat ma'lumotlarining tematik tahlili uchta asosiy mavzuni aniqladi: (1) kasbiy o‘zlikni anglash – talabalarning kasbiy “Men” obrazining shakllanishi; (2) bilim-amaliyot ko‘prigi – nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasining rivojlanishi; (3) kasbiy muloqot madaniyati – kasb doirasida samarali muloqot qilish va hamkorlik ko‘nikmalarining yetishmasligi. Oxirgi mavzu ko‘plab talabalar va o‘qituvchilar tomonidan muammo sifatida qayd etildi.

Klaster tahlili talabalarni kasbiy kompetentligining psixologik profili bo‘yicha to‘rt guruhga ajratdi. Birinchi klaster – “Kasbiy jihatdan etuk' (22,4%) – yuqori motivatsiya, yuqori o‘z-samaradorlik va rivojlangan refleksiya bilan tavsiflanadi. Ikkinchi klaster – “Bilimga yo‘naltirilgan” (31,7%) – kuchli kognitiv komponent, lekin past motivatsion va refleksiv komponentlar bilan ajralib turadi. Uchinchi klaster – “Motivatsiyaga yo‘naltirilgan” (28,2%) — yuqori kasbiy motivatsiya mavjud, ammo bilimlar darajasi va refleksiya etarli emas. To‘rtinchi klaster – “Rivojlanish ehtiyoji yuqori” (17,7%) – barcha komponentlar bo‘yicha past ko‘rsatkichlar.

Ushbu klaster tahlili natijalari differentsiyalashtirilgan yondashuvning zarurligini isbotlaydi – turli psixologik profillarga ega talabalar uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning turli strategiyalari zarur. Bu xulosani suhbat materiallari ham tasdiqlaydi: talabalar bir xil mashg'ulotlarga turlicha munosabat bildiradi va turli qirralarini rivojlantirish ehtiyojini his etadi.

Tadqiqot natijalari bir qancha muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, nazariy va amaliy bilimlar o‘rtasidagi daraza muammosi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida hali hal etilmagan dolzarb muammoligicha qolmoqda. Bu Shon va Zaydning (1984) “amaliyot muammosi” konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, ta’lim muassasalarida qurilgan bilimlar ko‘pincha real kasbiy vaziyatlarning murakkabligiga mos kelmaydi.

Ikkinchidan, refleksiv kompetentlikning past darajasi alohida e'tiborni talab etadi. J. Dyui (1933) va D. Shon (1987) tomonidan asoslangan refleksiv amaliyot nazariyasiga ko‘ra, kasbiy o‘sishning asosi – o‘z faoliyatini ongli tahlil qilish va undan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, talabalarning ko‘pchiligi kasbiy refleksiyani tizimli amalga oshirishga o‘rgatilmagan va bu ko‘nikma maqsadli rivojlantirishni talab etadi.

Uchinchidan, o‘z-samaradorlik va kasbiy kompetentlik o‘rtasidagi kuchli korrelyatsiya (r=0,61) Bandura (1997) nazariyasining o‘zbek ta’lim kontekstida ham tasdiqlanishini ko‘rsatadi. Bu ta’limda psixologik muhit yaratishning – muvaffaqiyat tajribasini shakllantirish, ijobiy kuchaytirishdan foydalanish, ijobiy namunalar ko‘rsatishning – muhimligini anglatadi.

Tadqiqot natijalarimiz pedagog va psixologlari hamkorligining zarurligini ko‘rsatmoqda. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish faqat ta’lim mazmunini yaxshilash bilan hal bo‘lmaydi – psixologik xizmatni kuchaytirish, talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish zarur. Klaster tahlili natijalari ko‘rsatganidek, turli psixologik profilga ega talabalar uchun turli pedagogik strategiyalar samaraliroq bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini jahon ilmiy adabiyotlari bilan qiyoslaganda ba’zi o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rish mumkin. Masalan, Evropa kontekstidagi tadqiqotlar (Erpenbeck, Rosenstiel, 2003) ham kognitiv va motivatsion komponentlar o‘rtasidagi muvozanat muammosini ta'kidlaydi. Biroq o‘zbek kontekstida jamoaviy (kollektiv) qadriyatlarning kasbiy kompetentlik rivojlanishiga ta'siri – bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar zarur.

Ushbu tadqiqotning ayrim cheklovlarini tan olish lozim. Birinchi cheklov – tanlab olingan oliy ta’lim muassasalari Toshkent shahriga tegishli bo‘lib, natijalarni butun O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga umumlashtirishda ehtiyot bo‘lish kerak. Ikkinchi cheklov — kvazieksperimental dizayn to‘liq tasodifiy ajratishdan farqlanib, o‘ziga xos cheklovlarni keltirib chiqaradi. Uchinchi cheklov — kasbiy kompetentlikning o‘z-o‘zini baholash asosida o‘lchangan qismlari subyektiv xatolik xavfini tug'diradi.

Ushbu tadqiqot talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosining pedagogik va psixologik jihatlarini keng qamrovli tahlil qilib, bir qancha muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, kasbiy kompetentlik ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, kognitiv (bilimlar), faoliyatli (ko‘nikmalar), motivatsion-qadriyat va refleksiv komponentlarning birligi sifatida ko‘rib chiqilishi zarur. Ushbu komponentlarning nomutanosib rivojlanishi – ayniqsa refleksiv kompetentlikning qoloqligi – O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kuzatiladigan muammodir.

Ikkinchidan, psixologik omillar – o‘z-samaradorlik, kasbiy motivatsiya, kasbiy o‘zlikni anglash – kasbiy kompetentlik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dasturlari nafaqat didaktik, balki psixologik qo‘llab-quvvatlash elementlarini ham o‘z ichiga olishi kerak.

Uchinchidan, amaliy tajriba – ishlab chiqarish amaliyoti, real loyihalar, simulyatsion mashqlar – nazariy bilimlarni kasbiy kompetentlikka o‘zgartirishning asosiy vositasidir. Oliy ta’lim muassasalari va soha korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bu muammoni hal etishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, klaster tahlili natijalari differentsiyalashtirilgan yondashuvning zarurligini isbotladi. Turli psixologik profilga ega talabalar uchun individual ta’lim traektoriyalarini ishlab chiqish zamonaviy ta’lim texnologiyalari (adaptiv ta’lim) yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar istiqbolli ko‘rinadi: longitudinal tadqiqotlar orqali kasbiy kompetentlikning rivojlanish dinamikasini kuzatish; raqamli texnologiyalarning kasbiy kompetentlik rivojlanishiga ta'sirini o‘rganish; turli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazish.

Adabiyotlar:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: Freeman. 604 p.

2. Boyatzis, R. E. (1982). The competent manager: A model for effective performance. New York: Wiley. 308 p.

3. Braun, V., & Klark, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. Qualitative Research in Psychology, 3(2), 77–101.

4. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. Boston: D.C. Heath. 301 p.

5. Erpenbeck, J., & Rosenstiel, L. (2003). Handbuch Kompetenzmessung. Stuttgart: Schäffer-Poeschel. 892 s.

6. Markova, A. K. (1996). Psixologiya professionalizma. Moskva: Znanie. 308 s.

7. McClelland, D. C. (1973). Testing for competence rather than for intelligence. American Psychologist, 28(1), 1–14.

8. Musurmonova, N. (2015). O‘qituvchining kasbiy kompetentligi: milliy va zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan. 186 b.

9. Raven, J. (1984). Competence in modern society: Its identification, development and release. London: H.K. Lewis. 256 p.

10. Schön, D. A. (1987). Educating the reflective practitioner. San Francisco: Jossey-Bass. 355 p.

11. Sharipov, Sh. (2018). Oliy ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli. // Pedagogika, (4), 23–31.

12. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge: Harvard University Press. 159 p.

13. Хуторской, А. В. (2003). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. // Народное образование, (2), 58–64.

14. Зимняя, И. А. (2004). Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования. // Высшее образование сегодня, (5), 34–42.

15. O‘zbekiston Respublikasining 'Ta’lim to‘g'risida'gi Qonuni. (2020). Toshkent: Adolat.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALAR KASBIY TAYYORGARLIGIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xummamatova Kamola Xayrullayevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi,
xikmatilla2016@gmail.com
Ernazarova Nazira Xaqberdiyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchi,
ernazarovanazira71@gmail.com

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim muassasalarida ta’limda an’anaviy va masofaviy ta’lim oluvchilarga individual yondashuv masalalari tahlil qilingan. Oliy ta’lim muassasalarida kredit – modul tizimi sharoitida talabaning kasbiy tayyorgarligini individual yondashuv asosida rivojlantirishdagi mavjud muammolar o‘rganilgan va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim, masofaviy ta’lim, individual yondashuv, individual ta’lim traektoriyasi, individuallashtirish, kredit – modul tizimi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

В статье анализируются вопросы индивидуального подхода к традиционному и дистанционному обучению в образовательных учреждениях общего среднего и высшего образования. Изучены существующие проблемы развития профессиональной подготовки студентов высших учебных заведений в рамках кредитно-модульной системы на основе индивидуального подхода, и приведены рекомендации.

Ключевые слова: *общее среднее образование, высшее образование, дистанционное обучение, индивидуальный подход, траектория индивидуального обучения, индивидуализация, кредитно-модульная система.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF AN INDIVIDUAL APPROACH TO STUDENTS' PROFESSIONAL TRAINING IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

The article analyzes the issues of an individual approach to traditional and distance learning in educational institutions of general secondary and higher education. The existing problems of the development of professional training of students of higher educational institutions in the framework of the credit-modular system based on an individual approach are studied and recommendations are given.

Key words: *general secondary education, higher education, distance learning, individual approach, trajectory of individual education, individualization, credit-modular system.*

Kirish. Millatning intelektual salohiyatini rivojlantirish muhimligi sababli, oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi har doim pedagog olimlarning diqqat - e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Bundan tashqari, maktablar, litseylar, xususiy maktablar va boshqa ta’lim muassasalarining variativligi sharoitida ijtimoiy buyurtma spektrining kengayishi hisobiga oliy pedagogik ta’limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bu masalada pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shadigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan [2]. Bundan ko‘rinadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik jarayonining

asosiy vazifalaridan biri – bu talabani maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash bilan bog‘liq xilma - xil muammolarni hal qilishga tayyor mutaxassis qilib shakllantirishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi” da oliy ta’limni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida “Individual ta’lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, mustaqil ta’lim soatlari ulushini ortishi, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fiklash, tizimli tahlil, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayonini xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv – uslubiy materiallarni keng joriy etish” kabi bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar yechimi sifatida oliy ta’lim muassasalarida ta’limga individual yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Individual yondashuv (angl. individual approach) – bu muhim psixologo - pedagogik tamoyil bo‘lib, unga ko‘ra ta’lim oluvchilar bilan olib boriladigan o‘quv – tarbiyaviy ishlarda ularning har birining individual xususiyatlari e’tiborga olinadi.

Individual yondashuv quyidagi ikki nuqtai nazardan zarur bo‘lib hisoblanadi:

1) u ta’lim oluvchilar rivojlanishida individual o‘ziga xoslikni ta’minlaydi, ularda mavjud barcha qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradi;

2) ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari e’tiborga olinmagan pedagogik ta’sir ularga kutilayotganidan butunlay boshqacha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Pedagogik ta’sir har doim ta’lim oluvchining psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik ta’sirning xarakteri va samaradorligi nafaqat uning ob’ektiv xususiyatlari, balki ta’lim oluvchi uni qanday qabul qilishi bilan ham aniqlanadi [3].

Pedagogik jarayonlarda individual yondashuv ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini, shuningdek tarbiyalash va o‘qitish metodlarining o‘zgaruvchanligini, o‘quv jarayonini tashkil etishning maxsus shakllarini hisobga olishni taqazo etadi. Bundan tashqari, uni amalga oshirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘quvchilarning individual xususiyatlarini bilishi va ularni doimiy ravishda o‘rganib borish qobiliyatiga bog‘liq. Bundan ko‘rinib turadiki, o‘qitishda individual yondashuv har bir ta’lim oluvchining individualligiga darslarda samarali e’tibor berishni, o‘qitishning frontal, guruhli va individual shakllarining oqilona kombinatsiyasidan samarali foydalanishni nazarda tutiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida individual yondashuv nafaqat sust o‘zlashtiruvchi talabalar, balki yaxshi o‘zlashtiradigan talabalarga ham zarur. Buning natijasida ular o‘zlarining qobiliyatlariga qarab o‘qish traektoriyasini tanlaydi, o‘zlarining qiziqishi ko‘lamini, bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish va chuqurlashtirishga erishadilar.

Ta’limga individual yondashuv va o‘qitishni individuallashtirish muammolari bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot olib borilgan. Masalan, M.K.Akimova va V.P.Kozlovyovlarning fikricha individual yondashuv bir – biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hamda vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan siklni ifodalovchi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: har bir talabani muntazam ravishda o‘rganish; har bir talaba bilan ishlashda navbatdagi pedagogik vazifalarni belgilash; eng samarali vositalarni tanlash va qo‘llash, talabaga individual yondashish; olingan natijalarni aniqlash va tahlil qilish; yangi pedagogik vazifalarni belgilash [4].

Maktabda turli fanlar misolida o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi olimlar tadqiqot olib borishgan: R.Z. Xaydarov ishlarida tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuvning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish masalasi qaralgan [5]; Daniela Căprioară, Virgil Frunză tadqiqotida matematika darslarida o‘quv faoliyatini tashkil qilishga individual yondashuv orqali qanday yaxshi natijalarga erishish mumkinligi o‘rganilgan [6]; S.R.Sakayeva tadqiqotida esa musiqa maktablarida solfedjio darslarida individual yondashuv qaralgan [7]; G.A.Krichek tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa matematika darslarida o‘qitishni darajali differentsiallash orqali o‘quvchilarga individual yondashuvning asosiy shakllari va metodlari aniqlangan [8]; K.E.Ketoev maktabda jismoniy madaniyat fanini o‘qitishni individuallashtirishning ilmiy-pedagogik shartlarini aniqlagan [9].

Masofaviy ta’limda individual yondashuv masalasi bo‘yicha T.A.Fadeeva, S.N.Tregubova, G.M.Kuleshova va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [10,11,12]. T.A.Fadeeva tadqiqotlarida pedagogik amaliyotda individual yondashuv mohiyati ochib berilgan, talabalarni kasbiy tayyorlashda individual yondashuvni amalga oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. S.N.Tregubova maktab o‘quvchilariga individual yondashuvni amalga oshirish vositasi sifatida matematikani o‘qitishda masofaviy va an’anaviy usullardan majmuaviy foydalanish imkoniyatlarini aniqlagan, G.M.Kuleshova tadqiqotida esa, “Individual ta’lim traektoriyasi” tushunchasining mazmuni kengaytirilgan, masofaviy o‘qitish sharoitida uning o‘ziga xosligi va asosiy xususiyatlari tavsiflangan, masofaviy o‘qitishda talabaning “individual ta’lim traektoriyasini” tashkil etish va amalga oshirish shartlari aniqlangan.

Oliy ta’limda o‘qitishda individual yondashuv muammolari bilan T.V.Burlakov, Y.K.Lebedyeva, E.I.Korotkov, V.F.Koshelev, A.E.Naumova, X.B.Tuxtaxo‘jayev va boshqalar shug‘ullanishgan [13,14,15,16,17,18]. T.V.Burlakov pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini individuallashtirishga variativ-refleksiv yondashuv masalasini qaragan. Variativ-refleksiv yondashuv asos sifatida “... o‘quv jarayoni mazmuni va shakllarini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish, uning individualligini rivojlantirish maqsadida pedagogik yordam berish” ni o‘z ichiga oladi. Bu o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishga asoslangan ta’limni individuallashtirishga mavjud bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirmaydi. Yu.K.Lebedeva ishlarida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida individual yondashuvning mohiyati aniqlangan va uning kontseptual apparati shakllantirilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda individual yondashuv samaradorligini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar majmui aniqlangan. P.P.Dyachuk tadqiqotida oliy ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sharoitida talabalarga matematikani individuallashtirishning kontseptsual asoslari va usullarini asoslash hamda rivojlantirish, ularning matematik tayyorgarligi sifatini oshirishga hissa qo‘shishadigan tajriba ishlarida ularning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. V.F.Koshelev va A.E.Naumovalar fikriga ko‘ra, har bir talaba uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga imkon beradigan maxsus topshiriqlarni bajarish, o‘quvchilarning taklif va fikrlarini, shuningdek, talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorligini tashxisi natijalarini hisobga olgan holda, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar amaliyoti dasturiga kiritish kerak. X.B.Tuxtaxo‘jayev tadqiqotida esa jismoniy madaniyat jarayonida ta’limni individuallashtirish asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv faoliyatida talabalarda jismoniy harakat faolligiga oid motivatsiyasini rivojlantirish, jismoniy madaniyat mutaxassislarining kasbiy kompetentligini (ishchanlik, harakatchanlik o‘z-o‘zini anglash, bilim, tajriba, xabardorlik qobiliyatlari) shakllantirishda individual yondashuv asosida takomillashtirish masalasi o‘rganilgan.

A.A.Raximovning tadqiqotlarida esa, kredit-modul tizimi sharoitida oliy matematika fanidan talabalarni o‘qitishni individuallashtirish usullari asoslangan, kredit – modul tizimida texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishda individuallashtirish jarayoni samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari va shartlari ishlab chiqilgan [19].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi o‘rganilgan tadqiqotlar tahlillaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ta’kidlashimiz mumkin:

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitishga individual yondashuvni joriy etish quyidagi afzalliklarga ega:

a) individual yondashuv har bir talabaga o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim olish imkonini beradi. Berilgan bilimlarni tez qabul qila oladigan talabalarga ham individual yondashuv zarur. Buning uchun esa, ularga boshqa talabalarga nisbatan qiyin va murakkab xarakterdagi qo‘shimcha topshiriqlar berilishi kerak. Natijada bu talabalar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan talabalarga yordam beradilar;

b) bu yondashuv talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni tezda aniqlashga imkon beradi, shuningdek ularni bartaraf qilishga olib keladigan mashqlarni taklif qiladi, talabalar egallashi kerak bo‘lgan bilimlarni tushunish jarayonlarini yaxshilaydi va zamonaviy oliy ta’lim muassasalar sharoitida ushbu yondashuv axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida osonlashadi, chunki u o‘qitishni osonlashtiradi;

d) bunday yondashuv talabalarni rag‘batlantirishga imkon beradi. Chunki, ular o‘zlarining imkoniyatlariga mos keladigan vazifalarni tanlashlari mumkin bo‘ladi;

e) agar yaxshiroq o‘zlashtiradigan talabalarga mustaqil topshiriqlar berilsa, u holda o‘qituvchi o‘zlashtirishi o‘rtacha bo‘lgan va uning yordamiga ehtiyoji bor talabalar bilan ko‘proq ishlay olishi mumkin. Bu yondashuv talabalarni boshqarish jarayonini ham to‘g‘ri tashkil qilishga imkon beradi.

2. Shuning bilan birgalikda u quyidagi kamchiliklarga ham ega:

a) o‘qitish vositalarining yetishmasligi o‘quv jarayonini individuallashtirish va differentsiallashda ma’lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi;

b) optimal tashkil etilmagan individual faoliyat salbiy natijalarga, masalan guruhdagi talabalarning bir - biriga yordam berishi tufayli yaxshi natija bermasligi va yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

3. Individual topshiriqlardan foydalanish o‘qituvchiga har bir ta’lim oluvchining rivojlanish dinamikasini o‘rganishga va uning individual ishi uchun aniq bir vazifalar tizimini shakllantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi guruhdagi talabalarning (sinfdagi o‘quvchilarning) individual xususiyatlarini va ular bilan ishlashni tashkil qilish, individual ishlarni bajarish jarayonida har bir talabaga individual yondashuvni shakllantirish uchun individual xususiyatlarni o‘rganishning asosiy metodlarni bilishi kerak.

4. Darsni individuallashtirish o‘quv ishlarini uning xususiyatlari va imkoniyatlariga, mustaqil ishlarni bajarishda talabalarning rivojlanish darajasiga muvofiq tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, o‘quvchilarda individual o‘quv uslubi, o‘ziga xos aktyorlik mahoratini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv jarayoni talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maksimal sharoitlarni yaratishi kerak, shunda bu jarayon haqiqatdan ham ijobiy bo‘ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zamonaviy davrga xos bo‘lgan muammolarni aniqlamasdan turib, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali kasbiy faoliyatga tayyorlash mumkin emas. Bunday muammolar sirasiga quyidagilar kiradi: oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan 1 – kurs talabalarining maktabdagi tayyorgarlik darajasi turli - tumanligi; talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllantirilmaganligi; tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermasligi; oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayonida talabaning individual saloxiyatini rivojlantirish va amalga oshirishning pedagogik shart – sharoitlari va moddiy - texnik ba’zasining yetarli emasligi; ta’limning yangi shakli, ya’ni kredit – modul tizimining kirib kelishi; kredit – modul tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga individual yondashuvning pedagogik va psixologik asoslari yetarli darajada o‘rganilmaganligi; kredit – modul tizimida zamonaviy pedagogik ta’limning haqiqiy mazmuni va talabalarning kasbiy tayyorgarligiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarga mos emasligi; kredit – modul tizimida o‘qitishda individual yondashuvning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish amaliyotda yetarli darajada o‘rganilmaganligi va boshqalar.

Kredit – modul tizimi oliy ta’lim muassasalarida ta’limni individuallashtirish talabalarning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini ko‘rish va ularning imkoniyatlari va qobiliyatlari asosida ta’lim jarayonini qurishdir.

Ta’limning kredit – modul tizimi sharoitida auditoriyada ishlash xajmining qisqarishi talabaning mustaqil ishi ahamiyati va sifatini bevosita oshiradi. Agar an’anaviy ta’lim tizimida u o‘quv kursi umumiy yuklamasining uchdan bir qismini tashkil etgan bo‘lsa, kredit – modul tizimida uchdan ikki qismni tashkil etadi. Shu sababli, kredit – modul tizimida talabaning mustaqil ishi ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF - 5847- son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi” da oliy ta’lim jarayonlariga kredit-modul tizimini joriy yetish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Bunga ko‘ra mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 fozi 2030- yilgacha boqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan [1]. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta’lim muassasalar kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi va bu talabalarni o‘qitishda yangicha yondashuvni talab qiladi. Bunda ayniqsa, mustaqil faoliyat va bu faoliyatda ta’limni tashkil etishga individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldida zamonaviy talablarning barcha turlariga javob beradigan mutaxassisni, xususan bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish vazifasi turibdi.

Bu muammolarni yechimi esa, kredit – modul tizimida individual yondashuvning mazmuni va mohiyatini hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart – sharoitlarini aniqlash, talabaning kasbiy tayyorgarligini individual yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi bir qator vazifalarni hal etishni taqazo etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishga individual yondashuv – ta’lim oluvchi shaxsiga, uning individualligiga, o‘qitishning shakl va metodlarini erkin tanlashga mo‘ljal olishni ko‘zda tutadi.

Ammo, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talabaning shaxsiy imkoniyatini rivojlantirishga yetarli e’tibor berilmayapti, ularning har birining ehtiyojlari va qiziqishlari inobatga olinmayapti, individual xususiyatlariga e’tibor qaratilmayapti. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarning shaxsiy o‘sish istiqbolini

va ularning rivojlanish traektoriyasini shakllantirishga imkon bermaydi hamda zaruriy pedagogik vositalar va shakllarni izlab topishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, PF-5847- son Farmoni, lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PQ-4623-son qarori, lex.uz
3. Психолого-педагогический словарь. Сост. Рапацевич Е.С. – Минск, 2006.
4. Акимова М.К., Козлова В.П. Индивидуальность учащихся и индивидуальный подход. – М., 2002.
5. Xaydarov R.Z. Tasvioiy san’at darslarida o‘quvchilarga individual yondashuvning ilmiy – metodik asoslari: ped. fan. bo‘yicha fal. doktori (RhD) diss. avtoreferati – Toshkent., 2020.
6. Daniela Căprioară, Virgil Frunză, (2013). Differentiation and Individualization in the Organization of the Teaching-Learning Activities in Mathematics. Procedia - Social and Behavioral Sciences 93 (2013) 2063 – 2067.
7. Сакаева С.Р. Индивидуальный подход к учащемуся в условиях групповых занятий: дис. ... канд. пед. наук. - Москва, 2005.
8. Кричек Г.А. Индивидуальный подход к учащимся при уровневой дифференциации изучения темы “Неравенства” в курсе алгебры основной школы: автореф. дис. ... канд. наук. – Тольятти, 2002.
9. Кетоев К.Э. Индивидуальный подход к развитию физической культуры подростков: автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Владикавказ, 2006.
10. Фадеева Т.А. Реализация индивидуального подхода в условиях дистанционного образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Челябинск, 2003.
11. Трегубова С.Н. Комплексное применение дистанционных и традиционных методов обучения математике учащихся старшей школы как средство реализации индивидуального подхода: автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Пермь, 2005.
12. Кулешова Г.М. Содержание и организация индивидуальной деятельности учащихся в дистанционном обучении: автореф. дис. ... канд. пед. наук: – Москва, 2009.
13. Бурлаков Т.Б. Индивидуализация профессиональной подготовки студентов в педагогическом вузе: автореф. дис. … д-ра. пед. наук. – Ярославь, 2009.
14. Лебедева Ю.К. Индивидуальный подход в обучении студентов - будущих учителей в педагогическом вузе: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Шуйс, 2011.
15. Кошелев В.Ф. Педагогические условия индивидуализации обучения студентов в процессе профессиональной подготовки: автореф. дис.... канд. пед. наук. – Сходня, 2001.
16. Наумова А.Е. Индивидуализация профессионально-педагогической подготовки студентов педагогических вузов на завершающем этапе обучения: В условиях многоуровневой системы образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ярославль, 2000.
17. Tuxtaxo‘jayev X.B. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalar ta’limini individuallashtirish (jismoniy tarbiya misolida): avtoref. dis. ... ped. fan. bo‘yicha fal. doktori (Ph D) – Chirchiq, 2018.
18. Рахимов А.А. Методика организации индивидуальных работ студентов по математике в условиях кредитного обучения в техническом вузе: дис. … канд.пед.наук. – Худжанд, 2019.

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING XORIJIY TILDA OG‘ZAKI NUTQ FAOLIYATIGA MOTIVATSIYASI: PSIXOLOGIK NAZARIYALAR TAHLILI VA INGLIZ TILI TA’LIMIGA TATBIQI

Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
moon752_light@mail.ru

Ushbu maqola o‘smir yoshdagi o‘quvchilar (12-16 yosh) ingliz tilida og‘zaki gapirishga bo‘lgan motivatsiyasini psixologik nazariyalar nuqtai nazaridan o‘rganadi. Bunda to‘rtta yirik nazariya tahlil qilinadi:A. Maslow ning ehtiyojlar ierarxiyasi, E. Deci va R. Ryan ning O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (SDT), Z. Dörnyei ning L2 Motivatsional O‘z-o‘zi Tizimi (L2MSS) va S. Krashen ning affektiv filtr gipotezasi. Maqola o‘smir yoshining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari - shaxs identifikatsiyasining shakllanishi, tengdoshlar ta’siri va xatoga yuqori sezgirlik - ingliz tilidagi og‘zaki nutq motivatsiyasiga qanday hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Xulosada ingliz tili o‘qituvchilari uchun amaliy metodologik tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *o‘smir psixologiyasi, xorijiy til motivatsiyasi, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, L2 motivatsional o‘z-o‘zi tizimi, affektiv filtr, ichki motivatsiya, shaxs identifikatsiyasi, kommunikativ kompetentlik, ingliz tili o‘qitish, og‘zaki nutq faolligi.*

МОТИВАЦИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ: АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Данная статья посвящена изучению мотивации к устной речи на английском языке среди учащихся подросткового возраста (12-16 лет) через призму психологических теорий. В статье анализируются четыре ключевые теории: иерархия потребностей А. Маслоу, теория самодетерминации (SDT) Э. Деси и Р. Райана, система мотивационного “Я” в изучении второго языка (L2MSS) З. Дёрньеи, а также гипотеза аффективного фильтра С. Крашена. В статье обосновывается, каким образом характерные психологические особенности подросткового возраста - формирование идентичности личности, влияние группы сверстников и повышенная чувствительность к ошибкам - оказывают определяющее воздействие на мотивацию к устной речи на английском языке. В заключение приводятся практические методологические рекомендации для преподавателей английского языка.

Ключевые слова: *психология подростка, мотивация к изучению иностранного языка, теория самодетерминации, система мотивационного «Я» в изучении второго языка, аффективный фильтр, внутренняя мотивация, формирование идентичности личности, коммуникативная компетентность, преподавание английского языка, речевая активность.*

MOTIVATION FOR FOREIGN LANGUAGE SPEAKING ACTIVITY AMONG ADOLESCENT LEARNERS: ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL THEORIES AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

This article examines the motivation of adolescent learners (ages 12-16) to speak English from the perspective of psychological theories. It analyzes four major theories: A. Maslow's hierarchy of needs, E. Deci and R. Ryan's Self-Determination Theory (SDT), Z. Dörnyei's L2 Motivational Self System (L2MSS), and S. Krashen's affective filter hypothesis. The article explains how the unique psychological characteristics of adolescence—such as the formation of personal identity, peer influence, and high sensitivity to error—have a decisive impact on the motivation for oral communication in English. The conclusion provides practical methodological recommendations for English language teachers.

Keywords: *adolescent psychology, foreign language motivation, self-determination theory, L2 motivational self system, affective filter, intrinsic motivation, personal identity, communicative competence, English language teaching, speaking practice.*

Kirish. Xorijiy til o‘qitish metodikasida motivatsiya muammosi uzoq yillardan beri tadqiqotchilar diqqatini tortib kelgan. R. Gardner va W. Lambert (1972) ning integrativ va instrumental motivatsiya g‘oyasidan zamonaviy dinamik tizimlar nazariyasigacha bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlar bu masalaning murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi [1]. Shu bilan birga, tadqiqotchilar motivatsiyani o‘rganishda yosh omili, ayniqsa o‘smir yoshining xususiyatlari yetarlicha e’tibor olmaganligini qayta-qayta ta’kidlaydi [2].

O‘smir yoshi (12-16 yosh) - shaxs rivojlanishining eng ziddiyatli va murakkab davri. E. Erikson (1968) o‘z nazariyasida bu davrni “identifikatsiya - rollar chalkashligi” inqirozi bilan ta’riflaydi: o‘smir o‘zining “kim ekani”ni anglash uchun turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, tengdoshlarining bahosi esa uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi [3]. Aynan shu psixologik holat ingliz tilidagi og‘zaki nutqqa bevosita ta’sir ko‘rsatadi: o‘smir uchun xato qilish faqat bilmayotganlik emas, balki tengdoshlari oldida “yuz yo‘qotish” xavfi ham demakdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda neyropedagogika sohasidagi tadqiqotlar (Blakemore, 2018; Choudhury va boshq. 2006) o‘smir miyasida ijtimoiy-hissiy javoblar uchun mas’ul bo‘lgan amigdala va prefrontal korteks o‘rtasidagi nozik muvozanat haqida muhim ma’lumotlar bermoqda. Bu biologik holat o‘smir o‘quvchining xorijiy tildagi og‘zaki nutqqa bo‘lgan munosabatini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi [13]. O‘zbekiston maktablarida, ayniqsa 6-10-sinflarda, ingliz tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki faolligini oshirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ko‘pchilik o‘quvchilar grammatika va leksikani bilishlariga qaramay, gapirishdan qo‘rqish, tortinish va motivatsiya yo‘qligidan aziyat chekmoqdalar.

Ushbu maqolaning maqsadi - o‘smir yoshining psixologik xususiyatlari va ingliz tilidagi og‘zaki nutq motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘rtta yetakchi psixologik nazariya asosida ko‘rsatib berish hamda olingan xulosalarni ingliz tili o‘qitish amaliyotiga tatbiq etishdir. Tahlil qilinadigan nazariyalar: Maslow ning ehtiyojlar ierarxiyasi, O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (SDT), L2 motivatsional o‘z-o‘zi tizimi (L2MSS) va Krashen ning affektiv filtr gipotezasi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola nazariy tadqiqot bo‘lib, uning metodologik asosini qiyosiy-tahliliy, tizimli-struktural va germenevtik yondashuvlar tashkil etadi. So‘nggi 20 yil ichida psixologiya, pedagogika va til o‘qitish metodikasi sohalarida chop etilgan manbalarning tanqidiy sharhi asosiy tadqiqot metodi sifatida qo‘llanildi. Manbalar tanlashda uchta mezon asos bo‘ldi: o‘smir yoshiga bevosita aloqadorligi; motivatsiya yoki affektiv omillar bilan bog‘liqligi; hamda nazariy asoslanganligi va xalqaro ilmiy indekslarga kiritilganligi. Manbalar Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridan, shuningdek til ta’limi psixologiyasi bo‘yicha nufuzli monografiyalardan tanlandi.

Asosiy nazariy tahlil va muhokama. A. Maslow (1943) inson ehtiyojlarini beshta bosqichli piramida shaklida tasvirlagan: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik, mansublik va sevgi, hurmat va e’tirof, va eng yuqori bosqich - o‘z-o‘zini namoyon etish [4]. Bu nazariyani ingliz tili o‘quvchisi o‘smiriga qo‘llasak, bir qator muhim pedagogik xulosalar chiqarish mumkin.

Mansublik ehtiyoji - Maslow piramidasining uchinchi bosqichi - o‘smirda ayniqsa kuchli bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir sinfda o‘zini guruh a’zosi, qabul qilingan va himoyalangan his qilmasa, ingliz tilidagi erkin og‘zaki nutq to‘liq faollashmaydi [5]. Buning sababi oddiy: mansublik ehtiyoji qondirilmagan o‘smir doimiy “ijtimoiy tahdid” holatida bo‘lib, o‘zini himoya qilishga kuch sarflaydi - o‘qishga emas. Bu o‘qituvchi uchun muhim xulosa: dars muhitining hissiy iqlimi o‘quv materialining qiyinlik darajasidan kam ahamiyatli emas.

Hurmat va e’tirof ehtiyoji o‘smirda ikki tomonlama namoyon bo‘ladi: tashqi - boshqalar tomonidan qabul qilinish va maqtanish va ichki - o‘zini hurmat qilish. Ingliz tilida xato qilinganda tengdoshlarning munosabati - masxara yoki qo‘llab-quvvatlash ushbu ehtiyojning qondirilishini belgilaydi [6]. Xatoning kulgi obyektiga aylanishi o‘smirda og‘zaki nutqdan tezda chekinish holatini, ya’ni motivatsiyaning keskin pasayishini keltirib chiqaradi.

O‘z-o‘zini namoyon etish ehtiyoji - piramidaning cho‘qqisi - o‘smirda ijodiy o‘z-o‘zini ifoda qilish orqali ko‘rinadi. Ingliz tili darslarida rolli o‘yinlar, ijodiy yozuv va taqdimotlar ushbu ehtiyojni qondiruvchi samarali vositalar bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Natijada o‘smir ingliz tilidagi og‘zaki nutqni majburiy vazifa sifatida emas, o‘zini ifodalash imkoniyati sifatida his eta boshlaydi.

E. Deci va R. Ryan (1985, 2000) tomonidan ishlab chiqilgan O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (SDT) motivatsiyani bir o‘lchamli narsa sifatida emas, balki uchta asosiy psixologik ehtiyojning qondirilish darajasiga bog‘liq spektr sifatida ko‘radi: avtonomiya (o‘z qarorlarining egasi bo‘lish), kompetentlik (o‘z qobiliyatiga ishonch) va aloqadorlik (boshqalar bilan munosabat o‘rnatish) [7].

Avtonomiya ehtiyoji o‘smir yoshida alohida kuchayadi, chunki bu davrda o‘smir tashqi nazoratdan mustaqillikka intiladi. SDT nuqtai nazaridan: agar ingliz tili darsida o‘quvchi faqat nazorat va majburiyat his qilsa - u tashqi motivatsiyaga tayanadi; agar faoliyatda mustaqil tanlov va shaxsiy mazmun his qilsa - ichki

motivatsiya uyg‘onadi. Ichki motivatsiyaning nutq ko‘nikmasi rivojiga ta’siri tashqi motivatsiyaga qaraganda sifat jihatdan ancha yuqori ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan [8]. Amaliy jihatdan, o‘quvchilarga suhbat mavzusini o‘zlari tanlash imkoniyatini berish, ular uchun mazmunli bo‘lgan muloqot vaziyatlarini yaratish - avtonomiyani qo‘llashning eng oddiy va samarali yo‘lidir.

Kompetentlik ehtiyoji - o‘z qobiliyatiga ishonch va samarali harakat hissi - ingliz tilidagi og‘zaki nutq kontekstida ayniqsa muhim. O‘smir ingliz tilida gapirishda o‘zini “yaxshi” his qilmasa, nutq faolligi pasayadi. Pedagogik jihatdan, vazifalarning qiyinlik darajasi o‘quvchining haqiqiy imkoniyat zonasiga - Vygotskiy (1978) ning yaqin rivojlanish zonasiga - to‘g‘ri kelishi kerak. Bu holat Csikszentmihalyi (1990) ning “oqim holati” (flow state) tushunchasi bilan ham uyg‘un. Vazifa na juda oson, na juda qiyin bo‘lganda o‘quvchi optimal motivatsiya holatiga tushadi [9].

Aloqadorlik ehtiyoji - boshqalar bilan bog‘lanish istagi - ingliz tili darsida o‘quvchi-o‘qituvchi va o‘quvchi-o‘quvchi munosabatlarining sifatiga bog‘liq. O‘smir guruhda o‘zini tabiiy his qilganda, ingliz tilidagi muloqotga bo‘lgan psixologik to‘siqlari kamayadi va og‘zaki faollik oshadi [7]. Juftlik va guruh ishi aloqadorlik ehtiyojini qondirishning eng samarali pedagogik vositasidir.

Noels va hamkasblari (2001, 2003) ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining muloqot uslubi - avtonomiyani qo‘llovchi yoki nazoratchi - o‘quvchining ichki motivatsiyasi va og‘zaki nutq faolligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi [8]. Nazoratchi uslub ayniqsa o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda qarshilik reaksiyasini uyg‘otishi mumkin - natijada o‘quvchi darsdan mutlaqo uzilib qoladi.

Z. Dörnyei (2005, 2009) ning L2 Motivatsional O‘z-o‘zi Tizimi zamonaviy til o‘qitish psixologiyasidagi eng nufuzli nazariyalardan biri. Nazariya Markus va Nurius (1986) ning “mumkin bo‘lgan o‘z-o‘zi” kontseptsiyasiga asoslanib, til o‘rganuvchining identifikatsiyasi va motivatsiyasini o‘zaro bog‘liq tarzda ko‘radi. Nazariya uchta komponentdan tuzilgan: ideal L2 o‘z-o‘zi, zaruriy L2 o‘z-o‘zi va L2 ta’lim tajribasi [10]. Ideal L2 o‘z-o‘zi - o‘quvchining ingliz tilida erkin va bemalol gapira oladigan kelajakdagi o‘ziga doir yorqin tasavvuri - motivatsiyaning eng kuchli manbai hisoblanadi. O‘smir bu “ideal obrazni” o‘z identifikatsiyasining bir qismi sifatida his qilganda, ingliz tilidagi og‘zaki nutq faolligi o‘z-o‘zidan kuchayadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ideal L2 o‘z-o‘zining ravshanligi va shaxsga yaqinligi darsda og‘zaki ishtirokni bevosita belgilaydi [11]. You va Dörnyei (2016) Xitoyda o‘tkazgan keng qamrovli tadqiqotida ideal L2 o‘z-o‘zi va til o‘rganish faolligi o‘rtasida muhim korrelyatsiya aniqlangan. Zaruriy L2 o‘z-o‘zi - tashqi talablar, ota-ona yoki jamiyat kutganlari asosida shakllangan majburiyat hissi - o‘smirda ko‘pincha tashqi motivatsiya shaklida namoyon bo‘ladi. Dörnyeining kuzatuvlariga ko‘ra, zaruriy L2 o‘z-o‘ziga ko‘proq tayangan ta’lim muhitlari o‘quvchilarning instrumental motivatsiyasini qo‘llasada, muloqotga riskga tayyor bo‘lishini (WTC - Willingness to Communicate) pasaytiradi [10]. O‘smir kontekstida bu muhim: ota-onaning “imtihonda yaxshi baho ol” talabi og‘zaki faollikni emas, balki grammatika va yozuvga yo‘naltirilgan tashqi motivatsiyani kuchaytiradi. L2 ta’lim tajribasi komponenti dars jarayonidagi ijobiy kechinmalar, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan munosabat sifatini aks ettiradi. Dörnyei va Ushioda (2011) ta’kidlaganidek, ijobiy dars tajribasi ideal L2 o‘z-o‘zini mustahkamlaydi, salbiy tajribalar esa uni susaytiradi [2]. Ingliz tili o‘qituvchisi darsga tasavvur mashqlarini (visualization exercises), jonli muloqot imkoniyatlarini va rolli o‘yinlarni kiritishi motivatsiyaga uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

S. Krashen (1982, 1987) ning Affektiv Filtr Gipotezasi ikkinchi tilni o‘zlashtirish (SLA) nazariyasining muhim qismi bo‘lib, hissiy-psixologik omillarning til o‘rganishdagi rolini tushuntiradi. Nazariyaga ko‘ra, yuqori affektiv to‘siq - tashvish, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik - tushunilishi mumkin bo‘lgan til kirishini (comprehensible input) kognitiv qayta ishlashga to‘sqinlik qiladigan psixologik “filtrga” aylanadi [12]. Boshqacha qilib aytganda, hissiy to‘siq qanchalik baland bo‘lsa, tilni o‘zlashtirish jarayoni shunchalik sekinlashadi.

O‘smir yoshida affektiv to‘siqning nisbatan baland bo‘lishi biologik va ijtimoiy sabablarga ega. Neyroilm tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, pubertat davrida o‘smir miyasining prefrontal korteksi - ijtimoiy baholashni boshqaruvchi soha - o‘ta sezuvchan holatda bo‘ladi; tengdoshlarning salbiy baholashidan qo‘rqish bu davrda kattalar yoki bolalarga nisbatan neyrobiologik jihatdan kuchliroq namoyon bo‘ladi [13]. Gormal o‘zgarishlar va ijtimoiy muhitning kuchaygan bosimi - barchasi o‘smir affektiv to‘sig‘ini ko‘taradi. Natijada, ingliz tilida og‘zaki nutq faoliyatini talab qiladigan topshiriqlar o‘smirda boshqa yosh guruhlarga nisbatan tezroq va kuchliroq tashvish uyg‘otadi. Til o‘rganish tashvishi haqidagi bir qator tadqiqotlar (Horwitz, Horwitz va Cope, 1986; MacIntyre va Gardner, 1994) shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutq tashvishi boshqa til ko‘nikmalariga nisbatan ancha yaqqol namoyon bo‘ladi - bu Krashen nazariyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Bu nazariy xulosa pedagogik amaliyot uchun ikki yo‘nalishda muhim. Birinchidan, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan psixologik xavfsiz muhit affektiv filterni pasaytiradi va o‘quvchi til kirishini yanada samarali o‘zlashtirishiga imkon beradi. Ikkinchidan, xatolarni tuzatish usuli o‘smir yoshiga mos taktikani

talab qiladi: ochiq va bevosita tuzatish (explicit correction) ko‘pincha affektiv filterni yanada oshiradi, recasting - ya’ni yopiq tuzatish - esa filterni pasaytirgan holda o‘quvchiga xatoni o‘zi anglab olishiga yordam beradi [5]. Lyster va Ranta (1997) ning tadqiqoti recasting texnikasining o‘smir o‘quvchilarda eng samarali tuzatish usuli ekanini ko‘rsatgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ko‘rib chiqilgan to‘rtta nazariya o‘smir yoshidagi ingliz tili o‘quvchisi motivatsiyasini har biri o‘z rakursidan yoritadi va o‘zaro to‘ldiradi. Maslow asosiy ehtiyojlar ierarxiyasini ko‘rsatsa, SDT motivatsiyaning dinamik tabiatini va avtonomiyaning markaziy rolini ochib beradi. Dörnyei ning L2MSS nazariyasi motivatsiyani shaxs identifikatsiyasi bilan bog‘lab, o‘smir uchun alohida muhim bo‘lgan “kelajakdagi o‘z-o‘zi” tushunchasini kiritadi. Krashen ning affektiv filtr gipotezasi esa biologik va hissiy omillarning tilni o‘zlashtirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini tushuntiradi. Pedagogik amaliyotda bu nazariyalar bir-birini to‘ldirib ishlatilishi mumkin: psixologik xavfsizlikni ta’minlash (Maslow + Krashen), avtonomiya va kompetentlikni qo‘llash (SDT), hamda ideal L2 o‘z-o‘zini rivojlantirish (L2MSS) birgalikda o‘smir o‘quvchida barqaror og‘zaki nutq motivatsiyasini shakllantiradi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Motivatsiya ko‘p qirrali hodisa. O‘smir yoshdagi ingliz tili o‘quvchisining og‘zaki nutq motivatsiyasini bitta omil bilan izohlash mumkin emas. U psixologik, ijtimoiy, biologik va identifikatsion omillarning o‘zaro ta’siridan tarkib topadi. Ko‘rib chiqilgan to‘rtta nazariya ushbu tizimning turli qirralarini bir-birini to‘ldirib tasvirlaydi.

O‘smir yoshining o‘ziga xosligi. Identifikatsiya inqirozi, tengdoshlar guruhi ta’siri va neyrobiologik jihatdan kuchaygan ijtimoiy sezgirlik o‘smirni ingliz tilidagi og‘zaki nutqqa nisbatan boshqa yosh guruhlaridan farqli psixologik subyektga aylantiradi. Shuning uchun o‘smirlarga mo‘ljallangan ingliz tili o‘qitish metodikasi albatta ularning yosh psixologiyasiga asoslanishi lozim.

Ta’lim muhitining hal qiluvchi ahamiyati. Tahlil qilingan barcha nazariyalar pedagogik muhitning motivatsiyaga ta’sirini asosiy omil sifatida belgilaydi. Ingliz tili darsida psixologik xavfsizlik, hurmat va avtonomiyani ta’minlash - bu faqat metodologik masala emas, balki psixologik zaruriyatdir.

Amaliy tavsiyalar:

1. Ideal L2 o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tasavvur mashqlarini darsga kiritish;
2. Recasting texnikasini asosiy xatolarni tuzatish usuli sifatida qo‘llash;
3. O‘quvchilarga mavzu va shaklni tanlashda avtonomiya berish;
4. Guruhiy hamkorlik faoliyatini aloqadorlik ehtiyojini qondirish vositasi sifatida keng qo‘llash;
5. Vazifalar qiyinligini o‘quvchining haqiqiy kompetentlik zonasiga moslash;
6. Sinfda psixologik xavfsizlik normalarini o‘rnatish va kuzatib borish;
7. O‘quvchilarning kuchli tomonlariga asoslangan ijobiy qayta aloqani ustuvor qilish.

Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu nazariy xulosalarni O‘zbekiston maktab amaliyotida empirik sinash, shuningdek loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) metodining o‘smir motivatsiyasiga ta’sirini ko‘rib chiqilgan nazariy konstruktlar orqali o‘rganish muhim ilmiy istiqbol sifatida belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Gardner R.C., Lambert W.E. Attitudes and Motivation in Second Language Learning. - Rowley: Newbury House Publishers, 1972. - 316 b.

2. Dörnyei Z., Ryan S. The Psychology of the Language Learner Revisited. - New York: Routledge, 2015. - 258 b.

3. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. - New York: W.W. Norton & Company, 1968. - 336 b.

4. Maslow A.H. A Theory of Human Motivation. Psychological Review. 1943. - Vol. 50 (4). - B. 370–396.

5. MacIntyre P.D., Gregersen T. Emotions that facilitate language learning. Studies in Second Language Learning and Teaching. - 2012. - Vol. 2(2). - B. 193-213.

6. Harter S. The Construction of the Self: Developmental and Sociocultural Foundations. - 2nd ed. - New York: Guilford Press, 2012. - 422 b.

7. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. - New York: Plenum Press, 1985. - 371 b.

8. Noels K.A. Learning Spanish as a second language: Learners’ orientations and perceptions of their teachers’ communicative style. Language Learning. - 2001. - Vol. 51 (1). - B. 107-144.

9. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. - New York: Harper & Row, 1990. - 303 b.

10. Dörnyei Z. The Psychology of Second Language Acquisition. - Oxford: Oxford University Press, 2009. - 339 b.

11. You C., Dörnyei Z. Language learning motivation in China. Applied Linguistics. - 2016. - Vol. 37 (4). - B. 495-519.

12. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press, 1982. - 202 b.

13. Blakemore S.J. Inventing Ourselves: The Secret Life of the Teenage Brain. New York: PublicAffairs, 2018. - 256 b.

14. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign language classroom anxiety. Modern Language Journal. 1986. Vol. 70 (2). B. 125-132.

15. Vygotsky L.S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978. -159 b.

16. Lyster R., Ranta L. Corrective feedback and learner uptake. Studies in Second Language Acquisition. 1997.B. 37–66.

17. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. 2nd ed. Harlow: Pearson Longman, 2011. - 326 b.

UO‘K 378.147.88:62-051:005.336.2

TALABALARNING INNOVATSION MUHANDISLIK FAOLIYATIGA TAYYORGARLIGINI BAHOLASH METODIKASI

Baratov Dilshod Doniyarovich,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0000-0001-5304-1381
dilshod.baratov90@gmail.com
Sharipova Dilnora Buxhonovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
dilnora.sharipova91@mail.ru

Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini baholashning ilmiy asoslangan metodikasi taklif etilgan. Innovatsion muhandislik faoliyati tushunchasi ko‘p qirrali hodisa sifatida tahlil qilinib, uning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va kreativ komponentlari ajratib ko‘rsatilgan. Baholashning mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari tizimi ishlab chiqilgan hamda har bir mezon uchun aniq diagnostik vositalar yaratilgan. Metodikaning pedagogik validligi ekspert baholash usuli orqali, ishonchliligi esa takroriy o‘lchov (test-retest) usuli orqali tekshirilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari (validlik koeffitsiyenti r = 0,87; ishonchlilik koeffitsiyenti α = 0,82) ushbu metodikaning diagnostik sifatini va amaliy qo‘llanishga yaroqliligini tasdiqlamoqda.

Kalit so‘zlar: *baholash metodikasi, innovatsion muhandislik faoliyati, muhandislik tayyorgarligi, diagnostika, kreativ kompetentlik mezonlari, pedagogik o‘lchash, validlik, ishonchlilik, texnika ta’limi.*

МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ИНЖЕНЕРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье предлагается научно обоснованная методика оценки готовности студентов технических вузов к инновационной инженерной деятельности. Понятие инновационной инженерной деятельности анализируется как многомерный феномен, выделяются его мотивационный, когнитивный, деятельностный и креативный компоненты. Разработана система критериев, показателей и уровней оценивания, созданы диагностические инструменты для каждого критерия. Педагогическая валидность методики проверена методом экспертного оценивания, надёжность - методом повторного тестирования (test-retest). Результаты опытно-экспериментальной работы (коэффициент валидности r = 0,87; коэффициент надёжности α = 0,82) подтверждают высокие диагностические качества и практическую применимость данной методики.

Ключевые слова: *методика оценивания, инновационная инженерная деятельность, инженерная готовность, диагностика, критерии креативной компетентности, педагогическое измерение, валидность, надёжность, техническое образование.*

METHODOLOGY FOR ASSESSING STUDENTS’ READINESS FOR INNOVATIVE ENGINEERING ACTIVITIES

The article proposes a scientifically substantiated methodology for assessing the readiness of technical university students for innovative engineering activities. The concept of innovative engineering activity is analysed as a multidimensional phenomenon, and its motivational, cognitive, activity-based and creative components are identified. A system of criteria, indicators and levels of assessment has been developed, and specific diagnostic tools have been created for each criterion. The pedagogical validity of the methodology was verified through expert evaluation, and its reliability was confirmed by the test-retest method. The results of the experimental work (validity coefficient r = 0.87; reliability coefficient α = 0.82) confirm the high diagnostic quality and practical applicability of this methodology.

Keywords: *assessment methodology, innovative engineering activity, engineering readiness, diagnostics, creative competence criteria, pedagogical measurement, validity, reliability, technical education.*

Kirish. XXI asrning hozirgi bosqichida muhandislik ta’limiga bo‘lgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda texnik mutaxassislarning roli ortib borishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda: bitiruvchlarda nafaqat chuqur texnik bilimlar, balki ijodiy va innovatsion kompetentlikni ham shakllantirish lozim. Ushbu sharoitda muhandislik ta’limi sifatini baholash zamonaviy pedagogikaning eng muhim muammolaridan biriga aylanmoqda.

Kompetentlik yondashuvining joriy etilishi bilan birga an’anaviy baholash usullari - faqatgina bilimlarni tekshirish - yetarli bo‘lmay qolmoqda. Innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarlik esa ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni baholash uchun maxsus diagnostik vositalar zarur [1]. Talabalarning mazkur faoliyatga tayyorgarligi nafaqat texnik bilimlarni, balki ijodiy tafakkur, muammolarni hal etish qobiliyati va innovatsion loyihalar ishlab chiqish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Pedagogik diagnostika sohasida keng tadqiqotlar olib borilgan (N.V.Kuzmina, V.A.Yakumin, A.A.Kirsanov). Biroq aynan texnika OTMlari kontekstida innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarlikni o‘lchash uchun yaxlit baholash metodikasi ishlab chiqilmagan [2]. Mavjud tadqiqotlarda ko‘pincha alohida kompetensiyalar - texnik bilimlar, loyiha ko‘nikmalari yoki kreativlik - mustaqil baholanib, ularni integrativ tarzda o‘lchashga qaratilgan metodika taklif etilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini har tomonlama va ishonchli baholash imkonini beruvchi ilmiy asoslangan diagnostik metodikani ishlab chiqish hamda uning psixometrik xususiyatlarini tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda pedagogik o‘lchash nazariyasi asosida baholash metodikasini ishlab chiqishning quyidagi bosqichlari amalga oshirildi: (1) innovatsion muhandislik faoliyatining tarkibiy tahlili; (2) mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish; (3) diagnostik vositalar (testlar, kuzatish kartalari, ekspert baholash blankalari) ni yaratish; (4) metodikani tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish va takomillashtirish [3].

Tadqiqot 2020–2023 yillar davomida Qarshi davlat texnika universitetining muhandislik yo‘nalishlari talabalari (n = 214) ishtirokida olib borildi. Tajriba guruhida 108 nafar, nazorat guruhida esa 106 nafar talaba qatnashdi. Guruhlar o‘quv yili, mutaxassislik va boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi bo‘yicha tenglashtirildi.

Baholash metodikasining validligini tekshirishda ekspert baholash usuli qo‘llandi. 15 nafar tajribali o‘qituvchi va soha mutaxassislari - ulardan 7 nafari muhandislik ta’limi professor-o‘qituvchilari, 8 nafari ishlab chiqarish korxonalarining texnik mutaxassislari - ekspert sifatida jalb qilindi. Ishonchliligi esa takroriy o‘lchov usuli (test-retest, oraliq - 3 hafta) orqali tekshirildi [4].

Statistik tahlil uchun SPSS 26.0 dasturiy ta’minoti qo‘llandi. Mezonlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik Kronbax alfa (Cronbach's Alpha) koeffitsiyenti orqali, validlik esa ekspert baholashlari bilan diagnostik natijalar o‘rtasidagi Pirson korrelyatsiyasi orqali o‘lchandi.

Natijalar va muhokama. Ishlab chiqilgan baholash metodikasi quyidagi to‘rtta mezonni o‘z ichiga oladi, ularning har biri innovatsion muhandislik faoliyatining ma’lum bir jihatini aks ettiradi:

1. Motivatsion mezon - talabaning innovatsion muhandislik faoliyatiga qiziqishi, kasbiy ijodkorlikka moyilligi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi. Ko‘rsatkichlar: yangi bilimlar va texnologiyalar izlash faolligi, tadqiqotchilik faoliyatiga ishtiroki, kasbiy muammolarni hal etishda tashabbuskorlik. Ushbu mezon talabaning ichki motivatsion bazasini aks ettirib, uning keyingi innovatsion faoliyatining asosini tashkil etadi [5].

2. Kognitiv mezon - fundamental va maxsus bilimlar hajmi, ularni integratsiyalash va yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati. Ko‘rsatkichlar: fanlararo bilimlar darajasi, nazariy muammolarni hal etish sifati, kreativ fikrlash uslubi. Bu mezon talabaning intellektual salohiyatini aks ettirib, u innovatsion faoliyatning nazariy asosini tashkil etadi.

3. Faoliyatli mezon - innovatsion loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmasi, amaliy muammolarni hal etish tajribasi. Ko‘rsatkichlar: konstruktorlik topshiriqlarini bajarish sifati, muammolarni hal etishda metodologik yondashuv, jamoa ishida hamkorlik ko‘nikmasi [6].

4. Kreativ mezon - noan’anaviy yechimlar taklif qila olish, texnik ixtirochilik qobiliyati va muqobil yondashuvlar izlash ko‘nikmasi. Ko‘rsatkichlar: original g‘oyalar soni va sifati, muqobil yechimlar izlash tezligi, texnik muammolarga noan’anaviy yondashish. Bu mezon an’anaviy diagnostik usullarda aksariyat hollarda e'tibordan chetda qoladi, biroq innovatsion muhandislik faoliyatining o‘ziga xos mezoni sifatida alohida ahamiyat kasb etadi [7].

Har bir mezon uchun uch daraja belgilandi: past daraja (formativ) - talabalarda ushbu xususiyat shakllanish bosqichida bo‘lib, uni rivojlantirish uchun maqsadli pedagodik ta’sir zarur; o‘rta daraja (reproduktiv) - talab qilinadigan ko‘nikmalar ma’lum darajada shakllangan, ammo mustaqil qo‘llashda

qiyinchiliklar mavjud; yuqori daraja (kreativ) - talaba barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalar ko‘rsatib, innovatsion faoliyatni mustaqil va ijodiy amalga oshira oladi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, ishlab chiqilgan metodikaning validlik koeffitsiyenti r = 0,87 ($p < 0,01$), ishonchlilik koeffitsiyenti $\alpha = 0,82$ ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro psixometrik standartlarda qabul qilingan chegaraviy qiymatlardan (validlik uchun $r \geq 0,70$; ishonchlilik uchun $\alpha \geq 0,70$) sezilarli darajada yuqori bo‘lib, metodikaning yuqori diagnostik sifatlarini tasdiqlamoqda.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodikani tizimli tatbiq etgan tajriba guruhida kreativ darajadagi talabalar ulushi 12,3 foizdan 34,7 foizga ko‘tarildi (o‘sish - 22,4 f.p.), nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 11,8 foizdan 18,2 foizga o‘sdi (o‘sish - 6,4 f.p.). Student t-testi natijalari guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik jihatdan muhim ekanligini tasdiqladi ($t = 4,81$; $df = 212$; $p < 0,001$).

Taklif etilgan metodika V.A.Yakuninning pedagogik diagnostika konsepsiyasi bilan hamda D.O.Ximmataliyevning kasbiy tayyorgarlikni baholash yondashuvi bilan mos keladi [8]. Biroq bizning metodikamiz innovatsion muhandislik faoliyatiga xos kreativ mezonni alohida ajratishi bilan farqlanadi - bu an’anaviy diagnostik usullarda aksariyat hollarda e'tibordan chetda qolib ketadi.

Xorijiy tajriba, xususan, AQShda «ABET» (Accreditation Board for Engineering and Technology) tomonidan tasdiqlangan muhandislik ta’limi standartlari - ham aynan kreativ va innovatsion kompetensiyalarni alohida baholashni tavsiya etadi [9]. Bu esa bizning yondashuvimizning xalqaro kontekstda ham asosliligini ko‘rsatadi va Respublika muhandislik ta’limini xalqaro akkreditatsiya talablariga moslashtirish yo‘lida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ishlab chiqilgan to‘rt mezonli baholash metodikasi texnika OTMlarida talabalarning innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini har tomonlama va ishonchli o‘lchash imkonini beradi. Metodika motivatsion, kognitiv, faoliyatli va kreativ mezonlarni integrativ tarzda qamrab olishi bilan mavjud baholash yondashuvlaridan farqlanadi va diagnostikaning to‘liqligini ta’minlaydi.

Metodikaning psixometrik ko‘rsatkichlari (validlik r = 0,87; ishonchlilik $\alpha = 0,82$) uning amaliy qo‘llanishga yaroqliligini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari natijalari metodikaning tizimli tatbiq etilishi talabalarda innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga ko‘maklashishini isbotladi.

Ushbu metodikadan foydalanish o‘qituvchilarga talabalarning kreativ kompetentlik darajasini aniq aniqlash va shu asosda maqsadli ta’lim strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Kelajakda metodikani raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimiga aylantirish hamda sun’iy intellekt elementlarini diagnostikaga integratsiya qilish perspektivli yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida bir ta’lim muassasasi bazasida olib borilganligi va O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos kontekstini qayd etish zarur. Kelajakdagi tadqiqotlar metodikani turli texnika universitetlari va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha kengaytirilgan namunaviy guruhda sinashni va longitudinal validatsiyani nazarda tutishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Якумин В.А. Педагогическая психология. – СПб: Михайлов, 1998. – 612 с.

2. Кирсанов А.А. Индивидуальный подход к учащимся в процессе обучения. – Казань: КГУ, 1966. – 196 с.

3. Baratov D.D. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi tarkibiy tizimini loyihalash // Kasb-hunar ta’limi. – 2022. – №4. – B. 20-26.

4. Ximmataliyev D.O., Jumonov A.A., Ibragimova G.N. Особенности профессионального самоопределения молодёжи в условиях модернизации образования // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2018. – B. 329-332.

5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 b.

6. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini rivojlantirish: Diss. ... ped. fan. nomz. – T.: 2000. – 186 b.

7. Baratov D.D., Ximmataliyev D.O. Talabalarning innovatsion muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini diagnostika qilish // Global Science and Innovations. – 2023. – №2. – P. 88-93.

8. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi: DSc diss. avtoref. – T.: 2018. – 70 b.

9. ABET Engineering Accreditation Commission. Criteria for Accrediting Engineering Programs, 2022–2023. – Baltimore: ABET, 2022.

10. Boyatzis R.E. Managerial and Leadership Competencies // Vision: The Journal of Business Perspective. – 2011. – Vol.15. – №2. – P. 91-100.

11. Baratov D.D. Didactic design of the technology for developing creative competence in preparing future engineers for innovative activities // News of the National University of Uzbekistan. – Tashkent, 2023. – 1/1/5-issue. – P. 51-55.

12. Baratov D.D. Development of engineering creativity and project activity in educational and practical classes // News of the National University of Uzbekistan. – Tashkent, 2023. – 1/5-issue. – P. 67-71.

13. Baratov D.D. Pedagogical issues of the formation of professional and creative competence in students // O‘qituvchi ham doimiy ta’limdir (Teacher is also an endless education). – Nukus, 2021. – №6. – P. 16-21.

14. Baratov D.D. Development of creative competence in preparing students for innovative engineering activities // O‘qituvchi ham tarbiyalaydi. – Nukus, 2022. – №6/2. – P. 113-116.

15. Baratov D.D. Methodology of students' creative competence development // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2022. – №3. – P. 68-73.

16. Baratov D.D. Development of Creative Competence in the Process of Preparing Students for Innovative Engineering Activity // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2022. – №3. – P. 36-38.

17. Baratov D.D. Development mechanisms of preparing students for innovative activities in technical higher education institutions // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Vol.11. – P. 98-100.

18. Baratov D.D. Content and pedagogical conditions of development of research skills of engineering engineers based on innovation approach // Nanotechnology Perceptions. ISSN 1660-6795. – 2024. URL: https://nano-ntp.com/index.php/nano/article/view/3539.

ZAMONAVIY OILA TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Bo‘riyeva Mahbuba Shavkatovna,
International School of Finance Technology and Science doktoranti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mahbubaburieva6@gmail.com

Ushbu maqolada oilaning transformatsiyasi fenomeni, birinchi navbatda, demografik va institutsional siljishlar bilan birga boradi: nikoh yoshining ortishi, nikohdan tashqari birga yashash amaliyotlarining kengayishi, ajrashish darajasining oshishi yoki ajrashishga munosabatning normativ yumshashi, qayta nikohli oilalarning ko‘payishi, tug‘ilish ko‘rsatkichlarining pasayishi, transmilliy oilalar (ota-onadan biri uzoq muddat mehnat migratsiyasida bo‘lishi)ning ko‘payishi, shuningdek, oila ichidagi mehnat taqsimotining qayta konfiguratsiya tahlillari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, tarbiya, munosabatlar, farzand, qadriyatlar, tadqiqot, nikoh, o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish, nizo, ajrim.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬИ

В данной статье представлен анализ феномена трансформации семьи, который, в первую очередь, сопровождается демографическими и институциональными сдвигами: увеличением брачного возраста, расширением практики совместного проживания вне брака, увеличением уровня разводов или нормативным смягчением отношения к разводам, увеличением числа семей, вступающих в повторные браки, снижением рождаемости, увеличением числа транснациональных семей (один из родителей находится в длительной трудовой миграции), а также перестройкой разделения труда внутри семьи.

Ключевые слова: *семья, воспитание, отношения, дети, ценности, исследование, брак, взаимоуважение, взаимопонимание, конфликт, развод.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF MODERN FAMILY TRANSFORMATION

In this article, an analysis of the phenomenon of family transformation is presented, which is accompanied, first of all, by demographic and institutional shifts: an increase in the age of marriage, an expansion of the practice of cohabitation outside marriage, an increase in the level of divorces or a normative easing of the relationship to divorces, an increase in the number of families entering into repeated marriages, a decrease in the birth rate, an increase in the number of transnational families (one of the parents is in long-term labor migration), as well as a restructuring of the division of labor within the family.

Keywords: *family, upbringing, relationships, children, values, research, marriage, mutual respect, mutual understanding, conflict, divorce.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy dinamikasi, migratsiya jarayonlari, mehnat bozorining moslashuvchanlashuvi, raqamli kommunikatsiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi hamda gender va avlodlararo me’yorlarning qayta ko‘rib chiqilishi oila institutini yangi shakl va mazmuniy ko‘rinishlarga olib kelmoqda. Psixologiya fanida bu jarayonlar “oilaning transformatsiyasi” sifatida tavsiflanib, oilaviy tuzilma, rollar taqsimoti, emotsional yaqinlik me’yorlari, tarbiyaviy amaliyotlar va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining yangilanishi bilan ifodalanadi. Mazkur transformatsiya bir vaqtning o‘zida ham resurslar (moslashuvchanlik, shaxsiy erkinlik, ta’lim va xizmatlardan foydalanish imkoniyati)ni, ham xavf omillari (beqarorlik, stress, konfliktlar, parchalanish, parental nazoratning sustlashuvi, bolalarning emotsional ehtiyojlari qondirilmasligi)ni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun jahon psixologiyasida oila transformatsiyasini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish, ayniqsa, bolalar va o‘smirlar rivojlanishidagi barqarorlik, moslashuv, rezilyentlik hamda identifikatsiya jarayonlari bilan bog‘liq qonuniyatlarni anglashda metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Oila tizimi o‘zgarar ekan, bolalar va o‘smirlarning psixologik barqarorligi shakllanishi ham kontekstga bog‘liq ravishda turlicha trayektoriyalar bo‘yicha kechadi; bu trayektoriyalarni tushuntirish esa oilani faqat “mikromuhit” sifatida emas, balki jamiyatning makrojarayonlari bilan uzviy bog‘langan psixososial tizim sifatida ko‘rishni talab qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahon psixologiyasida zamonaviy oila transformatsiyasi ko‘pincha tizimli yondashuvlar orqali talqin qilinadi. Oila tizimi nazariyasiga ko‘ra, oila a’zolari o‘zaro bog‘langan elementlar bo‘lib, har bir a’zodagi o‘zgarish butun tizimda aks-sado beradi; tizim ichida chegaralar, koalitsiyalar, rollar va kommunikatsiya qoidalari mavjud, stressorlar kuchayganda esa disfunktsional sikllar (masalan, “ta’qibchi–chekinuvchi” dinamikasi) yuzaga chiqishi mumkin. Transformatsiya jarayonida aynan chegaralarning qayta belgilanishi muhim: masalan, ajrashishdan so‘ng “ota–ona subsistemi”ning qayta tashkil etilishi, qayta nikohda “yangi ota/ona” rolini qabul qilish, yoki uzoq masofali migratsiya sharoitida “masofaviy ota-onalik” amaliyotlarining shakllanishi. Bu holatlarda bolalar uchun asosiy psixologik vazifa – emotsional xavfsizlikni saqlash va izchil bog‘lanish tajribasini yo‘qotmaslikdir. Bog‘lanish nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, erta bolalikda shakllangan xavfsiz bog‘lanish keyingi yosh davrlarida stressga chidamlilik va ijtimoiy munosabatlarda ishonchning muhim omilidir; parvarishlovchi shaxslarning sezgirligi pasayganda yoki izchillik buzilganda, xavotirli yoki qochuvchi bog‘lanish uslublari kuchayishi ehtimoli ortadi. Oila transformatsiyasi sharoitida (masalan, ajrashish, migratsiya, qayta nikoh, uzoq muddatli iqtisodiy qiyinchilik) bolalarning xavfsiz bog‘lanishini qo‘llab-quvvatlash ko‘pincha “emotsional mavjudlik”ning saqlanishi, ota-onaning konfliktlarni konstruktiv boshqarishi va tarbiyaviy amaliyotlarning izchilligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Transformatsiyaning ijtimoiy-psixologik tahlilida oila ichidagi munosabatlarning sifatini aniqlovchi markaziy ko‘rsatkichlardan biri parental uslublardir. Baumrind va keyingi tadqiqotchilar tavsiflagan autoritativ (talabchan, lekin qo‘llab-quvvatlovchi), autoritar (qattiq nazoratli), ruxsat beruvchi (nizomsiz), befarq (emosional masofali) uslublar bolalarning moslashuvi va ijtimoiy kompetensiyasiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Transformatsiya sharoitida ota-onaning resurslari (vaqt, psixologik energiya, moliyaviy barqarorlik) kamayishi, yoki ijtimoiy stress (ishsizlik, uy-joy muammosi, migratsiya) ortishi parental uslubning keskinlashuviga (ko‘proq autoritar nazorat) yoki aksincha, nazoratning susayishiga olib kelishi mumkin. Biroq ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan, muammo faqat “nazorat ko‘p yoki kam”ligida emas, balki nazorat va qo‘llab-quvvatlashning muvozanati hamda bolaga berilayotgan psixologik ma’noda “xavfsiz baza”ning barqarorligidadir. Shu bois zamonaviy tadqiqotlar “ota-onalik sifati”ni ko‘p o‘lchovli konstrukt sifatida ko‘rib, emotsional iliqlik, monitoring, kommunikatsiya ochiqligi, konfliktlarni hal qilish strategiyalari, hamda raqamli muhitda “media vositachiligi” kabi omillarni bir butun tizimda tahlil qiladi.

Oila transformatsiyasining muhim jihati – individualizatsiya va “sof munosabat” tendensiyasining kuchayishi bo‘lib, bunda munosabatlar ko‘proq shaxsiy qoniqish va o‘zaro emotsional foyda bilan asoslanadi, an’anaviy majburiyatlar esa nisbatan zaiflashadi. Ijtimoiy psixologik oqibat sifatida, er-xotin munosabatlarida muzokara madaniyati, shaxsiy chegaralarning hurmat qilinishi va sheriklik tengligi kabi qadriyatlar kuchayishi mumkin; lekin ayni paytda munosabatlar “shartli” tus olganda, beqarorlik, ajralish xavfi, bolalar uchun esa kelajak rejalari va identifikatsiya jarayonida noaniqlik ortishi ehtimoli ham mavjud. Bu holat bolalar va o‘smirlar psixologik barqarorligi uchun “bashorat qilinuvchanlik” va “izchillik”ning pasayishi orqali xavf tug‘diradi. Biroq bu beqarorlikning o‘zi ham deterministik tarzda salbiy oqibat bermaydi: ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ajrashishning o‘zi emas, balki ajrashishdan oldingi va keyingi yuqori konflikt, parental hamkorlikning buzilishi, va iqtisodiy resurslarning keskin kamayishi bolalarning moslashuviga kuchliroq ta’sir qiladi. Demak, ijtimoiy-psixologik tahlil transformatsiyani “voqea” sifatida emas, balki “jarayon” sifatida, ya’ni oila tizimining o‘zgarishdan oldingi holati, o‘zgarish davridagi stress, hamda o‘zgarishdan keyingi yangi me’yorlarning mustahkamlanishi kabi bosqichlarda ko‘rib chiqishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Oila transformatsiyasining global kontekstida ekologik tizimlar yondashuvi o‘ta muhim. Bronfenbrennerning modeliga ko‘ra, bolalar rivojlanishi mikrotizim (oila, maktab), mezotizim (oila–maktab aloqalari), ekzotizim (ota-onaning ish sharoiti, mahalla resurslari), makrotizim (madaniyat, qonunlar, iqtisodiy tizim), hamda xronotizim (vaqt bo‘yicha o‘zgarishlar)ning o‘zaro ta’sirida kechadi. Zamonaviy oila transformatsiyasi, aslida, makrotizim va xronotizimdagi siljishlarning mikrotizimga kirib kelishidir. Masalan, mehnat bozoridagi noturg‘unlik ota-onaning ish vaqti, stress darajasi va tarbiyaviy imkoniyatini o‘zgartiradi; migratsiya esa oilaviy kommunikatsiyani raqamli kanallar orqali vositachilikka majbur qiladi; gender siyosati va ta’lim imkoniyatlari ayollarning bandligi va oiladagi rollar muvozanatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda bolaning psixologik barqarorligi faqat individual xususiyatlar (temperament, kognitiv nazorat)ga emas, balki tizimli resurslar (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mahalla hamjihatligi, maktabning inklyuziv muhit)ga ham tayangan holda shakllanadi.

Zamonaviy oila transformatsiyasini ijtimoiy-psixologik tahlil qilishda “oilaviy stress modeli” ham muhim tushuntirish imkonini beradi. Conger va hamkorlari ko‘rsatganidek, iqtisodiy qiyinchiliklar ota-onada emotsional zo‘riqish va depressiv alomatlarni kuchaytiradi, bu esa er-xotin konfliktini oshirishi va parental amaliyotlarning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin; natijada bola xulqi va emotsional farovonligida

muammolar paydo bo‘ladi. Transformatsiya davrlarida (masalan, urbanizatsiya, inflyatsiya, pandemiya oqibatlari, migratsiya) aynan mana shu zanjirli mexanizm faollashadi: stressor → ota-onaning psixologik resurslari kamayishi → oila ichidagi munosabatlar yomonlashuvi → bolada emotsional va xulqiy qiyinchiliklar. Shu bilan birga, zamonaviy empirik izlanishlar stress modelini himoya omillari bilan birgalikda ko‘rishni taklif etadi: ijtimoiy yordam tarmoqlari, ota-onaning psixologik savodxonligi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, maktab va mahalla institutlarining qo‘llab-quvvatlashi salbiy zanjirni uzishi mumkin. Bu jihat oila transformatsiyasini faqat “inqiroz” sifatida emas, balki “moslashuv” va “rekonstruksiya” uchun imkoniyat sifatida ham talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Oila transformatsiyasining gender va rol o‘zgarishlari bilan bog‘liq qirrasi ham jahon psixologiyasida keng yoritilgan. Ayollarning ta’lim va bandlik darajasi oshishi, otalarning tarbiyaga ko‘proq jalb qilinishi, uy mehnati va parvarish mas’uliyatining qayta taqsimlanishi ko‘plab oilalarda hamkorlik asosidagi modelni kuchaytiradi. Biroq “ikki martalik yuk” (ish va uy mas’uliyati) yoki rollar bo‘yicha kelishmovchiliklar konflikt manbayi bo‘lishi ham mumkin. O‘smirlar uchun esa gender rollarining moslashuvchanlashuvi identifikatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin bir vaqtning o‘zida normativ noaniqlik va “qanday bo‘lish kerak?” savoliga javob topishdagi qiyinchiliklarni ham oshirishi mumkin. Eriksonning psixososial rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrining markaziy vazifasi identifikatsiya va rol chalkashuvini hal qilishdan iborat; oila va jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlar bu jarayonni murakkablashtirishi yoki aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lsa, shaxsiy avtonomiya va mustaqillikni mustahkamlashi mumkin. Shunday qilib, oila transformatsiyasi o‘smirlikdagi identifikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘lanadi: oila qanchalik barqaror emotsional tayanch bera olsa, o‘smir shunchalik muvaffaqiyatli tarzda o‘z “Men” konsepsiyasini integratsiyalaydi.

Shu bilan birga, oila transformatsiyasining “kengaytirilgan oila” va hamjamiyat tarmoqlari bilan munosabatiga ham e’tibor qaratish lozim. Ko‘plab madaniy kontekstlarda (jumladan, Markaziy Osiyoda) qarindoshlik va mahalla institutlari bolalar tarbiyasida muhim ijtimoiy kapital vazifasini bajaradi. Zamonaviylashuv va urbanizatsiya bu tarmoqlarni zaiflashtirishi mumkin, ammo ayrim holatlarda ular yangi shakllarda (masalan, onlayn qarindoshlar guruhlari, shahar mahallalarida yangi ijtimoiy hamkorlik) qayta tiklanadi. Ijtimoiy-psixologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, yordam tarmoqlarining mavjudligi ota-onalik stressini kamaytiradi, tarbiyaviy izchillikni qo‘llab-quvvatlaydi va bolalarda “men yolg‘iz emasman” degan xavfsizlik hissini kuchaytiradi. O‘zbek ilmiy adabiyotlarida ham oila psixologiyasi va tarbiya muammolari, xususan, oila ichidagi munosabatlar va farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik omillari keng muhokama qilingan bo‘lib, bu manbalar mahalliy kontekstda transformatsiya jarayonlarini talqin qilish uchun muhim. Mahalliy manbalarni global nazariyalar bilan integratsiyalash, metodologik jihatdan, “import qilingan” konsepsiyalarni bevosita ko‘chirishdan ko‘ra, ularni madaniy moslashtirish va empirik tekshirish zarurligini anglatadi.

Oila transformatsiyasining gender va rol o‘zgarishlari bilan bog‘liq qirrasi ham jahon psixologiyasida keng yoritilgan. Ayollarning ta’lim va bandlik darajasi oshishi, otalarning tarbiyaga ko‘proq jalb qilinishi, uy mehnati va parvarish mas’uliyatining qayta taqsimlanishi ko‘plab oilalarda hamkorlik asosidagi modelni kuchaytiradi. Biroq “ikki martalik yuk” (ish va uy mas’uliyati) yoki rollar bo‘yicha kelishmovchiliklar konflikt manbayi bo‘lishi ham mumkin. O‘smirlar uchun esa gender rollarining moslashuvchanlashuvi identifikatsiya imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin bir vaqtning o‘zida normativ noaniqlik va “qanday bo‘lish kerak?” savoliga javob topishdagi qiyinchiliklarni ham oshirishi mumkin. Eriksonning psixososial rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrining markaziy vazifasi identifikatsiya va rol chalkashuvini hal qilishdan iborat; oila va jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlar bu jarayonni murakkablashtirishi yoki aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lsa, shaxsiy avtonomiya va mustaqillikni mustahkamlashi mumkin. Shunday qilib, oila transformatsiyasi o‘smirlikdagi identifikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘lanadi: oila qanchalik barqaror emotsional tayanch bera olsa, o‘smir shunchalik muvaffaqiyatli tarzda o‘z “Men” konsepsiyasini integratsiyalaydi.

Oila transformatsiyasining transmilliy shakllari – mehnat migratsiyasi va “masofaviy oilalar” — so‘nggi o‘n yilliklarda alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Migratsiya oilaga moliyaviy resurs keltirishi mumkin, biroq uzoq muddat ajralik bolada sog‘inish, tashlab ketilganlik hissi, nazoratning zaiflashuvi yoki “rol almashinuvi” (masalan, katta farzandning erta kattalashuvi, uy mas’uliyatini zimmasiga olishi)ni yuzaga chiqarishi ehtimoli mavjud. Bunday vaziyatlarda asosiy ijtimoiy-psixologik savol shundan iboratki, raqamli muloqot real emotsional yaqinlikni qay darajada kompensatsiya qila oladi, hamda oilaviy qarorlar va tarbiyaviy qoidalar masofadan turib qanday muvofiqlashtiriladi. Bu masalalar ekologik tizimlar yondashuvi doirasida ekzotizim (ota-onaning migratsiyadagi ish sharoiti) va mikrotizim (bola yashayotgan uy va parvarish qiluvchi shaxs) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida tahlil qilinadi (Bronfenb. Shuningdek, bog‘lanish nazariyasi nuqtayi nazaridan, parvarishlovchi shaxsning “javobchanligi” (responsiveness) masofa sharoitida

yangi kanallar (videoaloqa, muntazam marosimlar, bir xil vaqt rejimi) orqali tiklanishi mumkin; demak, transformatsiyaning oqibatlari texnologik vositalarning o‘zi bilan emas, balki ularni qo‘llash madaniyati bilan bog‘liq.

Muhokama. Nazariy jihatdan, oila transformatsiyasi sharoitida bolalar va o‘smirlarning psixologik barqarorligini tushuntirishda rivojlanish psixopatologiyasi yondashuvi ham foydali. Bu yondashuv normal rivojlanish va og‘ishlarning umumiy mexanizmlarini, risk omillari va himoya omillarining o‘zaro ta’sirini, hamda “ko‘p yo‘llilik” va “bir yo‘llilik” prinsiplari orqali turli sharoitlar bir xil natijaga yoki bir sharoit turli natijalarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, ajrashish sharoitida bir bola kuchli rezilyentlik namoyon qilishi, boshqasi esa ichki simptomlar rivojlantirishi mumkin; bu farq temperament, qo‘llab-quvvatlovchi kattalar, maktab muhitidagi qabul qilinish, hamda ota-onaning konfliktni boshqarish madaniyati bilan izohlanadi. Shu ma’noda, ijtimoiy-psixologik tahlil “bitta sabab – bitta oqibat” soddalashtirishidan qochib, ko‘p omilli modellarga tayanishi kerak.

Xulosa. Yuqoridagi nazariy va empirik yo‘nalishlarni umumlashtirar ekanmiz, jahon psixologiyasida zamonaviy oila transformatsiyasini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish bir nechta tayanch g‘oyalarga borib taqaladi: birinchidan, oila – dinamik tizim bo‘lib, o‘zgarishlar uning ichki qoidalari, chegaralari va rollariga ta’sir qiladi; ikkinchidan, bolalar rivojlanishi ekologik kontekstlar ierarxiyasida kechadi va transformatsiya makro hamda xrono darajadagi siljishlarning mikro darajaga kirib kelishidir; uchinchidan, oila ichidagi emotsional xavfsizlik va bog‘lanish sifati psixologik barqarorlikning markaziy omilidir; to‘rtinchidan, stressorlar (iqtisodiy, migratsion, normativ) parental amaliyotlar va oila iqlimi orqali bolaga bilvosita ta’sir qiladi; beshinchidan, rezilyentlik risk sharoitida ham umumiy himoya tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Mahalliy ilmiy an’analar esa oila tarbiyasining madaniy va qadriyatlar bilan bog‘liqligini, avlodlararo aloqalarning kuchini, hamda ijtimoiy institutlar (mahalla, ta’lim)ning oilaviy farovonlikdagi rolini ochib berishi bilan global tahlilni boyitadi. Natijada, zamonaviy oila transformatsiyasini to‘g‘ri tushunish, bolalar va o‘smirlar psixologik barqarorligini shakllantirish qonuniyatlarini keyingi boblarda empirik va konseptual jihatdan asoslash uchun poydevor yaratadi: transformatsiya oilaning “shakli”dan ko‘ra, “munosabatlar sifati”ni sinovdan o‘tkazadi; munosabatlar sifati esa psixologik barqarorlikning eng yaqin manbayi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, ijtimoiy-psixologik tahlilning strategik vazifasi – oila transformatsiyasining muqarrarligini inkor etmasdan, uning xavf omillarini aniqlash, himoya omillarini kuchaytirish va bolalar hamda o‘smirlar uchun emotsional xavfsizlikni ta’minlaydigan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ilmiy asosda yoritishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Amato, P. R. (2010). Research on divorce: Continuing trends and new developments. // Journal of Marriage and Family, 72(3), 650–666.
2. Baumrind, D. (1991). The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. // Journal of Early Adolescence, 11(1), 56–95.
3. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books.
4. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Cicchetti, D. (2016). Developmental psychopathology. In D. Cicchetti (Ed.), Developmental Psychopathology (3rd ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
6. Conger, R. D., Conger, K. J., & Martin, M. J. (2010). Socioeconomic status, family processes, and individual development. // Journal of Marriage and Family, 72(3), 685–704.
7. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton.

THE IMPACT OF BACKGROUND MUSIC ON STUDY EFFICIENCY AMONG UNDERGRADUATE STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Boymurodova Feruza Ziyot qizi,
MA international Education, Senior teacher
Uzbekistan State World Languages University
boymurodovaferuza555@gmail.com

Background music is often used by students to create a focused learning environment and keep peace of mind at the same time, but its effect on study efficiency remains debated. This research explores types of widely used background music, emphasizing its impact on task accomplishment. The study analyzes how different genres of music, for instance pop, jazz or instrumental, have an impact on learning effectiveness among students. Data collected from surveys and interviews highlights the positive role of background music on a successful academic life, reduced levels of stress. The findings highlight its role in fostering efficient study habits, with most students reporting benefits such as enhanced memory, improved concentration, and increased motivation while completing assignments. Finally, surveys showed that playing background music while doing assignments is helpful for the majority of students. This research demonstrates how music leads to an effective and stress-free environment while studying.

Key words: *background music, task accomplishment, music genres (e.g., pop, jazz, instrumental), academic performance, surveys and interviews.*

ВЛИЯНИЕ ФОНОВОЙ МУЗЫКИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ УЧЁБЫ СРЕДИ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Фоновая музыка часто используется студентами для создания благоприятной учебной атмосферы и поддержания душевного спокойствия, однако её влияние на эффективность обучения остаётся предметом дискуссий. Данное исследование рассматривает наиболее распространённые виды фоновой музыки, уделяя особое внимание их влиянию на выполнение учебных заданий. В работе анализируется, как различные музыкальные жанры, такие как поп-музыка, джаз или инструментальная музыка, воздействуют на эффективность обучения студентов. Данные, собранные с помощью опросов и интервью, подчёркивают положительную роль фоновой музыки в успешной академической деятельности и снижении уровня стресса. Результаты показывают её значение в формировании эффективных учебных привычек: большинство студентов отметили такие преимущества, как улучшение памяти, повышение концентрации внимания и мотивации при выполнении заданий. В конечном итоге опросы показали, что прослушивание фоновой музыки во время выполнения заданий полезно для большинства студентов. Данное исследование демонстрирует, что музыка способствует созданию эффективной и менее стрессовой учебной среды.

Ключевые слова: *фоновая музыка, выполнение заданий, музыкальные жанры (поп, джаз, инструментальная музыка), академическая успеваемость, опросы и интервью.*

OLIY TA’LIMDA BAKALAVRIAT TALABALARI ORASIDA FON MUSIQASINING O‘QISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Fon musiqasi ko‘pincha talabalar tomonidan diqqatni jamlashga yordam beruvchi o‘quv muhitini yaratish va ayni paytda ruhiy xotirjamlikni saqlash maqsadida qo‘llaniladi. Biroq uning o‘qish samaradorligiga ta’siri hanuzgacha munozarali masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot keng qo‘llaniladigan fon musiqasi turlarini hamda ularning topshiriqlarni bajarish jarayoniga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqotda pop, jazz va instrumental kabi turli musiqa janrlarining talabalarning o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. So‘rovnoma va intervyular orqali to‘plangan ma’lumotlar fon musiqasining akademik muvaffaqiyat hamda stress darajasini kamaytirishdagi ijobiy rolini ko‘rsatadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fon musiqasi samarali o‘qish odatlarini shakllantirishga yordam beradi: talabalarning aksariyati topshiriqlarni bajarishda xotiraning yaxshilanishi, diqqatning oshishi va motivatsiyaning kuchayishini qayd etgan. Shuningdek, so‘rov natijalari topshiriqlarni bajarish jarayonida fon musiqasini tinglash ko‘pchilik talabalar uchun foydali ekanligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot musiqa samarali va stresssiz o‘quv muhitini yaratishga xizmat qilishini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: *fon musiqasi, topshiriqlarni bajarish, musiqa janrlari (pop, jazz, instrumental), akademik samaradorlik, so‘rovnoma va intervyular.*

Introduction. Music is the art and science of organizing sounds in time to produce a composition that expresses ideas, emotions and moods. Music needs no introduction – it is a cross-cultural universal phenomenon (Perlovsky, 2012); a part of most our lives, whether as a companion in our entertainments or a tool to help us relax and calm in the most stressful situations such as waiting in the line, sitting in the traffic. Listening to music fits in most of our daily activities and schedules effortlessly (Schellenberg & Weiss, 2013) – individuals tend to listen to music as a background companion while doing the main important tasks. Another explanation for the universality of the music is because of its positive impact on mental health. In a meta-study done by Kampfe and his colleagues (2011), it was found that background music can have an impact on behavior, tending to increase positive emotions among students. In simpler terms, music not only makes highly stressful tasks bearable but also improves physical and psychological well-being. With findings such as this it is no wonder why students mostly tend to play background music while doing assignments or preparing for exams to maintain positive, calm attitude towards their academic future. Moreover, Van Goethem and Sloboda (2011) studied impact of music and formed the Goals, Strategies, Tactics and Mechanisms (GSTM) framework. Listening to music therefore is considered as a successful regulation tactic to get over anxiety and depressive moments. Music has been shown as a tool to successfully reduce multiple components of emotions in life of children, adolescents and adults alike: mood, motivation, purpose or anxiety levels. Because of that reason undergraduate students in higher education may choose to use background music to stay alert and motivated while studying.

What factors play important role behind successful student’s academic life is a global interest. International studies indicate that time management, level of motivation, place of living, familial background, quality of secondary high school education, study habits all affect student’s effective academic performance (Bangchang, 2015; Dweck, 1986). An early report by Cantril and Allport (1935) found that at the time, 68% of students worked with the radio playing in the background and demonstrated that the music in background might have an impact on academic performance as well. Even in today’s time listening to music while completing assignments or preparing for tests is a worldwide phenomenon. For the current study, one of the aims was to obtain the undergraduate students’ music usage behavior. Furthermore, study aimed to gain more information about the mostly used music genres as a background. Although listening to music while getting tasks done is a common state, this research dives into advantages and drawbacks, students’ preferences according to genre.

Literature Review. The effect of background music on academic performance has caught significant attention, particularly concerning its impact on undergraduate students’ study efficiency. While some studies highlight its beneficial sides, others point out potential distractions. This literature review studies recent researches to explain possible effects of background music on students’ academic performance.

Some studies suggest that music on the background can improve some cognitive skills. Taheri er al. (2022) conducted a cross-sectional study revealing that participants who worked with background music showed improved working memory, proved by increased correct answers and reduced reaction time during tasks. Similarly, a study by Azmi at al. (2023) used a mixed-method approach, combining surveys and experiments, to learn role of music on students’ attention and learning outcomes. Finding showed clear difference in concentration, motivation, and memory between students who listen to music during tasks and wo do not. Moreover, research conducted by Oxford Learning (2023) involved 2000 students. Research found that 60% of students reported enhanced study efficiency when listening to background music or nature sounds. Besides, students who applied background music to their daily routine tended to have higher GPAs and reported increased enjoyment and readiness to the class.

In contrast, other studies show drawbacks of background music while studying. A study published in Frontiers in Psychology (2017) highlighted that background music could apply an additional cognitive load, especially if music contains lyrics. The study noted that such music could act as a “seductive detail”, shifting attention from the primary task. Further, research by Goltz and Sadakata (2021) revealed a metacognitive blind spot among students. While many students reported positive effects of background music, assessments showed that music, especially with lyrics, often decreased reading comprehension and mathematic task performance. This study shows the importance of distinguishing between perceived and actual benefits.

The genre and characteristics of background music also plays a vital role in its impact on study effectiveness. Chen (2023) explored the effects of different music types – classical, white noise, and lyrical pop – on students’ performance. The study found that classical music had mixed effects, white noise had positive effect on study efficiency, while lyrical music distracted students from the task most of the time. In

addition to this, individual preferences and cognitive styles form the impact of background music. For example, students who prefers to study with background music might feel highly motivated and focused, while others might find it distracting. This difference suggests that usage of background music and experiencing positive effects are not universal, but depends on individuals.

Furthermore, a study by Taheri at al. (2022) emphasized the importance of music selection, highlighting that participants who choose their preferred music experienced better improvements in working memory tasks compared to those exposed to non-preferred music.

In conclusion, the impact of background music on study efficiency is multifaceted. While certain types of music, such as classic and nature sounds, can enhance students’ academic performance, others, for example, lyrical pop, might have negative effects in students’ attention and comprehension level. Individual differences and personal preferences also play significant role on learning outcomes. Therefore, students should consider their preferences when it comes to music and their study habits before applying background music into their daily routines.

Methodology. This research examines the effect of background music on undergraduate students' study efficiency in higher education utilizing a quantitative research technique and an empirical survey method. The main goal is to gather and examine numerical data in order to spot trends, correlations, or patterns in the responses from students about their academic focus and music-listening preferences.

The use of a quantitative method stems from the requirement for objective measurement of factors such as perceived concentration levels, study length, and academic success. An organized survey is seen to be the most effective and scalable way to collect data because the study is focused on a sizable sample of people.

The study focused on undergraduate students in Uzbekistan State World Languages University during the spring 2025 semester. The research assures that the participants were from diverse academic backgrounds and year levels.

Out of approximately 500 students were asked to engage to participate, 204 of them completed the survey. The participants consisted of 112 females and 92 males, aged between 18-21.

Participants answered online questionnaire developed using Google Forms. The survey was designed based on previous validated instruments (Taheri et al., 2022; Goltz & Sadakata, 2021) and included closed-ended questions, Likert scale items, and demographic queries. The questionnaire was divided into three important parts:

Section A: Background information, including age, gender, academic year.

Section B: Background music habits: how often do they listen to music while studying, preferred genres (e.g. classical, lyrical pop, white noise), and device usage (e.g. headphones, speakers).

Section C: Recognized study efficiency: self-assessed concentration, motivation, and overall productivity while studying with or without music.

A pilot test was conducted between small group of students (15 students) to test the clarity and validity of the questionnaire.

The link for the survey was shared in group chats of students during the period of two weeks in April 2025. Participation was voluntary and anonymous. Participants were aware that their answers would be used for academic purposes and their identity would remain unknown.

The collected data were exported to Microsoft Excel and analyzed using SPSS (Statistical Package for the Social Sciences). Descriptive statistics were computed to summarize key variables (mean, standard deviation, frequencies). In addition:

Cross tabulation was used to study connections between music genres and reported study efficiency.

Although the research method was designed well, there were still some limitations experienced. For example, since research was based on self-reported data there might be bias and some inaccuracies included.

Nevertheless, this study provides useful and meaningful information about students’ behavior and study efficiency by the questionnaire and statistical analysis.

Findings. A total of 204 undergraduate students took part in the research. Of these 54.9% were female (n = 112) and 45.1% were men (n = 92). The participants were from different academic background, 32.4% in their first year, 28.9% in their sophomore year, 21.1% studying their junior year and 17.6% in their final year of university. The average age of participants was 20.

Students were asked about their music listening habits during the survey:

78.4% (n = 160) reported that they listen to music while studying.

21.6% (n = 44) reported studying without any music or sound.

Among those who listen to music:

42.5% preferred instrumental music,

27.5% listened to music with lyrics,

15.6% chose classical music to listen while studying,

14.4% preferred to listen ambient or nature sounds.

According to calculations, on average students listened to music for 1.8 hours a day during study sessions.

Students were asked to rate their own concentration and motivation levels while listening to music and doing assignments on a 5-point Likert cale (1=very low, 5=very high).

Efficiency Metric Music Group (M ± SD) No-Music Group (M ± SD)

Concentration 3.9 ± 0.8 3.2 ± 0.9

Motivation 4.1 ± 0.7 3.3 ± 0.8

Information Retention 3.7 ± 0.9 3.4 ± 0.7

A Pearson’s correlation showed:

A positive correlation between instrumental music and self-rated concentration ($r = .41$, $p < .01$).

A negative correlation between lyrical music and information retention ($r = –.34$, $p < .01$).

No significant correlation between genre preference and motivation levels was recognized.

These results suggest that while most types of background music can boost motivation, lyrical content may interfere with cognitive tasks requiring memorization or comprehension.

Discussion. The present study examined the impact of using music as a background sound during study sessions among undergraduate students by using quantitative survey-based research. The results showed a clear preference to listen to use music while learning among students, with nearly 80% reporting that they study with music. This confirms a rising rate among students to use music as a motivational and emotional tool during academic tasks.

The findings showed that students who study with music reported higher levels of motivation and concentration compared to those who don’t use music. These results are consistent with previous studies such as Taheri et al. (2022), who found that low-arousal instrumental music positively influenced students’ task focus and emotional engagement. Similarly, Goltz and Sadakata (2021) emphasized the role of background music in creating a comfortable study atmosphere, thereby reducing anxiety and increasing task persistence.

However, not all the music types are not beneficial when used as a background sound while studying. Instrumental and ambient genres, classical music in particular, helped to increase concentration and retention. Meanwhile, music with lyrics had negative impact on memory performance. This aligns with Kotsopoulou and Hallam (2010), who reported that lyrics can introduce cognitive interference, especially during tasks requiring verbal processing or deep reading comprehension.

Interestingly, even though majority of students reported positive impact of background music on study efficiency, it did not show any significant rase in GPA score. This reflects findings by Ritter and Ferguson (2017), who argued that while music may influence perception and mood, its effects on measurable academic outcomes are subtle and highly context-dependent.

The study was conducted to find answers two primary research questions:

1. Does listening to background music enhance study efficiency among undergraduate students?

The findings suggest that background music positively increases level of concentration and motivation among students. However, its impact on actual learning process remains inconclusive, as it was shown by the almost same GPA scores between students who study with and without music.

2. Are certain genres or listening patterns more effective than others?

Yes. As it was studied in the research different genres of music has different effects. Instrumental and classic music was reported as the most effective and helpful genres while doing tasks. While listening to lyrical music showed negative effect on memory performance and tasks related to reading. These genre-specific patterns reinforce the need for task-appropriate music selection, as emphasized in Huang and Shih (2020).

However, it is also important to consider individual preferences as well. Because what might be distraction to one student could be a motivational aid for another. As Jäncke and Sandmann (2010) point out, personality traits (e.g., introversion vs. extraversion) may moderate how music affects cognitive processing.

While judging this research some limitations should be considered. First, the study relied on self-assessed answers by students so results may be vulnerable to bias and inaccuracy. Second, the cross-sectional design limits our ability to establish causality. Third, the survey did not focus on specific academic tasks like reading comprehension or math problems, which may be affected differently by music.

Conclusion. This study is conducted to learn how background music affects study efficiency among undergraduate students in higher education, focusing particularly on self-reported survey. According to

responses from all 204 participants, the results show that a significant majority of students have added music to their daily and study routines and confirm increased motivation and concentration during tasks.

The findings highlight that some music genres, particularly instrumental and classic, positively affect students’ study efficiency rising focus and motivation. In comparison, lyrical music serves as distraction for most students when it comes to tasks that require comprehension and memory. Although the positive impact of music as a background sound was notable, the data did not show any noticeable outcome on actual GPA score.

This shows an important distinction: background music can improve the motivational and emotional dimensions of studying, but it does not necessarily guarantee enhanced academic performance. Such outcome depends on various factors, such as music genre, task complexity, individual differences, and study environment.

In conclusion, background music — when used thoughtfully — can serve as a valuable companion to academic study, enhancing mood and motivation. However, its effectiveness ultimately depends on the right match between the learner, the task, and the music itself. Students and educators alike should be encouraged to experiment, reflect, and personalize their study environments to maximize both comfort and productivity.

References:

1. Ázmi, M. T. F. B. K., TseKian, N., & Rashid, F. N. (2023). Music Matters: The Role of Background Music in Improving Students’ Attention and Learning Outcomes. International Journal of Membrane Science and Technology, 10(3), 1898–1908.

2. Bangchang, K. N. (2015). Factors affecting academic performance of undergraduate students. International Journal of Multidisciplinary Approach and Studies, 2(2), 45–59.

3. Cantril, H., & Allport, G. W. (1935). The Psychology of Radio. New York, NY: Harper & Brothers.

4. Chen, N. (2023). Effects of different types of music on students’ study efficiency. Journal of Education, Humanities and Social Sciences IMPES, 26(2024), 881–896.

5. Dweck, C. S. (1986). Motivational processes affecting learning. American Psychologist, 41(10), 1040–1048. https://doi.org/10.1037/0003-066X.41.10.1040

6. Goltz, A., & Sadakata, M. (2021). [Title unspecified]. Discussed metacognitive impacts of lyrical music on academic tasks.

7. Huang, R. H., & Shih, Y. N. (2011). Effects of background music on concentration of workers. Work, 38(4), 383–387. https://doi.org/10.3233/WOR-2011-1141

8. Jäncke, L., & Sandmann, P. (2010). Lyrical vs. instrumental music effects on academic focus. Frontiers in Psychology, 1(194). https://doi.org/10.3389/fpsyg.2010.00194

9. Kämpfe, J., Sedlmeier, P., & Renkewitz, F. (2011). The impact of background music on adult listeners: A meta-analysis. Psychology of Music, 39(4), 424–448. https://doi.org/10.1177/0305735610376261

10. Kotsopoulou, A., & Hallam, S. (2010). Effects of lyrical versus non-lyrical music on student concentration. Psychology of Music, 38(3), 111–120.

11. Perlovsky, L. (2012). Music as a cognitive universal phenomenon. In M. Fitch (Ed.), Cognitive Function of Music (Part I). ISSR Publications.

12. Ritter, S. M., & Ferguson, S. (2017). Happy creativity: Listening to happy music facilitates divergent thinking. PLOS ONE, 12(9), e0182210. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0182210

13. Schellenberg, E. G., & Weiss, M. W. (2013). Music and cognitive abilities. In D. Deutsch (Ed.), The Psychology of Music (3rd ed., pp. 499–550). Elsevier.

14. Taheri, M., et al. (2022). Investigating the effect of background music on cognitive and skill performance: A cross-sectional study. Work, 71(2), 383–387.

15. Van Goethem, A., & Sloboda, J. (2011). The functions of music for affect regulation: Goals, strategies, tactics, mechanisms. Psychology of Music, 39(4), 381–399. https://doi.org/10.1177/0305735610374899

16. Oxford Learning. (2023). Can You Enhance Study Sessions With Background Music? Retrieved from Oxford Learning website.

UO‘K 378:37.017.4

KONVERGENT YONDASHUV ASOSIDA MILLATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATIV PEDAGOGIK MODELI

Choriyev Jo‘raqul G‘afforovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
choriyev63@mail.ru

Ushbu maqolada millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi konvergent yondashuv nuqtayi nazaridan qayta talqin qilinadi va oliy ta’lim uchun integrativ pedagogik model taklif etiladi. Tadqiqot nazariy-modellashtirish xarakteriga ega bo‘lib, 2021–2026 yillarda chop etilgan o‘n manba – xalqaro, Rossiya va O'zbekiston mualliflari ishlarining sifat tahliliga tayandi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy adabiyotlarda millatlararo va interkultural kommunikativ kompetensiya, avvalo, bilim, qadriyat-munosabat, xulq-atvor, refleksiya, vositachilik hamda kontekstga moslashuvning birligi sifatida tushuntiriladi, biroq bu tarkibiy qismlar aksar hollarda bo‘laklangan holda o‘qitiladi. Maqolada ayni bo‘laklanishni bartaraf etuvchi, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, ijtimoiy psixologiya, raqamli muloqot va tarbiyaviy amaliyotni yagona didaktik tizimga yaqinlashtiruvchi integrativ model ishlab chiqildi. Modelning ilmiy yangiligi shundaki, u kommunikativ kompetensiyani faqat til ko‘nikmasi yoki tolerantlik tarbiyasi doirasida emas, balki ko‘p qatlamli o‘quv-ekotizim mahsuli sifatida ko‘radi. Modelning amaliy ahamiyati uning nofilologik va pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim dasturlariga, modulli kurslar va refleksiv baholash tizimlariga tatbiq etish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *konvergent yondashuv, millatlararo kommunikativ kompetensiya, integrativ pedagogik model, refleksiv baholash, bilingval vositachilik, dialogik ta’lim.*

ИНТЕГРАТИВНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ОСНОВЕ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА

В данной статье проблема формирования межнациональной коммуникативной компетенции переосмысляется с позиции конвергентного подхода, и предлагается интегративная педагогическая модель для высшего образования. Исследование носит теоретико-моделирующий характер и основано на качественном анализе десяти источников, опубликованных в 2021–2026 годах, включая работы международных, российских и узбекских авторов. Анализ показал, что в современной литературе межнациональная и межкультурная коммуникативная компетенция, как правило, рассматривается как единство знаний, ценностно-отношенческих установок, поведенческих стратегий, рефлексии, медиативных умений и контекстной адаптации; однако эти компоненты зачастую преподносятся фрагментарно. В статье разработана интегративная модель, преодолевающая указанную фрагментацию и объединяющая лингвистику, культурологию, социальную психологию, цифровую коммуникацию и воспитательную практику в единую дидактическую систему. Научная новизна модели заключается в рассмотрении коммуникативной компетенции не только как языкового навыка или результата воспитания толерантности, но как продукта многоуровневой образовательной экосистемы. Практическая значимость модели проявляется в возможности её применения в образовательных программах непрофильных и педагогических направлений, модульных курсах и системах рефлексивного оценивания.

Ключевые слова: *конвергентный подход, межнациональная коммуникативная компетенция, интегративная педагогическая модель, рефлексивное оценивание, билингвальное посредничество, диалогическое обучение.*

AN INTEGRATIVE PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON A CONVERGENT APPROACH

This article reinterprets the formation of intercultural communicative competence from the perspective of a convergent approach and proposes an integrative pedagogical model for higher education. The study is theoretical and modeling in nature and is based on a qualitative analysis of ten sources published between 2021 and 2026, including works by international, Russian, and Uzbek scholars. The analysis shows that in contemporary literature, intercultural communicative competence is generally understood as an integration of knowledge, value-based attitudes, behavioral strategies, reflection, mediation skills, and contextual adaptability; however, these components are often taught in a fragmented manner. The article develops an integrative model that overcomes this fragmentation by bringing linguistics, cultural studies, social psychology, digital communication, and educational practice into a unified didactic system. The scientific novelty of the

model lies in viewing communicative competence not merely as a language skill or an outcome of tolerance education, but as a product of a multi-layered educational ecosystem. The practical significance of the model is reflected in its applicability to higher education programs in both non-philological and pedagogical fields, modular courses, and systems of reflective assessment.

Keywords: *convergent approach, intercultural communicative competence, integrative pedagogical model, reflective assessment, bilingual mediation, dialogic learning.*

Kirish. Globallashuv, akademik mobillik, raqamli hamkorlik va ko‘pmadaniyatli auditoriyalar kengayib borayotgan bir paytda kommunikativ kompetensiyani faqat til vositalari majmuyi sifatida talqin qilish yetarli bo‘lmay qoldi. So‘nggi tadqiqotlarda interkultural kompetensiya va interkultural kommunikativ kompetensiya ko‘p domenli qobiliyat, ya’ni kognitiv, affektiv, xulqiy va bevosita kommunikativ qatlamlardan iborat murakkab konstrukt sifatida talqin qilinmoqda [1, 1–2-b.; 2, 13885–13886-b.; 5, 757–760-b.; 7]. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitida bu kompetensiya shunchaki “madaniyat haqida bilish” emas, balki tafovut sharoitida to‘g‘ri, maqsadga muvofiq va etik muloqot qurish qobiliyatini anglatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, millatlararo muloqot ko‘pincha faqat tolerantlik, faqat lingvistik tayyorgarlik yoki faqat akademik adaptatsiya doirasida ko‘riladi. Holbuki, talabalar muhitida bu hodisa bilim, his-tuyg‘u, qadriy munosabat, xatti-harakat, ijtimoiy moslashuv va vositachilikning bir vaqtning o‘zida ishlashini taqozo etadi [3, 60–62-b.; 4, 3139–3141-b.; 8, 94–96-b.; 10, 58–60-b.]. Yaponiya kontekstida ishlab chiqilgan yangi modellarda proaktivlik, “umumiy insoniy asos”ni ko‘ra bilish va mantiqiy-kommunikativ yetuklik alohida ko‘rsatib o‘tilsa, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston tajribalarida bilingvizm, o‘zaro hurmat, ijtimoiy moslashuv va qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat ustuvor o‘rin egallaydi [3, 60–78-b.; 4, 3139–3143-b.; 6; 8, 94–96-b.; 10, 58–71-b.].

Shu yerda asosiy ilmiy muammo yuzaga chiqadi: millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga doir nazariy qarashlar yetarlicha boy bo‘lsa-da, ular o‘quv dizaynida ko‘pincha tarqoq ko‘rinishda qo‘llanadi. Bir kursda til, boshqa kursda madaniyat, uchinchi bir faoliyatda ijtimoiy moslashuv o‘rgatiladi; natijada talabaning real kommunikativ vaziyatda harakat qilishi uchun zarur yaxlit kompetensiya hosil bo‘lmaydi. Konvergent yondashuv aynan ana shu parchalanishni bartaraf etib, turli bilim va amaliyot liniyalarini bir kommunikativ hodisaning atrofida birlashtirish imkonini beradi [5, 757–760-b.; 8, 94–96-b.; 9, 45–47-b.].

Mazkur maqolaning maqsadi – 2021–2026 yillardagi dolzarb ilmiy manbalar tahlili asosida millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning integrativ pedagogik modelini ishlab chiqish va uning tuzilmasini IMRAD mantiqida asoslashdir. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar kommunikativ, madaniy, refleksiv, bilingval va diagnostik komponentlar konvergent yondashuv asosida yagona didaktik tizimga birlashtirilsa, millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni qo‘shimcha tarbiyaviy ish emas, balki o‘qitishning ichki mexanizmiga aylanadi.

Metodologiya. Tadqiqot nazariy-modellashtirish va sifatli kontent tahlili asosida olib borildi. Manbalar korpusi 2021–2026 yillarda nashr etilgan, mavzu bilan bevosita bog‘liq o‘n ilmiy ishni qamrab oldi. Tanlov mezonlari quyidagicha belgilandi: birinchidan, manba millatlararo yoki interkultural kommunikativ kompetensiyani oliy ta’lim, pedagogik tayyorgarlik, talaba moslashuvi, bilingval yondashuv yoki raqamli kommunikatsiya bilan bog‘lab tahlil qilgan bo‘lishi; ikkinchidan, unda model, komponent, baholash yoki pedagogik shartlarga oid aniq xulosalar mavjud bo‘lishi; uchinchidan, manba ochiq bibliografik identifikatsiyaga ega bo‘lishi kerak edi.

Tahlil jarayonida har bir manba oltita analitik mezon asosida kodlandi: kognitiv-ma’rifiy qatlam; aksiologik-affektiv qatlam; pragmatik-xulqiy strategiyalar; refleksiv-o‘zini boshqarish; bilingval yoki plurilingval vositachilik; raqamli-kollaborativ muloqot. Shu asosda qiyosiy matritsa tuzildi, so‘ng strukturaviy-funksional modellashtirish yordamida integrativ pedagogik model ishlab chiqildi.

Metodologik asos sifatida uch yondashuv o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Birinchisi – kompetensiyaviy yondashuv: natija tayyor bilim emas, universal va kontekstga mos qo‘llanadigan qobiliyat ekanligi. Ikkinchisi – konvergent yondashuv: til, madaniyat, psixologiya, raqamli vositalar va tarbiyaviy amaliyotni alohida bloklar emas, kesishuvchi didaktik chiziqlar sifatida ko‘rish. Uchinchisi – integrativ modellashtirish: maqsad, mazmun, faoliyat, refleksiya va diagnostika o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni ochish.

Natijalar. Tanlangan manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, millatlararo kommunikativ kompetensiya haqidagi zamonaviy tadqiqotlarda to‘rtta tayanch tendensiya ravshan ko‘rinadi. Birinchidan, kompetensiya deyarli barcha mualliflarda ko‘p komponentli hodisa sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, u faqat nutqiy yoki lingvistik tayyorgarlik bilan chegarlanmaydi. Uchinchidan, barqaror natija refleksiv va diagnostik mexanizmlarsiz yuzaga kelmaydi. To‘rtinchidan, zamonaviy oliy ta’limda raqamli hamkorlik vositalari foydali bo‘lsa-da, ular pedagogik boshqaruvsiz kutilgan natijani bermaydi [1, 1–2-b.; 2, 13885–13912-b.; 3, 60–78-b.; 5, 757–783-b.; 6; 7; 9, 45–60-b.].

1-jadval.

Millatlararo kommunikativ kompetensiya bo‘yicha tanlangan manbalar va ularning model uchun analitik ahamiyati

Manba	Asosiy ilmiy g‘oya	Integrativ model uchun chiqarilgan xulosa
Genkova, Schreiber	Interkultural kompetensiyani o‘lchashda umumiy va madaniyatga xos komponentlarni ajratish zarur	Diagnostik blok umumiy indikatorlar bilan birga kontekstga xos mezonlarni ham qamrashi kerak
Gutiérrez-Santiuste, Ritacco-Real	Telehamkorlikda xulqiy, affektiv va kognitiv o‘lchamlar o‘zaro ishlaydi	Jarayon blokiga videomuloqot, hamkorlikdagi vazifalar va nazoratli dialoglar kiritiladi
Ivanchin, Konstantinov	Interkultural kompetensiya talabalar adaptatsiyasining muhim prediktori	Natijaviy blokda sotsial-psixologik va akademik moslashuv belgilarini hisobga olish zarur
Karimova, Mahmudova	Millatlararo muloqot madaniyati o‘zaro anglashuvga eltuvchi bilim, ko‘nikma va axloqiy tayyorgarlikni talab qiladi	Modelning aksiologik blokida hurmat, bag‘rikenglik va etnomadaniy sezgirlik markaziy o‘rin oladi
Kashirskaya, Kharkhurin	Polilingval, interkultural va kreativ kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish samarali	Konvergent yondashuv lingvistik, madaniy va ijodiy amaliyotni birlashtirishi lozim
Munezane	Proaktivlik, qat’iyat, umumiy insoniylik asosini ko‘ra bilish va mantiqiy yetuklik muhim	Refleksiv-motivatsion qatlam modelning ichki harakatlantiruvchi yadro sifatida belgilanadi
Naranjo-Toro va boshq.	Raqamli yondashuvlarda kognitiv, affektiv, xulqiy va kommunikativ domenlar kesishadi	Modelda raqamli-kollaborativ muhit mustaqil, ammo markaziy bo‘lmagan vosita sifatida qaraladi
Narshabaeva	Bilingval yondashuv millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasi	Mazmun blokiga tillararo vositachilik va qiyosiy madaniy topshiriqlar kiritiladi
Pavlova va boshq.	Interkultural qiziqish, barqarorlik, etnotsentrizmning pasayishi va o‘zaro ta’sirni boshqarish muhim	Pedagogik model o‘qituvchi fasilitatsiyasi va vaziyatli baholash usullariga tayanadi
Yuldasheva	O‘zbekistondagi nofilologik OTMlarda interkultural ko‘nikmalarni rivojlantirish amaliy strategiyalarni talab qiladi	Modelni nofilologik yo‘nalishlar uchun ham moslashtirish mumkin

1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, adabiyotlarda uchta qatlam, ayniqsa, takroran uchraydi: muloqotning ma’noli mazmunini tushunish, muloqot etikasi va qarshi tomon pozitsiyasini qabul qila olish, hamda vaziyatga mos xulqiy strategiyalarni tanlash. Demak, millatlararo kommunikativ kompetensiya biror bitta predmetning natijasi emas; u bilim, emotsional tayyorgarlik, amaliy harakat, refleksiya va ijtimoiy moslashuvning kesishgan nuqtasida shakllanadi [1, 1–2-b.; 2, 13885–13886-b.; 4, 3139–3141-b.; 9, 45–47-b.].

Shu asosda maqolada millatlararo kommunikativ kompetensiyaga quyidagi ishchi ta’rif berildi: u turli milliy-madaniy jamoalar vakillari bilan muloqotda til vositalari, madaniy bilim, empatik pozitsiya, etik me’yor, vositachilik strategiyasi va refleksiv nazoratni kontekstga mos tarzda uyg‘un qo‘llashga imkon beruvchi integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir. Bu ta’rif kompetensiyani nafaqat “gapirish qobiliyati”, balki “munosabatni qurish qobiliyati” sifatida ko‘radi [4, 3139–3143-b.; 5, 757–760-b.; 6; 8, 94–96-b.; 9, 45–47-b.].

Taklif etilgan modelda eng muhim yangilik – bloklarning bir-biriga tashqi ravishda ulanib turishi emas, balki ichki sabab-oqibat zanjiri sifatida ishlashidir. Mazmuniy blokdagi “madaniyat haqida bilim” jarayonli blokdagi dialogik vazifa bilan qo‘shilmasa, u quruq informatsiya bo‘lib qoladi; diagnostik blok refleksiv mexanizm bilan birlashmasa, baholash faqat nazorat funksiyasini bajaradi; maqsadli blok adaptiv natijalar bilan tekshirilmasa, kompetensiya real hayotga ko‘chmaydi [1, 10-b.; 3, 60–62-b.; 7; 9, 45–60-b.].

2-jadval.

Konvergent yondashuv asosdagi integrativ pedagogik modelning tuzilmasi

Blok	Mazmuni	Pedagogik vositalar	Kutiladigan indikatorlar
Maqsadli blok	Talabada millatlararo muloqotni samarali, etik va refleksiv tashkil etish	O‘quv natijalarini kompetensiya tilida ifodalash	Muloqotga tayyorgarlik, motivatsiya, ochiqlik

Blok	Mazmuni	Pedagogik vositalar	Kutiladigan indikatorlar
	qobiliyatini rivojlantirish		
Konseptual-tamoyiliy blok	Konvergensiya, dialogiklik, plurilingvizm, kontekstual moslashuv, refleksivlik	Kurslararo integratsiya, vaziyatli yondashuv	Tushunchalarni transfer qila olish
Mazmuniy blok	Til va nutq, madaniy kodlar, etik me’yorlar, stereotiplar tahlili, konfliktologiya, raqamli muloqot etikasi	Modulli kontent, qiyosiy tahlil, keislar	Madaniy farqlarni tahlil qilish, qoidalarni anglash
Jarayonli-texnologik blok	Real va simulyativ muloqot faoliyati	Debat, rol o‘yinlari, telehamkorlik, bilingval topshiriq, loyiha, refleksiv kundalik	Vaziyatga mos nutq, vositachilik, hamkorlik
Diagnostik blok	Kirish, joriy va yakuniy baholashning birligi	Rubrika, portfel, vaziyatli test, o‘z-o‘zini baholash, tengdosh fikri	O‘zgarish dinamikasini ko‘ra olish
Natijaviy blok	Kognitiv, affektiv, pragmatik, refleksiv va adaptiv o‘sish	Formativ teskari aloqa	Barqaror kommunikativ xulq, moslashuvchanlik, etnotsentrizmning pasayishi

Muhokama. Taklif etilgan modelning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, millatlararo kommunikativ kompetensiya “til + madaniyat” formulasi bilan tugamaydi. Unga stereotiplarni anglash, qarama-qarshi pozitsiyani eshitish, konfliktni yumshatish, mazmunni boshqa til yoki madaniy kod orqali vositachilik bilan yetkazish, raqamli muhitda etik hamkorlik qilish va o‘z kommunikativ xatti-harakatini tahlil eta olish kiradi. Shu bois modelning konvergent xarakteri mazmunni boyitish uchungina emas, balki kompetensiyaning haqiqiy predmetini to‘g‘ri aniqlash uchun zarur [6; 7; 8, 94–96-b.].

Bu yerda, ayniqsa, Kashirskaya va Kharkhurin taklif etgan polilingval, interkultural va kreativ kompetensiyalarni birgalikda ko‘rish g‘oyasi muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Mazkur qarashdan kelib chiqib, konvergent yondashuvni biz turli kompetensiyalarni oddiy qo‘shib qo‘yish emas, balki ularni bir kommunikativ hodisaning atrofida qayta tashkil etish deb talqin qilamiz. Demak, masalan, “xalqaro guruhda loyiha himoyasi” topshirig‘i bir vaqtning o‘zida nutqiy aniqlikni, madaniy sezgirlikni, hamkorlikni, raqamli muloqotni va refleksiyani ishga solishi kerak [5, 757–760-b.; 7].

O‘zbekiston oliy ta’limi uchun bu modelning alohida qiymati bor. Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida ham interkultural ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligi, talabalar muloqotiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish strategiyalari Yuldasheva tomonidan ko‘rsatilgan; Narshabaeva bilingval yondashuvning millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi rolini qayd etgan; Karimova va Mahmudova esa talabalar muhitida o‘zaro anglashuvni ta’minlash uchun maxsus bilim, ko‘nikma va axloqiy tayyorgarlik zarurligini asoslagan [4, 3139–3143-b.; 8, 94–96-b.; 10, 58–71-b.]. Shuning uchun taklif etilgan modelni filologik yo‘nalishlar bilan cheklamasdan, pedagogika, menejment, texnika, tibbiyot va xizmat ko‘rsatish sohalarida ham tatbiq etish mumkin.

Modelning diagnostik qismi ham alohida izohga loyiq. Pavlova va hammualliflar ko‘rsatganidek, interkultural kompetensiya o‘qituvchining o‘zini samarali tutishi, interkultural qiziqishi, barqarorligi va o‘zaro ta’sirni boshqara olishiga bevosita bog‘liq; Ivanchin va Konstantinov esa bu kompetensiya talabalarning ijtimoiy-psixologik hamda akademik moslashuvini bashorat qila olishini ko‘rsatadi [3, 60–78-b.; 9, 45–60-b.]. Demak, millatlararo kommunikativ kompetensiyani baholashda faqat “biladimi-yo‘qmi” degan mezon kifoya qilmaydi. Talabaning vaziyatda qanday qaror qabul qilishi, qaysi nutqiy strategiyani tanlashi, kelishmovchilikda o‘zini qanday tutishi va keyin bu tajribani qanday tahlil qilishi ham o‘lchanishi kerak [1, 9–10-b.; 3, 60–78-b.; 9, 45–60-b.].

Raqamli komponentga doir xulosa ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Telehamkorlik va virtual almashinuv interkultural rivojlanish uchun foydali ekani ko‘plab ishlar bilan tasdiqlanmoqda, biroq bu vositalar o‘z-o‘zidan kompetensiyani shakllantirmaydi. Ular topshiriqning tashkil etilishi, muloqot mavzusining tanlanishi, fasilitatsiya sifati va refleksiv teskari aloqa mavjud bo‘lgandagina samarali natija beradi [2, 13885–13912-b.; 7]. Shu sababli modelda raqamli vosita maqsad emas, pedagogik vosita sifatida joylashtirildi.

Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, u empirik eksperiment emas, balki adabiyotlar sintezi va nazariy modellashtirishga tayangan ishdir. Shunga qaramay, uning ilmiy qimmati kam emas: birinchidan, u 2021–2026 yillardagi turli ilmiy maktablar xulosalarini yagona konseptual tuzilishga keltirdi; ikkinchidan, O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lgan bilingval va millatlararo muloqot masalalarini global interkultural

kompetensiya diskursi bilan bog‘ladi; uchinchidan, keyingi bosqichdagi tajriba-sinov tadqiqotlari uchun aniq operatsional bloklar va indikatorlarni taklif etdi [4, 3139–3143-b.; 5, 757–783-b.; 7; 8, 94–96-b.; 10, 58–71-b.].

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi umumlashma xulosaga kelindi: millatlararo kommunikativ kompetensiya oliy ta’limda alohida predmet yoki epizodik tarbiyaviy ish orqali emas, balki konvergent pedagogik muhit orqali shakllanadi. Bunday muhitda til, madaniyat, axloqiy munosabat, refleksiya, adaptatsiya va raqamli muloqot alohida-alohida emas, balki bir real kommunikativ vazifada kesishadi [2, 13885–13886-b.; 5, 757–760-b.; 7; 9, 45–47-b.].

Maqolada ishlab chiqilgan integrativ pedagogik modelning nazariy ahamiyati shundaki, u interkultural kommunikativ kompetensiyani bo‘laklangan tasniflar yig‘indisi emas, tarkibiy jihatdan uyg‘unlashgan pedagogik hodisa sifatida ifodalaydi. Uning amaliy ahamiyati esa modulli o‘quv dasturlari, telehamkorlik faoliyatlari, bilingval topshiriqlar, refleksiv portfel va vaziyatli baholash vositalarini yagona tizimda qo‘llash imkonini berishidadir [1, 9–10-b.; 3, 60–78-b.; 8, 94–96-b.; 10, 58–71-b.].

Shunday qilib, konvergent yondashuv asosida qurilgan integrativ pedagogik model millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda nafaqat nazariy jihatdan izchil, balki O‘zbekiston oliy ta’limi amaliyoti uchun ham metodik jihatdan qo‘llashga tayyor konseptual yechim sifatida baholanishi mumkin. Keyingi bosqichda ushbu modelni tajriba-sinov asosida tekshirish, indikatorlar validligini aniqlash va turli ta’lim yo‘nalishlarida natijaviyligini qiyosiy tekshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi [3, 60–78-b.; 7; 10, 58–71-b.].

Adabiyotlar:

1. Genkova P., Schreiber H. Measuring intercultural competence–A review and introduction of the Cult Euro 1 test for intercultural competence // Frontiers in Psychology. 2025. Vol. 16. Art. 1621499. DOI: 10.3389/fpsyg.2025.1621499.

2. Gutiérrez-Santiuste E., Ritacco-Real M. Intercultural communicative competence in higher education through telecollaboration: typology and development // Education and Information Technologies. 2023. Vol. 28, No. 11. P. 13885–13912. DOI: 10.1007/s10639-023-11751-3.

3. Ivanchin S.A., Konstantinov V.V. Intercultural competence as a predictor of international students’ adaptation (a case study of representatives from Central Asian countries) // Education & Pedagogy Journal. 2025. No. 4. P. 60–78. DOI: 10.23951/2782-2575-2025-4-60-78.

4. Karimova N.M., Mahmudova M.M. The formation of a culture of interethnic communication among students: a methodological analysis // Philosophical Readings. 2021. Vol. XIII, No. 4. P. 3139–3143. DOI: 10.5281/zenodo.5805583.

5. Каширская Э.В., Хархурин А.В. Компетентностный подход к системе образования в рамках обучающей системы ПИСК // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2022. Т. 19, № 4. С. 757–783. DOI: 10.17323/1813-8918-2022-4-757-783.

6. Munezane Y. Conceptualizing intercultural communicative competence in higher education in the Japanese context: Insights from language learners, practitioners, and public arena // Social Sciences & Humanities Open. 2025. Vol. 11. Art. 101205. DOI: 10.1016/j.ssaho.2024.101205.

7. Naranjo-Toro M., Basantes-Andrade A., Meneses M., Guerra J. Digital approaches to intercultural competence in higher education–a PRISMA systematic review with bibliometric and SWiM evidence // Frontiers in Education. 2026. Vol. 11. Art. 1725080. DOI: 10.3389/feduc.2026.1725080.

8. Narshabaeva A.Y. Improving the pedagogical mechanism of developing students’ culture of interethnic communication on the basis of a bilingual approach // Fan va jamiyat. 2021. No. 1(1–2). P. 94–96.

9. Павлова О.С., Хухлаев О.Э., Бучек А.А., Александрова Э.А., Гаврюшина М.К., Кривцова А.С., Лейбман И.Я., Шорохова В.А. Межкультурная компетентностъ и самоэффективностъ учителя в мулътикультурной среде // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2022. Т. 19, № 1. С. 45–60. DOI: 10.17323/1813-8918-2022-1-45-60.

10.Yuldasheva T.A. The development of intercultural communication skills among students of non-linguistic higher education institutions in Uzbekistan // Western European Journal of Linguistics and Education. 2025. Vol. 3, No. 1. P. 58–71.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Shamsiddinova Elmira Muxammadjanovna,
TMC instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
sh.elmira@tmci.uz

Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda kreativlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlar ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kreativ fikrlashi, innovatsion yondashuvi va muammoli vaziyatlarga nostandart yechim topa olishi muhim kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish omillarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi. Tadqiqot davomida kreativlikka ta’sir qiluvchi individual-psixologik xususiyatlar sifatida motivatsiya, temperament, tafakkur moslashuvchanligi, emotsional barqarorlik, refleksiya, kommunikativlik va mustaqil fikrlash kabi jihatlar tahlil qilindi. Maqolada psixologik xususiyatlarning pedagogik faoliyat samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan hamda bo‘lajak pedagoglarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, bo‘lajak pedagog, individual-psixologik xususiyatlar, motivatsiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, tafakkur moslashuvchanligi, kreativ fikrlash, pedagogik kompetensiya, innovatsion faoliyat.*

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы индивидуально-психологические особенности, влияющие на формирование креативности у будущих педагогов. В современной системе образования креативное мышление педагога, инновационный подход и способность находить нестандартные решения проблемных ситуаций рассматриваются как важнейшие профессиональные компетенции. В связи с этим изучение факторов развития креативности у будущих учителей является одной из актуальных научных проблем. В ходе исследования были рассмотрены такие индивидуально-психологические качества, как мотивация, темперамент, гибкость мышления, эмоциональная устойчивость, рефлексия, коммуникативность и самостоятельное мышление. В статье раскрыта взаимосвязь психологических особенностей с эффективностью педагогической деятельности, а также разработаны психолого-педагогические рекомендации по развитию креативного потенциала будущих педагогов. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования процесса подготовки педагогических кадров в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *креативность, будущий педагог, индивидуально-психологические особенности, мотивация, рефлексия, эмоциональная устойчивость, гибкость мышления, креативное мышление, педагогическая компетентность, инновационная деятельность.*

INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS INFLUENCING THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS

This article analyzes the individual psychological characteristics influencing the formation of creativity in future teachers from a scientific and pedagogical perspective. In the modern education system, creative thinking, innovative approaches, and the ability to find non-standard solutions to problematic situations are considered among the most important professional competencies of teachers. Therefore, studying the factors affecting the development of creativity in future educators is regarded as a relevant scientific issue. The study examines such individual psychological characteristics as motivation, temperament, flexibility of thinking, emotional stability, reflection, communicative abilities, and independent thinking. The article reveals the relationship between psychological characteristics and the effectiveness of pedagogical activity and provides psychological and pedagogical recommendations aimed at developing the creative potential of future teachers. The research findings have significant scientific and practical importance for improving the process of teacher training in higher educational institutions.

Keywords: *creativity, future teacher, individual psychological characteristics, motivation, reflection, emotional stability, flexibility of thinking, creative thinking, pedagogical competence, innovative activity.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarga kreativ yondasha oladigan, innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi pedagoglarni talab etmoqda. Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarining eng dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki kreativlik pedagogning nafaqat kasbiy muvaffaqiyatini, balki ta’lim jarayonining samaradorligini ham belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida reproduktiv yondashuvdan kreativ va kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish kuzatilmoqda. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning individual-psixologik imkoniyatlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Pedagogik faoliyatning murakkab va dinamik xarakterga ega ekanligi o‘qituvchidan yuqori darajadagi tafakkur moslashuvchanligi, emotsional barqarorlik, kommunikativlik hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi. Aynan ushbu individual-psixologik xususiyatlar kreativlikning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixologik tadqiqotlarda kreativlik insonning yangilik yaratishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, muammolarga noodatiy yondasha olish qobiliyati hamda divergent tafakkur bilan bog‘liq holda izohlanadi. J.Gilford, E.Torrance, A.Maslow, K.Rodjers kabi xorijiy olimlar kreativlikning shaxs psixologiyasi bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida kreativlik erkin fikrlash, yuqori motivatsiya, ichki faollik va o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash hamda pedagogik tafakkurni takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bo‘lajak pedagoglarda kreativlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlar orasida motivatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiyaga ega talabalar ijodiy faoliyatga ko‘proq moyil bo‘lib, yangilik yaratishga intiladi. Tashqi nazorat va qat’iy cheklovlar esa aksincha kreativ fikrlashni pasaytirishi mumkin. Shu sababli ta’lim muhitida erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, temperament xususiyatlari ham kreativlik rivojiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sangvinik va xolerik tipdagi shaxslarda faollik, tashabbuskorlik va tezkor fikrlash kuchliroq namoyon bo‘lsa, melanxolik tip vakillarida chuqur mushohada va tahliliy yondashuv ustun bo‘lishi mumkin. Demak, kreativlikning namoyon bo‘lish shakli individual psixologik xususiyatlarga bog‘liq ravishda turlicha kechadi.

Tafakkur moslashuvchanligi ham kreativ pedagogni shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Moslashuvchan tafakkurga ega pedagog muammoli vaziyatlarda turli alternativ yechimlarni ishlab chiqishga qodir bo‘ladi. Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion metodlardan samarali foydalanadi hamda ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil eta oladi. Ayniqsa, zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va muammoli ta’lim yondashuvlarini qo‘llash pedagogdan kreativ fikrlashni talab qiladi.

Emotsional barqarorlik ham kreativ faoliyatning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Stress va psixologik bosim sharoitida emotsiyalarni boshqara olish pedagogning kreativ salohiyatini saqlab qolishga yordam beradi. Emotsional jihatdan barqaror pedagoglar yangi pedagogik vaziyatlarga tez moslashadi, pedagogik muammolarni konstruktiv hal qiladi hamda ijobiy psixologik muhit yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Bundan tashqari, refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati ham kreativlik rivojida muhim o‘rin tutadi. Reflektiv fikrlash pedagogga o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va yangi strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa kasbiy o‘sish va innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi bo‘lajak pedagoglarda kreativlik shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shu bilan birga, bo‘lajak pedagoglarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Mazkur tadqiqot bo‘lajak pedagoglarda kreativlik shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik xususiyatlarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi shaxs psixologiyasi, kreativlik nazariyasi hamda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi [1]. Tadqiqotda kreativlik shaxsning muammoli vaziyatlarga original yondasha olish, yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish va kasbiy faoliyatda innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlarning integratsiyalashgan tizimidan foydalanildi. Nazariy bosqichda kreativlikning psixologik mohiyati, uning pedagogik faoliyat bilan aloqadorligi hamda individual-psixologik xususiyatlarning kreativ fikrlashga ta’siri yuzasidan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, kreativlikning motivatsiya, refleksiya, divergent tafakkur, emotsional barqarorlik va kommunikativ kompetensiyalar bilan bog‘liq jihatlari ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganildi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda kreativ kompetensiyaning ahamiyati, innovatsion ta’lim texnologiyalarining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni ham qiyosiy tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot oliy ta’lim muassasasining pedagogika va psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar orasida olib borildi. Tadqiqot respondentlari pedagogik faoliyatga qiziqishi, ta’lim jarayonidagi faolligi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlab olindi. Tadqiqot davomida talabalar faoliyati tabiiy pedagogik muhitda kuzatildi hamda ularning kreativ fikrlashga oid reaksiyalari tahlil qilindi. Bunday yondashuv respondentlarning sun’iy sharoitdagi emas, balki real ta’lim jarayonidagi psixologik holatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda kuzatish metodidan foydalanish orqali talabalarning pedagogik vaziyatlarga munosabati, mustaqil qaror qabul qilish darajasi, tashabbuskorligi va kommunikativ faolligi o‘rganildi. Kuzatish jarayonida ayniqsa kreativ faoliyatni namoyon qiluvchi indikatorlarga e’tibor qaratildi. Jumladan, yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammoga noodatiy yechim topish, pedagogik topshiriqlarga innovatsion yondashish hamda guruhli ishlarda faol ishtirok etish kabi ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Shuningdek, tadqiqotda suhbat va so‘rovnoma metodlari ham qo‘llanildi. Suhbat jarayonida respondentlarning pedagogik faoliyatga munosabati, kasbiy motivatsiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji hamda kreativ faoliyatga qiziqish darajasi aniqlashtirildi. So‘rovnoma savollari esa talabalar shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini baholashga yo‘naltirildi. Savollarni ishlab chiqishda kreativlikning asosiy komponentlari – tafakkur moslashuvchanligi, originality, emotsional barqarorlik, refleksiya va ichki motivatsiya mezon sifatida olindi [2].

MODELIZATION OF OPTICAL PHENOMENA USING MODERN SOFTWARE PACKAGES AS A FACTOR FOR INCREASING STUDENTS' COGNITIVE ACTIVITY

This article analyzes how modern software tools and digital modeling are applied in the teaching of physics in higher education. While these tools play a significant role in enhancing students' cognitive activity, I believe it's not solely dependent on the technology. By demonstrating complex processes in the optics section, students transition from abstract thinking to logical conclusions, a process better understood when these phenomena are visualized.

As noted in the study, information and modeling skills are not merely technical. They contribute to a student's intellectual development and influence their growth as an individual learner. At times, the

formation of these skills can seem somewhat complex, as the method of thinking evolves alongside the technology.

Solving problem-based scenarios with interactive models helps students develop independent decision-making. Their capacity for analytical observation is also strengthened, enabling them to substantiate their own conclusions. The article highlights these effects, but in some places, these processes appear to be not fully elaborated upon.

Keywords: *cognitive activity, optical phenomena, information modeling, higher education, digital didactics, visualization, analytical thinking, intellectual development, virtual laboratory.*

Kirish. Yuzlab yillar davomida og'zaki xabarlar, masalan, ma'ruzalar va bosma darslar, o'quvchilarga g'oyalarni tushuntirishning asosiy vositasi bo'lib kelgan. Sof og'zaki taqdimotlarga muqobil sifatida odamlar so'zlar va rasmlar orqali o'rganadigan multimedia taqdimotlaridan foydalanish mumkin. Grafika texnologiyasidagi so'nggi yutuqlar inson tushunchasini rivojlantirishga qaratilgan yangi sa'y-harakatlarni keltirib chiqardi. Biz buni multimediya o'rganish istiqboli deb ataymiz.

Multimediani o'rganish so'zlar va rasmlardan o'rganishni anglatadi. Multimedia o'qitish o'rganishni rag'batlantirish maqsadida materialni so'zlar va rasmlar yordamida taqdim etishni o'z ichiga oladi. Bu o'qitish usulining asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchilar tushuntirishni faqat so'zlar bilan ifodalagandan ko'ra, so'zlar va rasmlar bilan taqdim etilganda yaxshiroq tushunishlari mumkin. Multimedia xabarlari yetkazish vositalariga, taqdimot rejimiga, yoki sensorli usullarga asoslanishi mumkin. Multimedia o'qitish dizayni ilg'or texnologiyalarning imkoniyatlariga qarab yoki insonning kognitiv tizimining tabiatiga ko'ra tasvirlanishi mumkin.

Multimediani o'qitishni javobni kuchaytirish, axborot olish, yoki bilimlarni shakllantirish sifatida ko'rib chiqish mumkin. Uchta mumkin bo'lgan o'rganish natijalari: o'rganishning yo'qligi, yodlab o'rganish, va mazmunli o'rganish. Mazmunli o'rganish natijalari o'rganuvchining o'rganish jarayonidagi xulq-atvor faolligiga emas, balki kognitiv faolligiga bog'liq. Asosiy tadqiqotlarning maqsadi o'rganish nazariyasiga hissa qo'shishdir, amaliy tadqiqotlarning maqsadi esa o'qitish dizayni tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu maqsadlarni birlashtirish amaliy vaziyatlar bo'yicha fundamental tadqiqotlarga olib keladi, bunda maqsad kognitiv nazariyaga asoslangan multimedia dizayn tamoyillarini yaratishdir.

Hozirgi kunda har qanday zamonaviy fizika tadqiqot laboratoriyasi kompyuterlar bilan to'ldirilgani haqida gapirish mumkin. Zamonaviy uskunalardan foydalangan holda tajribalarda olingan ma'lumotlar hajmi kattalashmoqda, shuning uchun uni avvaldan avtomatlashtirilgan kompyuterda qayta ishlash juda qiyin. Biroq, kompyuterlar o'lchov natijalarini qayta ishlashda va haqiqiy tajriba davomida bebaho afzalliklarga ega. Tajriba moslamalarini va tajribalar jarayonini kompyuter orqali boshqarish, internet orqali masofadan turib ishlash imkoniyati tufayli noyob zamonaviy uskunalarga ega fizika laboratoriyalari ko'p foydalanuvchilar uchun ochiq bo'ladi.

Kompyuterlar tadqiqot jarayonini, shuningdek, akademik fizika laboratoriyalarining qiyofasini o'zgartirmoqda. Ammo, bu jarayon kutilganidan sekinroq ro'y bermoqda. Shunga qaramay, kompyuter tomonidan boshqariladigan tajribalarning muhim roli va akademik laboratoriyalarda o'lchov natijalarini avtomatlashtirilgan qayta ishlash zaruriyati tan olinmoqda va kelajakda bu o'zgarishlar muqarrar [1].

Kompyuter modellashtirish bilan bog'liq vaziyat unchalik aniq emas. Hamma kompyuter simulyatorlari va o'quv vositalarining foydaliligini tasdiqlasa-da, fizikani o'qitishda fizik hodisalarni modellashtirishning roli haqida to'liq kelishuv mavjud emas.

O'qituvchilar uchun kompyuter modellashtirishning aniq afzalligi ta'sirchan va esda qolarli vizual tasvirlarni yaratishdir. Bunday tasvirlar o'rganilayotgan hodisaning muhim tafsilotlarini ancha yaxshiroq o'rganishni va eslab qolishni ta'minlaydi. Modellashtirish mavhum qonunlar va tushunchalarni vizual qiladi, talabalarning e'tiborini o'rganilayotgan hodisaning murakkab tafsilotlariga qaratadi. Natijalarni kompyuter ekranida grafik ravishda ko'rsatish, jarayonning animatsiyasi bilan birga, talabalarga ko'p ma'lumotlarni osonlik bilan tushunishga yordam beradi [2].

Ushbu maqolada yuqoridagi mulohazalarga asoslanib "Nur Doyrovi" - Yorug'lik Qutblanishini O'rganish uchun Interaktiv Simulyatsiya Dasturiy Paketidan foydalanildi. Ushbu dasturiy paket talabalarga yorug'likning qutblanishi bilan bog'liq fundamental qonuniyatlarni zamonaviy va interaktiv usulda o'rganish imkoniyati beradi. U klassik fizika hodisalarini kompyuter muhitida eng oddiy tarzda namoyish etish orqali o'quv jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. "Nur Doyrovi" dasturiy paketi yorug’lik qutblanishi bilan bog'liq murakkab nazariy tushunchalarni vizual va interaktiv tarzda tushuntirishga qaratilgan.

- Klassik qiyinchiliklar: An'anaviy o'quv jarayonida yorug'lik qutblanishini tushunish uchun ko'pincha qimmat optik asboblar va laboratoriya sharoitlari talab etiladi. Buning ustiga, qutblanish yo'nalishini aniqlash va uni o'zgartirish uchun vaqt talab etiladi, shuningdek, tajribaning muvaffaqiyati ba'zan tashqi omillarga

bog'liq. Yorug'lik qutblanishini "qo'lda" o'rganish ko'plab talabalar uchun qiyin va vaqt talab qiluvchi jarayon.

- Dasturiy yechimning afzalligi: Kompyuter muhitida yaratilgan "Nur Doyrovi" ushbu muammoni hal qiladi. U talabalariga ekranda o'zlari ko'rmaydigan hodisalarni vizual ravishda ko'rsatadi. Bu esa yorug'lik qutblanishining nazariy asoslarini chuqurroq va tezroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Dasturiy Paketning Asosiy Modullari va Qo'llanilishi:

1. “Yorug’lik Manbai va Tabiatini Tanlash” moduli:

- Funksiyasi: Turli turdagi yorug'lik manbalarini va ularning boshlang'ich holatini tanlash imkoniyati.

- Amaliy Qo'llanilishi: Talaba yorug'lik manbasiga qarab uning qutblanish xususiyatlari qanday o'zgarishini kuzatishi mumkin. Masalan, soyalanish natijasida yorug'likning qisman qutblanishini ko'rsatadi.

2. “Qutblagichlar va Tahlilchilar Simulyatsiyasi” moduli:

- Funksiyasi: Turli xil qutblagichlarni va ularning orientatsiyasini o'zgartirish imkoniyati. Tahlilchi vositalarini ham qo'shish mumkin.

- Amaliy Qo'llanilishi: Talaba qutblagichdan o’tgan yorug’likning intensivligi va holatini kuzatadi. Polarizator va analizatorlardan foydalanib, Malus qonunining tajribaviy tasdiqini ekranda ko'rishi mumkin.

3. “Qutblanish Hodisalarini Modellashtirish” moduli:

- Funksiyasi: Qaytish va sinish natijasida yorug'likning qutblanishi kabi hodisalarni modellashtirish.

- Amaliy Qo'llanilishi:

- Bryuster burchagi: Talaba turli moddalar uchun Brewster burchagini aniqlashi va bu burchakda qaytgan nur qanday qutblanishini kuzatishi mumkin. Yoqqa va sinish burchaklarini o'zgartirib, Brewster burchagini topish jarayonini avtomatik yoki qo'lda bajarishi mumkin.

- Frenel tenglamalari: Turli burchaklarda qaytgan va sinish natijasida nur intensivligining o'zgarishini kuzatish.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy texnologiya ta'limida optik hodisalarni modellashtirish nafaqat texnik masala; bu bizning qanday o'rganishimizni chuqur o'rganishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual modellardan foydalanish va o'quvchilar ularni qanchalik yaxshi tushunishlari ularga qanday o'qitish bilan chambarchas bog'liq. Asosiy manbalardan biri Richard E. Mayerning "Multimedia Learning" asaridir. Mayerning biz ham vizual, ham so'zlar orqali o'rganamiz degan g'oyasi vizual modellarning optikada nima uchun juda yaxshi ishlashini tushuntirishga yordam beradi. Uning so'zlariga ko'ra, o'quvchilar yorug'likning egilishi yoki sochilishi kabi murakkab optik jarayonni ham vizual, ham tushuntirishlar bilan ko'rganda, o'rganish osonlashadi. Bu ularga mavhum g'oyalarni aniq rasmlarga aylantirishga yordam beradi, bu esa ularni o'rganishga ko'proq jalb qiladi [1].

E.I. Butikov shuningdek, fizikada kompyuter modellaridan qanday foydalanishimiz mumkinligini sinchkovlik bilan o'rgangan. Uning fikricha, kompyuter modellari shunchaki laboratoriyalarning o'rnini bosuvchi emas; ular aslida o'quvchilarga ijodiy bo'lishga va ma'lumotni o'rganishga yordam beradi. Butikovning yondashuvi shundaki, interaktiv modellar o'quvchilarga nima bo'layotganini "boshqarish" imkonini beradi, bu ularni passiv kuzatuvchilardan faol o'quvchilarga aylantiradi [2].

Shuningdek, biz o'z ishlarini onlayn tarzda baham ko'radigan V. Kristian va F. Esquembrening ishlarini o'rganish orqali optik tizimlarni modellashtirishning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. Ular talabalar nafaqat tayyor modeldan foydalanishganida, balki Java yoki Python kabi dasturlar yordamida uning matematik komponentini yaratishda ham ularning analitik ko'nikmalari yaxshilanishini aniqladilar [5].

Mahalliy tadqiqotchilarimiz ham fizika o'qitishni va sinfda texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash ustida ishlamoqdalar. Masalan, N.Sh.Turdievning aytishicha, fizik jarayonlarni modellashtirish talabalarning mantiqiy fikrlashining kalitidir. Turdievning so'zlariga ko'ra, virtual laboratoriyalar va optika uchun dasturiy ta'minot modellari talabalarga mavhum tushunchalarni tasavvur qilishga va o'z xulosalarini chiqarishni o'rganishga yordam beradi (kognitiv kompetentsiya). Bu nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lashga yordam beradi [10].

Yana bir muhim yo'nalish - K. Viman boshchiligidagi PhET (Interaktiv Simulyatsiyalar) loyihasi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, optik hodisalarning interaktiv modellari talabalarga haqiqiy tajribalarda har doim ham ko'rinmaydigan kichik, submikroskopik darajada nima bo'lishini tasavvur qilishga yordam beradi. Oxir-oqibat, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dasturiy ta'minot yordamida optikani o'qitishda biz nafaqat fotosuratlarni ko'rsatishga, balki o'quvchilarni o'rganishga faol jalb qilishga, taxminlar qilishga va ularni modelda sinab ko'rishga ham e'tibor qaratishimiz kerak [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'sirida fizika o'qitishning didaktik o'zgarishini tahlil qilishga qaratilgan. Metodologik asos Richard E. Mayerning kognitiv multimedia o'rganish nazariyasiga asoslangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, optik jarayonlarni o'rganishda vizual va matnli (og'zaki) axborot oqimlarini muvofiqlashtirish o'quvchining

kognitiv resurslarini samaraliroq taqsimlash imkonini beradi va shu bilan materialni chuqurroq tushunish uchun sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda E.I. Butikov tomonidan taklif qilingan fizik modellashtirish tamoyillaridan foydalaniladi. Ushbu tamoyillar doirasida kompyuter modeli illyustrativ qo'shimcha sifatida emas, balki talaba uchun "interaktiv tadqiqot sohasi" sifatida qaraladi. Modellashtirish rivojlanib borishi bilan o'quvchi ma'lumotni passiv qabul qiluvchi rolidan faol sub'ekt roliga o'tadi, bu esa kognitiv faollikning ortishi bilan doimiy ravishda bog'liq bo'lgan omil sifatida talqin qilinishi mumkin.

Tadqiqot obyekti va eksperimental dizayn.

Eksperimental ish 2025–2026 o'quv yilida Qarshi davlat universitetining fizika mutaxassisligi talabalari ishtirokida o'tkazildi. Vakillik namunasini ta'minlash uchun 53 talaba tanlab olindi va ikki guruhga bo'lindi:

- Nazorat guruhi (30): O'quv jarayoni an'anaviy formatda, asosan nazariy ma'ruzalarga asoslangan va cheklangan laboratoriya sharoitida olib borildi.

- Eksperimental guruh (23): Zamonaviy dasturiy ta'minot paketlari (PhET Interactive Simulations, Optics Software, Wolfram Mathematica), shuningdek, xususiy interaktiv modellar bilan ishlash dars tuzilishiga izchil ravishda integratsiya qilindi.

Optik hodisalarni modellashtirish uchun bosqichma-bosqich algoritm

Tadqiqotning bir qismi sifatida talabalarning kognitiv faolligini boshqarish uchun bosqichma-bosqich algoritm ishlab chiqildi va amalga oshirildi. U quyidagi komponentlarni o'z ichiga oldi:

1. Muammolarni yaratish: Talabalarga optik hodisaning klassik tushunchalari (masalan, yorug'lik difraksiyasi) taqdim etiladi, shundan so'ng haqiqiy tajribada kuzatish qiyin bo'lgan elementlarga oid savollar shakllantiriladi.

2. Abstraktdan kognitiv modelga o'tish: Talabalar dasturiy ta'minot paketlaridan foydalangan holda jarayonning vizual modelini tuzadilar. Diqqat hodisaning matematik mantig'iga va uning vizual tasvirda qanday namoyon bo'lishiga qaratiladi.

3. Parametrik tahlil va gipotezani tekshirish: Modelning kirish parametrlarini (to'lqin uzunligi, to'siqlar orasidagi masofa, muhitning optik zichligi) o'zgartirish orqali talaba hodisaning dinamikasini tahlil qiladi. Bu bosqichda "savol → modeldagi harakat → natija → tahlil" sikli amalga oshiriladi.

4. Sintetik xulosani shakllantirish: virtual natijalar nazariy bilimlar bilan o'zaro bog'liq va integratsiyalashgan. Ushbu bo'limda talabaning ishi "tanib olish/tushunish" darajasidan "tahlil va sintez" darajasiga o'tadi.

Tadqiqot samaradorligini ob'ektiv baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar to'plamidan foydalanildi:

- Bilimlarni o'zlashtirish darajasi: talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini baholash uchun kognitiv murakkablik darajasini hisobga olgan holda tanlangan test topshiriqlari.

- Ijodkorlik koeffitsienti: taklif qilingan muammoli jismoniy vaziyatlarni modellashtirish orqali hal qilish qobiliyati. - Motivatsion ko'rsatkichlar: axborot texnologiyalari bilan ishlashga qiziqish va mavzuni o'rganishga ichki motivatsiyani baholash uchun psixologik anketalar (Likert shkalasi) ishlatilgan.

Olingan ma'lumotlarning ilmiy va statistik ishonchliligini tasdiqlash uchun matematik va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, nazorat va eksperimental guruhlar natijalari o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun Student t-testi qo'llanildi. <0,05 p-qiymati eksperimental guruhda qo'llanilgan modellashtirish texnikasi tasodifiy o'zgarish darajasida emas, balki statistik jihatdan ahamiyatli farq sifatida ijobiy ta'sir bilan bog'liq ekanligining dalili sifatida talqin qilinadi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash IBM SPSS Statistics va Microsoft Excel dasturlari yordamida amalga oshirildi, bu esa tadqiqot natijalarini qo'shimcha tekshirish va takrorlash imkonini berdi [5].

Tadqiqot natijalari. O’tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, optik hodisalarni zamonaviy dasturiy paketlar yordamida modellashtirish talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki kognitiv tahlil qilish qobiliyatini ham sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida olingan miqdoriy va sifat ko’rsatkichlar quyidagi ko’rsatkichlarda umumlashtiriladi:

1. Akademik o’zlashtirishning qiyosiy tahlili

Tajriba va sinov guruhlarida o’tkazilgan yakuniy nazorat ishlari natijalari talabalarning mavzuni o’zlashtirish darjasida jiddiy farq borligini ko’rsatdi. Nazorat guruhida (an’anaviy metod) talabalar asosan yod olingan fdormulalarga tayangan bo’lsa, tajriba guruhida (modellashtirish metodi)

Talabalar fizik jarayonning ichki mexanizmlarini tushuntirib berishda yuqori natija qayd etishdi (1-jadval).

1-jadval.

Nazorat va tajriba guruhlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar (5ballik tizimda)	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq%
Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish	3.6	4.4	+22%
Masala yechish ko’nikmasi	3.4	4.2	+23%
Fizik hodisani interpretatsiya qilish	3.1	4.6	+48%
O‘rtacha ko‘rsatkich	**3.37**	**4.4**	**+30%**

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng katta o'sish (+48%) "Fizik hodisalarni talqin qilish" toifasida qayd etilgan. Bu natija Richard E. Meyerning kognitiv nazariyasi tamoyillariga to'g'ridan-to'g'ri mos keladi, bu vizual modelning mavhum tushunchalarni yanada aniqroq, kuzatiladigan shaklga aylantirish qobiliyatini ta'kidlaydi.

Kognitiv faollikning sifat ko'rsatkichlari. Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari - tahlil, sintez va baholash - talabalarning kognitiv faolligini baholash uchun ishlatilgan. Modellashtirish usulidan foydalangan guruhda talabalar quyidagi kognitiv yutuqlarni namoyish etdilar:

Dinamik bog'liqliklarni tushunish: Modelda yorug'lik to'lqin uzunligi o'zgarganda diffraktsiya naqshining mantig'i qanday qayta tuzilganligini real vaqt rejimida kuzatish orqali talabalar mos keladigan formulalardagi argument va funksiya o'rtasidagi bog'liqlikni intuitiv ravishda angladilar.

Gipotezani sinash tezligi: An'anaviy yondashuvda talabalar hisob-kitoblarga taxminan 15-20 daqiqa sarflagan bo'lsalar-da, dasturiy ta'minot paketidan foydalangan holda, gipotezani sinash bir necha soniya ichida yakunlandi, bu esa dars davomida ko'proq o'zgaruvchan muammolarni hal qilish imkonini berdi. Vizual xotirani faollashtirish: Testdan keyingi natijalar shuni ko'rsatdiki, modellashtirish bilan ishlagan talabalar fizik chizmalarni bajarishda va optik sxemalarni tuzishda 35% kamroq xatoga yo'l qo'yishgan.

Statistik ishonchlilik va t-test tahlili. Olingan natijalar tasodifiy tebranishlar tufayli emasligini tasdiqlash uchun Studentning t-testi hisoblab chiqildi. $t_{empirik}$ (3.42) ning qiymati $\alpha = 0.05$ da t_{kritik} (2.02) ning qiymatidan oshib ketganligi aniqlandi.

Bu natija bizga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Taklif qilingan modellashtirish usuli o'rganish samaradorligini oshirishda statistik jihatdan ahamiyatli omil hisoblanadi.

Talabalarning kognitiv faolligining oshishi tizimli hisoblanadi.

Tadqiqot tugagandan so'ng, tajriba guruhiga anonim so'rovnoma (Liker shkalasi) o'tkazildi va quyidagi natijalarni berdi:

Talabalarning 92% modellashtirishga asoslangan darslarni an'anaviy darslarga qaraganda qiziqarliroq deb topishganini ta'kidladilar. Talabalarning 85% virtual simulyatsiyalar murakkab optik tamoyillarni tushunishni sezilarli darajada soddalashtirishini ta'kidladilar.

Talabalarning 8 foizi ushbu usulni fizikaning boshqa sohalariga qo'llash istagini bildirishdi [6].

Muhokama. Olingan eksperimental natijalar bizga optik simulyatsiyalarning talabalarning kognitiv faoliyatiga ta'siri bo'yicha bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari Richard E. Mayerning multimedia o'rganish tamoyillariga mos keladi va vizualizatsiya va kognitiv yuklama o'rtasidagi teskari bog'liqlikni empirik ravishda namoyish etadi.

Vizualizatsiya va kognitiv integratsiya tahlili. Optika fizikaning eng mavhum va tushunish qiyin bo'lgan sohalaridan biri ekanligi ma'lum. An'anaviy o'quv muhitida talabalar ko'pincha yorug'likning to'lqin tabiatini asosan matematik ifodalar orqali qayta tiklashga majbur bo'ladilar, bu esa kognitiv resurslarni ko'payishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotda ishlatilgan simulyatsiyalar (xususan, PhET va Wolfram modullari) talabalarga jarayonning "dinamik tasvirini" taqdim etdi. Talabalarga formulada ko'rsatilgan har bir parametrning vizual oqibatlarini (masalan, λ to'lqin uzunligi) bevosita kuzatish imkonini berish orqali sezilarli kognitiv effekt namoyish etildi. Mayer ta'kidlaganidek, og'zaki-ramziy va vizual tasvirlarning bunday kombinatsiyasi ma'lumotni uzoq muddatli xotiraga "kodlash"ni tezlashtirishga yordam beradi.

E.I. Butikov kontseptsiyasining amaliy tasdig'i. E.I. Butikov kompyuter modellarini "fikrlash laboratoriyasi" deb ta'rifladi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, talaba model parametrlarini (tirqishlar orasidagi masofa, ekrandan masofa) mustaqil ravishda o'zgartira boshlaganligi sababli, ularning pozitsiyasi passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga o'tdi. Eksperimental guruhda jismoniy hodisalarni talqin qilishning 48% ga oshishini "faol sub'ekt" omili bilan izohlash mumkin. Modelda "sinov va xato" yondashuvidan foydalanib, talaba asta-sekin qoidalarni rasmiy takrorlashdan jismoniy qonuniyatlarni yanada intuitiv tushunishga o'tdi. Natijada, analitik fikrlashning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan kognitiv faollikning yuqori darajasiga erishish uchun sharoitlar yaratildi.

Kognitiv mojaro va uning didaktik yechimi. Tadqiqot yana bir fundamental nuqtani - "kognitiv mojaro" hodisasini ochib berdi. Amalda talabalar ko'pincha optik hodisalarni noto'g'ri yoki yuzaki tushunishga tayanadilar. Virtual tajriba dastlabki tushuncha va ilmiy tavsif o'rtasidagi tafovutni kuzatiladigan va shuning uchun keyingi tushunish uchun ochiq qildi. Masalan, difraksiyani o'rganishda, to'siq hajmining kamayishi bilan vizual kuzatilgan yorug'lik deflyatsiyasining oshishi talabalarda aniq hayratlanish reaksiyasini keltirib chiqardi, bu esa kuzatuvlarga ko'ra, kognitiv motivatsiyaning oshishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Ushbu natijalar, rossiyalik tadqiqotchi N.Sh.Turdievning pozitsiyasiga mos keladi, fizikani o'qitishda tajriba va nazariya o'rtasidagi "mantiqiy ko'prik" ba'zi hollarda kompyuter modellashtirish orqali eng samarali tarzda ta'minlanishini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning cheklovlari va o'ziga xos xususiyatlari. Modellashtirish haqiqiy laboratoriya tajribasini to'liq o'rnini bosa olmasligini tan olish kerak. Biroq, u an'anaviy laboratoriya sharoitida to'g'ridan-to'g'ri kuzatilmaydigan mikroskopik jarayonlarni tushunish uchun deyarli ajralmas vosita bo'lib qolmoqda. Taqdim etilgan natijalar va asosan statik tasvirlarga asoslangan ishlar o'rtasidagi farq shundaki, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, dinamik interaktivlik talabaning ishchi xotirasiga yukni kamaytirdi va shu bilan kognitiv resurslarni ijodiy izlanishni talab qiladigan muammolarni hal qilishga ko'proq yo'naltirishga imkon berdi [1].

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim muassasalarida fizika kursining "Optika" bo‘limini o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu tadqiqot zamonaviy dasturiy paketlar yordamida modellashtirishning kognitiv va didaktik salohiyatini to‘liq tasdiqladi. Amalga oshirilgan nazariy tahlil va eksperimental ishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kognitiv yuklamani optimallashtirish: Richard E. Mayerning multimedia ta’limi prinsiplari asosida tashkil etilgan darslar talabaning ishchi xotirasidagi ortiqcha yuklamani kamaytiradi. Optik hodisalarni vizual modellashtirish orqali talabalar mavhum tushunchalarni (masalan, to‘lqinlar superpozitsiyasi) aniq obrazlar bilan bog‘lashga muvaffaq bo‘ldilar, bu esa o‘zlashtirish samaradorligini o‘rtacha 30% ga oshirdi [1].

2. Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish**:** E.I. Butikov tomonidan ta’kidlanganidek, kompyuter modellari talaba uchun nafaqat ko‘rgazma, balki virtual tadqiqot asbobiga aylandi. Talabalarning model parametrlarini mustaqil ravishda o‘zgartirishi va natijalarni tahlil qilishi ularda kognitiv mustaqillikni va gipotezalarni tekshirish ko‘nikmalarini shakllantirdi [3].

3. Fizik tafakkurning chuqurlashishi**:** Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv simulyatsiyalar yordamida o‘qitilgan talabalar fizik qonuniyatlarning ichki mantiqini (sabab va oqibat bog‘liqligini) an’anaviy guruh talabalariga qaraganda 48% yaxshiroq interpretatsiya qila oladilar. Bu esa o‘quv jarayonida kognitiv faollikning "bilish" bosqichidan "yuqori darajadagi tahlil" bosqichiga o‘tganligidan dalolat beradi [8].

Amaliy takliflar. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, fizika ta’limi sifatini yanada oshirish uchun quyidagi ilmiy-metodik takliflar ilgari suriladi:

-Dasturiy integratsiyani tizimlashtirish**:** Fizika darslarini faqat nazariy ma’ruza bilan cheklamay, har bir mavzu bo‘yicha kamida bitta interaktiv model (masalan, *PhET* yoki *Wolfram Mathematica* negizida) bilan boyitish lozim. Bu talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini (motivatsiyasini) barqaror saqlashga xizmat qiladi.

-Gibrid laboratoriya mashg‘ulotlarini joriy etish: Real laboratoriya qurilmalarida o‘tkaziladigan tajribalarni ularning kompyuter analoglari (virtual modellari) bilan parallel ravishda olib borish taklif etiladi. Bu usul talabaga real tajribadagi xatoliklarni model yordamida tahlil qilish va jarayonning ideal holatini tushunish imkonini beradi.

-O‘qituvchilarning AKT-kompetensiyasini oshirish**:** Fizika fani o‘qituvchilari uchun zamonaviy dasturiy paketlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus seminarlar tashkil etish zarur. Bunda asosiy urg‘u faqat dasturni ishlatishga emas, balki "dastur + metodika" sinteziga, ya’ni modellashtirishni qanday qilib kognitiv faollashtiruvchi vositaga aylantirishga qaratilishi lozim.

-Mustaqil ta’lim uchun resurslar yaratish: Talabalar uchun masofaviy ta’lim platformalarida optik simulyatsiyalar bazasini yaratish kerak. Bu talabaga o‘quv xonasidan tashqarida ham mustaqil ravishda virtual tajribalar o‘tkazish va o‘z bilimini tekshirish imkonini beradi.

Tadqiqotning istiqbollari. Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodologiya va natijalar kelajakda fizikaning boshqa murakkab bo‘limlarini (masalan, kvant fizikasi, atom va yadro fizikasi) o‘qitishda ham keng qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ushbu modellarga integratsiya qilish orqali har bir talabaning kognitiv xususiyatlariga moslashuvchan "aqlli" ta’lim tizimlarini yaratish kelgusi izlanishlarimizning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoladi [2].

Adabiyotlar:

1. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 316 p.
2. Бутиков Е.И. Роль моделирования в обучении физике. // Учебная физика, 2002, №3. – С. 14–25.
3. Butikov E.I. Physics of Oscillations. Part I. Simple Systems. – New York: American Institute of Physics, 1997. – 238 p.
4. Лактионов А.А. Информационные технологии в профессиональном образовании**.** – Москва: Академия, 2005. – 192 с.
5. Wieman C.E., Adams W.K., Perkins K.K. PhET: Interactive Simulations for Teaching and Learning Physics. // Science Education Review, 2008, 7(3). – pp. 73–80.
6. Christian W., Esquembre F. Modeling Physics with Java. – Boston: Open Source Physics Project, 2007. – 412 p.
7. Hestenes D. Modeling Theory and Modeling Instruction for Physics Education. // International Handbook of Research in History, Philosophy and Science Teaching, 2015. – pp. 1011–1043.
8. Shodiyev N. Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari. // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021, №2. – 45–51 betlar.
9. Sattarov B. Fizika ta’limida interaktiv metodlardan foydalanishning metodik jihatlari. // Zamonaviy ta’lim jurnali, 2023, 6 (127). – 22–29 betlar.
10. Turdiyev N.Sh. Fizika. (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: Nishon-noshir, 2015. – 432 b.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIVLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Raxmatov A’zam Ashur o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
azamraxmatov21@gmail.com

Ushbu maqolada Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativlik kompetensiyalari, pedagogik kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, o‘quvchilarning innovatsion faoliyati, interfaol ta’lim, ta’lim texnologiyalari, ta’lim vositalaridan hamda axborot texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanilgan hamda kreativlikni rivojlantirish usullari kreativlikni rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *fanlararo yondashuv, kreativ o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilar, kreativlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta’lim.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

В данной статье описаны факторы, способствующие развитию креативности учащихся на уроках технологии, развитие креативной компетентности педагогических кадров, инновационная деятельность учащихся, интерактивное обучение, образовательные технологии, широкое использование образовательных инструментов и информационных технологий, а также методы развития креативности.

Ключевые слова: *междисциплинарный подход, креативные игры и симуляции, учащиеся, креативность, способности, интерактивные методы, инновации, образование.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE COMPETENCIES IN TECHNOLOGY LESSONS

This article discusses the creativity competencies of students in Technology classes, the development of creative competence in pedagogical staff, and the innovative activities of students. It also outlines the extensive use of interactive learning, educational technologies, teaching aids, and information technologies, as well as methods and factors for developing creativity.

Keywords: *interdisciplinary approach, creative games and simulations, students, creativity, ability, interactive methods, innovation, education.*

Kirish. Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyomizda ta’lim tizimiga alohada e’tibor qaratilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘quvchilarni mustaqil, ijodkor va innovatsion fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab kechayotgan texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar inson faoliyatining barcha sohalarida kreativlikka bo‘lgan ixtiyojini oshirmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayonida kreativ qobilyatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kreativlik-bu yangi va orginal g‘oyalarni yaratish, noan’anaviy yondoshuvlarni topish va muammolarni innovatsion usullarda hal qilish qobilyati bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida zarur bo‘lgan kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda texnologiya fani darslari alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, metodlari va usullari yoritilgan. Mazkur tadqiqot maqsadi-texnologiya fani darslarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish imkonyatlarini aniqlash, ushbu jarayonni tashkil etishdagi yondashuvlarni o‘rganish va tahlil qilishdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Texnologiya darslarida kreativlik tushunchasi keng qo‘llanishiga asosiy sabab o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlab, ularning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu fan o‘quvchilarga o‘z fikrlarini yaratishda, yangi texnik yechimlarni topishda va ijodiy loyihalar ishlab chiqishda yordam beradi. O‘quvchilarning kreativligi nafaqat badiiy g‘oyalar yaratish, balki tizimli muammolarni hal qilishda yondoshuvlarini o‘zgartirishda ham o‘z ifodasini topadi. Kreativlikni rivojlantirishda texnologiya fani ikki asosiy jihatni o‘z ichiga oladi: birinchidan, o‘quvchilarga yangicha, ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi, ikkinchidan, bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy va fikrlash qobilyatlarini shakllantiradi.[5]

Kreativlik kompetensiyalari o‘quvchilarning zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun muhimdir. Texnologiya darslari bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada dars jarayonida kreativlikni oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan metodlar va yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.



1-rasm. Texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirish usullari

Tadqiqot metodologiyasi. Kreativlik – bu yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarni innovativ yechimini topish, mavjud bilimlarni yangi kontekstlarda qo‘llash qobiliyatidir. O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.[3]

Muammoli o‘qitish metodlari

Muammoli o‘qitish metodlari orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish jarayonida noan’anaviy fikrlashni o‘rganadilar. Ular guruhlarga bo‘linib, muayyan muammoni tahlil qilib, innovativ yechimlar taklif etishlari kerak.

Loyihalash faoliyati

Loyihalash faoliyatida o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun reja tuzish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llashlari mumkin. Bunday yondashuv ularning muhandislik fikrlashini, ijodkorlik va jamoaviy ishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘zaro ta’sir

O‘quvchilarni o‘zaro ta’sirga jalb etish, fikr almashish va bir-birlarining g‘oyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa yangi fikrlarni shakllantirish va kreativlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ o‘yinlar va simulyatsiyalar

O‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, shuningdek, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.



2-rasm. Ta’lim texnologiyalari

a. Axborot texnologiyalari

Axborot texnologiyalari o‘quvchilarga innovatsion imkoniyatlar, masalan, onlayn resurslar va dasturiy ta’minot orqali kreativlikni rivojlantirishda yordam beradi. Darslarda interaktiv vositalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

b. Kolaborativ platformalar

Kolaborativ platformalar, masalan, Google Classroom yoki Microsoft Teams, o‘quvchilarning birgalikda ishlashini ta’minlaydi va bu jarayonda yangi g‘oyalarga erishishga yordam beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog’liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog’liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellektintuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi.

Texnologiya darslaridan ta’lim vositalaridan hamda axborot texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Buning natijasida, ularning kreativ fikrlash va innovatsion yechimlar yaratish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu bois texnologiya fanining o‘quv jarayonidagi ahamiyatini kuchaytirish, darslarni innovatsion tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat ijodiy salohiyatini oshiradi, balki ularni zamonaviy jamiyat talablari darajasida rivojlanishga yordam beradi. Texnologiya darslarida ijodkorlik bilan bog‘liq imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish kelajakdagi innovatsion rivojlanishga mustahkam poydevor yaratadi.

Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim sifatining yuqori bo‘lishiga, o‘quvchilarda kreativ g‘oyalarning ko‘payishiga zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Misol qilib aytadigan bo‘lsak, kompyuter dasturlari, 3D- modellash, elektron resurslar va internet texnologiyalari o‘quvchilarga o‘z ijodiy g‘oyalarini amalga oshirishda yordam beradi.

Bu vositalar orqali o‘quvchilar amaliy loyihalar yaratishda, yangi texnologiyalarni o‘rganishda va innovatsion yechimlar ishlab chiqishda o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Texnologiya fanida zamonaviy dasturlar, masalan, CAD (kompyuter yordamida dizayn) dasturlari, 3D printerning qo‘llanilishi va boshqa yuqori texnologiyalarorqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ob’ektlarga aylantirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va texnik fikrlashlarini rivojlantiradilar.

Kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun darslarda pedagogik yondoshuvlar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirishda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar topish. o‘quvchilarga real va hayotiy masalalarni taqdim etish, ularni tahlil qilib kreativ yechimlar ishlab chiqishga undash. Bu orqali o‘quvchilarning fikirlashini kuchaytirish va ijodiy qobiliyatlaruni rivojlantirish mumkin.

Jamoaviy ish va hamkorlik esa o‘quvchilarga guruh bo‘lib ishlash imkoniyatini berib, ularni jamoaviy fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga rag‘batlantirish kreativlikni rivojlantirishda muhimdir.

Fanlararo yondashuv: Kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuvining ahamiyati katta. Texnologiya fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va yangi ijodiy g‘oyalar yaratishda yordam beradi. [5]

Xulosa. Mamlakatimiz yoshlarini mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlaridan hech qaysi sohada kam bo‘lmaydigan kadrlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz tomonidan barcha ishlar amalga oshirilmoqda, barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikr yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirishlari

uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgani, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va laboratoriya jihozlari bilan ta’minlangan muassasalarda ta’lim olishmoqda. Soha mutaxassislarining navbatdagi vazifasi yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llash orqali o‘quvchilarda katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, aqliy-intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlovchi samarali ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Ishmuradova G., Raxmatov A. Texnologik ta’lim o‘qituvchisining didaktik va texnologik kompetensiyalarini takomillashtirish, monografiya, Intellekt: 2022. - 134 b.

2. Kadirova N.M “ Texnologiya fani darslarida o‘quvchilar kreativ faoliyatini tashkil etish masalalari” 2020, Toshkent.

3. Numamatov Z.Sh. “Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik” o‘quv qo‘llanma T: “O‘zkitob savdo nashriyoti” NMIU – 2026.

4. Tursunov J.E “Texnologiya darslarida o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish” 2021. Qo‘qon davlat pedagogika instituti nashri.

5. Uzaqova Z.F. “Texnologiya fani darslarida o‘quvchlarning kreativ qobilyatlarini rivojlantirish kompetensiyalari” // Ilm fan xabarnomasi, 2025.

6. Xayitov J.X. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ qobilyatlarini rivojlantirish” monografiya, Termiz – 2024.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sharipova Lobar Olimovna,
Buxoro davlat universiteti
Kimyo va neft-gaz texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
l.o.sharipova@buxdu.uz

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari mahalliy va xorijiy tajribalar misolida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ekologik ta’limning mazmuni, maqsadi va vazifalari, ekologik madaniyat tushunchasining ilmiy-pedagogik talqinlari hamda uni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim yondashuvlarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bo‘lajak mutaxassislarning ekologik mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, ekologik ta’lim, atrof-muhit kimyosi, oliy ta’lim muassasalari, barqaror rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, raqamli ta’lim muhiti, ekologik kompetensiya, mahalliy va xorijiy tajriba.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной статье проанализированы педагогические основы формирования экологической культуры у студентов высших учебных заведений на основе национального и зарубежного опыта. В ходе исследования раскрыты содержание, цели и задачи экологического образования, научно-педагогические интерпретации понятия экологической культуры, а также освещена роль современных образовательных подходов в её развитии. Кроме того, представлены возможности использования цифровых образовательных технологий в формировании знаний, умений и ценностей, направленных на охрану окружающей среды. В статье разработаны методические рекомендации, способствующие повышению эффективности экологического образования и усилению экологической ответственности будущих специалистов.

Ключевые слова: *экологическая культура, экологическое образование, химия окружающей среды, высшие учебные заведения, устойчивое развитие, педагогические подходы, цифровая образовательная среда, экологическая компетенция, национальный и зарубежный опыт.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article analyzes the pedagogical foundations of forming ecological culture among students in higher education institutions based on domestic and international experience. The study explores the content, aims, and objectives of environmental education, scientific and pedagogical interpretations of the concept of ecological culture, and the role of modern educational approaches in its development. It also highlights the possibilities of using digital educational technologies in forming knowledge, skills, and values aimed at environmental protection. The article develops methodological recommendations that contribute to improving the effectiveness of environmental education and strengthening the ecological responsibility of future specialists.

Keywords: *ecological culture, environmental education, environmental chemistry, higher education institutions, sustainable development, pedagogical approaches, digital educational environment, ecological competence, domestic and international experience.*

Kirish. Ekologik madaniyat va ekologik ta’lim muammolari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning e’tiborini jalb qilgan. Xalqaro miqyosda amalga oshirilgan tadqiqotlar ekologik ta’limning nazariy asoslarini, pedagogik yondashuvlarni, samarali metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan. Mahalliy olimlar esa O‘zbekiston sharoitlariga xos ekologik ta’lim muammolarini o‘rganish, milliy ta’lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish yo‘llarini belgilashda muhim natijalarni qo‘lga kiritganlar.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotchilar ekologik ta’limning turli aspektlarini chuqur o‘rganganlar. Ekologik alfabetizm kontsepsiyasi ekologik ta’limning asosiy maqsadlaridan birini belgilaydi. Bu kontsepsiya bo‘yicha ekologik alfabetizm talabalarning ekologik tizimlar haqidagi bilimlarini, ekologik muammolarni anglashini, tabiatni muhofaza qilishda faol ishtirok etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlarda ekologik alfabetizm nafaqat bilimlar, balki ekologik amaliyot, ekologik fuqarolik kabi komponentlarni ham qamrab oladi.

Barqaror rivojlanish uchun ta’lim kontsepsiyasi YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan va jahon miqyosida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ushbu kontsepsiya ta’limni barqaror kelajakni ta’minlovchi asosiy vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Barqaror rivojlanish uchun ta’lim nafaqat ekologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy barqarorlikni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv talabalarda tizimli tafakkurni, uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olish qobiliyatini, global mas’uliyat hissini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Konstruktivistik yondashuv ekologik ta’limda talabalarning faol bilim qurish jarayonini, o‘z tajribasi asosida tushunchalar shakllantirishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv bo‘yicha ekologik bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki talabalar o‘zlari tadqiqot, kuzatish, tahlil qilish orqali ularni shakllantirishadi. Konstruktivistik yondashuvda talabaning shaxsiy tajribasi, uning oldingi bilimi, muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayoni muhim o‘rin tutadi. Xorijiy tadqiqotchilar konstruktivistik yondashuvning ekologik tafakkurni rivojlantirishda, ekologik muammolarni chuqur tushunishda yuqori samaradorligini isbotlaganlar.

Tajriba orqali o‘rganish yoki eksperimental ta’lim yondashuvi ekologik ta’limda ayniqsa samarali hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarni tabiatda to‘g’ridan-to‘g’ri tajriba orttirish, ekologik hodisalarni bevosita kuzatish, amaliy ekologik faoliyatda ishtirok etish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, darsxonadan tashqarida, tabiiy muhitda olib borilgan ta’lim talabalarning ekologik bilimlarini mustahkamlaydi, tabiiy muhitga nisbatan emotsional bog’lanishni kuchaytiradi, ekologik xulq-atvorni shakllantiradi.

Transformativ ta’lim nazariyasi talabalarning dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning qadriyat tizimini qayta qurish jarayonini o‘rganadi. Ekologik ta’lim kontekstida transformativ yondashuv talabalarda antropotsentrik dunyoqarashdan ekotsentrik yoki biosentrik dunyoqarashga o‘tish jarayonini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu o‘tish jarayoni talabalarda chuqur refleksiya, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy-ekologik muammolarni yangicha ko‘rish qobiliyatini talab qiladi.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston olimlarining ishlari mahalliy ekologik ta’lim muammolariga bag’ishlangan. Mahalliy tadqiqotchilar O‘zbekiston ekologik vaziyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, milliy ta’lim tizimida ekologik ta’lim va tarbiyani tashkil etishning imkoniyatlari va qiyinchiliklarini, ekologik madaniyatni shakllantirishning milliy-madaniy kontekstini o‘rganganlar. Mahalliy tadqiqotlarda O‘zbekistonning ekologik muammolari, ayniqsa suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi falokatining oqibatlari, cho‘llanish jarayonlariga qarshi kurash, havo va tuproq sifatini saqlash masalalari alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mahalliy olimlar ekologik madaniyatning milliy mentalitet, an’ana va qadriyatlar bilan bog’liqligini ta’kidlaganlar. O‘zbek xalqining tarixiy ravishda tabiatga hurmat qilish, suv va yer boyliklarini asrash, bog’dorchilik va dehqonchilik madaniyati ekologik tarbiyaning milliy asoslarini tashkil etadi. Bu an’analarni zamonaviy ekologik ta’lim bilan uyg’unlashtirib, milliy va zamonaviy ekologik madaniyat sintezini yaratish masalasi ko‘plab mahalliy tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning taqqosiy tahlili bir qator o‘xshash va farqli jihatlari borligini ko‘rsatadi. O‘xshashliklar ekologik ta’limning asosiy maqsadlari, tamoyillari, yondashuvlarida kuzatiladi. Ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘rgatish, ekologik muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish har ikki kontekstda ham ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Farqliliklar asosan ekologik muammolarning xususiyatlarida, milliy-madaniy kontekstda, ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlarida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tajribadan ko‘plab ijobiy jihatlarni o‘zlashtirib, milliy sharoitlarga moslashtirish muhim vazifadir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari, interaktiv metodlar, xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, O‘zbekiston ekologik muammolarining o‘ziga xosligi, milliy qadriyatlar, ta’lim tizimining xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shu yo‘l bilan O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga javob beruvchi, lekin milliy o‘ziga xoslikni saqlaydigan ekologik ta’lim tizimi barpo etilishi mumkin.

Amalga oshirilgan nazariy tahlil va ilmiy adabiyotlar o‘rganish asosida oliy ta’lim muassasalarida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslariga oid qator muhim xulosa va xulosalarga kelish mumkin.

Ekologik madaniyat zamonaviy jamiyatda shaxsning muhim xususiyati sifatida qaralishi lozim bo‘lgan murakkab, ko‘p komponentli tuzilmadir. Uning falsafiy mohiyati insonning o‘zini tabiat bilan

ajralmas qism sifatida anglashida, antropotsentrik dunyoqarashdan ekogumanistik dunyoqarashga o‘tishda, tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Pedagogik jihatdan ekologik madaniyat kognitiv, motivatsion-qadiriyat, faoliyat va refleksiv komponentlarning integratsiyasidan iborat bo‘lib, har bir komponentning to‘laqonli rivojlanishi va ular o‘rtasidagi muvozanat ekologik madaniyatning yuqori darajasini ta’minlaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Oliy ta’lim muassasalari talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun o‘ziga xos afzalliklarga ega. Talabalarning yetuk yosh davri, oliy ta’limning ilmiy-tadqiqot xususiyati, zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish imkoniyati, kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim ekologik madaniyatni samarali shakllantirishga imkon beradi. Biroq ushbu imkoniyatlarni to‘laqonli amalga oshirish maqsadli pedagogik tizim, ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik xulq-atvorni rivojlantirishning pedagogik asoslari quyidagilardan iborat. Ekologik ongni shakllantirish uchun ekologik bilimlarni sistematik o‘zlashtirish, ekologik muammolarning shaxsiy ahamiyatini anglash, tabiatga nisbatan emotsional munosabatni rivojlantirish zarur. Ekologik tafakkurni rivojlantirish muammoli ta’lim, tahliliy topshiriqlar, modellashtirish, real ekologik vaziyatlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Ekologik xulq-atvorni shakllantirish esa amaliy faoliyat, ijobiy tajribani to‘plash, doimiy amaliyot, rag’batlantirish tizimi orqali ta’minlanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligini oshiradi. Kompetensiyaviy yondashuv ekologik kompetentsiyalarni rivojlantirishga, tizimli yondashuv ekologik ta’limni yaxlit tizim sifatida tashkil etishga, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishga, integrativ yondashuv turli fanlar va ta’lim shakllarini birlashtirish orqali ekologik madaniyatni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning kombinatsiyasi va muvofiqlashtirilib qo‘llanilishi pedagogik jarayonning maksimal samaradorligini ta’minlaydi.

Raqamli ta’lim muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv metodlar ekologik madaniyatni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Onlayn ta’lim platformalari, elektron ta’lim resurslari, vizualizatsiya vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, ekologik modellashtirish dasturlari, mobil ilovalar ekologik ta’limni zamonaviy, qiziqarli va samarali qiladi. Interaktiv metodlar talabalarda ekologik faollikni oshiradi, tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish ekologik ta’limning sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Oliy ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni samarali shakllantirish uchun qator pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash zarur. Tashkiliy jihatdan oliy ta’lim muassasasida ekologik ta’limni boshqarish va muvofiqlashtirish tizimi, barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ekologik ta’limni joriy etish mexanizmlari yaratilishi lozim. Mazmuniy jihatdan zamonaviy ekologik bilimlar, barqaror rivojlanish tamoyillari, mahalliy va global ekologik muammolar ta’lim mazmuniga kiritilishi, didaktik jihatdan zamonaviy metodlar, interaktiv va amaliy o‘qitish shakllaridan foydalanilishi kerak. Moddiy-texnik ta’minot, malakali kadrlar, ekologik muhit yaratish, tashqi hamkorlik ham muhim pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi.

Mahalliy va xalqaro tadqiqotlarning taqqosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’limning asosiy tamoyillari va yondashuvlari universal xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularni amalga oshirishda milliy, madaniy, ekologik kontekstni hisobga olish zarur. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishda xalqaro tajribaning ilg’or yutuqlarini o‘zlashtirish bilan birga, mamlakatimizning ekologik muammolari, milliy qadriyatlari, ta’lim tizimining xususiyatlarini hisobga olish muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

Muhokama. Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha yaxlit pedagogik tizim yaratilishi, bu tizimda maqsadlar, vazifalar, mazmun, metodlar, shakllar va baholash mezonlari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, barcha mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv dasturlariga ekologik ta’lim komponentini kiritish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, maxsus ekologik kurslar, amaliyotlar, loyihalar uchun vaqt ajratish zarur. Uchinchidan, o‘qituvchilarning ekologik va pedagogik kompetentligini oshirish, ularni zamonaviy ekologik bilimlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlash muhim.

To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ekologik laboratoriyalar, monitoring vositalari, raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlash, elektron ta’lim platformalarini joriy etish, talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ekologik bilimlar olish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Beshinchidan, kampusni ekologik jihatdan barqaror muhitga aylantirish, ekologik aksiyalar va tadbirlarni muntazam tashkil etish, ekologik klublar va talaba tashkilotlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur. Oltinchidan, ekologik tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari, davlat organlari, xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, talabalarning real ekologik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish

muhim. Yettinchidan, ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasini baholash uchun zamonaviy diagnostik vositalarni ishlab chiqish, muntazam monitoring o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va pedagogik jarayonni optimallashtirish lozim.

Xulosa. Ekologik madaniyatni shakllantirish uzoq muddatli, murakkab jarayondir va u oliy ta’limning barcha bosqichlarida, talabalarning butun ta’lim davri mobaynida amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonning samaradorligi pedagoglarning malakasi, zamonaviy ta’lim resurslari, tashkiliy qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning ekologik ehtiyojlari va talablariga bog’liq. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini chuqur o‘rganish, ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish barqaror rivojlanish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh.A. (2018). Ekologik tarbiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.

2. Alimov, A.K., & Karimov, N.M. (2020). Oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’limni takomillashtirish yo‘llari. Pedagogika jurnali, 3, 45-52.

3. Ardoin, N.M., Bowers, A.W., Roth, N.W., & Holthuis, N. (2018). Environmental education and K-12 student outcomes: A review and analysis of research. // The Journal of Environmental Education, 49(1), 1-17.

4. Berglund, T., Gericke, N., & Chang Rundgren, S.N. (2014). The implementation of education for sustainable development in Sweden: Investigating the sustainability consciousness among upper secondary students. // Research in Science & Technological Education, 32(3), 318-339.

5. Cincera, J., & Krajhanzl, J. (2013). Eco-schools: What factors influence pupils’ action competence for pro-environmental behaviour? // Journal of Cleaner Production, 61, 117-122.

6. Cotton, D.R., Warren, M.F., Maiboroda, O., & Bailey, I. (2007). Sustainable development, higher education and pedagogy: A study of lecturers’ beliefs and attitudes. // Environmental Education Research, 13(5), 579-597.

7. Frisk, E., & Larson, K.L. (2011). Educating for sustainability: Competencies & practices for transformative action. // Journal of Sustainability Education, 2, 1-20.

8. Hasanova, D.U. (2019). Ekologik madaniyatni shakllantirish: pedagogik yondashuvlar. // O‘zbekiston pedagogika jurnali, 5, 78-85.

9. Iliasov, M.M., & Saidov, A.G. (2017). O‘zbekistonda ekologik ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish. Toshkent: O‘qituvchi.

10. Kalsoom, Q., & Khanam, A. (2017). Inquiry into sustainability issues by preservice teachers: A pedagogy to enhance sustainability consciousness. // Journal of Cleaner Production, 164, 1301-1311.

11. Kioupi, V., & Voulvoulis, N. (2019). Education for sustainable development: A systemic framework for connecting the SDGs to educational outcomes. // Sustainability, 11(21), 6104.

12. Leal Filho, W., Shiel, C., & Paço, A. (2016). Implementing and operationalising integrative approaches to sustainability in higher education: The role of project-oriented learning. // Journal of Cleaner Production, 133, 126-135.

13. Liarakou, G., Gavrilakis, C., & Flouri, E. (2009). Secondary school teachers’ knowledge and attitudes towards renewable energy sources. // Journal of Science Education and Technology, 18(2), 120-129.

14. Mamatov, F.S. (2021). Barqaror rivojlanish uchun ta’lim: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.

15. McKeown, R., & Hopkins, C. (2010). Rethinking education and training for climate change. // International Review of Education, 56(2-3), 163-183.

UO‘K 378.147:004:351.74

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA AXBOROT-TAHLILIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Suropov Ixtiyor Maydonovich,
Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqamasi Tashkiliy boshqarmasi tezkor boshqaruv markazi kuch va vositalarni boshqarish guruhi texnik xodimi, kichik serjant
ixtiyorsuropov@gmail.com

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda axborot-tahliliy kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda ichki ishlar organlari faoliyatidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik yondashuvlari, jumladan, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, muammoli o‘qitish va case-study metodlarining imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada analitik topshiriqlar, real vaziyatlar asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalar va simulyatsiya metodlari asosida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi taklif etilgan. Tadqiqot natijasida ichki ishlar organlari xodimlarining axborot bilan ishlash, analitik fikrlash va kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik model ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-tahliliy kompetensiya, ichki ishlar organlari, kompetensiyaviy yondashuv, analitik fikrlash, raqamli texnologiyalar, case-study, Big Data, sun’iy intellekt, metodik model, raqamli ta’lim muhiti.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

В данной статье раскрываются теоретические и методические основы развития информационно-аналитической компетентности сотрудников органов внутренних дел. В исследовании научно проанализированы содержание, структурные компоненты и значение информационно-аналитической компетентности в деятельности органов внутренних дел. Обоснованы педагогические подходы к развитию данной компетентности, включая компетентностный, деятельностный, проблемный подходы, а также возможности метода case-study. В статье предложена методика развития информационно-аналитической компетентности на основе аналитических заданий, обучения на основе реальных ситуаций, цифровых технологий и методов моделирования. В результате исследования разработана методическая модель, направленная на развитие навыков работы с информацией, аналитического мышления и принятия профессиональных решений у сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: *информационно-аналитическая компетентность, органы внутренних дел, компетентностный подход, аналитическое мышление, цифровые технологии, case-study, Big Data, искусственный интеллект, методическая модель, цифровая образовательная среда*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING INFORMATION AND ANALYTICAL COMPETENCE OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

This article discusses the theoretical and methodological foundations for developing information-analytical competence among internal affairs officers. The study scientifically analyzes the content, structural components, and significance of information-analytical competence in the professional activities of internal affairs bodies. The paper substantiates pedagogical approaches to competence development, including competence-based, activity-oriented, problem-based, and case-study approaches. Furthermore, a methodology for developing information-analytical competence through analytical tasks, real-life situations, digital technologies, simulation, and modeling methods is proposed. As a result of the study, a methodological model aimed at improving officers’ information processing, analytical thinking, and professional decision-making skills was developed.

Keywords: *information-analytical competence, internal affairs bodies, competence-based approach, analytical thinking, digital technologies, case-study, Big Data, artificial intelligence, methodological model, digital educational environment*

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiyaning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida, xususan, huquqni muhofaza qilish tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar mehnat faoliyatida nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki kognitiv, analitik va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarining axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ichki ishlar organlari faoliyati tobora murakkablashib, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, ularni tezkor qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash zarurati ortmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data, raqamli kuzatuv tizimlari va analitik platformalarning rivojlanishi huquqni muhofaza qilish faoliyatida yangi imkoniyatlar bilan birga yangi kasbiy talablarni ham yuzaga keltirmoqda. Europol hisobotlarida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar huquqni muhofaza qilish tizimida ma’lumotlarni tahlil qilish, xavflarni aniqlash va tezkor qaror qabul qilishda muhim vosita sifatida baholanadi [2].

Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlariga qo‘yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, ular nafaqat normativ-huquqiy bilimlarga ega bo‘lishi, balki axborotni izlash, saralash, tizimlashtirish, tahlil qilish va prognozlash asosida tezkor hamda samarali qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ham ega bo‘lishi zarur. Raqamli kompetensiya tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va xavfsiz foydalanish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va munosabatlar majmui sifatida izohlanadi [3].

Axborot-tahliliy kompetensiya zamonaviy mutaxassisning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning axborot bilan ishlash madaniyati, tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyati, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalari hamda analitik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘zida mujassam etadi. Mazkur kompetensiyaning rivojlanishi o‘quv jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, case-study, amaliy vaziyatlarni modellashtirish va raqamli ta’lim resurslaridan maqsadli foydalanish bilan bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha xalqaro tavsiyalarda raqamli vositalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini tahlil qilish va ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shu jihatdan, ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli ta’lim muhiti, elektron ta’lim platformalari, simulyatsion mashg‘ulotlar va analitik topshiriqlar muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi [4].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetensiya, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va analitik faoliyat masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Biroq ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatiga mos holda axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tizimli asoslash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, mazkur kompetensiyani rivojlantirishda huquqiy bilimlar, axborot texnologiyalari, ma’lumotlar tahlili va kasbiy vaziyatlarni modellashtirishni integratsiyalash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish masalasi nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularni ilmiy-nazariy asoslash hamda samarali metodik modelni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborot-tahliliy kompetensiya masalasi xorijiy, MDH va O‘zbekiston ilmiy maktablarida turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda bu tushuncha ko‘proq raqamli kompetensiya, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tushunchalari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jumladan, Yevropa Komissiyasi Joint Research Centre olimlari R. Vuorikari, S. Kluzer va Y. Punie tomonidan ishlab chiqilgan DigComp 2.2 modelida raqamli kompetensiya besh asosiy yo‘nalish – axborot va ma’lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammoni hal qilish kompetensiyalari asosida izohlanadi. Mazkur yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarida axborotni izlash, baholash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [5].

AQSh ilmiy maktabida B. Trilling va C. Fadel tomonidan ilgari surilgan “XXI asr ko‘nikmalari” konsepsiyasi axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Mualliflar zamonaviy mutaxassisda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, axborot savodxonligi, media savodxonlik va AKT savodxonligini asosiy kompetensiyalar sifatida ajratadi. Bu yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashda faqat nazariy bilim bilan cheklanmasdan, real vaziyatlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Ta’lim psixologiyasi nuqtai nazaridan AQShlik olimlar L. Anderson va D. Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan Bloom taksonomiyasi ham mazkur mavzu uchun muhim ilmiy asosdir. Ushbu taksonomiyada “tahlil qilish”, “baholash” va “yaratish” yuqori darajadagi kognitiv faoliyat sifatida belgilanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish aynan shu yuqori kognitiv bosqichlar bilan bog‘liq: xodim axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni tahlil qiladi, ishonchliligini baholaydi va kasbiy vaziyatga mos qaror ishlab chiqadi [7].

Huquqni muhofaza qilish tizimiga bevosita yaqin tadqiqotlardan biri Quvayt universiteti olimlari Sultan M. Al-Daihani va Sajjad ur Rehman tomonidan bajarilgan. Ularning Quvayt politsiyasi xodimlarining information literacy capabilities bo‘yicha tadqiqotida politsiya xodimlarining kompyuter va axborot ko‘nikmalari, axborot manbalaridan foydalanish qobiliyati hamda kasbiy faoliyatda axborotning qiymatini anglash darajasi o‘rganilgan. Mazkur tadqiqot ichki ishlar organlari xodimlarining axborot-tahliliy tayyorgarligi faqat texnik savodxonlik bilan cheklanmasligi, balki axborotni baholash va xizmat vazifalarida qo‘llash kompetensiyasini ham qamrab olishi kerakligini ko‘rsatadi [8].

Buyuk Britaniya tajribasida College of Policing tomonidan yuritilayotgan Police Digital Academy loyihasi alohida e’tiborga loyiq. Ushbu akademiya politsiya xodimlariga raqamli yo‘nalishlarni aniqlash, raqamli dalillar bilan ishlash va xizmat faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha qisqa, amaliy yo‘naltirilgan treninglar taqdim etadi. Bu tajriba ichki ishlar organlari xodimlarining axborot-tahliliy kompetensiyasini rivojlantirishda uzluksiz kasbiy ta’lim, amaliy mashg‘ulot va raqamli platformalar muhim pedagogik shart-sharoit ekanligini tasdiqlaydi [9].

Indoneziya tadqiqotchisi S.Sari tomonidan 2025-yilda politsiya razvedkasi uchun eng muhim raqamli kompetensiya komponentlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, politsiya faoliyati uchun eng muhim kompetensiyalar qatoriga axborot savodxonligi, texnologik bilim, raqamli kommunikatsiya, tanqidiy va analitik fikrlash, etik-huquqiy xabardorlik hamda uzluksiz moslashuvchan o‘rganish kiritilgan. Bu xulosalar maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani kompleks tarkibiy tuzilma sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi [10].

MDH hududida ichki ishlar organlari xodimlarining axborotga oid kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha N.I. Ulendeyeva tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Uning “Bo'lajak huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining axborot-tahliliy kompetentsiyasining tarkibi va tuzilishi” nomli ishida bo‘lajak huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining axborot-tahliliy kompetentligining tarkibi va tuzilmasi tahlil qilingan. Mazkur yondashuv axborot-tahliliy kompetensiyani kognitiv, faoliyatga oid va shaxsiy-motivatsion komponentlar orqali tushuntirish imkonini beradi [11].

Rossiyalik tadqiqotchi N.V. Kuznetsova tomonidan bajarilgan “Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining axborot va huquqiy kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari” mavzusidagi dissertatsiya ham ushbu mavzuga yaqin ilmiy asos hisoblanadi. Tadqiqotda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida axborot-huquqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, kompetensiyaviy-faoliyat yondashuvi va nazariy model ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Bu ish bizning maqolamiz uchun shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish ham maxsus pedagogik shart-sharoitlar, metodik model va amaliy mashg‘ulotlar tizimi orqali amalga oshirilishi kerak [12].

Rossiya tajribasida V.L. Akapyevning “Ichki ishlar organlari xodimlarining axborot-texnologik kompetentligini shakllantirish” nomli monografiyasi ham e’tiborga molik. Unda ichki ishlar organlari xodimlarining axborot-texnologik kompetentligini shakllantirish masalasi maxsus kasbiy tayyorgarlik kontekstida o‘rganilgan. Ushbu ish axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda texnologik vositalarni o‘zlashtirish, elektron hujjat aylanishi, xizmat axborot tizimlari va raqamli xavfsizlik bo‘yicha tayyorgarlik muhimligini ko‘rsatadi [13].

O‘zbekiston ilmiy muhitida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi O. Xaydarova tadqiqotida ham yoritilgan. Muallif zamonaviy ta’lim tizimida raqamli kompetensiyaning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, raqamli transformatsiya sharoitida pedagog faoliyatiga qo‘yilayotgan yangi talablar hamda xalqaro tajribani O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish masalalarini tahlil qilgan. Ushbu yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash jarayonida trener va instruktorlarning raqamli kompetensiyasi muhim metodik omil ekanligini asoslashga xizmat qiladi [14].

O‘zbekiston va Qozog‘iston oliy ta’lim muassasalari misolida G. Ergasheva va boshqalar tomonidan olib borilgan “Huquqiy ta’limga raqamli kompetensiyalarni integratsiyalash: istiqbolli pedagogik yondashuv” nomli tadqiqotida huquqiy madaniyat va raqamli kompetensiyalarni integratsiyalashgan pedagogik model asosida rivojlantirish masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotda AI-assisted legal research, legal informatics va data ethics kabi yo‘nalishlarning huquqiy ta’limga kiritilishi zarurligi asoslangan. Bu

yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda huquqiy bilim, raqamli savodxonlik, ma’lumotlar etikasi va amaliy tahlilni integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi [15].

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlar axborot-tahliliy kompetensiyani raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va data-driven qaror qabul qilish bilan bog‘liq holda talqin qiladi; MDH tadqiqotlari esa ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qilish tizimi uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar, model va kompetensiyaviy-faoliyat yondashuviga urg‘u beradi; O‘zbekiston tadqiqotlarida esa raqamli ta’lim muhiti, huquqiy ta’limni modernizatsiya qilish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilmoqda. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarida aynan axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi masalasi O‘zbekiston sharoitida hali yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalari har qanday mutaxassisning muhim kasbiy sifati sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlari faoliyatida tezkor va ishonchli axborot asosida ishlash zarurati axborot-tahliliy kompetensiyani kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Shu sababli mazkur kompetensiyaning nazariy asoslarini aniqlash va uning mazmunini ilmiy jihatdan yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Xususan, I.A. Zimnyaya kompetensiyani shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga asoslangan integrativ sifati sifatida izohlaydi. Muallifning fikricha, kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash imkoniyatini ham ifodalaydi. Yevropa Ittifoqining DigComp modelida esa kompetensiya axborot bilan ishlash, kommunikatsiya, muammolarni hal qilish va raqamli texnologiyalardan xavfsiz foydalanishga oid qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilinadi [5, 16].

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, axborot-tahliliy kompetensiyani ichki ishlar organlari xodimining axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarga asoslanib kasbiy qaror qabul qilishga oid integrativ qobiliyati sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu kompetensiya xodimning nafaqat texnologik savodxonligini, balki analitik fikrlashini, axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini va tezkor vaziyatlarda samarali xulosa chiqarish imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi.

Axborot va analitik faoliyat ichki ishlar organlari tizimida muhim operativ vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Analitik faoliyatning asosiy mohiyati mavjud ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, taqqoslash, o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash va prognozlashdan iborat. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda axborot-tahliliy faoliyat ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmi sifatida talqin qilinmoqda. Bu jarayon ayniqsa jinoyatchilikni prognozlash, xavf-xatarlarni aniqlash va tezkor vaziyatlarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot-tahliliy kompetensiyaning samarali shakllanishi uning tarkibiy tuzilmasini to‘g‘ri aniqlash bilan bog‘liq. Tadqiqotlar asosida mazkur kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratish mumkin:

Kognitiv komponent. Mazkur komponent axborot texnologiyalari, analitik metodlar, ma’lumotlar bilan ishlash usullari va kasbiy faoliyatga oid nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Xodim axborot manbalari, raqamli platformalar va analitik tizimlarning ishlash tamoyillarini bilishi zarur.

Amaliy komponent. Amaliy komponent axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va undan foydalanish ko‘nikmalarini ifodalaydi. Bu jarayonda xodim statistik ma’lumotlar, elektron bazalar va raqamli platformalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Analitik komponent. Analitik komponent tanqidiy va tizimli fikrlash bilan bog‘liq bo‘lib, axborotni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va prognozlash qobiliyatini aks ettiradi. Aynan ushbu komponent kasbiy qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Texnologik komponent. Texnologik komponent zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Big Data tizimlari, sun’iy intellekt vositalari va raqamli platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Bu komponent raqamli transformatsiya sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, axborot-tahliliy kompetensiya kompleks va integrativ tuzilishga ega bo‘lib, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan axborot bilan ishlash sifati va tezkor analitik faoliyatga bog‘liqdir. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va katta hajmdagi ma’lumotlar oqimining ortib borishi ichki ishlar organlari xodimlaridan yuqori darajadagi axborot-tahliliy tayyorgarlikni talab qilmoqda. Shu sababli mazkur kompetensiya ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida strategik ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan axborot-tahliliy kompetensiya xodimning operativ vaziyatlarni baholash, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, jinoyatchilik tendensiyalarini

aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini belgilaydi. Xususan, zamonaviy politsiya faoliyatida data-driven policing yondashuvi keng qo‘llanilib, ma’lumotlar asosida jinoyatchilikni prognozlash va xavf-xatarlarni oldindan aniqlash tizimlari rivojlanmoqda. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlaridan analitik fikrlash va raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini talab etadi.

Axborot-tahliliy kompetensiyaning eng muhim jihatlaridan biri qaror qabul qilish jarayonidagi o‘rnidir. Ichki ishlar organlari faoliyatida qabul qilinayotgan qarorlarning aniqligi va tezkorligi ko‘pincha mavjud axborotning qay darajada tahlil qilinganiga bog‘liq bo‘ladi. Tahliliy kompetensiyaga ega xodim mavjud ma’lumotlarni tanqidiy baholay oladi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi va eng maqbul yechimni tanlaydi. Shu jihatdan, analitik faoliyat operativ boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda raqamli muhitning rivojlanishi ichki ishlar organlari faoliyatiga yangi talablarni olib kirdi. Sun’iy intellekt, Big Data, biometrik tizimlar, videokuzatuv texnologiyalari va raqamli monitoring vositalari huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Europol va Interpol hisobotlarida sun’iy intellekt asosidagi analitik tizimlar jinoyatlarni aniqlash va prognozlashda yuqori samaradorlikka ega ekani qayd etilgan [2].

Big Data texnologiyalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va yashirin bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu texnologiyalar orqali jinoyatchilik xaritalari, xavf zonalari va ijtimoiy xavf omillari aniqlanadi. Shu sababli zamonaviy ichki ishlar organlari xodimi faqat huquqiy bilimlarga emas, balki ma’lumotlar tahlili va raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi axborot-tahliliy faoliyatning yangi bosqichini shakllantirmoqda. AI texnologiyalari ma’lumotlarni avtomatik saralash, yuzni aniqlash, xavf darajasini prognozlash va operativ tahlil jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi. Biroq ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun xodimlarda yuqori darajadagi axborot-tahliliy kompetensiya shakllangan bo‘lishi talab etiladi.

Demak, ichki ishlar organlari faoliyatida axborot-tahliliy kompetensiya kasbiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi zamonaviy raqamli muhit talablariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Mazkur kompetensiya faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan emas, balki ularni real kasbiy faoliyatda qo‘llash, tahliliy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liqdir. Shu sababli ushbu jarayonda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, muammoli va analitik o‘qitish yondashuvlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni tinglovchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki real vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida kompetensiyaviy yondashuv axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va operativ qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunda tinglovchilar turli ma’lumotlar bazalari, statistik axborotlar, elektron monitoring tizimlari va raqamli platformalar bilan ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga ko‘ra, kompetensiya faol amaliy jarayon orqali shakllanadi. Ushbu yondashuvda tinglovchi o‘quv jarayonining passiv subyekti emas, balki faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda bu yondashuv real operativ vaziyatlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash va muammoli holatlarni yechishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarini xizmat faoliyatiga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda mustaqil fikrlash va analitik qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Ayniqsa, elektron hujjatlar, kuzatuv ma’lumotlari va statistik axborotlarni tahlil qilish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar samarali hisoblanadi.

Muammoli o‘qitish metodining asosiy mohiyati tinglovchini muammoli vaziyatga duchor qilish va uni mustaqil ravishda hal qilishga yo‘naltirishdan iborat. Ushbu metod tinglovchilarda tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ichki ishlar organlari tizimida muammoli o‘qitish jinoyatlarni tahlil qilish, operativ vaziyatlarni baholash va xavf-xatarlarni prognozlash bilan bog‘liq topshiriqlar orqali tashkil etilishi mumkin. Tinglovchilar turli ma’lumotlar asosida muammoning sabablarini aniqlash, variantlarni taqqoslash va eng maqbul qarorni tanlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Case-study metodi real kasbiy vaziyatlarni o‘rganish va tahlil qilishga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biridir. Ushbu metod ichki ishlar organlari xodimlarini real operativ holatlarga yaqinlashtirish, ularning tahliliy va prognostik fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Analitik metodlar

esa statistik tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, taqqoslash, vizualizatsiya qilish va prognozlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu metodlar orqali tinglovchilar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ulardan kasbiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqdir. Zamonaviy raqamli muhitda analitik faoliyatni shakllantirish uchun interaktiv metodlar, real ma’lumotlar bilan ishlash va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Analitik topshiriqlar tinglovchilarning ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu topshiriqlar statistik ma’lumotlar, jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, operativ vaziyatlar va monitoring natijalari asosida ishlab chiqiladi.

Analitik topshiriqlar orqali tinglovchilar:

- ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash;
- xavf omillarini baholash;
- prognozlash kabi ko‘nikmalarni egallaydilar.

Real vaziyatlar asosida o‘qitish metodida xizmat faoliyatiga oid haqiqiy yoki modellashtirilgan holatlar tahlil qilinadi. Ushbu metod tinglovchilarni kasbiy faoliyat sharoitiga moslashtiradi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, jinoyatchilik statistikasi, videokuzatuv ma’lumotlari yoki operativ axborotlar asosida tahliliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bu esa tinglovchilarning tezkor va asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Excel dasturi statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va diagrammalar yaratish imkonini bersa, Python dasturlash tili ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, vizualizatsiya va prognozlash imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, Power BI kabi Business Intelligence tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni vizual ko‘rinishda tahlil qilish, interaktiv dashboardlar yaratish va analitik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Ushbu vositalardan foydalanish ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy raqamli muhitga moslashuvini ta’minlaydi.

Simulyatsiya va modellashtirish metodlari real operativ vaziyatlarni virtual muhitda aks ettirish imkonini beradi. Bu metod tinglovchilarning analitik fikrlashini, xavf-xatarlarni baholash va prognozlash qobiliyatini rivojlantiradi. Modellashtirish orqali turli operativ holatlar, jinoyatchilik tendensiyalari va ma’lumotlar oqimi tahlil qilinadi. Bu esa tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Mazkur kompetensiyani samarali shakllantirish uchun o‘quv jarayonini diagnostika, nazariy tayyorgarlik, amaliy-tahliliy faoliyat hamda natijalarni baholash bosqichlari asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, pedagogik yondashuvlar, metod va vositalar hamda baholash mezonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiradi. Modelning asosiy maqsadi tinglovchilarning axborot bilan ishlash, analitik fikrlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishdan iborat (1-rasm).

Muhokama. Mazkur metodik model ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u diagnostika, o‘qitish, amaliy-tahliliy faoliyat va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Modelning asosiy maqsadi xodimlarning axborot bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda tezkor va asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Modelning birinchi bosqichi – diagnostika bosqichi bo‘lib, unda tinglovchilarning mavjud axborot-tahliliy kompetensiya darajasi aniqlanadi. Ushbu bosqichda testlar, diagnostik topshiriqlar, suhbat va amaliy vazifalar orqali tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va analitik qobiliyatlari baholanadi. Natijada tinglovchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi hamda rivojlantirish ehtiyojlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich – o‘qitish bosqichi bo‘lib, unda nazariy bilimlar va amaliy mashg‘ulotlar integratsiyasi asosida kompetensiya shakllantiriladi. Mazkur bosqichda axborot texnologiyalari, ma’lumotlarni tahlil qilish metodlari hamda raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha bilimlar beriladi. Shuningdek, tinglovchilarda axborotni tizimlashtirish, qayta ishlash va vizual tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.



1-rasm. Ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning metodik modeli

Uchinchi bosqich – amaliy-tahliliy bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda real vaziyatlar, case-study, analitik topshiriqlar, modellashtirish va simulyatsiya metodlari asosida tinglovchilarning amaliy kompetensiyalari rivojlantiriladi. Tinglovchilar mustaqil ravishda ma’lumotlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni baholash va kasbiy qaror qabul qilish faoliyatini amalga oshiradilar. Bu esa ularning analitik fikrlash va prognostik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modelning yakuniy bosqichi – baholash bosqichi bo‘lib, unda tinglovchilarning axborot-tahliliy kompetensiyasi kognitiv, amaliy, analitik va texnologik mezonlar asosida baholanadi. Baholash natijalari metodikaning samaradorligini aniqlash va keyingi rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan metodik model ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularning zamonaviy raqamli muhitda samarali kasbiy faoliyat yuritishiga metodik asos yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqotda ichki ishlar organlari xodimlarida axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi, pedagogik yondashuvlari hamda rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritildi. Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli muhit sharoitida axborot bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish kompetensiyalari ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot-tahliliy kompetensiya kompleks tuzilishga ega bo‘lib, u kognitiv, amaliy, analitik va texnologik komponentlardan tashkil topadi. Mazkur komponentlarning o‘zaro integratsiyasi xodimlarning axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalar asosida kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli o‘qitish, case-study va analitik metodlardan foydalanish axborot-tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, real vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar, analitik topshiriqlar va raqamli texnologiyalar bilan ishlash tinglovchilarning mustaqil fikrlash va tahliliy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi asoslandi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik model diagnostika, o‘qitish, amaliy-tahliliy faoliyat va baholash bosqichlari asosida tashkil etilib, axborot-tahliliy kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini berishi ko‘rsatildi. Model tarkibida raqamli vositalar, jumladan Excel, Python, BI tizimlari,

modellashtirish va simulyatsiya metodlaridan foydalanish zamonaviy raqamli muhit talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi asoslandi.

Amaliy tavsiyalar

- Ichki ishlar organlari xodimlarining axborot-tahliliy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.
- O‘quv mashg‘ulotlarini real operativ vaziyatlar, case-study, analitik topshiriqlar hamda modellashtirish metodlari asosida tashkil etish xodimlarning analitik fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- Tinglovchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish uchun Excel, Python, Power BI kabi zamonaviy analitik platformalar va raqamli vositalardan foydalanishga oid amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir.
- Ichki ishlar organlari ta’lim muassasalarida simulyatsiya va raqamli modellashtirish texnologiyalariga asoslangan interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish tavsiya etiladi.
- Axborot-tahliliy kompetensiyani baholashda kognitiv, amaliy, analitik va texnologik mezonlarga asoslangan diagnostik tizimdan foydalanish zarur.
- Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanishga oid o‘quv modullarini joriy etish ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy raqamli muhitga moslashuvini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. OECD. (2019). OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a digital world. OECD Publishing.
2. Europol. (2024). AI and policing: The benefits and challenges of artificial intelligence for law enforcement. Europol.
3. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. (2022). DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Publications Office of the European Union.
4. UNESCO. (2021). AI and education: Guidance for policy-makers. UNESCO.
5. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. (2022). DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens – With new examples of knowledge, skills and attitudes (EUR 31006 EN). Luxembourg: Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/115376
6. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). 21st century skills: Learning for life in our times. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
7. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. New York, NY: Longman.
8. Al-Daihani, S. M., & Rehman, S. U. (2015). Information literacy skills of police officers in Kuwait. Library Review, 64(8/9), 613–631. https://doi.org/10.1108/LR-09-2014-0108
9. College of Policing. (2017). Policing vision 2025. London: Author. https://www.college.police.uk
10. Sari, S. (2025). Digital competence components for police intelligence: A framework for modern law enforcement. Journal of Police Studies, 18(2), 45–60.
11. Улендеева, Н. И. (2018). Состав и структура информационно-аналитической компетентности будущих сотрудников правоохранительных органов. // Вестник Московского университета МВД России, (5), 210–214.
12. Кузнецова, Н. В. (2023). Педагогические условия формирования информационно-правовой компетенции сотрудников правоохранительных органов в центрах профессиональной подготовки (диссертация кандидата педагогических наук). Москва.
13. Акапеев, В. Л. (2014). Формирование информационно-технологической компетентности сотрудников ОВД. Москва: ЮНИТИ-ДАНА.
14. Xaydarova, O. (2026). Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati. // Iqtisodiyot va pedagogika universiteti ilmiy jurnali, 1, 24–28.
15. Ergasheva, G. M., Khursanov, R. Kh., Bazarova, D. B., Altiyev, R. S., Tadjibaeva, A. Yu., Yusupdzhanova, G. I., & Madatova, Z. H. (2025). Integrating digital competencies into legal education: A pedagogical framework for the future. // Qubahan Academic Journal, 5(2). https://doi.org/10.48161/qaj.v5n2a1709
16. Зимняя, И. А. (2004). Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании (авторская версия). Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA EKOLOGIK MAS’ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Teshayeva Dilnoza Chori qizi,
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik mazmuni va metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ekologik mas'uliyat tushunchasining mohiyati, uning kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulq-atvor komponentlari hamda zamonaviy oliy ta'lim sharoitida shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Yigirma beshdan ortiq xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida talabalarda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy modellar, pedagogik yondashuvlar (kompetentlilik, transformatsion, kontekstual o'rganish) hamda interaktiv metodikalar (loyiha asosidagi o'qitish, muammoli ta'lim, ekologik kvest, keyslar tahlili, hamkorlikda o'qitish) tizimli ravishda bayon etiladi. Maqolada barqaror rivojlanish ta'limi (ESD), atrof-muhit ta'limi (EE) va sotsial-ekologik psixologiya nazariyalari oliy ta'lim kontekstida muhokama qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik mas'uliyat, oliy ta'lim, barqaror rivojlanish ta'limi, atrof-muhit ta'limi, kompetentlilik yondashuvi, loyiha asosidagi o'qitish, muammoli ta'lim, ekologik ong, qadriyatli ta'lim, pedagogik metodika.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

O‘qituvchining refleksiv individualligi modelini yaratishni hozirgi kunda ko‘plab olimlar taklif qilmoqdalar. Ma’lum pedagogik - psixologik sharoitlarda bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy kasbiy o‘z - o‘zini o‘rganishini talqin qilishi boshlang‘ich nazariy asos va jadval vazifasini o‘taydi. Bo‘lajak o‘qituvchining professional refleksiyasini oliy pedagogik ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayonini individualizatsiyalashtirish asosida rivojlantirish mumkin. Kommunikativ va shaxsiy refleksiyani o‘rgangan V. A-Krivosheyevning ta’kidlashicha, o‘qituvchi o‘z faoliyatida pedagogik mahoratni o‘zlashtirgani sari hamkasblari va o‘quvchilar u haqida nima o‘ylashlarini ancha yaxshi tushuna boshlaydi, chuqur o‘zlashtirilgan bilim va pedagogik mahorat tufayli o‘qituvchi o‘z-o‘zini baholashga kirishadi. Kommunikativ refleksiya shaxsiy refleksfyaning mazmunini, tizimini va aynan birxilligini belgilaydi, - degan xulosaga keladi muallif Ba’zan pedagogik komimmikatsiyada ro‘y beradigan uzilishlar, ya’ni o‘quvchilar jamoasidagi faoliyatni “tushunmaslik holatlari” tufayli davom ettira olmaslik, pedagogik faoliyatdan refleksiv chiqishga olib keladi, zero ikkinchi o‘qituvchi, birinchisining faoliyati mazmunini anglay olmaydi va natijada ularning ikkalasi ham nizo sabablarini tahlil qilishlariga to‘g‘ri keladi. Individual refleksiya, individlararo refleksiyaning alohida maxsus shakli, deb hisoblaydi ba’zi olimlar.

A. A. Bizyayeva o‘qituvchining kasbiy refleksiyasidagi o‘ziga xos jihatlarni o‘rganar ekan, diqqatini o‘qituvchi refleksiyasining boshqa inson faoliyatini tahlil qilish va anglash, shuningdek o‘zini tahlil qilish va o‘z - o‘zini baholash zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy omillariga qaratadi. Olimaning tadqiqotlarida

aniqlanishicha, o‘qituvchilarning intellektual refleksiya darajasi ularning kasbiy refleksiyasiga bevosita emas, balki uning mahorat komponentlari orqali bilvosita bog‘liq. Bu olimaga intellektual refleksiyani o‘qituvchilarning kasbiy refleksiyasi rivojlanishi uchun asos sifatida baholash imkoniyatlarini beradi. Bizningcha, bular o‘qituvchining uzluksiz kasbiy o‘sishini ta’minlash uchun tayanch sifatlar sanaiadi. Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega “Bu holda, - deb yozadi Y.N. Kulyutkin, - o‘qituvchi o‘zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o‘qituvchida bu jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo‘lishi kerak”.

Tadqiqot metodologiyasi. Rivojlangan pedagogik refleksiyasiz, o‘qituvchi doimiy tahlil va o‘z - o‘zini tahlil qilmasdan amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chuqur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishning yo‘llarini to‘g‘ri tanlashi, olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiyalashi mumkin emas. G.M.Kodjaspirova pedagogik refleksiyani insonning o‘z-o‘zini anglashi deb, bunda “nafaqat o‘qituvchi o‘z xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berishi, balki, o'qituvchi bilan pedagogik muloqot chog‘ida o’zaro hamkorlik qiladigan o’quvchilar jamoasi. pedagogik jamoa, ta’lim-tarbiyaga mas’ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir” deb ta’riflaydi. Demak, refleksiya - o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi o‘zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi, o‘z tarbiyalanuvchilarining hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishga zarur shart-sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘zini baholash metodlarining ahamiyatini o‘rganishdir. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning o‘zini baholash va refleksiya jarayonlaridagi tajribalarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. O‘quvchilarning fikr-mulohazalari va natijalari tahlil qilindi. O‘quvchilarning 85% dan ortig‘i refleksiya jarayonining o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidladi. Ular o‘z tajribalarini tahlil qilish orqali o‘z bilimlarini va ko‘nikmalarini yaxshilash imkoniyatini topadilar. So‘rovda ishtirok etgan talabalarning 78% o‘zini baholash metodlarining o‘z faoliyatlarini yanada samarali qilishga yordam berishini bildirdi. O‘zini baholash jarayoni talabalarga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda yordam beradi, bu esa ularning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga imkon yaratadi. O‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘zini baholashdan foydalanish orqali shaxsiy rivojlanishlariga erishganliklarini bildirgan.

Ularning 80% i bu metodlar orqali o‘z shaxsiy va akademik maqsadlariga erishishning samarali usulini topganliklarini ta’kidlaydilar. O‘qituvchilar talabalarga refleksiya va o‘zini baholash jarayonlarini qo‘llashda yordam berishlari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning 70%i o‘qituvchilarning bu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashlari natijasida o‘z o‘rganishlariga ko‘proq e’tibor qaratganliklarini bildiradi. Olingan natijalar refleksiya va o‘zini baholash metodlarining ta’lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishidagi ahamiyatini kuchli ravishda ko‘rsatadi. Refleksiya jarayoni o‘quvchilarga o‘z tajribalarini tahlil qilib, o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon o‘z-o‘zini anglash va o‘rganish uchun zarurdir.

Bundan tashqari, o‘zini baholash metodlari talabalarga o‘z faoliyatlarini yanada samarali qilishda yordam beradi. O‘quvchilar o‘z muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali o‘zlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. O‘qituvchilarning roli ham ushbu jarayonda muhimdir. O‘qituvchilar talabalarga refleksiya va o‘zini baholash jarayonlarini qo‘llashda yordam berishlari va o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undashlari zarur. Olingan natijalar, o‘qituvchilarning talabalarga qo‘llab-quvvatlashlari natijasida o‘quvchilarning o‘z o‘rganishlariga ko‘proq e’tibor qaratishlarini ko‘rsatadi. Umuman olganda, refleksiya va o‘zini baholash metodlari talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini kuchaytirish va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Tadqiqot natijalari, bu metodlarni ta’lim jarayonida kengaytirish va yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot refleksiya va o‘zini baholash metodlarining talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatdi. O‘quvchilar o‘z tajribalarini tahlil qilish va o‘zlarini baholash orqali nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, balki shaxsiy rivojlanishlariga ham yordam beradi. Refleksiya va o‘zini baholash jarayonlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning bu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashi va talabalarga refleksiv fikrlashni rag‘batlantirishi muhimdir.

Shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishida ushbu metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirish uchun ta’lim tizimida yangilanishlar kiritish zarurligi ko‘rsatildi. O‘quv dasturlarida refleksiya va o‘zini baholash metodlarini kengaytirish va ulardan foydalanish uchun maxsus modullar ishlab chiqish zarur.

Bu o‘quvchilarni o‘z tajribalarini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholashga undaydi. O‘qituvchilarni refleksiya va o‘zini baholash metodlaridan foydalanishga o‘rgatish uchun seminarlar va treninglar tashkil etish. Bu o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini oshiradi. O‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan bog‘lash imkoniyatini berish. Buning uchun amaliyot jarayonlarida refleksiya va o‘zini baholash metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga ko‘mak berish.

Adabiyotlar:

1. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O’zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T. : “Iqtisod-moliya”, 2011, -289-298 b.

2. Zufarova M. E. Umumiy psixologiya O‟zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2010.

3. Pedagogika G„G„A. Q. Munavvarovning tahriri ostida . – Toshkent, O‘qituvchi, 1996

4. Tursunov I. , Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. –T.: O‘qituvchi, 1999.

6. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). -T. : O‘qituvchi, 1994.

7. Nishanova. Z. T. “Psixologik xizmat”, –T.:2007.

8. Safaev N. S., Mirashirova N. A., Odilova N. G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.: 2013.

9. Farrux Qodirov. Development of scientific and technological system of management of industrial enterprises. // Science web academic papers collection. 2023/1/1

10. Ergash o‘g‘li, Qodirov Farrux. “Creation of electronic medical base with the help of software packages for medical services in the regions.” Conferencea 2022: 128-130.

AYOLLAR TA’LIMI MASALALARI MAZMUNI

Umarova Sitora Muxlisovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
doktoranti, p.f.f.d. (PhD), dotsent
Sharifova Mahtob Murodjonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi talabasi

Ushbu maqolada o‘tmishdan bugungi kunga qadar ayollar ta’limi, yo‘lga qo‘yilishi, tizimlashtirish jarayonida amalga oshirilgan ba’zi islohotlar va buning natijalari muhokama qilinadi. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishilayotganligi dunyo bo‘ylab rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar aholiga ijtimoiy, iqtisodiy va diniy farqlardan qat’iy nazar sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Chunki ta’lim - bu dunyoni o‘zgartirish uchun ishlatish mumkin bo‘lgan eng kuchli qurol. Ayollar bu jarayonni tezroq amalga oshirish uchun eng katta vositachi sanaladi.

Kalit so‘zlar: *ayollar ta’limi, ma’lumot, bilim, Robiyatul Adaviya, Maryam ona, Hind bintu Utba r.a., Navvor binti Malik, Salohiddin Ayyubiy, muannas nafs, ilmli ayol.*

СОДЕРЖАНИЕ ВОПРОСОВ ЖЕНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

За последние пять лет в сфере образования достигнуты значительные успехи. Развитые и развивающиеся страны по всему миру стремятся обеспечить доступ к качественному образованию для всех людей, независимо от социальных, экономических и религиозных различий. Это связано с тем, что образование – самое мощное оружие, с помощью которого можно изменить мир. Женщины считаются важнейшей движущей силой, способствующей ускорению этого процесса. В данной статье рассматриваются реформы в области женского образования от прошлого до настоящего времени и их результаты.

Ключевые слова: *женское образование, информация, знания, Рабиятуль Адавия, Мать Мария, Хинд бинт Утба (да будет доволен ею Аллах), Наввар бинт Малик, Салахуддин Айюби, муаннас нафс, учёная женщина.*

CONTENT OF WOMEN'S EDUCATION ISSUES

Over the past five years, significant achievements have been made in the field of education. Both developed and developing countries around the world are striving to provide access to quality education for all people, regardless of social, economic, or religious differences. This is because education is the most powerful weapon we can use to change the world. Women are considered the most important driving force in accelerating this process. This article discusses the reforms carried out in women’s education from the past to the present and their outcomes.

Keywords: *women’s education, information, knowledge, Rabiyatul Adawiya, Mother Mary, Hind bint Utba (may Allah be pleased with her), Navwar bint Malik, Salahuddin Ayyubi, muannas nafs, learned woman.*

«Menga savodli ona bering, men sizga madaniyatli
va o‘qimishli millat tug‘ilishini va’da qilaman», – Napoleon Bonapart.

Kirish. Jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarning rivojlanish yo‘liga kirishi hamda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyoti zamirida ham ta’lim islohotlarini amalga oshirish orqali bo‘lganligi ma’lum. So‘nggi yillarda bizning mamlakatimizda ham ta’lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishilayotganligi dunyo bo‘ylab rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar aholiga ijtimoiy, iqtisodiy va diniy farqlardan qatiy nazar sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Chunki ta’lim - bu dunyoni o‘zgartirish uchun ishlatish mumkin bo‘lgan ijobiy ma’nodagi eng kuchli qurol sanaladi [8,9]. Ayollar esa bu jarayonni tezroq amalga oshirish uchun eng katta vositachidirlar. Jumladan, hukumatning qator sonli qarorlari, yurtboshining farmon va imzolagan qonunlari buning kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 5-6-bandlari hamda ilovasi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 1-2-bandlari hamda ilovasi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Inson hayoti ta’lim bilan bog‘liq. Biror-bir shaxs ta’limdan to‘sib qo‘yilsa, undan ma’lumotlar oqimi uzib qo‘yilsa, u avvaliga aqldan ozadi keyin nobud bo‘ladi. Ma’lumotga shunchalar muhtoj qilib yaratilgan inson uchun har bir yangi ma’lumot va bilim zavq bag‘ishlaydi. Bu holatga ta’lim zavqi deb baho berish mumkin. Ayollar va qizlarning ta’lim olishi qashshoqlikni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu bir jinsli ta’lim va ayollar uchun diniy ta’lim mavzulari bilan ham bog‘liq, bunda ta’lim gender chiziqlarga bo‘lingan holda o‘qitiladi. Qizlarning ta’lim darajasini oshirish ularning o‘z salomatligi va iqtisodiy kelajagiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, bu esa o‘z navbatida ular yashayotgan jamiyat istiqbollarini yaxshilashi imkonini kafolatlaydi. Onalari boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘lgan chaqaloqlarning o‘lim darajasi onalari savodsiz bo‘lgan bolalar o‘lim darajasining yarmini tashkil qilar ekan. Mulohazalar diniy, dunyoviy va ilmiy jihatlar asosida quyidagicha tahlil qilinsa.

Diniy tomondan Ayol va ta’lim mavzusi yoritiladigan bo‘lsa, bu mavzuda aytilgan hadislar juda ko‘p. Jumladan, bir nechtasi keltiriladi. Allohning Rasuli s.a.v. dedilar: “Alloh yaxshilik tilasa, uni dinning faqihi qiladi va unga komillik ato etadi”, “Olimlar payg‘ambarlarning vorislaridir”. Ma’lumki, payg‘ambarlik rutbasidan afzal martaba va bunga voris bo‘lish sharafidan ustun sharaf yo‘q. Rasulullоh a.s.v. aytdilar: “Insonlarning eng fazilatlisi mo‘min olimlaridir. Ular jamiyatda biron narsaga ehtiyoj tug‘ilsa, uni qondirishda foyda keltiradilar, ehtiyoj bo‘lmaganda ham, ruhingizni boyitadilar”, “Payg‘ambarlik darajasiga eng yaqin insonlar olimlardir. Ular payg‘ambarlar xabar qilgan diniy asoslarni insonlarga o‘rgatish borasida yo‘lboshchilik qilib, payg‘ambarlar xabar qilgan diniy ruknlarni asrash uchun kurashadilar”, “Butun bir qavmning o‘limi bir olim o‘limidan kichikroq hodisadir’’, “Olim umrining oxirigacha ilmga to‘ymaydi, hatto uning nihoyasi jannatdir”, “Ummatim ikkki narsadan: ilmni tark etish va mol-dunyo yig‘ishdan halok bo‘lishi mumkin”, “Yo, olim, yoki ilm o‘rganuvchi, yoxud tinglovchi, yoki ilmni sevuvchi bo‘l. Ammo beshinchisi bo‘lma, mahv etilasan’’, “Ilmning ofati kibr va manmanlikdir’’. Hikmat ahllaridan biri deydi: “Kim bosh (rahbar) bo‘lish uchun ilm o‘rgansa, tavfiqni, dunyo va oxirat saodatiga erishish ne’matini qo‘ldan boy beradi [1]. Alloh taolo ogohlantiradi: “Yer (yuzi)da nohaqlik bilan kibrlanib yuruvchilar (ongi)ni oyatlarimiz (idroki)dan chetlatib qo‘yajakmiz. (Ular) har qanday mo‘jizani ko‘rsalar ham unga iymon keltirmagaylar. Agar to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsalar, uni (o‘zlariga) yo‘l qilib olmagaylar. Mabodo noto‘g‘ri yo‘lni ko‘rib qo‘ysalar, uni (o‘zlariga) yo‘l qilib olgaylar. Bu (sababi) oyatlarimizni yolg‘onga chiqarishlari va ulardan g‘ofil bo‘lganlaridir” (A’rof,146) [2]. Imom Shofe bunday deydi: “Kim Qur’onni o‘rgansa, qadri ortadi. Kim fiqhni o‘rgansa, hurmati, oshadi. Kim hadisni o‘rgansa, hujjati kuchli bo‘ladi. Kim hisobni o‘rgansa, fikri yorqinlashadi. Kim ajoyib narsalarni o‘rgansa, yumshoq tabiatli bo‘ladi. Kim nafsini tiya olmasa, ilmi unga foyda bermaydi”. Iso a.s. dan rivoyat: “Daraxtlar ko‘p, lekin hammasi ham mevali emas. Ulamolar ko‘p, ularning hammalari yo‘l ko‘rsatuvchi emas. Mevalar ko‘p, ularning hammasi birday shirin emas. Ilmlar ko‘p, ularning hammasi ham foydali emas”.

Nega aynan ta’limda ayollarga urg‘u berishimiz kerak? Islomda juda ko‘plab masalalarda jumladan, ilmda ham e’tibor kuchli. Birinchidan, ayollar 40 kunda avliyo maqomiga yetishsa, erkaklar 40 yilda valiy bo‘la oladi. Ikkinchidan, ayollar to‘g‘risida alohida oyat va suralar nozil bo‘lgan. Uchinchidan, olimlarni dunyoga kelishida ayollarning savodli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni Basralik avliyo - Robiyatul Adaviya va unga savol bilan yuzlangan Maryam misolida ko‘ramiz. Maryam: Garchi erkaklarning bir nafsi, to‘qqiz aqli, ayollarning esa to‘qqiz nafsi, bir aqli bo‘lsa ham, qanday qilib ayolning ayyorligi erkaknikidan og‘irroq bo‘ladi? Robiya: “Erkak yoki ayol bo‘lish faqatgina jinsdan iborat emas. Bu bahsdagi sirga aniqlik kiritib olish kerak. Nafs muannasdir (urg‘ochidir). Muannas nafsni isloh qilolmagan kishi u xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol, nafsning qo‘lidadir. Ayollar bir aqli bilan to‘qqiz nafsni boshqarishi, ammo erkaklar to‘qqiz aqli bilan birgina nafsni eplay olmasligi ma’lum. Asli hayratlanarli narsa shu emasmi [3]?!

Tadqiqot metodologiyasi. Islom dinida ayollar ko‘plab ta’lim muassasalarining tashkil etilishida muhim rol o‘ynagan, masalan, Fotima al-Fihriy Al Karauin masjidiga asos solgan. Keyinchalik bu masjid ta’lim muassasasiga aylantirilgan va qadimiy, uzluksiz faoliyat yuritadigan muassasa sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan [8]. 12-13-asrlarda Ayyubiylar sulolasi davrida Damashqda 160 ta masjid (ibodatxona) va madrasa (ta’lim maskanlari) tashkil etilgan bo‘lib, ulardan 26 tasi vaqf (xayriya vasiylik yoki vasiylik qonuni) orqali ayollar tomonidan moliyalashtirilgan.

Ayollarning ta’lim jarayonida rasman talaba sifatida ishtirok etishi noodatiy hol bo‘lsada, ayollar masjid, madrasa va boshqa jamoat joylarida norasmiy ma’ruzalar va o‘quv mashg‘ulotlariga ishtirok etishi odatiy hol edi. Ayollarning ta’lim olishida qonuniy cheklovlar bo‘lmasada, Muhammad ibn al-Haj (vafoti-1336) kabi ba’zi erkaklar bu amaliyotni ma’qullamagan va uning davrida ma’ruzalarni norasmiy ravishda tekshirilgan. 12-asrgacha ayollar islom ulamolarining bir foizini tashkil etgan bo‘lsa, undan keyin ayol

olimlarning ko‘payishi kuzatilgan. 15-asrda as-Saxaviy o‘zining 12 jildlik biografik lug‘ati *al-Ḍaw’ al-lāmi‘* butun bir jildini ayol olimlarga bag‘ishlagan va ulardan 1075 tasi haqida ma’lumot bergan [8].

Tarixga nazar solsak, deyarli har bir buyuk shaxs ortida buyuk ona yoki fidokor ayol turganini ko‘ramiz. Bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: Imom al-Buxoriy, Imom Abu Hanifa, Imom Shofe’iy, Ibn Sirin yoki Tomas Edison kabi mashhur shaxslarning muvaffaqiyatida ularning onalari muhim rol o‘ynagan. Yaqub a.s. ning avlodlarini olsak, Yusuf a.s. va Benyamin birta ayoldan, boshqalari ikkinchi ayoldan bo‘lgan. Yusuf a.s. va Benyamin ukalarini fazilatlari boshqacha bo‘lgan, demak, onadan bo‘lgan farq. Ular Yusufdan otalarini qizg‘anishardi va ichlarini hasad qoplaydi. “Agar Yusufdan qutulsak, otamizga biz sevikliroq bo‘lamiz” – deyishdi. Shunda Yaqub a.s. avlodidan o‘sha farzandlar va Yusufni (a.s.ni) shakllanishlaridagi ikki xil shakllanishning asosiy omili ona bo‘lgan.

Abu Sufyon r.a. ning ayollari Hind bintu Utba r.a. bo‘lgan. Bir kun yonida Muoviya r.a. o‘g‘illari o‘ynab yurganini ko‘rgan olim odam: “Bu bola ulg‘aysa, qavmiga bosh bo‘ladi”- debdi. Bolaning shakl-u shamoyilidan, axloqidan, zakovatidan ko‘rib shunday degan. Shunda onalari Hind aytgan ekanlarki: “Agar faqat qavmiga bosh bo‘lsa, onasi buni dog‘ida qolsin. Menga bunday bola kerak emas, men bundan kattasini so‘rayman”- degan ekanlar. Shundan keyin Muoviya r.a. butun islom olamiga xalifa bo‘lgan ekanlar.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Zayd ibn Sobit r.a. Badr jangida (milodiy 624) 13 yosh bo‘lganlar. O‘sha paytda jihodga boraman deb borganlar. Muhammad s.a.v. rozi bo‘lmaganlar yosh bolasan deb. Borib onalariga yig‘laganlar; “Mening jangga kirishimga unamadilar Rasulullo”- deb. Shunda onalari Navvor binti Malik: “Agar urushga yaramasang, boshqa tomondan Rasulullohga xizmat qilsang bo‘ladiku” - deb keyin jangga olib borgan ekanlar. Rasulullohga: “Bu sizga jangga yaramasa, boshqa ishda yarashi mumkin deganlar, uni sinab ko‘rganlar aql zakovati o‘ta yuqori ekaniga ishonch hosil qilib – borib suraxili va yahudiy tilini o‘rganib kel, men ularga ishonmayman o‘rtada tarjimonlik qil deganlar. 17-18 kunda o‘rganib kelgan ekanlar. Bolani qobiliyatini bilib uni to‘g‘ri yo‘naltirib, himmatini o‘stirib qo‘yishda ham onaning xizmati bo‘lgan.

Salohiddin Ayyubiyning onalari farzandlarini qorong‘u g‘orga kiritib qilich bilan jang qilish san’atini o‘rgatganlar (umr yo‘ldoshlari vafot etgan edilar). Shuning uchun ham Salohiddin Ayyubiy mohir qilichboz bo‘lgan ekanlar.

Anbar Otin Farmonqul qizi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Qo‘qon shahrida yashab ijod etgan o‘zbek shoirasidir. U ota tarafidan mashhur o‘zbek shoirasi Uvaysiyga qarindosh bo‘lgan. Anbar Otin boshqa bir mashhur o‘zbek shoirasi Dilshodi Barno (Dilshod otin) maktabida tahsil olgan. Sakkiz yoshidan Alisher Navoiy g‘azallarini sevib o‘rgangan va keyinchalik ham ijodda birinchi ustozi deb hisoblagan. Zamondoshlari Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan tanish bo‘lgan. Anbar Otin o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Ijodda ko‘proq Uvaysiyga ergashgan. Anbar Otinning ilk she’rlarida sof va samimiy tuyg‘ular tarannum etilgan bo‘lsa, keyinchalik uning ijodida zamondan shikoyat qilish yetakchi mavzuga aylandi. Anbar Otin umrining so‘nggi yillarida o‘zbekcha she’rlardan iborat devon tuzgan. 1966-yilda Tojikistonda shoiraning yana bir kichik she’riy to‘plami topilgan bo‘lib, undagi she’rlar “xurufi xijo” uslubida yozilgan. Anbar Otin uzoq yillik xastalikdan so‘ng 1906-yilda vafot etadi [4] .“Risolayi falsafayi siyohon” asarida shunday yozadi: “El mehnatni qadr-u qimmatig‘a yetub, mehnat ahlini baland rutbada ko‘rar, albatta, mehnat va el hurmati odam husn jilosin chiroyida lojaram jilo bergusi, ul zamonda ayollar har qancha husn va latofat ila ozod yururlar va alarg‘a hech kishi ola ko‘z ila yomon nazar solmas, sababki, har erkak o‘z suyar yori va sohibjamol vafodori ila mamnun ro‘zg‘or kechirg‘ay. Ul zamonda odam axloqi ul darajag‘a yeturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va har er bitta xotun ila farog‘atvor kun kechirg‘ay. Va o‘shal zamonda ma’lum o‘lurki, bu farqi qaro qiz va ayollarni kayfiyatida ma’lum bo‘lurlar, qay daraja aql egasi va qay qobiliyat va mehnat qilurlar. Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig‘a muyassar bo‘lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safig‘a dohil bo‘lurlar, alar g‘ayrat va mehnatda erlarg‘a hamfo va yovar bo‘lub, obro‘ topib, hurmat va ikromg‘a sazovor bo‘lular [5].

Ayol-qizlarning jamiyat hayotidagi faolligi tarixiy ildizlarga borib taqalishini Temuriylar saltanati, Boburiy malikalar tomonidan yaratilgan asarlardan ham anglash mumkin. Bugungi kunga kelin esa mamlakatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari sifatida shakllantirish, sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sohasida yaratilgan imkoniyatlar e’tirofga loyiqdir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalariga qizlarning o‘qishga kirish ko‘rsatkichlari yildan-yilga ortib bormoqda. 2022-yil 7-martda qabul qilingan PF-87-sonli Prezident farmonining 3-bandiga muvofiq davlat oliy ta’lm muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari davlat budjeti hisobidan, qaytarish shartisiz qoplab berilishi belgilandi. Ushbu maqsadlar uchun har yili kamida 200 mlrd so‘m ajratilmoqda [6]. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Davlat va jamoat tashkilotlari

tizimida 1300 nafardan ortiq, jumladan, vazirlik va idoralardan 45 nafar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahaliy davlat hokimiyti organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda [7].

Ayollar va qizlar ta’limi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, gender tengligini ta’minlash va oila farovonligini oshirishning asosiy omilidir. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim olish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan bo‘lib, so‘nggi yillarda oliy ta‘limda qizlar ulushi 37 foizgacha oshgan.

Ayollar ta’limi mazmuni va uning asosiy jihatlari:

- **Huquqiy kafolat:** ayollar boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’limda, shuningdek, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda teng huquqlarga ega.
- **Iqtisodiy mustaqillik:** ta’lim olgan ayollar munosib ish topish va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lib, oila daromadini oshiradi.
- **Ilm-fan sohasida ishtirok etish:** qizlarni aniq fanlar, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarida o‘qitish ularning kelajakdagi karyerasini kengaytiradi.
- **Huquqiy himoya:** 2026-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish hamda ta’lim va kasbga o‘rgatish orqali jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyatda ayollarning ta’lim olishi, ma’lumotli bo‘lishi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki sog‘lom oilani shakllantirish va yuksak marralarga erishish uchun poydevor hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda ayol-qizlarning ta’limda, iqtisodiy sohada, huquqiy sohada, ma’naviy sohada, ilm-fanda gender tenglik ta’minlangan bo‘lib, uning huquqiy asoslari yaratilgan, o‘z tajribalari bilan dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga namuna bo‘la oladi.

Ayollar ta’limining jamiyatga ijobiy ta’siri tufayli ayollar ta’limidagi tengsizliklarni bartaraf etish Barqaror rivojlanishning 4-maqsadi „Hamma uchun sifatli ta’lim” da ta’kidlangan va Barqaror rivojlanishning 5-maqsadi „Gender tengligi” bilan chuqur bog‘langan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qizlarni o‘qitish (va umuman ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish) tezroq rivojlanishga va aholi o‘sishining pasayishiga olib keladi, bu esa iqlim o‘zgarishini yumshatish kabi ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Project Drawdown hisob-kitoblariga ko‘ra, qizlarni o‘qitish iqlim o‘zgarishiga qarshi eng samarali oltinchi harakatdir (quyosh fermalari va atom energiyasidan oldin). Ayollar va qizlarni raqamli texnikalar bilan ta’minlash ularni bilimdon erkaklar bilan tenglashtirishga yordam beradi va bir qator imkoniyatlar yaratadi. Masalan, salomatlik va qonuniy huquqlarga oid veb- saytlar va mobil ilovalar ayollarga o‘zlari va oilalarini himoya qilish va ularga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin, yana shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli aloqalar ayollarga o‘zlarining yaqin hamjamiyatidan tashqarida ma’lumot tarqatish va bilim almashish imkonini ham beradi[11].

Xulosa. Mobil ta’lim imkoniyatlari, savodxonlik ilovalaridan tortib, astronomiya kabi turli fanlar bo‘yicha ochiq onlayn kurslar (MOOCs) hatto, dementsiya (bosh miyaning organik kasalligi natijasida kelib chiqqan aqlning pasayishi kasalligi) bilan og‘rigan keksa qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ayniqsa maktabga bormagan qizlar va yoshi katta ayollar uchun yangi ta’lim yo‘llarini ochishi mumkin. Ish qidirish mexanizmlari va professional tarmoq saytlari ayollarga mehnat bozorida raqobatlashish imkonini beradi, elektron tijorat platformalari va raqamli bank xizmatlari esa ularning daromadlari va mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Abu Homid G‘azzoliy “Mukoshafat ul-qulub” asari, “Munir” nashriyoti, 2025. - 410 b.
2. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. Hilol-nashr. Toshkent-2022, 624 b.
3. Sa’diya Erol Aykach “Men Robiya…” asari, Misbah nashriyoti. - 2024, 108-109-bet.
4. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312 b.
5. Anbar Otin «Risolayi falsafayi siyohon» asari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 5 va 6-bandlari, shuningdek, unga 1-ilova.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 1 va 2-bandlari, shuningdek, unga 1-ilova.
8. Lindsay, James E. *(2005),* Daily Life in the Medieval Islamic World, Greenwood Publishing Group, *198*-bet, ISBN 978-0-313-32270-9.

UO‘K 37.013.2

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yuldasheva Malohat Erkinovna,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD)
malohatxonyuldasheva82@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida raqamli ta’lim vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv o‘qitish metodlari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, pedagogik mahoratning tarkibiy komponentlari — metodik, kommunikativ, refleksiv va kreativ kompetensiyalarning zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda joriy etish o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, maqolada pedagogik mahoratni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari, jumladan, raqamli platformalardan foydalanish, refleksiv faoliyatni tashkil etish va kreativ yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, ta’lim texnologiyalari, AKT, innovatsiya, kompetensiya, interaktiv metodlar.*

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье комплексно анализируются вопросы развития педагогического мастерства учителей на основе современных образовательных технологий. В рамках исследования научно обоснована роль цифровых образовательных средств, информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов обучения и инновационных педагогических подходов в формировании и развитии профессиональных компетенций учителя. Также раскрывается взаимосвязь структурных компонентов педагогического мастерства – методической, коммуникативной, рефлексивной и креативной компетенций – с современными технологиями. Результаты исследования показывают, что системное и целенаправленное внедрение инновационных технологий в образовательный процесс повышает профессиональный потенциал учителей, улучшает качество образования и обеспечивает эффективность учебного процесса. Кроме того, в статье разработаны практические механизмы развития педагогического мастерства, включая использование цифровых платформ, организацию рефлексивной деятельности и применение креативных подходов.

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, образовательные технологии, ИКТ, инновация, компетенция, интерактивные методы.*

MECHANISMS FOR DEVELOPING TEACHERS’ PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

This article provides a comprehensive analysis of the development of teachers’ pedagogical skills based on modern educational technologies. The study scientifically substantiates the role of digital learning tools, information and communication technologies, interactive teaching methods, and innovative pedagogical approaches in forming and developing teachers’ professional competencies. It also reveals the interconnection between the structural components of pedagogical mastery – methodological, communicative, reflective, and creative competencies – and modern technologies. The results of the study show that the systematic and purposeful implementation of innovative technologies in the educational process enhances teachers’ professional potential, improves the quality of education, and ensures the effectiveness of the learning process. In addition, the article develops practical mechanisms for improving pedagogical skills, including the use of digital platforms, organization of reflective activities, and application of creative approaches.

Keywords: *pedagogical mastery, educational technologies, ICT, innovation, competence, interactive methods.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonlari ta’sirida tubdan transformatsiyalanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, sun’iy intellekt vositalarining ta’limga kirib kelishi hamda bilim iqtisodiyoti konsepsiyasining ustuvorlik kasb etishi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini yangilashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimining asosiy subyekti bo‘lgan o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Hozirgi kunda an’anaviy o‘qitish usullari, ya’ni reproduktiv bilim berishga asoslangan yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kreativlik va kommunikativlik kabi muhim kompetensiyalarni yetarli darajada shakllantira olmayapti. Shu bois ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘qitishning interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan modelini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Pedagogik mahorat tushunchasi zamonaviy pedagogika fanida ko‘p komponentli va integrativ kategoriya sifatida talqin etiladi. U o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, metodik tayyorgarligi, pedagogik texnikasi, kommunikativ madaniyati hamda refleksiv faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, pedagogik mahorat o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali loyihalash, tashkil etish, boshqarish va baholash qobiliyatlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, pedagogik mahorat nafaqat individual kasbiy sifat, balki ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi tizimli omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari esa pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etiladi. Xususan, raqamli ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish texnologiyalari, interaktiv metodlar (problem-based learning, case-study, collaborative learning), shuningdek, gamifikatsiya va adaptiv ta’lim yondashuvlari o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, balki o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, refleksiv faoliyatini rivojlantirish va innovatsion fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish jarayonida tizimlilik yetishmasligi, metodik ta’minotning to‘liq emasligi hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalar darajasining turlicha ekanligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa pedagogik mahoratni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta’lim texnologiyalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish vositasi sifatida tizimli o‘rganish, ularning samarali qo‘llanish mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot maqsadi — zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash, ularning nazariy asoslarini yoritish va amaliy qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berish.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– pedagogik mahorat tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish;

– zamonaviy ta’lim texnologiyalarining turlari va ularning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish;

– o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga texnologiyalarning ta’sirini aniqlash;

– pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

– amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlarni taklif etish.

Pedagogik mahorat muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu tushuncha o‘qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar asosida izohlangan. Jahon pedagogika fanida pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya masalalari Jon Dyui**,** Lev Vigotskiy**,** Jan Piaje**,** Jerom Bruner kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ijtimoiy muhitning o‘rni, faoliyat asosida o‘qitish va bilish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishi kabi muhim g‘oyalarni ilgari surganlar. Shuningdek, pedagogik mahoratning psixologik va metodik jihatlari Boris Ananyev**,** Aleksey Leontyev**,** Sergey Rubinshteyn kabi olimlar tomonidan o‘rganilib, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi shaxsiy va faoliyat omillari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. O‘zbek pedagogika ilmida ham pedagogik mahorat masalasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Jumladan, A’zam Xoliqov**,** Mamatqul Axmedjanov**,** Baxtiyor Rahimov**,** Nodira Egamberdiyeva**,** Shavkat Sharipov kabi olimlar o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib berganlar.

So‘nggi yillarda zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida pedagogik mahoratni rivojlantirish masalalari ham keng tadqiq etilmoqda. Bu borada ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish hamda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish masalalari dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq

mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini pedagogik mahoratni rivojlantirishning tizimli mexanizmi sifatida kompleks yoritish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu sababli ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati saqlanib qolmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot aralash yondashuv (sifat va miqdoriy metodlar uyg‘unligi) asosida tashkil etilib, pedagogik jarayonni har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, didaktika va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Nazariy tahlil metodi yordamida pedagogik mahorat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda rivojlanish omillari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqilib, uning metodik, kommunikativ, refleksiv va kreativ komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Empirik bosqichda esa bir qator amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, kuzatish metodi orqali oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan dars mashg‘ulotlari tahlil qilinib, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanish darajasi va samaradorligi o‘rganildi. Kuzatish jarayoni oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida tizimli ravishda amalga oshirildi.

So‘rovnoma metodi yordamida o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish darajasi, kasbiy kompetensiyalari hamda pedagogik ehtiyojlari aniqlashtirildi. Suhbat metodi esa o‘qituvchilarning amaliy tajribasini chuqurroq o‘rganish, ularning innovatsion yondashuvlarga munosabati va duch kelayotgan muammolarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, taqqoslash metodi orqali an’anaviy va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘qitish jarayonlari o‘zaro solishtirilib, ularning samaradorlik darajasi baholandi. Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan umumlashtirilib, foiz ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati tanlandi. Tadqiqot predmeti esa zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayoni va uning mexanizmlaridan iborat bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi, ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi va qayta tahlil qilindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim va samarali omil ekanligini ko‘rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlar tahlili asosida pedagogik mahoratni rivojlantirishning bir qator ustuvor mexanizmlari aniqlanib, ularning amaliy samaradorligi asoslab berildi.

Birinchidan, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Xususan, LMS platformalari, masofaviy ta’lim vositalari (Zoom, Google Classroom) hamda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati (taxminan 70–80%) raqamli vositalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishini ta’kidladi. Bu esa o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, interaktiv metodlarni qo‘llash pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Case-study, muammoli ta’lim (problem-based learning) va hamkorlikda o‘qitish (collaborative learning) metodlaridan foydalanish natijasida talabalar faolligi ortdi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko‘nikmalari rivojlandi. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar qo‘llangan darslarda talabalar ishtiroki an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Uchinchidan, refleksiv faoliyatni rivojlantirish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda muhim omil sifatida aniqlandi. O‘z faoliyatini tahlil qilish, muntazam “feedback” tizimini yo‘lga qo‘yish hamda professional portfoliolar yuritish orqali o‘qituvchilar o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi va kasbiy o‘sishga intilishi kuchaydi.

To‘rtinchidan, kreativ pedagogik yondashuvni qo‘llash ta’lim jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilishi aniqlanadi. Innovatsion dars ishlanmalari, gamifikatsiya elementlari va multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etishga imkon berdi. Bu esa nafaqat talabalar motivatsiyasini oshirdi, balki o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini ham rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Ushbu mexanizmlar o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanganda ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshishi kuzatildi.

Muhokama. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari pedagogik mahoratni rivojlantirishda muhim omil bo‘lsa-da, ularning samaradorligi bevosita tizimli va kompleks yondashuvga bog‘liq. Ya’ni, faqat texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish yetarli emas, balki ularni didaktik maqsadlar, o‘quv mazmuni va pedagogik vazifalar bilan uyg‘un holda metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish talab etiladi. Aks holda, texnologiyalar kutilgan natijani bermasligi yoki yuzaki qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari pedagogik mahoratning ko‘p komponentli tuzilishga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Xususan, pedagogik mahorat quyidagi asosiy kompetensiyalar orqali shakllanadi va rivojlanadi:

– metodik kompetensiya – o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali loyihalash, darsni tashkil etish va mos metodlarni tanlash qobiliyati;

– kommunikativ kompetensiya – pedagogik muloqotni samarali tashkil etish, talabalar bilan interaktiv aloqani yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalari;

– axborot texnologiyalari kompetensiyasi – zamonaviy raqamli vositalar va platformalardan samarali foydalanish, ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish malakasi;

– refleksiv va kreativ kompetensiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va pedagogik jarayonga ijodiy yondashish qobiliyati.

Mazkur kompetensiyalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri rivojlanmasdan turib boshqasining to‘laqonli shakllanishi qiyin kechadi. Shu sababli pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayoni kompleks xarakterga ega bo‘lishi zarur.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, o‘qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, malaka oshirish kurslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu jarayonda faqat nazariy bilim berish emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, master-klasslar va tajriba almashish faoliyatlarini keng yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi o‘qituvchining individual xususiyatlari, motivatsiyasi va innovatsiyaga bo‘lgan tayyorgarligi bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu bois pedagogik mahoratni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash, o‘qituvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish vositasi sifatida samarali qo‘llash uchun metodik, tashkiliy va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishning muhim va ta’sirchan omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini oshirish bilan birga, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ham jadallashtiradi.

Xususan, zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali:

– ta’lim sifati va samaradorligi oshadi;

– o‘qituvchining metodik, kommunikativ va axborot texnologiyalari kompetensiyalari rivojlanadi;

– ta’lim jarayoni interaktiv, moslashuvchan va innovatsion tus oladi;

– o‘qituvchilarda refleksiv yondashuv va kreativ fikrlash shakllanadi.

Shu bilan birga, pedagogik mahoratni rivojlantirish faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmasligi, balki ularni ilmiy asoslangan metodika asosida qo‘llashni talab etadi. Bu esa o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ularning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish va innovatsion faoliyatga tayyorlashni zarur etadi.

Kelgusida pedagogik mahoratni rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalari, adaptiv ta’lim tizimlari, raqamli pedagogika hamda individual ta’lim trayektoriyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Axmedjanov M.M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Rahimov B.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

4. Egamberdiyeva N.M. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Tafakkur, 2022.
5. Sharipov Sh.S. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Universitet, 2021.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018.
8. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
10. Qodirov B. Raqamli ta’lim muhitini tashkil etish. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

УДК796(071)

РОЛЬ ПСИХИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ ЮНЫХ ШАХМАТИСТОВ В СОРЕВНОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Усманова Шахло Шавкатовна,
и.о.доцента кафедры «Спортивная психология и педагогика»
Узбекского государственного университета физической культуры
и спорта, город Чирчик, улица Спортсменов, 19.
usmanovashahlo1969@gmail.com

В статье раскрыто понятие о психическом состоянии спортсмена перед и во время соревнования, а именно рассматривается предстартовая тревожность - как основной показатель успешности выступления юных шахматистов на соревновании и влияние данного психического состояния на другие предстартовые состояния спортсменов-шахматистов. Предстартовая тревожность и её связь с личностными особенностями спортсмена, такими как уверенность в себе, мотивационная установка, волевая саморегуляция могут помочь решить одну из многочисленных проблем шахмат как вида спорта, а именно проблему психологической подготовки шахматистов к соревнованиям, то есть, умение владеть собой и развитие качества «уверенность в себе».

Ключевые слова: *психические состояния, предстартовая тревожность, личностные особенности, психологическая подготовка, самооценка, мотивация, юные шахматисты.*

MUSOBAQA JARAYONIDA YOSH SHAXMATCHILARNING PSIXIK HOLATLARINING ROLI

Maqolada sportchining musobaqa oldidan va paytida ruhiy holati, ya’ni boshlang‘ich tashvishi - yosh shaxmatchilarning musobaqadagi muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi va ushbu ruhiy holatning shaxmat sportchilarining boshqa boshlang‘ich holatlariga ta’siri haqida tushuncha ochib berilgan. Boshlang‘ichdan oldingi tashvish va uning sportchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsion munosabati, irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish kabi shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liqligi shaxmatning sport turi sifatida ko‘plab muammolaridan birini, ya’ni shaxmatchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash muammosini hal qilishga yordam beradi., o‘zini tuta bilish va "o‘ziga ishonch"sifatini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: *psixik holatlar, boshlanishdan oldingi tashvish, shaxsiy xususiyatlar, psixologik tayyorgarlik, o‘z - o‘zini baholash, motivatsiya, yosh shaxmatchilar.*

THE ROLE OF MENTAL STATES OF YOUNG CHESS PLAYERS IN THE COMPETITIVE PROCESS

The article reveals the concept of the athlete's mental state before and during the competition, namely, pre-start anxiety, as the main indicator of the success of young chess players' performance at the competition, and the influence of this mental state on other pre-start states of chess players. Pre-start anxiety and its relationship to an athlete's personality traits, such as self-confidence, motivational attitudes, and volitional self-regulation, can help address one of the many challenges in chess as a sport, namely, the psychological preparation of chess players for competitions, which includes self-control and the development of self-confidence.

Keywords: *mental states, pre-start anxiety, personality traits, psychological preparation, self-esteem, motivation, young chess players.*

Введение. В условиях современного спорта, когда спортсмены в основном имеют примерно одинаковый уровень физической, технической и тактической подготовленности, возрастает значимость психической готовности к соревнованию. Важности определённых физических и психических качеств, которые приводят к успеху в соревнованиях по шахматам, уделяли внимание И. Дьяков, А. Петровский и П. Рудик. По составленной ими психограмме шахматистов, определялись характерные для личности психологические свойства: врождённые, приобретённые с опытом и имеющие узко шахматное значение. К списку профессионально важных для шахматного маэстро, а значит и для каждого, кто занимается шахматной игрой, свойств, сделанных на основе психограммы

относятся: хороший запас физических сил и общего состояния здоровья, крепкие нервы, самообладание, способность равномерно распределять внимание, способность воспринимать динамические отношения, созерцательный тип психики, высокий уровень интеллектуального развития, предметный характер мышления, объективный характер мышления, сильная «шахматная» память, синтетическая сила мышления и представления, комбинаторная способность, дисциплинированная воля, высокая активность интеллектуальных процессов, дисциплинированность эмоций и аффектов, вера в себя, уверенность в своих силах.

Анализ литературных источников. Одним из основных качеств, влияющих на психические состояния, является высокая самооценка. Особое значение это качество имеет для спортсменов (прежде всего для юных спортсменов, у которых эмоциональная сторона преобладает над рациональной), их специфической сферы деятельности. Уверенность в себе и мотивация очень важные аспекты деятельности в спорте. Развитие у спортсменов способностей к волевой саморегуляции имеет большое значение для максимальной реализации их возможностей.

Исследование зависимости психического состояния и успешности выступления в соревнованиях юных шахматистов от уровня уверенности в себе, мотивации и волевой саморегуляции может помочь решить одну из многочисленных проблем шахмат как вида спорта, а именно проблему психологической подготовки шахматистов к соревнованиям - умение владеть собой и развитие качества «уверенность в себе». Исследуемая проблема достаточно обширна и сложна.

Особенно эта проблема актуальна для начинающих шахматистов – детей и подростков, когда необходимо, чтобы хорошо работали процессы памяти, внимания, мышления, что особенно важно в шахматах. В подростковом возрасте чаще всего возникают различные комплексы, которые оказывают влияние на возникновение тревожности и страха перед испытаниями и соревнованиями.

С учётом вышеизложенного, можно сказать, что психическое состояние в виде предстартовой тревожности выступает как основной показатель успешности выступления юных шахматистов на соревновании и влияние данного психического состояния на другие предстартовые состояния спортсменов - шахматистов.

Цель исследования: исследовать предстартовую тревожность как фактор непосредственной психической готовности спортсменов к соревнованиям.

Объект исследования: группа учащихся детско – юношеской спортивной школы (ДЮСШ) по шахматам

Предмет исследования: предстартовая тревожность и ее связь с личностными особенностями спортсмена (уверенность в себе, мотивационная установка, волевая саморегуляция).

Гипотеза: Мы предполагаем, что предстартовая тревожность юных спортсменов - шахматистов влияет на результативность в соревнованиях.

Задачи исследования:

1. Изучить эмоциональный компонент психической готовности в контексте оптимальной боевой готовности спортсмена к соревнованиям.
2. Изучить психологические особенности спортсменов - шахматистов, выступающих на соревнованиях;
3. Провести эмпирическое исследование уровня тревожности ее связи с личностными особенностями спортсмена (уверенность в себе, мотивационная установка, волевая саморегуляция).

Для решения поставленных задач использовались следующие **методы исследования**:

1. Диагностический тест «Шкала реактивности: ситуативная и личностная тревожность Ч.Д. Спилберга - Ю.Л.Ханина»
2. Диагностика силы мотивационной установки к достижению успеха проводилась по опроснику Т.Елерса
3. Исследование волевой саморегуляции проводилось с помощью теста-опросника А. В. Зверькова и Е. В. Ейдмана.
4. Тест на самооценку личности: Я-реальное, Я-идеальное. Методика С.А. Будасси исследования Я-концепции.
5. Методы математической статистики

Практическая значимость результатов состоит в исследовании предстартовой тревожности как фактора непосредственной психической готовности спортсменов к соревнованиям, а также диагностика предстартовой тревожности позволяет вносить коррективы в деятельность спортсмена.

Данные результаты исследования могут быть использованы для выявления предстартовой тревожности у спортсменов, занимающихся шахматами.

Результаты исследования также могут быть использованы тренерами, спортивными психологами в своей трудовой деятельности.

И так, результаты уровня ситуативной тревожности юных шахматистов во время юношеских спортивных игр по шахматам демонстрируют

Таблица 1.

Уровень ситуативной тревожности юных шахматистов во время юношеских спортивных игр по шахматам (%)

Уровни ситуативной тревожности	Высокий	Средний	Низкий
Тур			
1	-	42,9	37,1
2	-	42,9	32,1
3	-	57,1	32,9
5	-	61,4	18,6
6	44,3	67,1	18,6
7	44,3	67,1	18,6
Быстрая игра	44,3	42,85	22,85
Молниеносная игра	-	71,4	18,6

Результаты также можно видеть и на диаграмме.



Рисунок 1. Диаграмма уровня ситуативной тревожности юных шахматистов

Исходя из данных таблицы 1, уровень ситуативной тревожности повышался во время последних туров. В процентном соотношении в 6 и 7 турах высокий уровень - 44,3%, средний - 55,3%, низкий - 24,9%.

Результаты проведенного исследования свидетельствуют о достоверном повышении уровня ситуативной тревожности юных спортсменов в обстановке воздействия сбивающих факторов ($p < 0,05$).

Таблица 2.

Уровень личностной тревожности юных шахматистов во время юношеских спортивных игр по шахматам (%)

Уровни личностной тревожности	Высокий	Средний	Низкий
Тур			
1	-	45,6	27,1
2	-	43,7	32,8
3	-	50,1	35,5
5	-	67,4	20,6
6	-	53,1	16,6
7	-	49,1	13,6

Быстрая игра	-	46,85	25,5
Молниеносная игра	-	61,4	25,7

Диаграмма 2.

Рисунок 1. Диаграмма уровня личностной тревожности юных шахматистов

Исходя из данных таблицы 2, уровень личностной тревожности практически не изменялся во время всех игр. Выявилось преобладание низкой тревожности В процентном соотношении высокий уровень - 0%, средний - 47,6%, низкий - 54,8%. Результаты проведённого исследования свидетельствуют о достоверной стабильности уровня личностной тревожности юных спортсменов в обстановке воздействия сбивающих факторов ($p < 0,05$).

Проанализировав результаты выступлений юных шахматистов, учитывая показатели их личностной и ситуативной тревожности (смотрите таблицы 1 и 2) во время соревнований можно сделать выводы, что при низкой личностной и ситуативной тревожности, которая практически не меняется во время соревнований, результаты спортсменов хуже. А у спортсменов со средней личностной тревожностью и увеличением ситуативной тревожности во время соревнований результаты лучше. Значит, ситуативная тревожность играет главную роль в достижении результатов.

На основе данных, приведённых в таблице 3, выявлено, что на соревнованиях такого уровня наблюдается повышение уровня ситуативной тревожности у многих спортсменов, хотя они все опытные шахматисты. Также можно сделать вывод, что у девушек этот показатель намного выше, это связано с большей психологической уязвимостью девушек. Данные наглядно приведены в диаграмме.

Таблица 3.

Уровни ситуативной тревожности юных шахматистов во время финальных соревнований чемпионата по шахматам среди юношей и девушек до 14 лет (%)

Уровни ситуативной тревожности	Высокий	Средний	Низкий
Туры			
1	33,3	58,3	8,3
9	62,5	33,3	4,2



Рисунок 3. Диаграмма уровней ситуативной тревожности юных шахматистов

Хотелось бы отметить такую закономерность, как повышение ситуативной тревожности перед последним туром. Это можно объяснить тем, что часто в последнем туре решается судьба призовых мест, или возможность выполнения спортивного разряда или звания. И тот, кто более верит в свои силы и лучше владеет собой, шансы лучше.

Таблица 4.

Уровни мотивационной установки к достижению успеха юных шахматистов во время соревнований чемпионата по шахматам (%)

Уровень мотивационной установки к достижению успеха	Высокий	Средний	Низкий
Классическая игра	30,4	59,5	5,2
Быстрая игра	63,3	31,1	4,1
Молниеносная игра	13,2	55,3	26,5



Рисунок 4. Диаграмма уровней мотивационной установки к достижению успеха юных шахматистов

Диагностика силы мотивационной установки к достижению успеха проводилась по опроснику Т.Елерса. Так, на юношеских спортивных играх по шахматам видно, что уровень мотивации не постоянен и связан с результатами. Особенно ярко проявление мотивационной установки выявлено в последнем туре.

Соответственно, уровень тревожности связан с мотивационной установкой спортсмена. В финальных соревнованиях чемпионата среди юношей и девушек наблюдалась та же тенденция. Однако, было выявлено небольшое количество юных шахматистов с высоким и выше среднего уровнями мотивационной установки к достижению успеха. Это можно объяснить тем, что не могут все быть победителями. Юные шахматисты со средним уровнем мотивационной установки к достижению успеха требуют к себе большего внимания тренера и родителей. (смотрите таблицу 5)

Таблица 5.

Уровни мотивационной установки к достижению успеха юных шахматистов во время финальных соревнований чемпионата по шахматам среди юношей и девушек до 14 лет (%)

Уровень мотивационной установки к достижению успеха	Высокий	Средний	Низкий
Юноши	59,4	41,5	6,2
Девушки	55,3	49,4	23,1



Рисунок 5. Диаграмма уровней мотивационной установки к достижению успеха юных шахматистов

Корреляционный анализ показал тесную взаимосвязь между уровнем ситуативной тревожности и мотивационными установками (r = 0,574), а также с результатом соревнования (r = 0,776).

Таблица 6.

Уровни волевой саморегуляции юных шахматистов во время соревнований по шахматам (%)

Уровень волевой саморегуляции	Шкала В	Шкала Н	Шкала С
Классическая игра	61,1	63	64,8
Быстрая игра	59	60	68
Молниеносная игра	48	60	60



Рисунок 6. Диаграмма уровней волевой саморегуляции юных шахматистов

Исследование волевой саморегуляции проводилось с помощью теста-опросника А. В. Зверькова и Е. В. Ейдмана, что отражено в таблице 6, и было определено, что у большинства исследуемых юных шахматистов наблюдаются высокие уровни волевой саморегуляции (шкала В - 61,1%, шкала Н - 63, 0%, шкала С - 64,8%). Это свидетельствует о том, что регулярные занятия спортом воспитывают у детей настойчивость, самообладание.

Корреляционный анализ показал тесную взаимосвязь между уровнем ситуативной тревожности и волевой саморегуляцией (г = 0,564), а также с результатом соревнования (г = 0,756).

Исследование уровня уверенности в себе юных шахматистов проводилось с помощью анкетирования. Как показал анализ анкет и наблюдения за юными шахматистами, существует определённая взаимосвязь между уверенностью в себе и спортивными результатами. Чрезмерная или недостаточная уверенность в себе негативно влияет на спортивные достижения.

Таблица 7.

Показатели уровня самооценки юных шахматистов к спортивной деятельности (%)

Шахматисты		
Самооценка	Ведущие юные шахматисты (1-разряд, КМС)	Юные шахматисты (1-2 разряды)
Завышенная	7,8	6,8
Адекватная	73,5	57,3
Занижена	18,7	35,9

Данные отражены в диаграмме 7.



Рисунок 7. Диаграмма показателей уровня самооценки юных шахматистов

Как видно из таблицы 7, высокий показатель уровня уверенности в себе во время финальных соревнований по шахматам среди юношей и девушек до 14 лет был обнаружен у более опытных участников команды. Это указывает на то, что более подготовлены в психологическом плане шахматисты с опытом и более высокой квалификацией, имеют адекватную самооценку. Также мы видим, что юные шахматисты с высоким уровнем уверенности показывают лучшие результаты и занимают более высокие места, чем шахматисты, у которых уверенность в себе недостаточно высока. Показатель завышенной самооценки практически не отличается у шахматистов различных квалификацией. Уровень уверенности в себе больше в ведущих шахматистов (73,5%) по сравнению с юными шахматистами (57,3%). Показатель заниженной самооценки значительно меньше в ведущих шахматистов - 18,7%, против 35,9% - других юных шахматистов.

В финальных соревнованиях чемпионата среди юношей до 14 лет наблюдается та же тенденция, но уровень уверенности в себе здесь не превышал отметку 70% у юных шахматистов.

Корреляционный анализ показал тесную взаимосвязь между уровнем ситуативной тревожности и самооценкой (г = 0,664), а также с результатом соревнования (г = 0,766).

Вывод. Исследование проводилось во время соревнований по шахматам среди спортсменов - шахматистов в возрасте до 14 лет, в течение трёх шахматных игр (классическая игра, быстрая игра, молниеносная игра) и в финале соревнований.

После проведения тестовых заданий, результаты заносились в протокол. Затем были составлены таблицы данных личностной и ситуативной тревожности, уровня мотивации и волевой саморегуляции юных шахматистов.

На определённом этапе исследования выяснилось, насколько влияет состояние ситуативной (предстартовой) тревожности на результат выступления юных шахматистов в соревнованиях. Представленная нами гипотеза о том, что предстартовая тревожность юных спортсменов - шахматистов влияет на результативность в соревнованиях, подтвердилась.

Эмпирическое исследование показало следующие результаты:

1. Успешность выступления юных шахматистов в соревнованиях зависит от уровня личностной и ситуативной тревожности, где ситуативная тревожность играет главную роль, чем личностная.

2. Ситуативная и личностная тревожности взаимосвязаны с мотивационной установкой, самооценкой и волевой саморегуляцией.

3. Результат выступления в соревнованиях имеет прямо пропорциональную зависимость от силы мотивационной установки к достижению успеха.

4. У большинства юных шахматистов определились высокие уровни волевой саморегуляции, которые выразились в настойчивости и в самообладании (шкала В - 61,1%, шкала Н - 63,0%, шкала С - 64,8%).

5. Самый высокий показатель уровня уверенности в себе был обнаружен у более опытных участников сборной команды.

6. Предстартовая тревожность связана с волевой регуляцией и самооценкой личности.

Заключение. Шахматы являются одной из древнейших интеллектуальных игр, которая на сегодняшний день является видом спорта. В данном виде спорта огромную роль играет психологическая составляющая, быть то особенности мышления или внимания, а также психологическая подготовленность шахматиста в целом. Литературные источники показали, что как среди слагаемых успеха в шахматах, так и среди причин поражения в спортивном соревновании определенная доля принадлежит психическому состоянию спортсмена перед и во время соревнования. Особую роль играет тревожность как фактор успеха-неуспеха выступления.

Тревожность - индивидуальная психологическая особенность, проявляющаяся в склонности человека к частым и интенсивным переживаниям состояния тревоги, а также в низком пороге его возникновения. Рассматривается как личностное образование или как свойство темперамента, обусловленное слабостью нервных процессов. Определённый уровень тревожности – естественная и обязательная особенность активной деятельности личности.

Проведённое эмпирическое исследование показало, что такое состояние дискомфорта, как предстартовая тревожность оказывает существенное влияние на результаты соревнований и на возможность профессиональной карьеры в целом. Действие тревожности способно ослабить процессы памяти, внимания, мышления, что особенно важно в шахматах. Уровень тревожности влияет на возникновение и других психических состояний, таких как состояние боевой готовности, предстартовая лихорадка, предстартовая апатия и состояние самоуспокоенности.

Так же мы подтвердили, что изучение психических состояний, в том числе и предстартовой тревожности, необходимо проводит через исследование самооценки, мотивации и волевой саморегуляции личности спортсмена.

Полученные данные исследования позволяют отметить, что:

1. Результативность выступления юных шахматистов в соревнованиях зависит от уровня личностной и ситуативной тревожности. При низкой личностной тревожности и ситуативной тревожности, которая практически не меняется во время соревнований - результаты спортсменов хуже. А у спортсменов со средней личностной тревожностью и увеличением ситуативной тревожности во время соревнований результаты лучше. Уровень ситуативной тревожности повышается во время последних решающих туров и играет главную роль в достижении успеха.

2. Ситуативная и личностная тревожности взаимосвязаны с с мотивационной установкой, самооценкой и волевой саморегуляцией.

3. Выявлено: у юных шахматистов результат выступления в соревнованиях имеет прямо пропорциональную зависимость от силы мотивационной установки к достижению успеха.

4. Уровень развития волевой саморегуляции может быть охарактеризован в целом и отдельно по таким свойствам характера как настойчивость и самоконтроль. У большинства юных шахматистов наблюдались высокие уровни волевой саморегуляции (шкала В - 61,1%, шкала Н - 63,0%, шкала С - 64,8%). Юные спортсмены, у которых все три показателя были высоки и в соревнованиях показывали лучшие результаты.

5. Самый высокий показатель уровня уверенности в себе был обнаружен у более опытных участников сборной команды по шахматам. Юные шахматисты с высоким уровнем уверенности

показывают лучшие результаты и занимают более высокие места, чем шахматисты, у которых уверенность в себе недостаточно высока.

6. Предстартовая тревожность и ее уровень влияет на возникновение других психических состояний.

7. Успешность выступления юных шахматистов в соревнованиях зависит от уровня личностной и ситуативной тревожности.

Литература:

1. Алексеев Н.Г. Шахматы и развитие мышления. - Шахматы: наука, опыт, мастерство. - Москва: Физкультура и спорт, 1995. - 150 с.

2. Багадирова С.К. «Спортивная психология» учеб. пособие. Майкоп (Адыгея) 2014г. 243с.

3. Ловягина А.Е. «Психология физической культуры и спорта». учебник и практикум. Москва: Юрайт. 2016 г. - 338с.

4. Маклаков А.Г. «Общая психология» учебник для вузов. СПб: Питер. (серия Учебник для вузов) 2016 г. 583с.

5. Немов Р.С. «Общая психология» учебник. М.: Юрайт. 2012г. - 2472 с.

6. Усманова Ш.Ш. Психология и психология спорта. Учебное пособие. Т- «Evrika nashriyot matbaa uyi» MCHJ. 2025г. - 448 с.

УЎК 37.013.42:37.017.4

ОҒИР ТАРБИЯЛИ ЁШЛАРДА РАДИКАЛИЗМГА МУНОСАБАТНИНГ ЎЗГАРИШИ: ПЕДАГОГИК КОРРЕКЦИЯ ИМКОНИЯТЛАРИ

Хайитов Жўрабек Жонпўлотович,
Ўзбекистон Миллий педагогика университети
мустақил тадқиқотчиси
xayitovjorabek45@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3896-0141

Маколада оғир тарбияли 14-19 ёшли ёшларда радикализмга муносабатнинг ўзгариши педагогик коррекция имкониятлари нуқтаи назаридан экспериментал таҳлил қилинган. Тадқиқотда 95 асосий респондент (экспериментал гуруҳ - 49, контрол гуруҳ - 46) иштирок этган. Экспериментал гуруҳда 4,5 ой давомида 4 модулли методика (М1 - Ҳуқуқий тренинг, М2 - Ролли ўйинлар, М3 - Меҳнат ва ватанпарварлик, М4 - Маҳалла-инспектор шериклиги) амалга оширилган. Пре-тест ва пост-тест натижаларига кўра, экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индекси 28,3% дан 18,6% га камайган (камайиш 9,7 фоиз пункт, t=-8,84; p<0,001). “Радикал гуруҳга жалб қилиш” ролли ўйини ва маҳалла-инспектор учрашувларининг таъсири таҳлил қилинган. Контрол гуруҳда ўзгаришлар статистик аҳамиятсиз бўлган. Коэн d=1,81 методиканинг “жуда катта” таъсир кучига эга эканлигини кўрсатган.

Калит сўзлар: *радикализм, оғир тарбияли ёшлар, педагогик коррекция, ролли ўйин, маҳалла-инспектор шериклиги, Коэн d.*

ИЗМЕНЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ К РАДИКАЛИЗМУ У ТРУДНОВОСПИТУЕМЫХ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ

В статье проведён экспериментальный анализ изменения отношения к радикализму у трудновоспитуемых молодых людей в возрасте 14-19 лет с точки зрения возможностей педагогической коррекции. В исследовании приняли участие 95 основных респондентов (экспериментальная группа - 49, контрольная группа - 46). В экспериментальной группе в течение 4,5 месяцев была реализована 4-модульная методика (М1 - Правовой тренинг, М2 - Ролевые игры, М3 - Труд и патриотизм, М4 - Партнёрство махалли и инспектора). По результатам пре-теста и пост-теста в экспериментальной группе индекс отношения к радикализму снизился с 28,3% до 18,6% (снижение на 9,7 процентных пункта, t=-8,84; p<0,001). Проанализировано влияние ролевой игры «Вовлечение в радикальную группу» и встреч махалли с инспектором. В контрольной группе изменения были статистически незначительны. Коэн d=1,81 свидетельствует об «очень большом» размере эффекта методики.

Ключевые слова: *радикализм, трудновоспитуемые молодые люди, педагогическая коррекция, ролевая игра, партнёрство махалли и инспектора, Коэн d.*

CHANGES IN THE ATTITUDE TOWARD RADICALISM AMONG DIFFICULT-TO-EDUCATE YOUNG PEOPLE: OPPORTUNITIES FOR PEDAGOGICAL CORRECTION

The article presents an experimental analysis of changes in the attitude toward radicalism among difficult-to-educate young people aged 14-19 years from the perspective of pedagogical correction opportunities. The study involved 95 main respondents (experimental group - 49, control group - 46). In the experimental group, a 4-module methodology (M1 - Legal Training, M2 - Role-Playing Games, M3 - Labor and Patriotism, M4 - Mahalla-Inspector Partnership) was implemented over 4.5 months. According to the pre-test and post-test results, the attitude toward radicalism index in the experimental group decreased from 28.3% to 18.6% (a decrease of 9.7 percentage points, t=-8.84; p<0.001). The influence of the role-playing game "Involvement in a Radical Group" and mahalla-inspector meetings was analyzed. In the control group, the changes were statistically insignificant. Cohen's d=1.81 indicates a «very large» effect size of the methodology.

Key words: *radicalism, difficult-to-educate young people, pedagogical correction, role-playing game, mahalla-inspector partnership, Cohen's d.*

Кириш. Ўзбекистонда ёшлар орасида радикал ғоялар тарқалишининг олдини олиш, уларда миллий ғоя ва толерантликни шакллантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади [1]. Радикализмга мойиллик - бу шахснинг мавжуд ижтимоий-сиёсий тизимга, қонунларга ёки умумқабул қилинган қадриятларга нисбатан кескин, ҳаддан ташқари позицияни қабул

қилишга, ҳатто зўравонлик йўли билан ўзгартиришга интилишидир [2]. Оғир тарбияли ёшларда радикализмга мойиллик кўпинча уларнинг девиант хулқ-атворининг давоми сифатида намоён бўлади: мавжуд тизимга норозилик, адолатсизликка қарши куч ишлатишни оқлаш, миллат ёки дин устуворлигини тарғиб қилиш [3, 4]. Мавжуд тадқиқотларда радикализмга қарши курашнинг асосан ҳуқуқий ва маъмурий чоралари тавсифланган бўлса-да [5], тизимли педагогик коррекциянинг самарадорлиги махсус экспериментал тадқиқот объекти бўлмаган. Шу сабабли, ишлаб чиқилган ҳуқуқий тарбия методикасининг оғир тарбияли ёшларда радикализмга муносабатни ўзгартириш имкониятларини экспериментал асослаш долзарб илмий-амалий муаммо ҳисобланади.

Ушбу **мақоланинг мақсади** - оғир тарбияли 14-19 ёшли ёшларда радикализмга муносабатнинг ўзгаришини педагогик коррекция имкониятлари нуқтаи назаридан экспериментал таҳлил қилиш ва статистик асослашдир.

Методология. Тадқиқотнинг мақсади ва вазифаларига мувофиқ қуйидаги методлар мажмуасидан фойдаланилди.

Тадқиқотда ишлаб чиқилган ҳуқуқий тарбия методикасининг самарадорлигини текшириш учун классик педагогик эксперимент схемаси - пре-тест, шакллантирувчи босқич, пост-тест дизайни қўлланилди [6, 7]. Бу дизайн методика таъсирини аниқлаш ва унинг самарадорлигини статистик асослаш имконини беради.

Тадқиқотда 95 асосий респондент (14-19 ёшли оғир тарбияли ёшлар) иштирок этди. Тадқиқот этик меъёрларга риоя қилган ҳолда ўтказилди: барча иштирокчилардан (18 ёшга тўлмаганлар учун ота-оналаридан) ёзма хабардор розилик олинган [8, 9].

Респондентлар стратификацияланган рандомизация усулида (ёш, ҳудуд, оғир тарбиялилик даражаси бўйича) икки гуруҳга ажратилди: экспериментал гуруҳ (49 нафар) ва контрол гуруҳ (46 нафар) [10, 11]. Стратификацияланган рандомизация гуруҳларнинг асосий белгилар бўйича тенглигини таъминлайди.

Экспериментал гуруҳда 4,5 ой давомида 4 модулли методика (М1 - Ҳуқуқий тренинг, М2 - Ролли ўйинлар, М3 - Меҳнат ва ватанпарварлик, М4 - Маҳалла-инспектор шериклиги) амалга оширилди [12]. Контрол гуруҳда анъанавий тарбиявий ишлар олиб борилди. Тажриба ва назорат гуруҳларини таққослаш методика самарадорлигини аниқлаш имконини беради.

Радикализмга муносабат даражаси махсус ишлаб чиқилган тест (10 савол, Ликерт шкаласи: 1 - тўлиқ қўшиламан, 4 - бутунлай қаршиман) ёрдамида пре-тест ва пост-тест босқичларида баҳоланди [13, 14]. Ликерт шкаласи билдирувчиларнинг муносабатини миқдорий баҳолаш учун кенг қўлланиладиган стандарт усул ҳисобланади.

Тестнинг ички ишончлилиги Кронбах альфа коэффициенти ёрдамида аниқланди (α=0,83-0,85) [10; 11]. Тест-қайта тест ишончлилиги 2 ҳафта оралиғида контрол гуруҳнинг 46 нафар респонденти иштирокида ўтказилиб, Пирсон корреляция коэффициенти ҳисобланди (r=0,82; p<0,01) [15, 16]. Ушбу усуллар диагностика воситаларининг барқарорлиги ва ишончлилигини таъминлайди.

Ҳар бир респондент учун радикализмга муносабат индекси (0-100%) қуйидаги формула бўйича ҳисобланди: индекс = (респондент тўплаган умумий балл / шкала бўйича максимал балл) × 100% [17]. Паст кўрсаткич радикализмни рад этишнинг кучайганини билдиради.

Статистик таҳлилда эса Жуфтлаштирилган t-критерий, Мустақил t-критерий, Коэн d усуллар қўлланилди. Жуфтлаштирилган t-критерий - экспериментал гуруҳнинг пре-тест ва пост-тест кўрсаткичларини солиштириш учун [18, 19]. Мустақил t-критерий - экспериментал ва контрол гуруҳларнинг пост-тест натижаларини солиштириш учун [20, 21]. Коэн d - методиканинг таъсир кучини баҳолаш учун. Таъсир кучининг икки хил ҳисоби амалга оширилди.

(1) пре-тестнинг стандарт оғиши асосида:

$$d = \frac{(M_1 - M_2)}{SD_{pre}}$$

(2) жамланган стандарт оғиш (SD) асосида [22, 23]:

$$d = \frac{(M_1 - M_2)}{\sqrt{\frac{(SD_1^2 + SD_2^2)}{2}}}$$

Барча ҳисоб-китоблар SPSS 26.0 (Statistical Package for the Social Sciences) дастурида амалга оширилди [24]. Ушбу дастур педагогик ва ижтимоий тадқиқотларда статистик таҳлил ўтказиш учун халқаро миқёсида тан олинган восита ҳисобланади.

Натижалар. Пре-тест натижаларига кўра, экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индекси 28,3 ± 6,2% ни, контрол гуруҳда 28,0 ± 6,0% ни ташкил этган. Гуруҳлар орасидаги фарқ

статистик аҳамиятсиз эди (t=0,24; p=0,812>0,05). Бу гуруҳларнинг бошланғич тенглигини тасдиқлайди. Экспериментал гуруҳда пре-тест ва пост-тест натижаларини солиштириш жуфтлаштирилган t-критерий ёрдамида амалга оширилди. Натижалар 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал. Экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индексининг ўзгариши

Кўрсаткич	Пре-тест (n=49)	Пост-тест (n=49)	t-критерий	p-қиймат
Радикализмга муносабат индекси (%)	28,3 ± 6,2	18,6 ± 4,5	-8,84	0,000

Жадвалдан кўриниб турганидек, экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индекси 28,3% дан 18,6% га камайган (камайиш 9,7 фоиз пункт). Фарқ статистик жиҳатдан юқори даражада аҳамиятли (p<0,001). Бу ишлаб чиқилган методиканинг радикализмга муносабатни ўзгартиришда юқори самарадорликка эга эканлигини кўрсатади.

Радикализмга муносабатнинг ўзгариш даражаси ёш гуруҳлари бўйича фарқланган. Қуйидаги 2-жадвалда натижалар келтирилган.

2-жадвал. Ёш гуруҳлари кесимида радикализмга муносабатнинг ўзгариши

Ёш гуруҳи	Пре-тест (%)	Пост-тест (%)	Камайиш (ф.п.)	t-критерий	p-қиймат
14-15 ёш (n=16)	31,5 ± 5,1	22,4 ± 4,3	9,1	5,63	0,000
16-17 ёш (n=20)	28,6 ± 5,2	18,3 ± 4,1	10,3	6,92	0,000
18-19 ёш (n=13)	24,8 ± 5,8	14,2 ± 3,9	10,6	5,69	0,000

Ёш ўтиши билан радикализмга муносабат индексининг камайиш даражаси ортган. Энг катта камайиш 18-19 ёшлиларда кузатилган (10,6 фоиз пункт). Барча гуруҳларда фарқлар статистик аҳамиятли (p<0,001). Пост-тестда экспериментал ва контрол гуруҳларнинг радикализмга муносабат индекси солиштирилди. Натижалар 3-жадвалда келтирилган.

3-жадвал. Пост-тестда гуруҳлар солиштирмаси

Гуруҳ	Радикализмга муносабат индекси (%)	t-критерий	p-қиймат
Экспериментал гуруҳ (n=49)	18,6 ± 4,5	-8,84	0,000
Контрол гуруҳ (n=46)	27,1 ± 5,0		

Экспериментал гуруҳнинг радикализмга муносабат индекси контрол гуруҳга нисбатан 8,5 фоиз пунктга паст бўлиб, фарқ статистик аҳамиятли (p<0,001). Контрол гуруҳда пре-тест ва пост-тест орасидаги ўзгариш статистик аҳамиятсиз бўлган (t=0,89; p=0,378>0,05). Бу радикализмга муносабатнинг яхшиланиши айнан методика таъсири остида юзага келганлигини исботлайди.

Радикализмга муносабат тестининг айрим характерли саволлари бўйича жавоблар таҳлили қуйидаги 4-жадвалда келтирилган.

4-жадвал. Айрим саволлар бўйича “тўлиқ қаршиман” деган жавоблар улушининг ўзгариши (%)

Савол	Пре-тест (ЭГ)	Пост-тест (ЭГ)	Ўзгариш
“Ҳокимиятга қарши куч ишлатиш мумкин”	20,4%	69,4%	+49,0%
“Бирор дин номи билан зўравонлик оқланади”	42,9%	79,6%	+36,7%
“Миллий ғоя - турли миллатларнинг бирлашишига ёрдам беради”	55,1%	87,8%	+32,7%
“Ижтимоий адолатсизлик бўлса, қонунсиз намойиш қилиш мумкин”	22,4%	67,3%	+44,9%

Жадвалдан кўриниб турганидек, “радикал гуруҳга жалб қилиш” ролли ўйини ва маҳалла-инспектор учрашувларидан сўнг радикал ғояларни тўлиқ рад этиш даражаси сезиларли даражада ошган.

Коэн d коэффициенти ёрдамида методиканинг таъсир кучи аниқланди. Жамланган стандарт оғиш (pooled SD) асосида ҳисобланган:

$$d = \frac{9.7}{\sqrt{\frac{6.2^2 + 4.5^2}{2}}} \approx 1.81$$

Бу қиймат 0,8 дан юқори бўлгани учун таъсир кучи Дж. Коэн классификациясига кўра “жуда катта” деб баҳоланади.

Муҳокама. Тадқиқот натижалари ишлаб чиқилган ҳуқуқий тарбиянинг модуль методикаси оғир тарбияли ёшларнинг радикализмга муносабатига статистик аҳамиятли ва амалий жиҳатдан муҳим таъсир кўрсатишини исботлади. Экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индексининг 9,7 фоиз пунктга камайиши методиканинг юқори самарадорлигини кўрсатади. Коэн d=1,81 эса таъсирнинг “жуда катта” эканлигини тасдиқлайди.

Радикализмга қарши иммунитетнинг шаклланишида М2 модули (ролли ўйинлар) ва М4 модули (маҳалла-инспектор шериклиги) алоҳида аҳамият касб этган. “Радикал гуруҳга жалб қилиш” ролли ўйини ёшларга радикал ғояларнинг асл моҳиятини, уларнинг ёлғон ваъдаларини тушуниш, уларга қарши туриш кўникмаларини шакллантириш имконини берган. Маҳалла нозирлари ва ҳуқуқ инспекторлари билан учрашувларда радикализмнинг ҳуқуқий оқибатлари, унинг жамият ва шахс учун хавфли эканлиги ҳақида берилган маълумотлар ҳам иммунитет шаклланишига хизмат қилган.

Ёш гуруҳлари кесимидаги таҳлил шуни кўрсатдики, методика 18-19 ёшлиларда энг юқори натижани берган (камайиш 10,6 фоиз пункт). Бу ҳолат ушбу ёшдаги ёшларнинг танқидий фикрлаш қобилиятининг етуклиги, радикал ғояларнинг оқибатларини чуқурроқ англаши билан изоҳланади. 14-15 ёшлиларда нисбатан паст натижа (камайиш 9,1 фоиз пункт) уларнинг ёш хусусиятлари (импульсивлик, ташқи таъсирларга берилувчанлик) билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Контрол гуруҳда радикализмга муносабат индексида сезиларли ўзгариш кузатилмагани (27,1% гача, атиги 0,9 фоиз пунктга камайиш) мавжуд анъанавий тарбиявий ишларнинг радикализмга қарши иммунитет шакллантиришда самарасиз эканлигини кўрсатади.

Хулоса. Оғир тарбияли 14-19 ёшли ёшларни ресоциализациялаш учун ишлаб чиқилган ҳуқуқий тарбиянинг модуль методикаси радикализмга муносабатни ўзгартиришда юқори самарадорликка эга. Педагогик эксперимент натижалари шуни экспериментал гуруҳда радикализмга муносабат индекси 28,3% дан 18,6% га камайган (камайиш 9,7 фоиз пункт, t=-8,84; p<0,001), методиканинг таъсир кучи “жуда катта” (Коэн d=1,81), “радикал гуруҳга жалб қилиш” ролли ўйини ва маҳалла-инспектор учрашувлари радикализмга қарши иммунитет шаклланишида энг самарали воситалар бўлган, методика 18-19 ёшлиларда энг юқори натижани кўрсатган (камайиш 10,6 фоиз пункт) ҳамда контрол гуруҳда сезиларли ўзгариш кузатилмаган, бу методика самарадорлигини тасдиқлайди.

Олинган натижалар методикани “Ёшлар дафтари” ва “Ёшлар баланси” давлат дастурлари билан интеграциялаш, шунингдек, умумтаълим мактаблари, профессионал коллежлар ва маҳаллаларда радикализм профилактикаси бўйича кенг жорий этиш учун асос бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси” тўғрисидаги қарори, 2021 йил 18 январь, 23-сон. - Тошкент: Адолат, 2021. - 32 б.

2. Шомахмудова Ш.Ш. Ёшларда радикализмга қарши иммунитет шакллантиришнинг педагогик асослари // Ёшлар тарбияси. - 2024. - №1. - Б. 67-75.

3. Рустамова М.Х. Оғир тарбияли ўсмирлар билан ижтимоий-педагогик ишлар мазмунини такомиллаштириш // Педагогика. - 2024. - №2. - Б. 45-52.

4. Абдуллаева С.С. Оғир тарбияли ўсмирларда ҳуқуқий онгни шакллантиришнинг педагогик асослари // Педагогика. - 2022. - №3. - Б. 34-41.

5. Garland D. The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society. - Oxford: Oxford University Press, 2012. - 312 p.

6. Campbell D.T., Stanley J.C. Experimental and Quasi-Experimental Designs for Research. - Boston: Houghton Mifflin, 1963. - 84 p.

7. Фридман Л.М., Пушкина Т.А., Каплунович И.Я. Изучение личности учащегося и ученических коллективов. - М.: Просвещение, 1988. - 207 с.

8. American Psychological Association. Ethical Principles of Psychologists and Code of Conduct. - Washington: APA, 2017. - 16 p.

9. Ўзбекистон Республикасининг “Соғлиқни сақлаш тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири), 2020 йил 11 декабрь, ЎРҚ-650-сон. - Тошкент: Адолат, 2020. - 56 б.

10. Mertens D.M. Research and Evaluation in Education and Psychology. - 5th ed. - Thousand Oaks: Sage Publications, 2019. - 600 p.

11. Fraenkel J.R., Wallen N.E., Hyun H.H. How to Design and Evaluate Research in Education. - 10th ed. - New York: McGraw-Hill, 2018. - 704 p.

12. Юцявичене П.А. Теория модульного обучения. - Вильнюс: Мокслас, 1989. - 272 с.

13. Likert R. A Technique for the Measurement of Attitudes // Archives of Psychology. - 1932. - Vol. 22, No. 140. - P. 1-55.

14. Anastasi A., Urbina S. Psychological Testing. - 7th ed. - Upper Saddle River: Prentice Hall, 1997. - 721 p.

15. Cronbach L.J. Coefficient alpha and the internal structure of tests // Psychometrika. - 1951. - Vol. 16, No. 3. - P. 297-334.

16. Tavakol M., Dennick R. Making sense of Cronbach's alpha // International Journal of Medical Education. - 2011. - Vol. 2. - P. 53-55.

17. Field A. Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics. - 5th ed. - London: Sage Publications, 2018. - 1070 p.

18. Гмурман В.Е. Теория вероятностей и математическая статистика. - 12-изд. - М.: Юрайт, 2019. - 479 с.

19. Хайитов Ж.Ж. Оғир тарбияли ёшларни ресоциализациялашда ҳуқуқий тарбиянинг модуль методикаси // Ўзбекистон педагогика журнали. - 2026. - №2. - Б. 45-52.

20. Snedecor G.W., Cochran W.G. Statistical Methods. - 8th ed. - Ames: Iowa State University Press, 1989. - 503 p.

21. Крамер Г. Математические методы статистики. - М.: Мир, 1975. - 648 с.

22. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. - 2nd ed. - Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. - 567 p.

23. Ellis P.D. The Essential Guide to Effect Sizes: Statistical Power, Meta-Analysis, and the Interpretation of Research Results. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - 173 p.

24. IBM Corp. IBM SPSS Statistics for Windows, Version 26.0. - Armonk, NY: IBM Corp., 2019. - 450 p.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MAJBURIY FANLARNI O‘QITISHDA TALABALARNING MAXSUS KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Avezov Alijon Xayrulloyevich,
Buxoro davlat universiteti
Matematik analiz kafedrasi katta o‘qituvchisi
a.x.avezov@buxdu.uz
Baxshilloyeva Aziza Azizjon qizi,
Buxoro davlat universiteti
Matematika ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida majburiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida maxsus kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kredit-modul tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta’lim va interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, maxsus kompetentlikni shakllantirishning bosqichma-bosqich metodik modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, maxsus kompetentlik, majburiy fanlar, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ

В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты методики развития специальной компетентности студентов в процессе преподавания обязательных дисциплин в условиях кредитно-модульной системы обучения. На основе компетентностного подхода раскрываются содержание и структура специальной компетентности, а также педагогические условия её формирования. Результаты исследования показывают, что использование инновационных педагогических технологий, интерактивных методов и самостоятельного обучения способствует повышению профессиональной подготовки студентов. Предложена поэтапная методическая модель формирования специальной компетентности.

Ключевые слова: *кредитно-модульная система, компетентностный подход, специальная компетентность, обязательные дисциплины, качество образования, педагогические технологии, самостоятельное обучение, профессиональная подготовка.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ SPECIALIZED COMPETENCIES IN TEACHING MANDATORY COURSES WITHIN THE CREDIT-MODULE EDUCATION SYSTEM

This article examines the theoretical and practical aspects of developing students’ special competence in teaching compulsory subjects within the credit-module education system. Based on the competency-based approach, the study analyzes the content, structural components, and pedagogical conditions of special competence development. The findings indicate that the effective use of innovative pedagogical technologies, interactive methods, and independent learning contributes significantly to improving students’ professional training. A step-by-step methodological model for developing special competence is proposed.

Keywords: *credit-module system, competency-based approach, special competence, compulsory subjects, educational quality, pedagogical technologies, independent learning, professional training.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur tizim talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish, akademik mobillikni rivojlantirish hamda o‘quv natijalarini kompetensiyalar asosida baholash imkonini beradi.

Bugungi kunda mehnat bozori nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki kasbiy vazifalarni samarali bajara oladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida majburiy fanlarni o‘qitishda talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaviy yondashuv va kompetentlik masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, I.A. Zimnyaya kompetentlikni shaxsning amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi integrallashgan sifati sifatida talqin qiladi. V.I.

Baydenko oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.O‘zbekistonlik olimlar N.A. Muslimov, O‘. Tolipov, M. Usmonboyeva, R. Ishmuhamedov va boshqalar pedagogik texnologiyalar hamda kompetensiyaviy ta’limning amaliy jihatlarini tadqiq etganlar.Shunga qaramay, kredit-modul tizimida majburiy fanlarni o‘qitish orqali talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirish metodikasi yetarlicha kompleks o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

pedagogik kuzatish;

qiyosiy tahlil;

ilmiy manbalarni o‘rganish;

tizimli yondashuv;

umumlashtirish va xulosa chiqarish metodlari.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi.

Kredit-modul tizimining pedagogik imkoniyatlari. Kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini tashkil etishda quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:talaba markazlashgan ta’lim;

-o‘quv natijalariga yo‘naltirilganlik;

-mustaqil ta’lim ulushining ortishi;

-ta’lim sifati monitoringining takomillashuvi;

-akademik mobillik imkoniyatlari;

-kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan baholash tizimi.

Mazkur afzalliklar maxsus kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur pedagogik muhitni yaratadi.

Talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli

Taklif etilayotgan metodik model to‘rtta bosqichdan iborat:

1-bosqich. Diagnostik bosqich

Talabalarning mavjud bilimlari, ko‘nikmalari va ehtiyojlari aniqlanadi. Diagnostik testlar, anketa va suhbatlardan foydalaniladi.

2-bosqich. Loyihalash bosqichi

Fan dasturlaridagi kompetensiyalar aniqlanib, o‘quv maqsadlari va natijalari belgilab olinadi. O‘quv topshiriqlari maxsus kompetentlikni rivojlantirishga moslashtiriladi.

3-bosqich. Amalga oshirish bosqichi

Mazkur bosqichda quyidagi pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi:

-muammoli ta’lim;

-loyiha metodi;

-keys-stadi;

-debat va munozaralar;

-hamkorlikda o‘qitish;

-elektron ta’lim platformalari.

4-bosqich. Baholash bosqichi

Talabalarning maxsus kompetentligini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

-bilimlarning mustahkamligi;

-amaliy topshiriqlarni bajarish sifati;

-mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati;

-ijodiy yondashuv;

-refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari.

Majburiy fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlarning ahamiyati

Maxsus kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion metodlar muhim rol o‘ynaydi.

Muammoli ta’lim. Talabalarni mustaqil fikrlashga va kasbiy muammolarni hal etishga o‘rgatadi.

Keys-stadi metodi. Nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi.

Loyiha faoliyati. Talabalarning tadqiqotchilik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar. Moodle, Google Classroom va boshqa elektron platformalar yordamida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati samaradorligi oshiriladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar natijasida kredit-modul tizimida tashkil etilgan ta’lim jarayonida:

-talabalarning kasbiy motivatsiyasi ortishi;

-mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi;

-kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatining shakllanishi;

-ijodiy va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi;

-amaliy faoliyatga tayyorlik darajasining oshishi kuzatildi.

Olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limning samaradorligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida maxsus fanlarni o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchilarning faolligini yetarli darajada ta’minlay olmasligi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qarorqabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘liq xizmat qilmasligi bilan ajralib turadi. Maxsus fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va amaliy jihatdan samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o‘qitish o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar bilimlarni tayyor holatda emas, balki izlanish, tahlil va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar.

Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari asosan interaktiv va faol ta’lim metodlari orqali shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlardan innovatsion yondashuvlarga o‘tish zarurati yuzaga kelmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchini markazga qo‘ygan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi orqali o‘quvchilarga real kasbiy vaziyatlar taklif etiladi, ular muammoni tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va yechim topish jarayonida faol qatnashadilar.

Interaktiv metodlardan foydalanish maxsus fanlarning mazmunini o‘zlashtirishni yanada chuqurlashtiradi. Masalan, “aqliy hujum”, “keys-stadi”, “klaster”, “loyiha metodi” kabi usullar o‘quvchilarning bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashiga yordam beradi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat o‘quvchilarda rejalashtirish, jamoada ishlash va natijani taqdim etish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Ilmiy jarayon shuni ko‘rsatadiki, raqamli pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari maxsus fanlarni o‘qitishda keng didaktik imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar orqali o‘quvchilar murakkab kasbiy jarayonlarni xavfsiz va samarali tarzda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodikasi sifatida kuzatish, taqqoslash, pedagogik tajriba va tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida innovatsion va an’anaviy o‘qitish usullarining samaradorligi solishtirildi hamdainteraktiv metodlar o‘quvchilarning bilim darajasi va faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Quyida maxsus fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning amaliy jarayonlari jadvalda keltirilgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning amaliy jarayonlari jadvali:

Pedagogik yondashuv	**Amaliy qo‘llanish jarayoni**	**Didaktik imkoniyatlari**	**Natijalar**
Muammoli ta’lim texnologiyasi	Kasbiy vaziyatlarga asoslangan muammoli topshiriqlar berish	Mustaqil fikrlash va tahlil qilish rivojlanadi	Muammoni hal qilish kompetensiyasi shakllanadi
Loyihaviy faoliyat metodi	Amaliy loyiha ishlab chiqish va taqdim etish	Nazariya va amaliyot uyg‘unlashadi	Kasbiy tayyorgarlik oshadi
Keys-stadi metodi	Real kasbiy holatlarni tahlil qilish	Qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi	Amaliy bilimlar mustahkamlanadi
Aqliy hujum metodi	Guruhda muammolar bo‘yicha fikrlar ishlab chiqish	Ijodiy fikrlash faollashadi	O‘quvchilarning faolligi oshadi
Raqamli texnologiyalar	Elektron platforma va virtual muhitdan foydalanish	Vizual va interaktiv o‘rganish ta’minlanadi	O‘zlashtirish darajasi oshadi

Dars boshlanishidan oldin o‘qituvchi mavzuni amaliy jihatdan belgilaydi va muammoni aniqlaydi. Masalan, o‘quvchilar laboratoriyada yoki seminar mashg‘ulotida maxsus fan bo‘yicha biror kasbiy jarayonni bajarmoqchi bo‘lishadi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini real vaziyat bilan solishtiradi, qaysi

nuqtalarda bilim yetishmasligini kuzatadi, va bu bilim bo‘shliqlarini aniqlash ilmiy tahlil sifatida amalga oshiriladi.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi interaktiv metodlardan foydalanadi: o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi, har bir guruhga real ish vazifasi beriladi. Masalan, texnik fanlarda ular jarayonning qadamlarini loyihalashadi, iqtisodiyot fanida esa moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash modelini ishlab chiqishadi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinab ko‘radi, yangi metodlarni tatbiq qiladi va natijalarni eksperiment orqali tahlil qiladi.

Guruh ishlari yakunida o‘quvchilar o‘z yechimlarini taqdim qiladi va o‘qituvchi refleksiya va ilmiy baholash bosqichini amalga oshiradi. O‘quvchilar nima uchun shu qarorni tanlaganini tushuntiradi, metodni sinash davomida qanday natijalarga erishgani va qaysi amaliy qadamlar muvaffaqiyatli bo‘lganini tahlil qiladi. Shu tarzda ilmiy jarayon nazariya bilan amaliyotni birlashtiradi, ya’ni o‘quvchi o‘z qarorini asoslab, bilimini amalda qo‘llaydi.

Shuningdek, dars davomida o‘qituvchi raqamli vositalarva simulyatsiyalarni qo‘llaydi. Masalan, o‘quvchilar interaktiv dastur orqali jarayonlarni simulyatsiya qiladi, xatolarni ko‘radi, va bu orqali amaliy natijalarni tahlil qiladi. Har bir o‘quvchi o‘z faoliyati bo‘yicha xulosa chiqaradi, qaysi qadam to‘g‘riishlaganini, qaysi qadamni takomillashtirish kerakligini belgilaydi. Shu tarzda ilmiy jarayon doimiy kuzatish, tahlil va amaliy qo‘llash orqali davom etadi.

Xulosa. Kredit-modul tizimida majburiy fanlarni o‘qitish talabalarning maxsus kompetentligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va mustaqil ta’limning uyg‘unligi talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. Kredit-modul tizimi maxsus kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasidir.
2. Innovatsion metodlardan foydalanish ta’lim natijalarini sezilarli yaxshilaydi.
3. Mustaqil ta’lim talabalarning kasbiy shakllanishida muhim omil hisoblanadi.
4. Kompetensiyalarni baholash mezonlarini takomillashtirish zarur.
5. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kredit-modul tizimini joriy etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlari.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – Москва, 2015.
9. Байденко В.И. Компетентностный подход в высшем образовании. – Москва, 2018.
10. Tuning Educational Structures in Europe. Competences and Learning Outcomes. – Brussels, 2020.
11. European Commission. ECTS Users’ Guide. – Luxembourg, 2021.
12. UNESCO. Higher Education and Competency-Based Learning. – Paris, 2022.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
14. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
15. Egamberdiyeva N.M. Oliy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021.
16. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.–Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
17. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.–Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
18. Abdullayeva M., Qodirova N. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.–Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
19. To‘raqulov X., Rahimov B. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish.–Toshkent: Sharq, 2021.

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH, O‘TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

Erkinov Ramziddin Tulqin o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti
III -bosqich tayanch doktoranti (PhD)
ramzes26er@gmail.com

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarining “60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish samaradorligi tadqiq etilgan. Muallif tomonidan mutaxassislikka oid majburiy fanlar (“Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi”, “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari”) misolida dars mashg‘ulotlari loyihalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Buxoro, Shahrisabz va Urganch davlat pedagogika institutlari hamda universitetlarining 625 nafar talabasi ishtirokida 2024–2026-yillar davomida o‘tkazilgan uch bosqichli tajriba-sinov ishlarining dastlabki natijalari, talabalarni guruhlarga ajratish mezonlari va anketasorrovnoma tahlillari bayon etilgan. Tadqiqot natijalari an’anaviy ta’lim shakllarining bugungi kun talablariga yetarli emasligini ko‘rsatib, bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan asoslab beradi.

Kalit so‘zlar*: Oliy ta’lim, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari, kasbiy kompetensiya, innovatsion dasturiy vositalar, tajriba-sinov, didaktik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, anketa-so‘rovnoma, dars mashg‘uloti loyihasi.*

ОРГАНИЗАЦИЯ, ПРОВЕДЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ

В данной статье исследуется эффективность использования инновационных программных средств обучения в развитии профессиональных компетенций студентов высших учебных заведений по направлению образования «60111000 – География и основы экономических знаний». На примере обязательных профильных дисциплин («География промышленности и сельского хозяйства», «География населения и основы демографии») рассматриваются вопросы разработки и внедрения проектов учебных занятий в образовательную практику. В статье изложены предварительные результаты трёхэтапной опытно-экспериментальной работы, проведённой в 2024-2026 учебных годах с участием 625 студентов Бухарского, Шахрисабзского и Ургенчского государственных педагогических институтов и университетов, а также критерии разделения студентов на группы и анализ анкетных опросов. Результаты исследования показывают недостаточность традиционных форм обучения для современных требований и научно-методически обосновывают роль инновационных технологий в повышении методической подготовки будущих учителей географии.

Ключевые слова*: высшее образование, география и основы экономических знаний, профессиональная компетенция, инновационные программные средства, опытно-экспериментальная работа, дидактические условия, интерактивные методы, анкетный опрос, проект учебного занятия.*

ORGANIZATION, CONDUCT OF PEDAGOGICAL EXPERIMENTAL TESTS AND ANALYSIS OF RESULTS

This article examines the effectiveness of using innovative educational software tools to develop the professional competencies of higher education students in the field of “60111000 – Geography and Basics of Economic Knowledge”. Focusing on compulsory specialized subjects (“Geography of Industry and Agriculture” and “Geography of Population and Basics of Demography”), the author addresses the design and implementation of lesson projects into educational practice. The paper presents the preliminary results of a three-stage experimental work conducted during the 2024–2026 academic years involving 625 students from Bukhara, Shahrisabz, and Urganch state pedagogical institutes and universities, including student grouping criteria and questionnaire analysis. The research findings indicate the insufficiency of traditional educational forms in meeting contemporary demands and provide a scientific-methodological substantiation

for the role of innovative technologies in enhancing the methodological training of future geography teachers

Keywords: *higher education, geography and basics of economic knowledge, professional competence, innovative software tools, experimental work, didactic conditions, interactive methods, questionnaire, lesson project.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi jadvalida keltirilgan fanlardan “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlari o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion ta’lim metodlardan foydalanib o‘qitish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida tajriba-sinovda hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar:

– oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzib o‘qitishning mavjud holati tahlil etilmaganligi;

– mutaxassislikka oid fanlaridagi dars mashg‘ulotlarni o‘qitishda didaktik shart-sharoitlari yetarli darajada aniqlanilmaganligi;

– ta’lim sifatini oshirishda ta’limga texnologik yondashuv, uning tarkibiy qismi bo‘lgan dars mashg‘ulotlarini innovatsion dasturiy vositalaridan foydalanib o‘qitishning ahamiyati ko‘rsatilmaganligi;

– mutaxassislikka oid fanlari, jumladan, “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlari dars mashg‘ulotlarini o‘qitishning zamonaviy konsepsiyasi ishlab chiqilmaganligi;

– fan bo‘yicha o‘qitishni tashkil etishda ta’lim texnologiyasi innovatsion modelining o‘rni atroflicha yoritilmaganligi;

– mutaxassislikka oid fanlar dars mashg‘ulotlarining metodikasi ishlab chiqilmaganligi;

– dars mashg‘ulotlari loyihalari tuzilmaganligi;

– mutaxassislikka oid fanlarni interfaol metodlardan foydalanib ta’lim amaliyotiga joriy etilmaganligi;

– o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish samaradorligi bo‘yicha tajriba - sinov ishlarini o‘tkazilmaganligi;

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid majburiy fanlarini o‘qitish jarayonida faol metod va uslublarni qo‘llash imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazish, ularni amaliyotga joriy etish hamda olingan natijalarga tayangan holda ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid majburiy fanlaridan “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlari bo‘yicha dars mashg‘ulotlari loyihalarini tuzib o‘qitish holatini o‘rganish.

2. Fanlarni o‘qitishni tashkil etishda ta’lim texnologiyasi innovatsion modelining o‘rnini belgilash.

3. Tajriba-sinov ishlari amalga oshiriladigan hudud va obyektlarni aniqlash.

4. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha dars mashg‘ulotlari loyihalarini ishlab chiqish metodikasini yaratish hamda uni tajriba-sinov jarayonida sinab ko‘rish.

5. Fan doirasida o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni tajriba-sinov jarayonida sinab ko‘rish.

6. Dasturiy ta’lim vositalaridan va metodik tavsiyanomalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish.

7. Dars mashg‘ulotlari loyihalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish, shuningdek, joriy etish natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish.

8. Mutaxassislikka oid fanlarini o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishning samaradorligi bo‘yicha tajriba-sinov ishlari samaradorlik natijasini matematik-statistik metodlar yordamida aniqlash.

9. O‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion metodlardan foydalanib o‘qitish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish bosqichlarini aniqlashdir.

Joriy etilgan dasturiy ta’lim vositalariga tayangan holda mutaxassislikka oid majburiy fanlarni o‘qitish metodikasining samaradorligi tajribaviy yo‘l bilan sinovdan o‘tkazildi va baholandi. Mazkur jarayon Buxoro davlat pedagogika instituti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti hamda Urganch davlat pedagogika institutining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari uch davrda: 2023-2024, 2024-2025, 2025-2026 o‘quv yillari davomida o‘tkazildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba-sinov ishlari, tajriba va nazorat guruhlarini tuzish orqali amalga oshirilib, unda jami 625 nafar talabalar respondent sifatida ishtirok etdi. Shundan, Buxoro davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 202 nafar jumladan, tajriba guruhlarida 93 nafar, nazorat guruhida 109 nafar, Shahrisabz davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 252 nafar, tajriba guruhlarida 114 nafar, nazorat guruhida 138 nafar va Urganch davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 171 nafar, tajriba guruhlarida 74 nafar, nazorat guruhida 97 nafar talaba respondentlar qatnashdi.

2023-2024- o‘quv yili mobaynida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishining birinchi ya’ni boshlang‘ich bosqichida 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishiga oid mutaxassislikka fanlarini o‘qitishda talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion dasturiy vositalardan foydalanish muammosining mavjud holatini o‘rganish maqsadida pedagogik faoliyat tashkil etildi.

Ushbu birinchi bosqichda quyidagi tajriba-sinov ishlar amalga oshirildi:

– 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari hamda innovatsion dasturlar orqali, bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanilayotgan malaka talablari, o‘quv rejasi, fan dasturlari, o‘quv adabiyotlari va moddiy-texnik baza tizimli ravishda tahlil qilindi;

– 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni mutaxassislikka oid majburiy fanlari bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion dasturiy vositalardan foydalanish holat o‘tganilib, yuqorida aytib o‘tilgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatiga oid tayyorgarlik darajasi (bilimlari) o‘rganildi;

– mutaxassislikka oid majburiy fanlarini yuqorida nomlari qayd etilgan oliy ta’lim muassasalarini 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini rivojlantirish jarayoni pedagogik tajribalar asosida o‘rganilib, umumlashtirildi;

– dars jarayonida kompyuter va dasturiy ta’lim vositalarini qo‘llash tajribasiga ega bo‘lgan hamda ega bo‘lmagan talabalardan so‘rovnomalar o‘tkazildi;

– 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talablarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalarini qo‘llashning mazmuni, didaktik imkoniyatlari va metodikasini tanlash prinsiplari ishlab chiqilib, tajriba-sinov ishlariga oid darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Mutaxassislikka oid majburiy fanlarni o‘zlashtirish jarayoni boshlanishidan avval talabalarning innovatsion texnika va texnologiyalar hamda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishga doir dastlabki bilim, malaka va ko‘nikmalari kirish test sinovlari orqali aniqlab olindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bajarilgan topshiriqlar natijalari tahliliga ko‘ra talabalar ikki kichik guruhga ajratildi: birinchi guruhga fan bo‘yicha o‘quv materialini o‘zlashtirishga yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar kiritildi (ularning bilim darajasi 50 foizdan yuqori); ikkinchi guruh esa qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etishni talab etuvchi talabalar tarkibidan shakllantirildi (mazkur guruhda bilim ko‘rsatkichi 50 foizdan past bo‘lgan talabalar jamlandi).

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishga doir tayyorgarlik darajasini oshirishning umumiy ahamiyatini aniqlash maqsadida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, tegishli xulosalar ishlab chiqildi. So‘rovnomada qatnashgan ayrim talabalar berilgan savollarga javob berishda ularni asoslash jarayonida muayyan qiyinchiliklarga duch kelganligi kuzatildi, chunki savollar mustaqil va ijodiy fikrlashni talab etardi.

Tajriba-sinov natijalari, tadqiq qilinayotgan masalaga oid adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali tadqiqot muammosini aniqlovchi bir qator kamchiliklarni ko‘rsatdi. Bu esa mavzuning dolzarbligini tasdiqlashga va kelajakda “Geografiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilashga imkon berdi. Shu bilan birga, olingan natijalar mutaxassislikka oid majburiy fanlar asosida pedagogik metodikani ishlab chiqish uchun poydevor bo‘ldi.

Tajriba-sinov ishining boshlang‘ich bosqichida dastlabki natijalarni aniqlash maqsadida pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanib, anketa shaklida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning mutaxassislikka oid majburiy fanlar bo‘yicha egallagan asosiy bilimlari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yetarli emas edi.

Tadqiqot-sinov ishining dastlabki asoslovchi bosqich natijalarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin: talabalar kreativlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha nisbatan yuqori darajada, biroq

geografiya faniga oid bilimlari kirish nazorati natijalari pastligi, bazaviy texnik tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, shuningdek oliy ta’limning boshlang‘ich bosqichida bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda majburiy fanlarning o‘rni va ahamiyatini to‘liq tushunmasliklari aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim shakllari hozirgi kunda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdagi barcha muammolarni hal qilishga yetarli emas. Shu bois, ta’lim va tarbiya jarayonida “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi”da samarali o‘rgatish maqsadida dasturiy ta’lim vositalarini qo‘llash va ularni innovatsion, noan’anaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ilmiy-metodik asosda ilgari surildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiq qilinayotgan muammoda Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishining malaka talablariga va o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalar natijalariga tayangan holda, mutaxassislikka oid majburiy fanlarni o‘qitish metodikasining oliy ta’lim muassasalaridagi hozirgi holati, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Geografiya” fanidan dars beradigan bo‘lajak “Geografiya” fani o‘qituvchilarining o‘z faoliyatlarida zarur bo‘ladigan kasbiy bilimlarni egallashlarini ta’minlay olmasliklari aniqlandi.

Anketa so‘rovnomasida Oliy ta’lim muassasalarining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishining majburiy fanlar blokidan, “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlari bo‘yicha o‘quv materiallarini yetarli darajada o‘zlashtirish murakkablik qilyapti degan fikrga kelishgan. O‘qitishning an’anaviy jarayonlari bugungi kunning innovatsion sharoitlariga mos emasligi asosida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fanlar bo‘yicha dasturiy ta’lim vositalari ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishining boshlang‘ich bosqichida olingan ma’lumotlar asosida, amaliyot bosqichiga o‘tildi va 2024-2025 o‘quv yillari davomida amalga oshirildi.

Oliy ta’lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi ta’lim olayotgan talabalarning o‘quv rejasidagi majburiy fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanib o‘qitish samarali deb topildi.

Tajriba-sinov ishlari tajriba guruhlarda “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlari bo‘yicha dasturiy ta’lim vositalari yordamida, nazorat guruhlarida esa mazkur fanlar an’anaviy usullar bilan olib borildi. O‘quv jarayonini rejasini buzmaslik va talabalar uchun qo‘shimcha vaqt talab etilmasligi maqsadida tajriba-sinov ishlari rejadagi mashg‘ulotlar doirasida, shuningdek, an’anaviy dars shakllaridan tashqari Moodle platformasi dasturlari orqali amalga oshirildi. Tajriba natijalariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillardan biri – tajriba va nazorat guruhlari talabalarining dastlabki bilim darajalaridagi farqdir. Shu sababli, tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash maqsadida kirish testi o‘tkazildi. Test natijalari ko‘rsatdiki, har ikki guruh talabalarining boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi bir-biriga yaqin bo‘lib, bu guruhlarning tasodifiy tanlanishi bilan izohlanadi.

Ta’lim faoliyatini tahlil qilishda 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi ta’lim olayotgan talabalarning mutaxassislikkka oid majburiy fanlarini o‘zlashtirish natijalari talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga tayyorlash, amalga oshirilayotgan tajribalarga yangilik kiritish qobiliyati, muammoni aniqlash va uning yechimini topishga yo‘naltirilgan innovatsion fikrlarni ishlab chiqish jarayonlari, amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligiga asoslanib, xulosa chiqarildi.

Tajriba-sinov jarayonida mutaxassislikka doir majburiy fanlarni o‘qitish yondashuvlari qayta tahlil qilinib, ularni takomillashtirishga qaratilgan zarur o‘zgartirishlar amalga oshirildi. Fan mazmuni zamonaviy talablar asosida boyitildi hamda o‘qitishning samaradorligini oshirish maqsadida turli shakl, metod va vositalardan foydalanildi. O‘quv jarayonini puxta tashkil etish uchun maxsus didaktik materiallar ishlab chiqildi.

Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar tizimi shakllantirilib, namunaviy masalalar jamlanmasi va mavzular belgilab olindi. Talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida mashg‘ulotlarning turli shakllarini uyg‘unlashtirish yo‘llari izlandi. Bundan tashqari, mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar majmuasi tuzilib, bilimlarni baholashga mo‘ljallangan test topshiriqlarining bir nechta variantlari ishlab chiqildi.

Mutaxassislikka oid majburiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ijodiy ta’limni tashkil etishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik ta’minotni takomillashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu asosda talabalarda dasturiy ta’lim vositalari asosida faoliyatga mos kreativ fikrlashni shakllantirish hamda ijodiy yondashuvning samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Bunda o‘rganiladigan o‘quv materiallari hajmining tengligi, ya’ni tajriba va nazorat guruhlariga bir xil didaktik topshiriqlar berilishi tajriba-sinov ishlarini olib borishning asosiy va uzluksiz sharti sifatida e’tirof etildi.

Tajriba o‘tkazilgan guruhlarda talabalarning nazariy bilimlarni egallashi majburiy fanlar uchun yaratilgan dasturiy ta’lim resurslari orqali tashkil etildi. Bunda fan o‘qituvchisi asosan dasturiy vositalarda berilgan vizual materiallarning mazmunini sharhlash hamda talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarish va monitoring qilish vazifasini bajardi.

Talabalar ta’lim jarayonida belgilangan maqsadlar hamda o‘rganilayotgan mavzularning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, matnli ma’lumotlar va turli ko‘rgazmali vositalardan foydalandilar. Jumladan, axborotni o‘zlashtirishda tasviriy materiallar (rasmlar), virtual modellar, shartli belgilar asosidagi ko‘rgazmalar (kinematik tasvirlar, sxemalar, jadvallar) hamda 3D animatsiyalar keng qo‘llanildi.

Alohida mashg‘ulotlar yakunida talabalarning egallagan bilimlari darajasi test topshiriqlari orqali baholanib, olingan natijalarga tayangan holda keyingi ta’lim bosqichlari rejalashtirildi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan hollarda dasturiy ta’lim vositalari talabalar uchun fan doirasidagi navbatdagi mavzularni o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish hamda integrallashgan topshiriqlarni yechish imkonini yaratdi.

Bunda talabalar avval o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarga tayangan holda aniq texnik masalalarni mustaqil hal etish imkoniga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, agar talaba mashg‘ulotlarda qatnasha olmagan yoki o‘quv materialining ayrim jihatlarini yetarli darajada o‘zlashtirmagan bo‘lsa, dasturiy ta’lim vositalari orqali mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyati ta’minlandi.

Ayniqsa, geografiya ta’lim yo‘nalishida qo‘llanilgan dasturiy ta’lim resurslari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirib, bilim va ko‘nikmalarni chuqur hamda izchil egallashga xizmat qildi. Ushbu vositalar talabalarga integrativ vazifalarni bajarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va bilimlarini mustahkamlash imkonini berib, mustaqil ishlash hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni faollashtirdi.

Muhokama. Tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhi ishtirokchilaridan farqli ravishda dasturiy ta’lim vositalaridan faol foydalanib, mustaqil ishlar jarayonida amaliy harakatlarni bajarish, zarur axborotlarni izlab topish hamda bilishga bo‘lgan faollik ehtiyojini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ topshiriqlarni amalga oshirdilar. Mazkur fanlarni o‘rganish jarayonida dasturiy ta’lim resurslaridan oqilona foydalanish asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari talabalarda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirishga xizmat qildi va bu holat ijobiy natija sifatida baholandi.

Bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasini aniqlashda an’anaviy bo‘lmagan, noodatiy test baholash usullaridan foydalanildi. Nazorat testlari fanlarning muayyan mavzulari yakunlangach o‘tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlariga bir xil mazmundagi test topshiriqlari taqdim etilib, ular o‘quv materiallari va amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishning bir xil bosqichlarida qo‘llanildi. Ushbu testlar dasturiy ta’lim vositalarining tarkibiy moduli sifatida elektron shaklda amalga oshirildi.

Xulosa. Dasturiy ta’lim vositalari yordamida quyidagi natijalarga erishish mumkin bo‘ldi:

1. Bo‘lajak Geografiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomilashtirishning eng yaxshi variantini tanlash imkoniyati borligini aniqlash.
2. Yaratilgan dasturiy ta’lim vositalari asosida oliy ta’lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabalari malaka talablarida ko‘rsatib o‘tilgan kasbiy faoliyatga oid ma’lumotlar egallandi.
3. Mutaxassislikka oid majburiy fanlar “Sanoat va qishloq xo‘jalik geografiyasi” hamda “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanlarini o‘qitishni dasturiy ta’lim vositalari asosida tashkil qilishda dars jarayonlarini vaqtdan unumli foydalanib, interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash, va talabalarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini yaratadi. Bu orqali talabalar individual ravishda o‘rganish jarayonini boshqarish, murakkab mavzularni grafik va vizual yordamchi vositalar yordamida tushunadi va bu jarayonlarni amalga oshirish imkoniga erishildi.

Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili asosida, jahonning rivojlangan davlatlarida o‘qitish kredit-modul tizimini joriy etish, unda dasturiy ta’lim vositalarining ilmiy-metodik ahamiyatini aniqlash, shuningdek, “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo‘nalishiga oid ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mutaxassislar tayyorlash jarayoni va ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan didaktik talablar nuqtai nazaridan dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishning samaradorligi nazariy jihatdan asoslandi.

Adabiyotlar:

1. A.R.Jo‘rayev, A.M.Shoimov, N.Sh.Shadiyeva “Didactic potential of e-learning complexes in the training of future teachers” “Zamonaviy fan ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari”. Ilmiy jurnal. Dekabr, 2020-VII. Urganch sh. 126-131 b.
2. N.Sh.Shadiyeva “Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish” (geografiya ta’lim yo‘nalishi misolida), pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajdasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Buxoro-2024.
3. O.V.Afanasyeva “Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish”. www.pedsovet.org.
4. G.A.Larina “AKTning zamonaviy o‘qituvchi faoliyatidagi roli. Elektron resurs. https://nsportal.ru
5. G.M.Kojaspirova “O‘qitishning texnik vositalari va ulardan foydalanish metodikasi”. Darslik. Moskva: Akademiya nashriyot markazi, 2001. 256 b.
6. S.P.Novikov “Ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish” Pedagogika. 2003. 25-28 betlar.
7. E.S.Polat “Ta’lim tizimidagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari” Moskva: Akademiya nashriyot markazi. – 1999. 224 bet.
8. A.R.Azamatov Algoritmlash va dasturlash asoslari. T: – 2013 Cho‘lpon.
9. G.K.Selevko “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” Darslik. Xalq ta’limi. 1998. 256 b.
10. Eğitimde başarının anahtarı: Dijitalleşme. www.thebrandage.com
11. E.Safarov, Sh.Prenov, A.Mo‘minov “Topografiya va kartografiya”, GAT texnologiyalari. Toshkent: Sano-standart – 2018
12. M.A.Mamedova Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llashning pedagogik omillari. www.bmti.uz
13. N.Sh.Shadiyeva Tabiiyot va geografiyaga o‘qitish metodikasi. Buxoro – 2022.
14. S.S.Qosimov Axborot texnologiyalari. Toshkent: Aloqachi – 2006
15. www.gazeta.uz

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLARNI DARSDAN TASHQARI MASHG’ULOTLARGA JALB QILISHNING PSIXOLOGIK SAMARADORLIGI

Mo‘minova Dilrabo Murodillayevna,
Universitiy of Business and Science,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilrabom832@gmail.com

Deviant xulq-atvorning nazariy asoslari olimlar qarashlari asosida yoritilib, uning mohiyati ijtimoiy normalardan og‘ish, shaxsning ijtimoiy dezadaptatsiyasi va salbiy xatti-harakatlar tizimi sifatida izohlanadi. Maqolada deviant xulq-atvorni korreksiya qilishda darsdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni asoslab berilib, o‘qituvchi faoliyatining bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model diagnostika, ishonchli aloqa o‘rnatish, ota-onalar bilan hamkorlik kabi muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: *ijtimoiy norma, dezadaptatsiya, diagnostika, ijtimoiy institutlar, ijtimoiylashuv, referent guruh, mobbing, bossing, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОВЛЕЧЕНИЯ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ ВО ВНЕКЛАССНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ

В статье освещаются теоретические основы девиантного поведения на основе взглядов учёных, и объясняется его сущность как отклонение от социальных норм, социальная дезадаптация индивида и система негативного поведения. Обосновывается роль внеклассной деятельности в коррекции девиантного поведения, и разрабатывается поэтапная модель педагогической деятельности. Эта модель включает такие важные этапы, как диагностика, установление доверительной коммуникации и сотрудничество с родителями.

Ключевые слова: *социальная норма, дезадаптация, диагностика, социальные институты, социализация, референтная группа, моббинг, властолюбие, мотивация, социальная адаптация.*

PSYCHOLOGICAL EFFECTIVENESS OF INVOLVING ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

The theoretical foundations of deviant behavior are highlighted based on the views of scientists, and its essence is explained as a deviation from social norms, social maladaptation of the individual and a system of negative behavior. The article substantiates the role of extracurricular activities in the correction of deviant behavior and develops a step-by-step model of teacher activity. This model includes such important stages as diagnostics, establishing trusting communication, and cooperation with parents.

Keywords: *social norm, maladaptation, diagnostics, social institutions, socialization, reference group, mobbing, bossing, motivation, social adaptation.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda deviant xulq-atvorga moyil bo‘lgan o’smirlarning shaxsiy xususiyatlarini o’rganish dolzarbligi ortib bormoqda. Yangi postindustrial jamiyatda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlari ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga sabab bo’lmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning kundalik hayotga faol kirib borishi insonning xulq-atvor normalari, muloqoti, o‘quv va kasbiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko’rsatayotganini ko’rishimiz mumkin.

O’smirlarning deviant xulq-atvori - bu, o‘smirning yaqin atrofi (do‘stlari, oilasi, sinfdoshlari bilan) va referent guruhidagi munosabatlar tizimi bilan bog‘liq o‘zgarishlardir.

Deviant xulq-atvor ko’p yillardan beri o‘rganib kelinmoqda, biroq uning tadqiqoti bizning shiddat bilan o‘zgarib borayotgan davrimizda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti. O‘smirning asosiy ijtimoiy institutlar - oila, maktab, OAV va internet bilan adekvat aloqalarining buzilishi deviatsiyaga moyillik sababi bo‘lishi mumkin[6]. Ijtimoiy institutlar o‘smirlar shaxsining shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shadi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiylashuv jarayonini hamda ularning muhit bilan qanchalik muvaffaqiyatli hamkorlik qilishni o‘rganishini, boshqa odamlar bilan munosabatlarni qanday qurishini, stressli vaziyatlardan chiqishning qaysi yo‘llarini tanlashini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Og’ishgan xulq-atvorga boshqa kishilarga nisbatan tajovuzkorona hatti-harakatlar, jinoyatchilik, spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlik, tamaki mahsulotlari chekish, daydilik, o’z joniga qasd qilish kabilar kiradi.Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida ikki xil qarashlar mavjud

bo’lib, birinchisi tabiiy-biologik, ikkinchisi ijtimoiy-reduktsion fikrlardir.Tabiiy biologik qarashlarga ko’ra, deviant xulq-atvorning kelib chiqishida biologik omillarning roli alohida o’rin tutadi. Genetik tuzilishning o’ziga xosligi, bioximik boshqarishning buzilishi, asab tizimi mexanizmlari ish faoliyatining buzilishi va boshqalar shunday omillardandir. Ijtimoiy-reduktsion nazariyalar har qanday ichki, shu jumladan psixologik (shaxs dispozitsiyalari) rolini inkor etgani holda og’ishgan xulq-atvorni ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Venger psixologi F. Patakining fikricha, deviant xulq-atvor tizimli yoki ko’plab sababiy bog’liqlika ega bo’lib, uning vujudga kelishi bir emas, balki bir qancha ya’ni tarixiy, makrosotsiologik, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsiy omillar roliga bog’liq.

Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham tashqi (jumladan ijtimoiy-iqtisodiy), ham ichki (psixologik) omillar ta’sir ko’rsatadi. Birinchi omillarga ishsizlik, hayot tarzining pastligi, jamiyatda u yoki bu qatlamning yashash darajasi va boshqalar kiradi. Ikkinchi guruh omillarga L.M. Zyubinning fikricha quyidagilar kiradi:

- aqliy rivojlanishdagi etishmovchilik (lekin patalogiya emas), bu holat o’z hatti-harakatlarini to’g’ri tahlil qilish, oqibatini oldindan ko’rishga xalaqit beradi;
- tafakkur mustaqilligining etishmasligi, yuqori darajada konformlilik, ta’sirlanuvchanlik;
- quyi darajadagi aqliy faollik, ma’naviy ehtiyojlarning qashshoqligi va beqarorligi.

Ushbu muammo yuzasidan yana ikki xil psixologik (ichki) sabablarni keltirish mumkin:

- qanoatlantirilmagan prosotsial (ijtimoiy) ehtiyojlar bo’lib, ular ta’sirida shaxsda ichki ziddiyat paydo bo’ladi va asotsial (jamiyat uchun zid bo’lgan) ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi;
- asotsial (jamiyat uchun zid bo’lgan) shaxs dispozitsiyalari (motivatorlari), ular o’z navbatida asotsial yo’llar va vositalar bilan o’z ehtiyojlarini qondirishga undaydi[1].

O’zligini anglash bilan bog’liq ehtiyojlarning qondirilmasligi bolada tajovuzkorlikni vujudga keltiridi. O’zi yo’qotgan narsasining o’rniga boshqanikini o’zlashtirib olishga intiladi. Mustaqillikka, erkinlikka bo’lgan ehtiyojning qondirilmasligi hammaga nisbatan tajovuzkorlik, protest, namoyishkorona bo’ysunmaslik, uydan qochib ketish kabi holatlarni vujudga keltiradi. Oilada va tengdoshlari davrasida o’zining haqiqiy o’rnini topa olmaslik o’z-o’zini tasdiqlashning negativ (salbiy) shakllaridan foydalanishga olib kelishi mumkin. Noto’g’ri tarbiya bolada ijtimoiy hayotdagi norma va qoidalarga nisbatan mensimaslik yoki salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Sekin-asta asotsial og’ishgan xulq, katta jinoyatchilik motivlari shakllana boshlaydi[3].

F. Pataki madaniy va tabiiy (natural) dispozitsiyalarni ajratib ko’rsatgan. Tabiiy dispozitsiyalar xulq-atvorni tashkil etishdagi psixofiziologik buzilishlar bilan bog’liq psixopatik hodisalar hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy dispozitsiyalar turli mojarolarni avloddan-avlodga o’tib kelayotgan milliy, hududiy, etnik an’analar asosida hal qilishdir. Agar mazkur dispozitsiyalar shaxs tomonidan o’zlashtiriladigan bo’lsa ayrim deviant xulq-atvor urinishlari paydo bo’lishi ham mumkin. Ba’zan jamiyatning ayrim qatlamlariga taqlid qilish, kriminal holatlarni vujudga keltiradi [6]. F. Patakining fikricha, dispozitsiyalar deviant xulq-atvorning bevosita sababi emas, balki uning vujudga kelishi uchun sharoit yaratuvchi omildir. Agar ijtimoiylashuvning ilk bosqichlarida noo’rin (keraksiz) an’analar va intilishlar shunga muvofiq ijtimoiy-madaniy namunalar bilan mos kelsa, u holda deviant xulq-atvor shakllanishining ehtimolligi ortadi [6]. Deviant xulq-atvor muammolari bilan A. Adler, G. Bekker, Ya.I. Gilinskiy, I. Goffman, E. Dyurkgeym, Ye.V. Zmanovskaya, Yu.A. Kleyberg, A. Koen, V.D. Mendelevich, R. Merton, J.G. Mid, V. Boyer, F. Riman, T. Sellin, N. Smelzer, Z. Freyd, E. Fromm, U. Sheldon, L.B. Shneyder va boshqa ko‘plab olimlar shug‘ullanganlar. V.D. Mendelevich “Deviant xulq-atvor bu jamiyatda qabul qilingan normalarga zid bo‘lgan hamda ruhiy jarayonlarning muvozanatsizligi, neadaptivlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish (samoaktualizatsiya) jarayonining buzilishi va o‘z xulq-atvori ustidan axloqiy hamda estetik nazoratdan og‘ishda namoyon bo‘ladigan harakatlar tizimi yoki alohida qoidalar” dir deb ta’rif beradi [3]. Bunday tushuncha Ye.V. Zmanovskaya talqiniga yaqin bo‘lib, u deviant (og‘ishgan) xulq-atvorni – “Shaxsning eng muhim ijtimoiy normalardan og‘ishadigan, jamiyatga yoki shaxsning o‘ziga real zarar yetkazadigan, shuningdek, uning ijtimoiy dezadaptatsiyasi bilan kechadigan barqaror xulq-atvori” deb hisoblaydi [5].

Tengdoshlar bilan muloqot o‘smirlik davridagi yetakchi faoliyat bo’lib, o‘smirlarga ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim omillaridan biridir. O‘smirlar uchun referent (muhim) tengdoshlar doirasiga qo‘shilib ketish, guruh yetakchisiga o‘xshash bo‘lish istagi xosdir[1].

A. Bandura va R. Uolters, L. Berkovits, I.B. Boyko, R. Beron, S.N. Yenikolopov, O.A. Karabanova, V.S. Sobkin, G.U. Soldatova va A.I. Chekalina kabi tadqiqotchilar o‘smirlarning og‘ishgan xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatadilar:

Individual-psixologik omillar - ham ijtimoiy, ham psixologik jihatdan shartlangan xarakter xususiyatlari.

Ijtimoiy-psixologik omillar - yaqin atrofdagilar bilan munosabatlarning o‘ziga xosligi, ijtimoiylashuvning buzilishi.

Ijtimoiy omillar - ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik omillarning salbiy ta’siri.

Ijtimoiy-pedagogik omillar - oilada va maktabda shikastlovchi voqealar va hodisalar, umumiy madaniyat darajasining pastligi.

Mobbing va bossing - tengdoshlar orasida, maktabda, oilada pedagogik va psixologik bosimning o‘ziga xosligi [2].

S.Yu. Borodulina, V.I. Dobrenkov, I.A. Nevskiy, V.G. Stepanov, M.V. Firsovlar og‘ishgan (deviant) xulq-atvorni — shaxs yoki guruhning ushbu jamiyatda o‘rnatilgan normalar, namunalar va qoidalarga mos kelmaydigan ijtimoiy xulq-atvori deb ta’riflaydilar, natijada ushbu normalar ular tomonidan buziladi [7].

Tahlil va natijalar. Bizningcha, deviant xulq-atvorga moyil o‘smirlar bilan ishlashda an’anaviy tarbiyaviy choralar yetarli samara bermasligini inobatga olib, ularni darsdan tashqari mashg‘ulotlarga maqsadli va tizimli ravishda jalb qilish muhim pedagogik-psixologik vosita hisoblanadi. O‘smirning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini xisobga olgan holda tashkil etilgan faoliyat ularning ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg’ulotlarda o‘qituvchining deviant o‘smir bilan o‘zaro hamkorligi:

1-jadval.

№	Faoliyat turi	Amalga oshiriladigan ishlar	Metod va shakllar	Kutilayotgan natija
1	Diagnostika bosqichi	O‘smirning xulq-atvori, qiziqishlari va muammolarini o‘rganish	Kuzatish, suhbat, so‘rovnoma	O‘smirning psixologik xususiyatlari aniqlanadi
2	Aloqa o‘rnatish	O‘qituvchi va o‘smir o‘rtasida ishonchli munosabat yaratish	Individual suhbat, psixologik yondashuv	O‘smirda o‘qituvchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi
3	Ota-ona bilan hamkorlik	Oila muhiti va tarbiya sharoitini o‘rganish	Ota-ona bilan suhbat, maslahat	Muammoning ildiz sabablari aniqlanadi
4	Faoliyatga jalb qilish	O‘smirni to‘garak va jamoaviy ishga qo‘shish	Guruh ishlari, ijodiy mashg‘ulotlar	O’smir jamoaga moslasha boshlaydi
5	Individual yondashuv	Qiziqish va qobiliyatga mos mashg‘ulotlar berish	Individual topshiriqlar, rag‘batlantirish	O‘smirda o‘ziga ishonch ortadi
6	Jamoaviy integratsiya	Tengdoshlar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirish	Rolli o‘yinlar, treninglar	Ijtimoiylashuv yaxshilanadi
7	Nazorat va qo‘llab-quvvatlash	O‘smirning xulqidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish	Monitoring, muntazam suhbat	Ijobiy xulq mustahkamlanadi
8	Rag‘batlantirish	Yutuqlarini e’tirof etish va qo‘llab-quvvatlash	Maqtov, sovrinlar, e’tirof	Motivatsiya oshadi
9	Tahlil va baholash	Olib borilgan ishlarni tahlil qilish	Hisobot, tahliliy suhbat	Ish samaradorligi aniqlanadi

Qochish: O‘smir xonaning burchagiga yoki oxirgi partaga o‘tiradi, to‘q rangli kiyimlarni afzal ko‘radi. U passiv kuzatuvchi rolida bo‘ladi va o‘qituvchiga ham, tengdoshlariga ham ishonmaydi. Bunday bolalar uchun jamoaviy ish talab etiladigan to‘garaklar (teatr studiyalari, sport klublari, media-maktablar) tavsiya etiladi.

Namoyishkorona xulq-atvor: O‘qituvchiga qarshi chiqish, qoidalarni buzish va o‘z “normalarini” o‘tkazishga urinish. Bu vaziyatda o‘qituvchi bola bilan ishonchli munosabat o‘rnatishi va uni o‘qishga qiziqtirishi muhimdir.

Namoyishkorona xulq-atvorli o‘smir uchun guruh va individual ishlarni uyg‘unlashtirish juda muhim. Jarayonga ota-onalarni va tengdosh-murabbiylarni jalb qilish o‘smirda o‘zining qadrli ekanligi hissini uyg‘otadi. Natijada, o‘qituvchi “talab qiluvchi” shaxsdan “imkoniyatlarni ochib beruvchi” ustozga aylanadi, soxta do‘stlar haqiqiy do‘stlar bilan almashadi, oilada esa umumiy qiziqishlar paydo bo‘ladi[4].

Xulosa va tavsiyalar. Deviant o‘smirlarni qo‘shimcha ta’limga jalb qilish va ularning xulq-atvorini tuzatish murakkab va ko‘p bosqichli jarayondir. Bu ish yuzaki yoki rasmiyatchilik uchun qilinmasligi kerak. Bolalarning qadriyatlari, qiziqishlari va hatto tashqi ko‘rinishidagi ijobiy o‘zgarishlarni vvujudga keltiradi. O‘qituvchi deviant o‘smir bilan ishlashda nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-

quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Ishonchli munosabatlar, ijobiy muhit va rag‘batlantirish orqali o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish mumkin. Shuningdek, ota-ona, maktab va tengdoshlar o‘rtasidagi hamkorlik deviant xulq-atvorni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Змановская, Е.В. Девиантология: Психология отклоняющегося поведения.Учебное пособие / Е.В. Змановская – М.: Издательский центр Академия, 2004.
2. Зиннуров Ф.К. Об этапах становления педагогической системы профилактики девиантного поведения подростков // Личность, школа и право в условиях модернизации образования: материалы Международной научно-практической конференции. М.: Национальный книжный центр, 2012. С. 86–88.
3. Клейберг, Ю.А. Психология девиантного поведения / Ю.А. Клейберг. – М.: ТЦ Сфера, 2001.
4. Кабайкина О.В., Сущенко О.А. Трансформация роли женщины в современном обществе: в семье и на работе // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 2017. № 23(3). С. 140–155.
5. Кудрявцев В.Н. Социальные отклонения. -М.: Юридическое издательство Норма. 2016. https://znanium.ru/ catalog/document?id=59874
6. Дмитриев М.Г., Белов В.Г., Парфенов Ю.А. Практикум по психодиагностике девиантного поведения у трудных подростков. - СПб.: ПОНИ, 2008. - 279 с.
7. Малыгин С.С. Новые тенденции в девиантном поведении несовершеннолетних и коррекция предупредительных мер // Вопросы ювенальной юстиции. 2008. № 5.

INTERFAOL TA’LIM METODLARI ORQALI TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Islomova Mehriniso Mirzayevna,
Osiyo xalqaro universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada interfaol ta’lim metodlari orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashi, axborotlarni tahlil qilishi, baholashi hamda asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Debat, CASE-STUDY, INSERT va SWOT-tahlil kabi interfaol metodlarning pedagogik imkoniyatlari hamda ularning talabalarning analitik va refleksiv fikrlashini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot davomida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik afzalliklari tahlil qilinib, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan takomillashtirilgan metodik yondashuv tavsiya etilgan. Shuningdek, mazkur yondashuvning ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning bilish faolligini kuchaytirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, interfaol ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, debat, case-study, Insert, SWOT-tahlil, oliy ta’lim, mustaqil fikrlash.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ

В данной статье проанализированы теоретические и методические основы развития компетенции критического мышления у студентов посредством интерактивных методов обучения. Освещается актуальность формирования у студентов навыков самостоятельного мышления, анализа информации, её оценки и принятия обоснованных решений в условиях современной системы высшего образования. Раскрываются педагогические возможности методов Debat, case-study, Insert и SWOT-анализа, а также их роль в развитии аналитического и рефлексивного мышления студентов. В ходе исследования проанализированы дидактические преимущества интерактивных методов, и предложен усовершенствованный методический подход к развитию критического мышления. Обоснована значимость данного подхода для повышения эффективности образовательного процесса, активизации познавательной деятельности студентов и развития их профессиональных компетенций.

Ключевые слова: *критическое мышление, интерактивное обучение, педагогические технологии, компетенция, дебаты, case-study, Insert, SWOT-анализ, высшее образование, самостоятельное мышление.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ CRITICAL THINKING THROUGH INTERACTIVE TEACHING METHODS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing students’ critical thinking competence through interactive teaching methods. The relevance of fostering independent thinking, information analysis, evaluation, and evidence-based decision-making skills in higher education is highlighted. The pedagogical potential of Debate, case-study, Insert, and SWOT analysis methods, as well as their role in developing students’ analytical and reflective thinking, is revealed. The study examines the didactic advantages of interactive teaching methods and proposes an improved methodological approach aimed at enhancing critical thinking competence. Furthermore, the significance of this approach in increasing educational effectiveness, strengthening students’ cognitive activity, and developing professional competencies is substantiated.

Keywords: *critical thinking, interactive learning, pedagogical technologies, competence, debate, case-study, Insert, SWOT analysis, higher education, independent thinking.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatning barcha sohalarida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi nafaqat muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarni

tahlil qila oladigan, innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi hamda hayotiy vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega shaxslarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning kasbiy muvaffaqiyati, ilmiy faoliyati hamda ijtimoiy moslashuvchanligini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan bugungi davrda axborotlarni tanlash, tahlil qilish, baholash va ulardan oqilona foydalanish ko‘nikmalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy axborot makonida turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarning ishonchliligini aniqlash, ularga tanqidiy yondashish hamda asoslangan xulosalar chiqarish har bir mutaxassis uchun zarur kompetensiya hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan tanqidiy fikrlash – bu shaxsning muammolarni tahlil qilish, dalillarni baholash, turli qarashlarni taqqoslash, mustaqil xulosa chiqarish hamda qaror qabul qilishga qaratilgan murakkab intellektual faoliyatidir. Tanqidiy fikrlash jarayonida shaxs axborotni passiv qabul qilmaydi, balki uni tahlil qiladi, savollar qo‘yadi, mavjud fikrlarga baho beradi va o‘z nuqtai nazarini shakllantiradi. Shu bois tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish va ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xalqaro ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab pedagogik texnologiyalar va metodlar ishlab chiqilgan. Ular orasida interfaol ta’lim metodlari alohida o‘rin tutadi. Interfaol metodlar ta’lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal etishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur metodlar ta’lim oluvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Interfaol metodlar tarkibiga kiruvchi debat, munozara, CASE-STUDY, INSERT, SWOT-tahlil, klaster, sinkveyn, “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Qarorlar daraxti” kabi metodlar talabalarning tahliliy fikrlashi va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida talabalar turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayonida talabalarning faolligi ortib, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Dunyoning yetakchi universitetlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, interfaol ta’lim metodlaridan samarali foydalanish talabalarning akademik natijalarini yaxshilash, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, interfaol metodlar ta’lim oluvchilarni jamoada ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish va tanqidiy fikrlash kabi XXI asr ko‘nikmalarini egallashga tayyorlaydi.

Mazkur holat interfaol ta’lim metodlari orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda interfaol metodlarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodik modelini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar yaratish asosiy tadqiqot vazifalari sifatida belgilandi. Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilimlarni mustaqil egallashi, axborotlarni tanqidiy tahlil qilishi va kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarga nisbatan oqilona yechimlar ishlab chiqishi muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Biroq ta’lim amaliyotida interfaol metodlardan foydalanish ko‘pincha talabalarning faolligini oshirish bilan chegaralanib qolmoqda, ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari esa yetarli darajada ishga solinmayapti. Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tahlili interfaol ta’lim metodlarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatib bersa-da, mazkur jarayonning metodik ta’minoti, uni tashkil etish mexanizmlari va baholash mezonlari bo‘yicha ilmiy qarashlar o‘rtasida ayrim tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit metodik tizimni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi talabalarning o‘quv faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish, muammolarga ijodiy yondashish, o‘z fikrini asosli himoya qilish hamda turli nuqtai nazarlarni xolis baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va mustaqil tadqiqotchi sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotning maqsadi interfaol ta’lim metodlari orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.Tadqiqotning vazifalari sifatida

tanqidiy fikrlash tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash, interfaol ta’lim metodlarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modelini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar yaratish belgilandi.Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon pedagogik amaliyotida tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy olimlardan R.Ennis tanqidiy fikrlashni reflektiv va oqilona fikrlash jarayoni sifatida tavsiflab, uning asosiy vazifasi shaxsning nimaga ishonish va qanday harakat qilish kerakligi to‘g‘risida asoslangan qaror qabul qilishidan iborat ekanligini ta’kidlaydi. P.Facione tomonidan tanqidiy fikrlashning tahlil qilish, interpretatsiya, baholash, xulosa chiqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi tarkibiy qismlari ilmiy jihatdan asoslangan.

R.Paul va L.Elder tanqidiy fikrlashni intellektual faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan ongli va maqsadli fikrlash shakli sifatida izohlaydilar. Shuningdek, J.Dyui tanqidiy fikrlashning reflektiv fikrlash bilan uzviy bog‘liqligini asoslab bergan bo‘lsa, B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashning shakllanishi bilimlarni eslab qolishdan ko‘ra ularni tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etiladi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari keng tadqiq etilgan.

Xususan, pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish hamda talabalarning bilish faolligini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. So‘nggi yillarda interfaol ta’lim metodlarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Debat, CASE-STUDY, INSERT, SWOT-tahlil, klaster, “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Qarorlar daraxti” kabi metodlarning talabalarning analitik fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalariga ijobiy ta’siri ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Interfaol metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular ta’lim oluvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga jalb qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Natijada talabalar axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanishning umumiy pedagogik jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning aynan talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimini takomillashtirish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari, baholash mexanizmlari hamda interfaol metodlarni kompleks qo‘llashning metodik asoslari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Tanqidiy fikrlash fenomeni zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida shaxsning intellektual rivojlanishini tavsiflovchi muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli ilmiy maktab vakillari tanqidiy fikrlashning mohiyatini turlicha yoritgan bo‘lsalar-da, ularning aksariyati ushbu jarayonni axborotni ongli ravishda tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish bilan bog‘laydi. Xorijiy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari keng yoritilgan.

Jumladan, R.Ennis tomonidan tanqidiy fikrlash shaxsning muayyan vaziyat yuzasidan asoslangan qaror qabul qilishiga xizmat qiluvchi refleksiv fikrlash faoliyati sifatida tavsiflangan. Mazkur yondashuvda tanqidiy fikrlashning amaliy natijaga yo‘naltirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. P.Facione esa tanqidiy fikrlashni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kognitiv operatsiyalar majmui sifatida talqin qiladi. Olimning qarashlariga ko‘ra, tahlil qilish, talqin etish, baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi jarayonlar tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlarini tashkil etadi. R.Paul va L.Elderlarning ilmiy konsepsiyasida tanqidiy fikrlash shaxsning fikrlash faoliyatini muntazam nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan intellektual jarayon sifatida izohlanadi.

Ularning fikricha, tanqidiy fikrlashning samaradorligi aniqlik, mantiqiylik, izchillik va dalillilik kabi mezonlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv bugungi kunda tanqidiy fikrlashni baholash mezonlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Pedagogika fanida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi interfaol ta’lim metodlari bilan chambarchas bog‘liq holda tadqiq

etilmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, debat, CASE-STUDY, INSERT va SWOT-tahlil metodlari talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari va interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Biroq interfaol metodlarni talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit metodik tizim sifatida qo‘llashning pedagogik mexanizmlari, samaradorlik mezonlari hamda amaliy modelini ishlab chiqish masalalari hali ham qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot interfaol ta’lim metodlari orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim muhiti va pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida erkin fikr bildirish, muqobil nuqtai nazarlarni muhokama qilish hamda o‘quvchilarning mustaqil xulosa chiqarishiga imkon yaratish tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, interfaol metodlar ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi talabaning o‘quv jarayonidagi faollik darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi. Faol ishtirok etishga asoslangan ta’lim jarayonida talaba muammoni anglaydi, uning sabablarini tahlil qiladi, mavjud yechimlarni taqqoslaydi va eng maqbul variantni tanlashga intiladi. Bunday faoliyat esa o‘z navbatida mantiqiy, analitik va refleksiv fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaol metodlarning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, ularning hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratishida namoyon bo‘ladi. Guruhli ishlash, munozara va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar o‘z fikrlarini asoslashga, dalillar keltirishga va boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilishga o‘rganadilar. Natijada ularda nafaqat tanqidiy fikrlash, balki kommunikativ kompetensiyalar ham rivojlanadi.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan bir qatorda ularning o‘quv motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilgan CASE-STUDY, muammoli ta’lim va loyiha metodlari talabalarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashiga imkon yaratadi. Bu esa tanqidiy fikrlashning amaliy ko‘rinishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlardan foydalanishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi alohida ahamiyatga ega.

O‘qituvchi ta’lim jarayonining tashkilotchisi va yo‘naltiruvchisi sifatida talabalarning erkin fikr almashishi, muammolarni tahlil qilishi va mustaqil qaror qabul qilishiga sharoit yaratishi zarur. Aks holda interfaol metodlar faqat tashkiliy shakl sifatida qo‘llanilib, kutilayotgan pedagogik natijaga erishish qiyinlashadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda interfaol metodlarning samaradorligi e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularni qo‘llashning bosqichlari, mazmuni, baholash mezonlari hamda metodik ta’minoti bo‘yicha yagona yondashuv shakllanmagan.

Shu sababli interfaol ta’lim metodlari asosida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati saqlanib qolmoqda. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim muhiti va pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida erkin fikr bildirish, muqobil nuqtai nazarlarni muhokama qilish hamda o‘quvchilarning mustaqil xulosa chiqarishiga imkon yaratish tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, interfaol metodlar ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi talabaning o‘quv jarayonidagi faollik darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi. Faol ishtirok etishga asoslangan ta’lim jarayonida talaba muammoni anglaydi, uning sabablarini tahlil qiladi, mavjud yechimlarni taqqoslaydi va eng maqbul variantni tanlashga intiladi. Bunday faoliyat esa o‘z navbatida mantiqiy, analitik va refleksiv fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.Interfaol metodlarning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, ularning hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratishida namoyon bo‘ladi. Guruhli ishlash, munozara va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar o‘z fikrlarini asoslashga, dalillar keltirishga va boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilishga o‘rganadilar. Natijada ularda nafaqat tanqidiy fikrlash, balki kommunikativ kompetensiyalar ham rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. Ennis R.H. Critical Thinking. – New Jersey: Prentice Hall, 2011. – 352 p.
4. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – California Academic Press, 2020. – 28 p.
5. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. – Foundation for Critical Thinking Press, 2020. – 48 p.
6. Dewey J. How We Think. – New York: Dover Publications, 2012. – 224 p.
7. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 2009. – 207 p.
8. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 224 b.

UO‘K 378.1:004.8

OLIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI BOSHQARISH MODELI

Normurodov Sherzod Boymurodovich,
Qarshi davlat texnika universiteti
“Oliy matematika” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
normurodovsherzod873154@gmail.com

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiyalarni boshqarishning innovatsion modeli taqdim etiladi. Maqolada talabalar va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari yaratish hamda kompetensiyaviy tahlil tizimlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Taklif etilayotgan model uchta asosiy komponentdan iborat: diagnostik modul, adaptiv o‘quv muhiti va prognozlash tizimi. Tadqiqot natijalari model qo‘llanilgan universitetlarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanish sur’ati 34–41% ga oshganligini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar*:** *sun’iy intellekt, kasbiy kompetensiya, adaptiv o‘qitish, innovatsion model, oliy ta’lim, mashinali o‘rganish, raqamli transformatsiya.*

МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМИ КОМПЕТЕНЦИЯМИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

В данной статье представлена инновационная модель управления профессиональными компетенциями в системе высшего образования на основе технологий искусственного интеллекта. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты автоматизации процесса профессионального развития студентов и преподавателей, создания персонализированных образовательных траекторий, а также внедрения систем компетентностного анализа. Предлагаемая модель состоит из трёх основных компонентов: диагностического модуля, адаптивной образовательной среды и системы прогнозирования. Результаты исследования показывают, что в университетах, где была применена данная модель, темпы развития профессиональных компетенций увеличились на 34-41%.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, профессиональная компетенция, адаптивное обучение, инновационная модель, высшее образование, машинное обучение, цифровая трансформация.*

AN ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED MODEL FOR MANAGING PROFESSIONAL COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATION

This paper presents an innovative model for managing professional competencies in higher education using artificial intelligence (AI) technologies. The theoretical and practical aspects of automating the professional development of students and educators, creating personalized learning pathways, and implementing competency analysis systems are examined. The proposed model consists of three core components: a diagnostic module, an adaptive learning environment, and a forecasting system. Research results indicate that universities adopting the model demonstrated a 34–41% increase in the rate of professional competency development.

Keywords: *artificial intelligence, professional competency, adaptive learning, innovative model, higher education, machine learning, digital transformation.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimiga tubdan yangi talablarni qo‘ymoqda. Mehnat bozorining o‘zgaruvchan ehtiyojlari va kasbiy kompetensiyalarga bo‘lgan yuqori talablar universitetlardan an’anaviy o‘qitish metodlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bunday sharoitda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2020–2024 yillar davomida dunyo bo‘yicha 120 dan ortiq universitetda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy kompetensiyaviy baholash tizimlari talabalar va mehnat bozori o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishda yetarli darajada samarali emas. Xususan, Amerika ishchi kuchini boshqarish

assotsiatsiyasining (AWMA) 2023-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, bitiruvchilarning 42% ish beruvchilar tomonidan kasbiy jihatdan tayyorlanmagan deb hisoblanadi[3].

Mazkur tadqiqot Toshkent Davlat Texnika Universiteti va Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti mutaxassislari hamkorligida 2023-2025 yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, sun’iy intellekt asosidagi kompetensiyaviy boshqaruv modelining nazariy asoslarini ishlab chiqish va uni amaliy sinovdan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot metodologiyasi kengaytirilgan aralash yondashuv asosida qurilgan.

Muammo va uning dolzarbligi. Oliy ta’limdagi kasbiy kompetensiyalar boshqaruvi bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda[1]. Birinchidan, an’anaviy baholash usullari ko‘pincha retrospektiv xarakter kasb etib, talaba rivojlanishining real vaqt ko‘rsatkichlarini aks ettirmasligi kuzatiladi. Ikkinchidan, o‘quv dasturlari individual o‘rganish sur’atlari va ehtiyojlarini hisobga olmaydi.

Quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

Kasbiy kompetensiyalarning o‘lchash va tahlil qilish tizimlarining fragmentlashganligi. Ta’lim dasturlari va mehnat bozoridagi real talablar o‘rtasidagi tafovut[2]. Individual o‘rganish traektoriyalarini shakllantirishda an’anaviy yondashuvlarning cheklanishi. Pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonida tizimli monitoring yo‘qligi. Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyatining taraqqiy etmaganligi

Innovatsion modelning tuzilmasi va komponentlari. Taklif etilayotgan model “Kompetensiya Intellekti” (KI-modeli) deb nomlanib, uchta o‘zaro bog’liq komponentdan tashkil topadi[4]. Model sun’iy intellekt algoritmlarining mashinali o‘rganish (Machine Learning), tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) va prognozlash tahlili (Predictive Analytics) imkoniyatlaridan integrlashgan tarzda foydalanadi[5] [6].

1-jadval. KI-modelining asosiy komponentlari

Komponent	Funksiya	SI Texnologiyasi
Diagnostik modul	Talabaning hozirgi kompetensiya profili va bo'shliqlarini aniqlash	NLP, klasterizatsiya algoritmlari
Adaptiv o‘quv muhiti	Shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish va dinamik moslashtirish	Tavsiya tizimlari
Prognozlash tizimi	Mehnat bozori talablariga ko‘ra kompetensiyalar rivojlanishini bashorat qilish	Vaqt qatorlari tahlili,

Olingan natijalar va ularning tahlili. Diagnostik modul talabaning hozirgi kompetensiya profilini aniqlash va rivojlanish bo‘shliqlarini aniqlashga mo‘ljallangan. Modul uchta quyi tizimdan iborat: bilim testi tizimi, amaliy topshiriqlar tahlilchisi va 360 darajali baholash platforma.

Modulda qo‘llaniladigan algoritmlari talabalarning yozma ishlari, loyiha taqdimotlari va portfolio materiallarini avtomatik tahlil qilib, 47 ta kompetensiya ko‘rsatkichi bo‘yicha profil yaratadi[7]. Ushbu jarayon an’anaviy baholash bilan solishtirganda 73% vaqt tejamkorligini ta’minlaydi.

Adaptiv o‘quv muhiti talabaning diagnostik profili asosida individual o‘quv yo‘nalishini dinamik ravishda shakllantiradi[8]. Tizim tavsiya berish algoritmlari yordamida tegishli kurslar, mashqlar, mentor va hamkorlik loyihalarini taklif etadi[9]. Komponenti kolloborativ filtrlash va kontent asosidagi filtrlash texnikalarini uyg'unlashtirib, «gibrid tavsiya tizimi» sifatida ishlaydi[12]. Sinovlar davomida talabalarning o‘quv materiallariga qiziqishi 58% ga oshganligi qayd etildi.

Prognozlash tizimi mehnat bozori ma’lumotlari, sanoat tendensiyalari va xalqaro malaka standartlarini tahlil qilib, kelgusi 3–5 yil ichida talab qilinadigan kompetensiyalarni bashorat qiladi[13]. Tizim ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan.

Chuqur neyron tarmoqlar va vaqt qatorlari tahlili metodologiyalari asosida qurilgan ushbu tizimning prognoz aniqligi 87,3% ni tashkil etdi (test namunasida RMSE=0.12).

Tadqiqot 2023-yil sentyabrdan 2025-yil fevralga qadar ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich (2023–2024) modelning nazariy asoslarini ishlab chiqish va minimal amalga oshiriladigan mahsulot yaratishni o‘z ichiga oldi. Ikkinchi bosqich (2024–2025) uchta universitetda pilot sinovlarni amalga oshirish va samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘lchashga bag’ishlandi.

Tadqiqotda ishtirok etgan namuna:

Toshkent Davlat Texnika Universiteti: 320 nafar talaba, 28 o‘qituvchi. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti: 240 nafar talaba, 22 o‘qituvchi. Samarqand Davlat Universiteti: 180 nafar talaba, 18 o‘qituvchi

Nazorat guruhi sifatida an’anaviy ta’lim tizimida o‘qiyotgan 450 nafar talaba tanlandi. Samaradorlikni o‘lchash uchun kompetensiya o‘sishi indeksi, ta’lim jarayoniga qiziqish darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qo‘llanildi.

Pilot sinovlar natijalari KI-modelining samaradorligini bir nechta ko‘rsatkich bo‘yicha tasdiqladi. Tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhi bilan solishtirganda quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

2-jadval. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslamasi (2024–2025)

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Kompetensiya o‘sishi indeksi (CGI)	**+38,7%**	**+11,2%**
O‘quv jarayoniga qiziqish darajasi	**82,4%**	**54,1%**
O‘zlashtirilgan kompetensiyalar soni	**Avg: 14,3**	**Avg: 9,1**
Kasbiy sertifikat olish ko‘rsatkichi	67,3%	38,9%
Mentor bilan ishlash samaradorligi	91,2 ball/100	68,5 ball/100

Talabalar bilan o‘tkazilgan chuqur intervyular va fokus-guruhlar KI-modelining quyidagi sifatiy afzalliklarini ko‘rsatdi talabalar o‘z kompetensiya profili va rivojlanish yo‘nalishiga oid aniq tushunchaga ega bo‘ldilar o‘quv jarayoni ularning shaxsiy maqsad va qiziqishlariga mos kelishi ularning motivatsiyasini sezilarli oshirdi, mentor va o‘qituvchilar bilan muloqot yanada maqsadli va unumli bo‘ldi[11]. O‘qituvchilar nuqtai nazaridan esa, tizim pedagogik yuk va ma’muriy ishlarni 31% ga kamaytirdi. Bu ularga individual talabalar bilan chuqurroq ishlash imkonini berdi.

Tadqiqot bir qator cheklovlarni ham aniqlab berdi[10]. Birinchidan, modelning to‘liq qo‘llanilishi uchun kuchli raqamli infratuzilma va yuqori tezlikdagi internet talab etiladi, bu esa barcha universitetlarda mavjud emas. Ikkinchidan, ma’lumotlar maxfiyligi va etikasi masalasi alohida diqqatni talab qiladi. Uchinchidan, o‘qituvchilar va talabalarning yangi texnologiyalarga moslashish muddati o‘rtacha 6–8 haftani tashkil etdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim muassasalariga sun’iy intellekt asosidagi kompetensiya boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish. Milliy ta’lim standartlarini xalqaro kompetensiya ramkalari (EQF, ESCO) bilan integratsiyalash. O‘qituvchilarni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha tizimli qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish. Talabalar ma'lumotlarini himoya qiluvchi etik ko’rsatmalar va huquqiy bazani mustahkamlash. Universitetlar va ish beruvchilar o‘rtasida real vaqtda kompetensiya ma’lumotlari almashinuvi platformasini yaratish. Kelajakdagi tadqiqotlar modelni kengroq namunalarda sinab ko‘rish, turli ixtisosliklar va mintaqaviy kontekstlardagi samaradorligini o‘lchash hamda tizimning etik jihatlarini chuqurroq o‘rganishga yo‘naltiriladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g’risidagi Farmoni. PF-60. Toshkent, 2022.

2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2022). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign. Boston.

3. Luckin, R. (2023). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL Institute of Education Press. London.

4. ESCO Framework (2024). European Skills, Competences, Qualifications and Occupations. European Commission. Brussels.

5. Siemens, G., & Long, P. (2021). Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. Educause Review, 56(4), 30-40.

6. UNESCO (2023). AI Competency Framework for Teachers. UNESCO Publishing. Paris.

7. Aliyev, S., & Karimov, B. (2024). Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini oshirish: tajriba va istiqbollar. Ta'lim va fan jurnali. 3(18), 45–62.

8. Bates, A. W. (2023). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. BCcampus Open Education. Vancouver.

9. World Economic Forum (2024). Future of Jobs Report 2024. WEF. Geneva.

10. Cope, B., & Kalantzis, M. (2022). A Little History of the Future of Education. University of Illinois Press.

11. Turaev S.J. Povyshenie kachestva professionalnoy deyatelnosti studentov s privlecheniem k nauchnomu proektu. XII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Innovatsiya v texnologiyax i obrazovanie», 21-22 mart 2019 g Filial KuzGTU v g. Belovo. Belovo: Izd-vo filiala KuzGTU v g. Belovo, Rossiya; 2019. Ch. 4. S. 240-242.

12. S.L.Ibragimov. Talabalarda matematik modellashtirish usuli yordamida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishning psixologik pedagogik asoslari. Ta’lim, fan va innovatsiya (ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal) Toshkent, 2019. № 4, B. 112-115.

13. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. Москва: Азбуковник, 2006. - 944 с.

14. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Москва: Педагогика, 1986. -240 с.

15. Пологрудов В. А. Вопросы методики преподавания физики в ВУЗе. Кемерово. КГУ, 1979. - 122 с.

16. Советский энциклопедический словарь. А. М. Прохоров. Москва: Советская энциклопедия, 1981. - 1600 с.

17. Ismoilov D.M. Methods of scientific knowledge and research in the content of secondary educations on physics - European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020.

O‘QITUVCHILARDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI, TAMOYILLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xaydarov Xurshid Ismatovich,
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
xurshidxaydarov310@gmail.com

Ushbu maqolada o‘qituvchilarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, asosiy tamoyillari va pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilinadi. Tizimli, kompetentlik, faoliyatga asoslangan, refleksiv va konstruktivistik metodologik yondashuvlarning ushbu ko‘nikmani rivojlantirishdagi roli ko‘rsatiladi. Ko‘nikmani rivojlantirishning o‘nta asosiy tamoyili va yettita pedagogik shart-sharoiti nazariy jihatdan asoslanib, eksperimental tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Kalit so‘zlar: *metodologik yondashuv, tizimli yondashuv, kompetentlik yondashuvi, refleksiv yondashuv, konstruktivizm, tamoyil, pedagogik shart-sharoit, muammoli vaziyat, modellashtirish ko‘nikmasi.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ, ПРИНЦИПЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УЧИТЕЛЕЙ ПО МОДЕЛИРОВАНИЮ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ

В данной статье научно обоснованным образом анализируются методологические подходы, основные принципы и педагогические условия развития у учителей навыка моделирования проблемных ситуаций. Показана роль систематического, компетентностного, деятельностного, рефлексивного и конструктивистского методологических подходов в развитии этого навыка. Теоретически обоснованы и экспериментально проверены десять основных принципов и семь педагогических условий развития навыка.

Ключевые слова: *методологический подход, систематический подход, компетентностный подход, рефлексивный подход, конструктивизм, принцип, педагогические условия, проблемная ситуация, навык моделирования.*

METHODOLOGICAL APPROACHES, PRINCIPLES AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING TEACHERS' SKILLS OF MODELING PROBLEM SITUATIONS

This article provides a scientifically grounded analysis of the methodological approaches, core principles, and pedagogical conditions for developing problem situation modeling skills in teachers. The roles of systemic, competency-based, activity-based, reflective, and constructivist methodological approaches are demonstrated. Ten core principles and seven pedagogical conditions for skill development are theoretically substantiated and experimentally verified.

Keywords: *methodological approach, systemic approach, competency-based approach, reflective approach, constructivism, principle, pedagogical condition, problem situation, modeling skill.*

Kirish. Ilmiy tadqiqotning metodologik asosini aniqlash – har qanday ilmiy izlanishning bosh sharti hisoblanadi. Metodologiya (yunoncha: methodos – yo‘l, logos – ta’limot) fan sifatida tadqiqotning nazariy-amaliy asoslarini, bilish usullarini va maqsadga erishish yo‘llarini belgilaydi [1]. Pedagogika fanida metodologik yondashuvlar tadqiqot ob’ektini qanday ko‘rish (ontologik pozitsiya), uni qanday o‘rganish (epistemologik pozitsiya) va natijalardan qanday foydalanish (aksiologik pozitsiya) kabi uchta asosiy masalani hal etadi.

O‘qituvchilarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish – murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, uni birgina metodologik yondashuv doirasida to‘liq qamrab bo‘lmaydi. Mazkur tadqiqotda polimetodologik (ko‘p yondashuvli) strategiya qo‘llanilib, turli metodologik yondashuvlarning bir-birini to‘ldirishga asoslanadi [2, 3].

Maqolaning maqsadi: o‘qituvchilarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodologik yondashuvlarini, asosiy tamoyillarini va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash hamda ularning samaradorligini eksperimental tekshirish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, birinchi marta muammoli vaziyatlarni modellashtirish koʻnikmasini rivojlantirish uchun maxsus metodologik koʻp qavatli model (multi-layer methodological model) taklif etilmoqda. Bu model uchta qatlamdan — yondashuvlar, tamoyillar va shart-sharoitlardan — iborat boʻlib, ular oʻzaro funksional bogʻliqlikda koʻrib chiqiladi.

Metodologik yondashuvlar pedagogikada turlicha tasniflangan. E.G. Yudin (1978) metodologiyaning toʻrt darajasini ajratdi: falsafiy, umumilmiy, xususiy-ilmiy va texnologik [4]. V.I. Zagvyazinskiy (2001) pedagogik tadqiqotda metodologik yondashuvlarni tizimli, shaxsga yoʻnaltirilgan, faoliyatga asoslangan va aksiologik guruhlarga boʻldi [5].

Kompetentlik yondashuvi sohasida Xutorskoy A.V. (2002), Zimnyaya I.A. (2004), Sehr va Weinert (2001) fundamental ishlar yaratdi. Ular kompetentlikni bilim, koʻnikma va munosabatning yaxlit tizimi sifatida belgiladilar [6, 7]. Refleksiv yondashuv nuqtai nazaridan D. Schön (1983) «amaliyotda refleksiya» va «amaliyot haqida refleksiya» tushunchalarini farqlab, professional rivojlanishda refleksiyaning markaziy rolini isbotladi [8].

Konstruktivistik metodologiya asosida J. Piaje (1952), L.S. Vigotskiy (1978) va J. Bruner (1960) ishlari turadi. Piajening «assimilyatsiya-akkomodatsiya» mexanizmi, Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» va Brunerning «kashfiyot orqali oʻqitish» (discovery learning) konsepsiyasi muammoli vaziyat orqali koʻnikmalarni rivojlantirishning kognitiv asoslarini belgilaydi [9, 10, 11].

Pedagogik tamoyillar nazariyasi sohasida Ya.A. Komenskiy, I.G. Pestalotssi, K.D. Ushinskiy, Yu.K. Babanskiy, M.N. Skatkin klassik asarlar qoldirgan. Zamonaviy pedagogikada tamoyillar tizimi dinamik tarzda rivojlanib, yangi (kontekstualizatsiya, hamkorlik, metakognitivlik) tamoyillar bilan boyib bormoqda [12, 13].

Pedagogik shart-sharoitlar masalasi Yu.K. Babanskiy, V.I. Andreev, N.M. Borytko asarlarida batafsil koʻrib chiqilgan. V.I. Andreev (2006) pedagogik shart-sharoitlarni zaruriy (necessary) va yetarli (sufficient) turlarga ajratib, ularning maqsadga erishishdagi rolini aniq belgilagan [14]. Oʻzbek pedagogikasida esa M. Xoliqov, B. Ziyomuxamedov, N. Muslimov pedagogik shart-sharoitlar masalasini kasbiy ta’lim kontekstida tadqiq etgan [15].

Muammoli vaziyatlarni modellashtirish koʻnikmasini rivojlantirishda beshta asosiy metodologik yondashuv birgalikda qoʻllaniladi. Ularning har biri tadqiqotning muayyan jihatini chuqur ochishga imkon beradi.

1-jadval. Koʻnikmani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari

Yondashuv	Asosiy gʻoya	Koʻnikmaga tatbiqi	Asosiy vakillari
Tizimli	Koʻnikma — tizim elementlari oʻzaro ta’sirida shakllanadi	Komponentlar (motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv) tizimda koʻrib chiqiladi	Bertalanffy, Yudin, Blauberg
Kompetentlik	Koʻnikma — kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi	Rivojlanish mezonlari kasbiy standart asosida belgilanadi	Xutorskoy, Zimnyaya, Weinert
Faoliyatga asoslangan	Koʻnikma faol amaliyotda shakllanadi	Modellashtirish faoliyati orqali koʻnikma rivojlanadi	Vigotskiy, Leontiev, Davydov
Refleksiv	Amaliyotni anglash — rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi	Har bir modellashtirish tajribasi refleksiya orqali tahlil qilinadi	Schön, Kolb, Mezirow
Konstruktivistik	Bilim va koʻnikma aktiv quriladi, tayyor holda oʻzlashtirilmaydi	Oʻqituvchi oʻz modellashtirish tajribasini mustaqil quradi	Piaje, Bruner, Von Glasersfeld

Tizimli yondashuv (systems approach) L. fon Bertalanffyning «umumiy tizimlar nazariyasi» va E.G. Yudinning metodologik kontseptsiyasiga asoslanadi. Bu yondashuvga koʻra, muammoli vaziyatlarni modellashtirish koʻnikmasi — alohida koʻnikma emas, balki oʻqituvchining kasbiy kompetentligi tizimining organik qismi hisoblanadi. Shuning uchun uni rivojlantirish ham tizimli tarzda — boshqa kompetentliklar bilan oʻzaro bogʻliqlikda amalga oshirilishi lozim [4].

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan koʻnikmaning tarkibiy tizimi quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi: kiruvchi element (oʻqituvchining oldingi tajribasi, bilim zaxirasi), jarayon elementlari (modellashtirish

amaliyoti, refleksiya, tuzatish), chiquvchi element (shakllangan ko‘nikma, kasbiy mahorat) va teskari aloqa mexanizmi (baholash, monitoring). Ushbu tizimda biron elementning zaifligi butun tizim samaradorligini pasaytiradi.

Kompetentlik yondashuvi (competency-based approach) kasbiy ta’limda natijaga yo‘naltirilgan paradigma sifatida ishlatiladi. I.A. Zimnyaya kompetentlikni «motivatsion, kognitiv, operatsional va refleksiv komponentlarning yaxlit birligi» deb ta’riflaydi [7]. Ushbu yondashuvda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasi «o‘qituvchi kasbiy kompetentligi profili»ning alohida deskriptori sifatida belgilanadi. Kompetentlik yondashuvi asosida ko‘nikmani rivojlantirish uchta bosqichni qamrab oladi: birinchi — diagnostik bosqich (boshlang‘ich kompetentlik darajasini aniqlash), ikkinchi — formativ bosqich (ko‘nikmani amaliyotda shakllantirish), uchinchi — summativ bosqich (kasbiy standartga muvofiqlikni baholash). Har bir bosqich uchun aniq mezonlar va o‘lchov vositalari ishlab chiqiladi [6, 7].

Faoliyatga asoslangan yondashuv (activity-based approach) L.S. Vigotskiy va A.N. Leontievning faoliyat nazariyasiga asoslanadi. Leontiev faoliyat tuzilmasini uchta darajada ko‘rib chiqadi: faoliyat (maqsadga yo‘naltirilgan), harakat (muayyan vazifani bajarishga yo‘naltirilgan) va operatsiya (avtomatlashgan ko‘nikma). Muammoli vaziyatlarni modellashtirish dastlab ongli harakat sifatida boshlanib, keyinchalik kasbiy operatsiyaga aylanib borishi lozim [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Bu yondashuv asosida o‘qituvchi ko‘nikmasini rivojlantirish amaliy faoliyat sikllari orqali amalga oshiriladi: rejalashtirish → amalga oshirish → kuzatish → tahlil qilish → tuzatish. Kolb (1984)ning «tajribaviy o‘qish sikli» (experiential learning cycle) ham shu nazariy asosga qurilgan: konkret tajriba → refleksiv kuzatuv → abstrakt kontseptualizatsiya → faol tajriba [16].

Refleksiv yondashuv (reflective approach) D. Schönning «refleksiv amaliyotchi» (reflective practitioner) modeliga asoslanadi. Schön (1983) ikkita refleksiya turini farqlaydi: «amaliyotda refleksiya» (reflection-in-action) — dars jarayonida oniy refleksiya; «amaliyot haqida refleksiya» (reflection-on-action) — darsdan keyin analitik refleksiya [8].

Ko‘nikmani rivojlantirishda refleksiv yondashuv quyidagi amaliy vositalar orqali amalga oshiriladi: refleksiv kundalik (reflective journal), videoyozuv va o‘z-o‘zini tahlil qilish, hamkasb kuzatuvi va fikr almashish (peer observation), nazoratchi rahbarlik ko‘magida refleksiya (supervised reflection). Tadqiqotimiz ko‘rsatdiki, refleksiv kundalik yuritgan o‘qituvchilarda ko‘nikma rivojlanishi nazorat guruhiga nisbatan 2.3 baravar tezroq amalga oshdi.

Konstruktivistik yondashuv (constructivist approach) bilim va ko‘nikmalarning tayyor holda o‘zlashtirilmasligini, balki o‘qituvchi tomonidan aktiv ravishda qurilishini ta’kidlaydi. Ijtimoiy konstruktivizm asosida ta’kidlaydiki, ko‘nikmalar ijtimoiy muloqot va hamkorlik jarayonida eng samarali shakllanadi [17].

Konstruktivistik yondashuv muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishda «amaliyot jamoalari konsepsiyasi bilan birlashtirilganda ayniqsa samarali bo‘ladi. O‘qituvchilar guruhida birgalikda muammoli vaziyatlar loyihalash, ularni muhokama qilish va tanqidiy baholash — konstruktivistik ta’limning namunaviy misoli hisoblanadi [18].

Ko‘nikmani rivojlantirish jarayoni o‘nta asosiy tamoyilga asoslanadi. Bu tamoyillar pedagogika fanining klassik tamoyillaridan farqli o‘laroq, maxsus ravishda muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishga mo‘ljallangan. Ularning har biri muayyan metodologik yondashuvdan kelib chiqadi.

2-jadval. Ko‘nikmani rivojlantirishning asosiy tamoyillari tizimi

№	Tamoyil	Mazmuni	Metodologik asosi
1	Tizimlilik tamoyili	Ko‘nikmani barcha komponentlari yaxlit holda rivojlantiriladi	Tizimli yondashuv
2	Ketma-ketlik tamoyili	Oddiydan murakkabga — bosqichma-bosqich rivojlantirish	Faoliyat nazariyasi
3	Kontekstualizatsiya tamoyili	Ko‘nikma real kasbiy kontekstda rivojlantiriladi	Konstruktivizm, situatsion ta’lim
4	Refleksivlik tamoyili	Har bir amaliyot refleksiya orqali anglanadi	Refleksiv yondashuv
5	Individualizatsiya tamoyili	Rivojlantirish har bir o‘qituvchi xususiyatiga moslanadi	Kompetentlik yondashuvi

6	Hamkorlik tamoyili	Koʻnikma ijtimoiy muloqot va birgalikda ishlashda rivojlanadi	Ijtimoiy konstruktivizm
7	Faollik tamoyili	Oʻqituvchi rivojlanish jarayonida faol sub’ekt sifatida qatnashadi	Faoliyatga asoslangan yondashuv
8	Metakognitivlik tamoyili	Oʻqituvchi oʻz bilish jarayonini boshqara olishini rivojlantiradi	Kognitiv psixologiya
9	Uzluksizlik tamoyili	Koʻnikma bir martalik trening emas, uzluksiz rivojlanish orqali oshiriladi	Professional rivojlanish nazariyasi
10	Natijaviylik tamoyili	Rivojlanish oʻquvchi bilim sifati va kognitiv faolligi bilan oʻlchanadi	Kompetentlik yondashuvi

Olingan natijalar va ularning tahlili. Jadvalda keltirilgan oʻnta tamoyil bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ular «tamoyillar tizimi» (system of principles) sifatida koʻrib chiqiladi. Biron tamoyilning e’tibordan chetda qolishi butun jarayonning samaradorligini pasaytiradi. Masalan, refleksivlik tamoyilisiz faollik tamoyili amaldagi natijalari jihatdan yuzaki boʻlib qoladi; individualizatsiya tamoyilisiz ketma-ketlik tamoyili barcha oʻqituvchilarga bir xil dastur taqdim etib, samaradorlikni cheklaydi.

Ayniqsa diqqatga sazovor tamoyil — metakognitivlik tamoyilidir. Flavel (1979) metakognitsiyani «oʻz bilish jarayonini bilish va boshqarish» sifatida ta’riflagan [19]. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish koʻnikmasida metakognitivlik shunday namoyon boʻladi: oʻqituvchi modellashtirayotganda bir vaqtning oʻzida «nima qilyapman?», «nima uchun?», «qanday samaraliroq qilish mumkin?» degan savollarni oʻz-oʻziga beradi va shu asosda amaliyotini boshqaradi.

Pedagogik shart-sharoit (pedagogical condition) — bu koʻnikmani rivojlantirish muvaffaqiyatini ta’minlovchi zaruriy va yetarli pedagogik omillar majmui [14]. Tadqiqot asosida oʻqituvchilarda muammoli vaziyatlarni modellashtirish koʻnikmasini rivojlantirishning yettita asosiy pedagogik shart-sharoiti aniqlandi.

Oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanish muhiti oʻzi ham «muammoli» boʻlishi lozim — ya’ni oʻqituvchilarni intellektual izlanishga, tajriba almashishga va yangi yechimlar izlashga undovchi muhit. Bunda «psixologik xavfsizlik» (psychological safety, Edmondson 1999) tamoyili asosiy rol oʻynaydi: oʻqituvchi xato qilishdan qoʻrqmay, yangi pedagogik gʻoyalarni sinab koʻrishi uchun sharoit yaratilishi zarur [20].

Amaliy mexanizm: Maktabda «pedagogik laboratoriya» tashkil etish, bunda oʻqituvchilar haftasiga kamida bir marta muammoli darslar loyihasini birgalikda muhokama qiladilar. Moderator rolini tajribali yoki maxsus oʻqitilgan oʻqituvchi bajaradi.

Koʻnikmani rivojlantirish bitta intensiv kurs bilan cheklanmasligi, balki bosqichli amaliyot tizimida amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot asosida uchta bosqich aniqlandi:

I bosqich — «namunaviy modellashtirish» (3-4 hafta): oʻqituvchi tayyorlangan namuna muammoli vaziyatlarni oʻrganadi, tahlil qiladi va oʻz fani boʻyicha moslaydi;

II bosqich — «hamkorlikda modellashtirish» (6-8 hafta): juft yoki uchlikda birgalikda muammoli vaziyat loyihalaydi va amalga oshiradi, soʻng kollegial refleksiya oʻtkazadi;

III bosqich — «mustaqil modellashtirish» (8-10 hafta): oʻqituvchi mustaqil ravishda oʻz fani va sinf darajasiga mos muammoli vaziyatlar tizimini yaratadi va amaliyotda sinab koʻradi.

Refleksiya vositalari tizimi quyidagi toʻrtta elementdan iborat boʻlishi lozim:

1. Refleksiv kundalik (reflective journal) — oʻqituvchi har hafta amalga oshirgan muammoli vaziyatni DART modeli asosida yozib boradi;

2. Videotahlil texnologiyasi — oʻqituvchi oʻz darsini videoga oladi, soʻng maxsus rubrika asosida oʻz-oʻzini tahlil qiladi;

3. Hamkasb kuzatuvi (peer observation) — juft oʻqituvchilar bir-birining darsini kuzatib, belgilangan mezonlar asosida fikr-mulohaza bildiradi;

4. Mentoring suhbati — tajribali mentor oʻqituvchi bilan har oyda kamida ikkita chuqur suhbat oʻtkaziladi.

Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda quyidagi raqamli vositalar samarali deb topildi:

5. Muammoli vaziyatlar elektron bank (case database) — fanning turi, sinf darajasi, muammo turi bo‘yicha tasniflanган 500 dan ortiq muammoli vaziyat namunalari bazasi;

6. Video-model kutubxonasi — malakali o‘qituvchilarning muammoli darslarining annotatsiyalangan videoyozuvlari;

7. Onlayn hamkorlik platformasi — o‘qituvchilar muammoli vaziyat loyihalarini ulashib, bir-biriga fikr-mulohaza bildira oladigan raqamli maydon;

8. AI-yordamchi vositalar — sun’iy intellekt asosida muammoli vaziyat variantlarini generatsiya qilish va tahlil qilish imkoniyati.

Ko‘nikmani rivojlantirishning muhim shart-sharoiti — o‘qituvchining ichki va tashqi motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash. o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga (Self-Determination Theory) ko‘ra, ichki motivatsiya uchta asosiy ehtiyojni qondirishga bog‘liq: muxtoriyat (autonomy), kompetentlik (competence) va tegishlilik (relatedness) [21].

Amaliy mexanizmlar: muammoli modellashtirish bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatgan o‘qituvchilarni rasman tan olish (sertifikat, unvon); ularning tajribasini boshqalarga o‘rgatishga jalb etish (mentor, trener rolida); kasbiy rivojlanish portfelida mazkur ko‘nikmani alohida mezon sifatida qayd etish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi kasbiy rivojlanishida maktab direktori va o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining pedagogik liderlik faoliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi [22]. Muammoli modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun rahbariyat tomonidan quyidagi harakatlar zarur:

9. Maktab rivojlanish rejasida muammoli ta’lim metodologiyasini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash;

10. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish faoliyatini dars jadvali va ish yuklamasi hisobida inobatga olish;

11. Muammoli darslarni kuzatish va konstruktiv fikr-mulohaza berish madaniyatini maktabda joriy etish;

12. Metodik birlashma rahbarlarini muammoli ta’lim bo‘yicha maxsus o‘qitish va ularga resurs hamda vakolat berish.

Ko‘nikmani rivojlantirish jarayonida uzluksiz monitoring (formativ baholash) tizimi bo‘lmasa, jarayon samarali kechmaydi. Monitoring tizimi ikkita darajada amalga oshiriladi:

Mikro-daraja (individual monitoring): har bir o‘qituvchining rivojlanish dinamikasi «kompetentlik xaritasi» (competency map) orqali kuzatiladi. Xarita oy sayin yangilanib, o‘qituvchiga va mentorga ko‘nikmaning qaysi komponenti rivojlangan, qaysi qismga ko‘proq e’tibor kerakligini ko‘rsatib beradi.

Makro-daraja (tashkiliy monitoring): maktab darajasida o‘qituvchilar jamoasining muammoli ta’lim amaliyoti umumlashtiriladi, yaxshi tajribalar ommalashtirilib, tizimli muammolar pedagogik kengash darajasida hal etiladi.

3-jadval. Pedagogik shart-sharoitlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari

№	Shart-sharoit	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ul subyekt
1	Muammoga asoslangan muhit	Pedagogik laboratoriya tashkil etish	Maktab rahbariyati, metodik xizmat
2	Bosqichli amaliyot tizimi	Uch bosqichli trening dasturi (21-22 hafta)	Metodik rahbar, mentor
3	Refleksiv amaliyot vositalari	Kundalik, videotahlil, hamkasb kuzatuvi, mentoring	O‘qituvchi, mentor, metodik rahbar
4	Raqamli resurs bazasi	Elektron case-bank, video-kutubxona, onlayn platforma	IT-xizmat, metodik markaz
5	Motivatsion tizim	Tan olish, mentor roli, portfolio	Maktab rahbariyati, vazirlik
6	Pedagogik liderlik	Rejalashtirish, kuzatuv, resurs, vakolat berish	Maktab direktori, o‘quv direktori
7	Uzluksiz monitoring	Kompetentlik xaritasi, individual va tashkiliy monitoring	Metodik rahbar, ma’muriyat

Taklif etilgan yetti shart-sharoitni amalga oshirishning samaradorligini tekshirish maqsadida 2024-2025 o‘quv yilida Toshkent va Samarqand viloyatlarida eksperimental tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot uch guruhli dizayn asosida amalga oshirildi:

— Nazorat guruhi (NG, n=40): an’anaviy malaka oshirish dasturi;

— Qisman eksperimental guruh (QEG, n=40): faqat 3 ta shart-sharoit (1, 2, 3) amalga oshirildi;

— To‘liq eksperimental guruh (TEG, n=40): barcha 7 ta shart-sharoit tizimli amalga oshirildi.

4-jadval. Uch guruhda ko‘nikmani rivojlantirish natijalari taqqoslashi

Ko‘rsatkich	NG (1)	NG (2)	QEG (1)	QEG (2)	TEG (1)	TEG (2)
Modellashtirish mahorati (10 ball)	3.9	4.3	4.1	6.4	4.0	8.3*
Refleksiv tafakkur darajasi (10 ball)	3.7	4.0	3.8	6.1	3.9	8.0*
Metodik loyihalash sifati (10 ball)	4.2	4.5	4.0	6.7	4.1	8.5*
O‘quvchi kognitiv faolligi (10 ball)	5.2	5.6	5.1	7.2	5.0	8.6*
O‘sish dinamikasi (%)	—	10.3	—	59.8	—	107.5*

Izoh: (1) — tadqiqot boshlang‘ich holati; (2) — tadqiqot oxiri; * — $p<0.01$ darajasida statistik ahamiyatli farq (Student t-testi).

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, barcha 7 ta shart-sharoit tizimli amalga oshirilgan to‘liq eksperimental guruhda o‘sish dinamikasi 107.5% ni tashkil etdi. Bu nazorat guruhiga (10.3%) nisbatan 10 baravar, qisman eksperimental guruhga (59.8%) nisbatan esa 1.8 baravar yuqoridir. Ushbu natija shart-sharoitlarning tizimli birgalikda qo‘llanilishi «sinergetik ta’sir» (synergistic effect) berishini eksperimental isbotlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar bir qator muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, metodologik yondashuvlar o‘zaro to‘ldiruvchi (complementary) tabiatga ega ekan: tizimli yondashuv ko‘nikmaning tarkibiy butunligini ta’minlasa, refleksiv yondashuv uning chuqurligini, konstruktivistik yondashuv esa o‘qituvchining sub’ektiv rolini kafolatlaydi. Birgina yondashuv bilan cheklanib qolish ko‘nikmaning rivojlanishini bir tomonlama qoldirishga olib keladi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijasi xulosalarini O‘zbekiston maktablari kontekstida tasdiqladi: refleksiv amaliyot va muammoga asoslangan o‘qitish samaradorligi universal xususiyatga ega bo‘lib, madaniy kontekstdan qat’i nazar ijobiy natija beradi. Shu bilan birga, mahalliy kontekst (jamoa uyg‘unligi, kattalar hurmatiga asoslangan munosabatlar) tizimni loyihalashda inobatga olinishi maqsadga muvofiq ekanligi ham ma’lum bo‘ldi.

Uchinchidan, tadqiqot «tizimli shart-sharoitlar» — ya’ni barcha 7 ta shart-sharoitning birgalikda amalga oshirilishi — alohida shart-sharoitlarning oddiy yig‘indisiga qaraganda sezilarli darajada (≈40%) yuqori natija berishini ko‘rsatdi. Bu «pedagogik sinergetika» nuqtai nazaridan muhim topilma hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy cheklovlari: namuna hajmi va geografiyasi; tadqiqot muddatining nisbatan qisqa (bir o‘quv yili) ekanligi; o‘qituvchi yoshi, ish tajribasi va fan turining ta’sirini batafsil tahlil qilish imkoniyatining cheklanganligi. Kelajakdagi tadqiqotlarda ko‘p yillik longitudinal monitoring, turli fan turlari kesimidagi taqqoslash va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya masalalari o‘rganilishi rejalashtirilgan.

Xulosa. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalar va ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari suradi:

Muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishda polimetodologik strategiya — beshta metodologik yondashuvning (tizimli, kompetentlik, faoliyatga asoslangan, refleksiv, konstruktivistik) tizimli birgalikda qo‘llanilishi — eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Ko‘nikmani rivojlantirish uchun o‘nta asosiy tamoyil (tizimlilik, ketma-ketlik, kontekstualizatsiya, refleksivlik, individualizatsiya, hamkorlik, faollik, metakognitivlik, uzluksizlik, natijaviylik) belgilandi. Bu tamoyillar «tamoyillar tizimi» sifatida — ya’ni bir-biri bilan funksional bog‘liqlikda — ko‘rib chiqilishi lozim. Yettita pedagogik shart-sharoit (muammoga asoslangan muhit, bosqichli amaliyot, refleksiv vositalar, raqamli resurs baza, motivatsion tizim, pedagogik liderlik, uzluksiz monitoring) aniqlandi va ularning tizimli

birgalikda amalga oshirilishi «pedagogik sinergetik ta’sir» berishi eksperimental isbotlandi (o‘sish dinamikasi 107.5%, $p<0.01$).

Adabiyotlar:

1. Загвязинский В.И. (2001). Методология и методы психолого-педагогическикҳ исследований. Москва: Академия.
2. Краевский В.В. (2006). Методология педагогики: новый этап. Москва: Академия.
3. Борытко Н.М. (2006). Методология и методы психолого-педагогических исследований. Москва: Академия.
4. Юдин Э.Г. (1978). Системный подход и принцип деятельности. Москва: Наука.
5. Загвязинский В.И., Атаханов Р. (2001). Методология и методы психолого-педагогическикҳ исследований. Москва: Академия.
6. Хуторской А.В. (2002). Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. // Народное образование, 2, 58–64.
7. Зимняя И.А. (2004). Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр.
8. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
11. Bruner, J. S. (1960). The Process of Education. Harvard University Press.
12. Skatkin M.N. (1984). Problemy sovremennoy didaktiki. Moskva: Pedagogika.
13. Бабанский Ю.К. (1989). Избранные педагогические труды. Москва: Педагогика.
14. Андреев В.И. (2006). Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. Казань: Центр инновационных технологий.
15. Muslimov N.A. (2007). Kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy shakllanishi. Toshkent: Fan.
16. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.
17. Bruffee, K. A. (1993). Collaborative Learning: Higher Education, Interdependence, and the Authority of Knowledge. Johns Hopkins University Press.
18. Wenger, E. (1998). Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. Cambridge University Press.
19. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. American Psychologist, 34(10), 906–911.
20. Edmondson, A. (1999). Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams. Administrative Science Quarterly, 44(2), 350–383.
21. Xaydarov X.I. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning intellektual faolligi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2025. – №3. – B. 141–144.
22. Usmanov B.I., Xaydarov X.I. O‘qituvchilarning malaka oshirish jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish texnologiyalari // Sun’iy intellekt va o‘qitishning zamonaviy an’analari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, 2025. – B. 341–343.

O‘SMIRLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SPORT PSIXOLOGIYASINING O‘RNI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich,
“Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi” davlat muassasasi“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur maqolada o‘smirlar ijtimoiy faolligini shakllantirishda sport psixologiyasining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, shaxsning ijtimoiylashuvi, sport faoliyatiga jalb etilish jarayonlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, sport mashg‘ulotlarining o‘smirlarda liderlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik, muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari, irodaviy sifatlar va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada sport psixologiyasining motivatsiyani shakllantirish, emotsional barqarorlikni ta’minlash, stress va tashvish holatlarini boshqarish hamda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishdagi imkoniyatlari ham tahlil etilgan. Oila, ta’lim muassasasi, murabbiy va sport psixologining o‘zaro hamkorligi o‘smirlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning muhim omili sifatida asoslangan. Tadqiqot natijalari sport psixologiyasi tamoyillarini ta’lim va sport amaliyotiga tizimli tatbiq etish o‘smirlarning ijtimoiy faolligini, fuqarolik mas’uliyatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishda kompleks psixologik tadqiqotlarni kengaytirish hamda innovatsion psixologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada sport psixologiyasining o‘smirlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli, psixologik omillar ta’siri, jismoniy faollikning ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqot sport mashg‘ulotlarining shaxs taraqqiyoti, ijtimoiy moslashuv, jamoada ishlash qobiliyati va motivatsiya jarayoniga ta’sirini tahlil etadi.

Kalit so‘zlar: *sport psixologiyasi, o‘smirlar, ijtimoiy faollik, shaxs rivoji, jamoaviylik, motivatsiya, jismoniy tarbiya, emotsional barqarorlik, psixologik moslashuv, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ ko‘nikmalar, sport faoliyati, maqsadga intilish, irodaviy sifatlar.*

THE ROLE OF SPORT PSYCHOLOGY IN FOSTERING SOCIAL ENGAGEMENT AMONG ADOLESCENTS

This article analyzes the role and significance of sports psychology in shaping the social engagement of adolescents from both scientific-theoretical and practical perspectives. It examines the psychological characteristics of adolescence, the process of individual socialization, and involvement in sports activities – as well as the interrelationships between them – based on modern psychological approaches. Furthermore, the article highlights the role of sports training in developing leadership, responsibility, initiative, communication skills, teamwork, willpower, and social competencies among adolescents. It also analyzes the potential of sports psychology to foster motivation, ensure emotional stability, manage stress and anxiety, and promote a healthy lifestyle. The collaboration among families, educational institutions, coaches, and sports psychologists is identified as a crucial factor in developing adolescents' social engagement. Research findings indicate that the systematic application of sports psychology principles in education and sports practice serves to enhance adolescents' social engagement, civic responsibility, self-confidence, and active participation in societal life. Expanding comprehensive psychological research in this area and implementing innovative psychological technologies in practice constitute one of the pressing scientific tasks.

This article examines the role of sports psychology in forming adolescents’ social activity, highlighting psychological factors and the impact of physical activity on social skill development. The study analyzes how sports training influences personality development, social adaptation, teamwork abilities, and motivation.

Keywords: *sports psychology, adolescents, social engagement, personal development, teamwork, motivation, physical education, emotional stability, psychological adaptation, social competence, communication skills, sports activity, goal orientation, volitional qualities.*

РОЛЬ СПОРТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ПОДРОСТКОВ

В данной статье анализируются роль и значение спортивной психологии в формировании социальной активности подростков как с научно-теоретической, так и с практической точек зрения. На основе современных психологических подходов рассматриваются психологические особенности подросткового возраста, процесс социализации личности и вовлечённость в спортивную деятельность, а также взаимосвязи между ними. Кроме того, в статье освещается роль спортивных занятий в развитии у подростков лидерских качеств, ответственности, инициативности, коммуникативных навыков, умения работать в команде, силы воли и социальных компетенций. Также анализируется потенциал спортивной психологии в формировании мотивации, обеспечении эмоциональной устойчивости, управлении стрессом и тревожностью, а также в продвижении здорового образа жизни. Сотрудничество семьи, образовательных учреждений, тренеров и спортивных психологов определяется как ключевой фактор развития социальной активности подростков. Результаты исследований свидетельствуют о том, что систематическое применение принципов спортивной психологии в образовательной и спортивной практике способствует повышению социальной активности, гражданской ответственности и уверенности в себе подростков, а также их активному участию в жизни общества. Расширение комплексных психологических исследований в данной области и внедрение инновационных психологических технологий в практику являются одной из актуальных научных задач.

В данной статье рассматривается роль спортивной психологии в формировании социальной активности подростков, анализируется влияние психологических факторов и физической активности на развитие социальных навыков. Исследование раскрывает воздействие спортивных тренировок на личностный рост, социальную адаптацию, командное взаимодействие и мотивацию.

Ключевые слова: *спортивная психология, подростки, социальная активность, личностное развитие, командная работа, мотивация, физическое воспитание, эмоциональная устойчивость, психологическая адаптация, социальная компетентность, коммуникативные навыки, спортивная деятельность, целеустремленность, волевые качества.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va dinamik bosqich bo‘lib, unda shaxsning psixologik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari jadallashadi. Mazkur jarayonda sport faoliyatining, ayniqsa sport psixologiyasining o‘rni beqiyosdir.

Chunki sporto‘smirga nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ijtimoiy moslashuv, muloqot, o‘zini namoyon qilish, tashabbus ko‘rsatish, maqsadga intilish kabi muhim ijtimoiy sifatlarni shakllantirish imkonini beradi. Sport jarayonida o‘smirlar jamoa bilan ishlash, bir-biri bilan muloqot qilish, raqobatga kirishish, o‘z yutuq va kamchiliklarini anglash, mas’uliyatni his qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, sport psixologiyasi ushbu jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish, o‘smirning ichki motivlarini rivojlantirish, hissiy barqarorligini ta’minlash va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim vosita sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda o‘smirlar orasida ijtimoiy passivlik, o‘ziga ishonchsizlik, muloqotdan qochish, ijtimoiy jarayonlarda yetarlicha ishtirok etmaslik kabi holatlar kuzatilayotgan bir paytda sport psixologiyasi bunday muammolarni oldini olish va ularni bartaraf qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan samarali yo‘nalish hisoblanadi. Sport mashg‘ulotlari davomida o‘smirlar o‘zlarining kuch-quvvatini to‘g‘ri yo‘naltirish, salbiy emotsiyalarni boshqarish, irodaviy sifatlarni namoyon etish, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni mustahkamlashga o‘rganadilar.

Shuningdek, sport ijtimoiy faollikni shakllantirishda motivatsion, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, psixologik moslashuv kabi omillarni uyg‘unlashtiradi. Shu bois ushbu maqolada sport psixologiyasining o‘smirlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi o‘rni, mazkur jarayonning psixologik mexanizmlari, sportning shaxs taraqqiyotiga ta’siri ilmiy nuqtai nazardan atroflicha yoritiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘smirlik davri inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, kasbiy qiziqishlari va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Aynan shu davrda sport faoliyati va sport psixologiyasi o‘smirning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sport psixologiyasi sportchilar va sport faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslarning ruhiy holati, motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, shaxsiy sifatlari hamda xulq-atvorini o‘rganuvchi psixologiya fanining muhim yo‘nalishidir. U sport natijalarini yaxshilash bilan bir qatorda o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari va liderlik fazilatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari

O‘smirlik davri taxminan 11–17 yosh oralig‘ini qamrab oladi. Ushbu davr quyidagi psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy "Men" konsepsiyasining shakllanishi;
- mustaqillikka intilishning kuchayishi;
- tengdoshlar bilan muloqotning ustuvor ahamiyat kasb etishi;
- emotsional sezgirlik va ta’sirchanlikning ortishi;
- o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga bo‘lgan ehtiyoj;
- jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish.

Mazkur xususiyatlar sport faoliyatida yanada samarali rivojlanishi mumkin, chunki sport o‘smirga o‘z salohiyatini namoyon qilish, jamoa bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy tajriba orttirish imkonini beradi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi

Ijtimoiy faollik – bu shaxsning jamiyat hayotida ongli, tashabbuskor va mas’uliyatli ishtirok etishi, ijtimoiy muammolarni hal etishga intilishi, jamoat ishlarida faol qatnashishi hamda jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga tayyorligidir.

O‘smirlarda ijtimoiy faollik quyidagi sifatlar orqali namoyon bo‘ladi:

- tashabbuskorlik;
- mas’uliyatlilik;
- ijtimoiy mas’uliyat hissi;
- liderlik;
- hamkorlik;
- muloqot madaniyati;
- fuqarolik pozitsiyasi;
- ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish.

Sport faoliyati aynan shu sifatlarni tabiiy ravishda rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy institutlardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Sport psixologiyasi o‘smirlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Musobaqalarda qatnashish, shaxsiy rekordlarga erishish va jamoa manfaatini himoya qilish o‘smirni maqsad sari intilishga undaydi.

Liderlik sifatlarini rivojlantirish

Jamoaviy sport turlarida har bir ishtirokchi muayyan vazifani bajaradi. Bunday faoliyat liderlik, mas’uliyat va boshqaruv ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish

Sport mashg‘ulotlari davomida o‘smir murabbiy, jamoadoshlar, hakamlar va raqiblar bilan muntazam muloqot qiladi. Natijada:

- fikr almashish;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish;
- o‘z fikrini asoslab bera olish;
- boshqalarning fikrini hurmat qilish

kabi muhim kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi.

Emotsional barqarorlikni shakllantirish

Sport psixologiyasi quyidagi ruhiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- stressni boshqarish;
- musobaqa hayajonini nazorat qilish;
- muvaffaqiyatsizlikni to‘g‘ri qabul qilish;
- o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash;
- ruhiy chidamlilikni oshirish.

Bu sifatlar nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport orqali shakllanadigan ijtimoiy kompetensiyalar

Sport faoliyati natijasida o‘smirlarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- jamoada ishlash ko‘nikmasi;
- vaqtni boshqarish;

- mas’uliyat hissi;
- qaror qabul qilish qobiliyati;
- muammolarni hal qilish;
- tanqidni to‘g‘ri qabul qilish;
- g‘alaba va mag‘lubiyatga nisbatan sog‘lom munosabat;
- ijtimoiy moslashuv;
- bag‘rikenglik va hamjihatlik.

Sport psixologiyasining profilaktik ahamiyati

Sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘smirlar orasida quyidagi salbiy holatlarning uchrash ehtimoli kamayadi:

- deviant xulq-atvor;
- agressivlik;
- internet va o‘yinlarga qaramlik;
- zararli odatlarga moyillik;
- yolg‘izlik hissi;
- ijtimoiy passivlik.

Sport mashg‘ulotlari o‘smirning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etadi va uni sog‘lom ijtimoiy muhitga jalb qiladi.

Murabbiy va sport psixologining roli

Murabbiy nafaqat sport texnikasini o‘rgatuvchi mutaxassis, balki tarbiyachi hamdir. U:

- sportchining motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi;
- ijobiy psixologik muhit yaratadi;
- individual yondashuvni amalga oshiradi;
- o‘zaro hurmat va intizomni shakllantiradi.

Sport psixologi esa:

- psixologik diagnostika o‘tkazadi;
- stressni boshqarish usullarini o‘rgatadi;
- motivatsiyani rivojlantiradi;
- kommunikativ treninglar tashkil etadi;
- musobaqaga psixologik tayyorlaydi;
- sportchining ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Oila va ta’lim muassasasining hamkorligi

O‘smirning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda oila, maktab va sport tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar:

- sportga qiziqishni rag‘batlantirishi;
- farzandining yutuqlarini e’tirof etishi;
- sog‘lom turmush tarziga namuna bo‘lishi zarur.

Ta’lim muassasalari esa:

- sport to‘garaklarini kengaytirishi;
- psixologik treninglarni yo‘lga qo‘yishi;
- sport musobaqalarini muntazam tashkil etishi;
- ijtimoiy loyihalarda sport elementlaridan samarali foydalanishi lozim.

Zamonaviy sport psixologiyasining innovatsion yo‘nalishlari

Hozirgi kunda sport psixologiyasida quyidagi innovatsion texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

- virtual reallik (VR) asosidagi psixologik tayyorgarlik;
- biofeedback texnologiyalari;
- sun’iy intellekt asosidagi psixologik monitoring;
- mobil psixologik trening ilovalari;
- onlayn psixologik maslahat platformalari;
- emotsional intellektni rivojlantirish dasturlari.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Sport psixologiyasi o‘smirlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojiga ta’sir etuvchi psixologik, emotsional, motivatsion jarayonlarni o‘rganadigan muhim yo‘nalishdir.

O‘smirlik davri shaxsning ichki dunyosida katta o‘zgarishlar ro‘y beradigan, o‘zlikni anglash, o‘z o‘rnini topish va jamiyatda faol ishtirok etish ehtiyojining ortishi bilan kechadigan bosqichdir. Bunday jarayonda sport faoliyati va uning psixologik ta’siri jamiyatda faol, tashabbuskor, o‘z fikriga ega yoshlarni tarbiyalashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Sport mashg‘ulotlari davomida o‘smirlar o‘ziga

nisbatan ishonchni mustahkamlash, jamoada ishlash, raqobatgato‘g‘ri munosabatda bo‘lish, muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng tiklanish, stressga chidamlilikni oshirish kabi ko‘plab psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda sport psixologining o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchi sportchilarda motivatsiyani shakllantirish, emotsional holatni boshqarish, psixologik muvozanatni ta’minlash, musobaqa oldi hayajonini yengish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi jarayonlarni rivojlantiradi.

O‘smirlarning ijtimoiy faolligi ko‘pincha ular o‘zini qanchalik anglagani, jamiyatga qo‘shilish ehtiyoji va kommunikativ imkoniyatlariga bog‘liq. Sport aynan shu omillarni birlashtiruvchi maydon sifatida xizmat qiladi. Jamoaviy sport turlari o‘smirlarning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, ular o‘zaro yordam, hamkorlik, bir-biriga ishonch kabi sifatlarni o‘zlashtiradi. Individual sport turlari esa o‘z ustida ishlash, o‘zini boshqarish, maqsadga intilish, sabr-toqat va iroda kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi.

Har ikkala holatda ham sport psixologiyasi ushbu jarayonlarni boshqarish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sportda muntazam ishtirok etuvchi o‘smirlar ijtimoiy faollik jihatidan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ular jamoatchilik tadbirlarida faol, muloqotchan va tashabbuskor bo‘ladilar.

Sport o‘smirning faqat jismoniy emas, balki psixik salomatligini mustahkamlaydi, ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi, stressni kamaytiradi, konfliktlarni yengish va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sport psixologiyasi o‘smirlarni ijtimoiy faol bo‘lishga undovchi ichki motivlarni shakllantiradi. Masalan, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji, jamoaga mansublik, ijobiy bahoga intilish, o‘z ustida ishlash, maqsadlarga erishish kabi motivlar o‘smirlik davrida juda kuchli bo‘ladi. Sport ana shu motivlarni to‘g‘ri yo‘naltirib, shaxs rivojiga xizmat qila oladi. Shu tariqa, sport psixologiyasi o‘smirning ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim, ko‘p qirrali va samarali yo‘nalish hisoblanadi.

Taklif. O‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun sport psixologiyasi tamoyillariga asoslangan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Maktab va sport tashkilotlarida psixologik treninglar, motivatsion mashg‘ulotlar, stressni boshqarishbo‘yicha seminarlar tashkil etilishi, trenerlarning psixologik kompetensiyasini oshirish zarur. Sport mashg‘ulotlarida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodikalar qo‘llanishi o‘smirlarning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, sport psixologiyasi o‘smirlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim va samarali vosita sifatida e’tirof etilishi mumkin.

O‘smirlik davri shaxs taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda sport faoliyati orqali o‘smirning ichki dunyosi, o‘ziga ishonchi, hissiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko‘nikmalari shakllanadi. Sport nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki o‘smirning jamoadagi o‘rni, tashabbuskorligi, o‘zini namoyon qila olish qobiliyati, maqsad sari intilishi kabi sifatlarni rivojlantiradi. Mazkur jarayonda sport psixologiyasining ilmiy asoslangan metodlari o‘smirlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi, ularning emotsional barqarorligini oshiradi va ijtimoiy faollikka undaydi. Sport jamoasi o‘smir uchun ijtimoiy maktab vazifasini bajarib, unda hamkorlik, o‘zaro yordam, muloqot, mas’uliyat, liderlik kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish esa sport psixologiyasi orqali ta’minlanadi.

Shu bois o‘smirlar bilan olib boriladigan sport faoliyatida psixologik yondashuvni kuchaytirish, trenerlarning psixologik savodxonligini oshirish, o‘smirlarning motivatsiya va psixologik ehtiyojlariga mos metodikalar ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi. Sport psixologiyasiga asoslangan tizimli yondashuv yosh avlodning sog‘lom, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, maqsadga intiluvchan shaxslar bo‘lib kamol topishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Matveyev L.P. Sport trenirovkasi nazariyasi. Moskva: Fizkultura i sport, 2014. – 288 b.
2. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. Human Kinetics, 2018. – 744 p.
3. Karimova V. Yosh psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati, 2017. – 320 b.
4. Horn T. Advances in Sport Psychology. Human Kinetics, 2016. – 512 p.
5. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 390 b.
6. Roberts G.C. Motivation in Sport and Exercise. Champaign: Human Kinetics, 2012. – 460 p.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 6-son (129)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.06.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.06.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.